




O.HAMRAQULOV,  
SH.MAGDIYEV

# AVTOMOBILLARNING TEXNIK EKSPLOUATATSİYASI



30.82  
H-25

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O.HAMRAQULOV,  
SH.MAGDIYEV

AVTOMOBILLARNING  
TEXNIK  
EKSPLOATATSIIYASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan (UDK 629.113 - Transport vositalarining texnik  
ekspluatatsiyasi) bakalavriat ta'lif yo'naliishi talabalar uchun darslik  
sifatida tavsiya etilgan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Adabiyot jamg'armasi nashriyoti  
Toshkent-2005



Darslikda amaliy faoliyatdagagi avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati, ya'ni avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash texnologiyasi, avtotransport korxonalarida ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologik jihozlar, harakatdagagi tarkibga moddiy-texnik ta'minotni tashkil qilish va resurslarni tejash usullari, avtomobil transportini turli ekstremal tabiiy-iqlim va yo'l sharoitlaridagi, asosiy ishlab chiqarish bazalaridan ajralgan holdagi hamda maxsuslashtirilgan harakatdagagi tarkibning ekspluatatsiyasi, avtomobil transportining atrof-muhitga zararli ta'siri yo'nalishlari va ularni kamaytirish yo'llari yoritilgan.

Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan «Avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi» fanidan dars beruvchi pedagoglarga, «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» va «Qishloq xo'jaligi mashinalarining ekspluatatsiyasi» yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga hamda avtotransport korxonalari muhandis-texnik xodimlari va boshqa avtomobildan foydalanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

T.Qodirshayev,  
t.f.n., dotsent,  
T.Abduaazizov,  
t.f.n., dotsent.

Muharrir

Sh.Saydaliyev

© O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi  
nashriyoti, «Navro'z nashriyoti»

# KIRISH

O'zbekiston Respublikasida avtomobil sanoati keng ko'lamda rivojlanib bormoqda. Respublikamiz 1991 yilda mustaqillikka erishgach, o'zining avtomobil zavodiga va avtomobillariga ega bo'lish maqsadida Janubiy Koreyaning «DAEWOO» kompaniyasi bilan shartnomaga tuzib, Asaka shahrida «UzDaewooAvto» qo'shma korxonasini, Turkiya davlati bilan hamkorlikda Samarqand shahrida kichik sig'imdagi avtobus va boshqa turdag'i avtomobillar hamda avtomobil agregatlarini ishlab chiqarish uchun zavodlarni barpo eta boshladi.

Asaka shahrida «UzDaewooAvto» zavodining qurilishi bilan O'zbekiston dunyodagi o'z avtomobil sanoatiga ega bo'lgan 28-davlatga aylandi.

«UzDaewooAvto», bu — Markaziy Osiyodagi birinchi avtomobil ishlab chiqarish kompaniyasıdir. Zavod jahon standartlari talablariga javob beruvchi o'ta zamонавиј техника bilan jihozlangan bo'lib, o'rtalik sinfli «Neksiya», kichik sinfli «Tiko» avtomobillari, «Damas» mikroavtobuslari ishlab chiqarishga mo'ljallangan edi. Hozirgi kunda avtomobillarning turi «Neksiya-2», «Lasetti» va «Matiz» kabilalar bilan boyib bormoqda.

Samarqand shahrida O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasi «Samkochavto» zavodidan «Uzotoyol» kichik turkumdag'i avtobuslar («OTOYOL-M23», «M24», «M29», «M50») va ixtisoslashgan yuk avtomobillari («OTOYOL-35.9», «65.9», «85.12» va boshqalar) ishlab chiqarilib, ekspluatatsiya qilina boshlandi.

Xalq xo'jaligi talablarini qondirish maqsadida qo'shimcha tarzda boshqa turdag'i xorijda ishlab chiqarilgan zamонавиј avtomobillar keltirilib, ekspluatatsiya qilina boshlandi. Tog'-metallurgiya sanoatida o'ta og'ir yuk ko'taruvchi (75-200 t) «Katerpiller 754», «Yuklid 200» avtomobillari; sanoat va qurilishda og'ir yuk ko'taruvchi (8-39 t) «DAEWOO» avtomobillari; shahar transportida o'rtalik va katta sig'imli «DAEWOO VS-106», «Mercedes-Benz 0405» va «KAROSA» avtobuslari; kommunal ho'jalikda ixtisoslashtirilgan «DAEWOO» va «HYUNDAI» avtomobillari; yo'lovchi tashishda va shaxsiy transport sifatida «Dog'an», «Opel», «Audi» va boshqalar shular jumlasidandir.

Yuk va yo'lovchilarga namunaviy hamda sifatli xizmat etish uchun avtomobillardan foydalanishga kamroq mablag' sarflagan holda ularning texnik tayyorligini yuqori darajada ta'minlab turish zarur. Buning uchun avtomobillarga muntaзам ravishda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash (TXK va T) ishlarini bajarish, ularni ishdan bo'sh vaqtida saqlab turish, ehtiyoj qism va avtoekspluatatsion materiallar bilan ta'minlash hamda boshqa xizmatlar majmuini amalga oshirish lozim.

Avtomobilarning safdan chiqarilguncha ishlash muddati davomida TXK va T ishlariiga sarflangan mehnat hajmi yangi avtomobil tayyorlashga ketgan mehnat hajmidan bir necha o'n barobar ortiqdir, chunki avtomobil bir marta yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan zavod sharoitida ishlab chiqariladi va o'nlab yillar har xil ish sharoitlarida ekspluatatsiya qilinib, ularga minglab marta texnik xizmat ko'rsatiladi, ta'mirlanadi.

Hozirda foydalanilayotgan harakatdagi tarkibning ko'payib borishi tufayli ularga TXK va T bilan bog'liq bo'lgan sarf-harajatlar yanada oshadi. Shu bilan birga, avtomobil transportiga ko'p miqdorda ehtiyoj qismlar va materiallar zarur hamda TXK va T uchun turli xildagi texnologik jihozlar, moslamalar ishlatalishi kerak.

Ekspluatatsiyadagi avtomobillar sonining o'sishi bilan ularning chiqindi gazlari tarkibidagi zaharli gazlar miqdori, yedirilish mahsulotlari va chiqitga chiqarilmagan o'z resursini o'tab bo'lgan birikma va detallar ta'sirida atrof-muhitning zaharlanishi oshadi. Atrof-muhitga chiqarilayotgan zararli mahsulotlarning 40 foizi avtomobil transporti zimmasiga to'g'ri keladi. Avtomobilarning ta'minot yoki o't oldirish tizimining nosozligi chiqarilayotgan chiqindilar tarkibidagi zaharli gazlar miqdorining 2-7 barobar oshishiga olib keladi. Eski va nosoz avtomobillardan foydalanish, o'z navbatida, ruxsat etilgan shovqin balandligini 15-20% ga oshiradi. Va niyoyat, nosoz avtomobillar yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishini ko'paytiradi, bu bilan insonlarga tan jarohati va tabiatga zarar yetkaziladi.

Avtomobil transporti yonilg'i-energetik resurslarning eng yirik iste'molchisi hisoblanadi, shu sababli, avtomobilarning ta'minot tizimi, elektr jihozlari, yurish qismi va boshqa agregatlarining sifatlari ishlashi hamda haydovchining malakasi ularni tejab ishlashda muhim rol o'yaydi. Avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi davrida yonilg'i-energetik resurslarni tejashda boshqa turdag'i yonilg'ilardan, jumladan, suyultirilgan va siqilgan gazlardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Ba'zi avtotransport korxonalarining ishlab chiqarish texnika negizi (ICHTN) texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash vositalari bilan yetarli darajada ta'mirlanmagan bo'lib, avtomobilarni texnik tayyor holatda ushlab turishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning mehnat unumdonligini va ish sifatini pasaytiradi.

Yangi, jahon andozalariga mos keluvchi avtomobil yo'llarining qurilishi, avtomobilarning tuzilishini takomillashtirish natijasida TXK va qayta tiklash davrlarining oshishi va mehnat hajmlarining pasayishi avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi (ATE)ga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Avtomobilning ekspluatatsion ishonchiligin oshirish, TXK va T xarajatlarini hamda turib qolish vaqtini kamaytirish, yuk tashishning samaradorligini oshirish va tashish tannarxini kamaytirish, ekologiyaga zarar yetkazmaslik ATEning asosiy vazifalardan hisoblanadi.

## I.BO`LIM

### AVTOMOBIL VA UNGA TEXNIK XIZMAT KO`RSATISH

### **AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO`RSATISH VA TA`MIRLASH TEKNOLOGIYASI**


Avtomobillardan foydalanish ishini yaxshilashda texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash texnologiyasini o`rganish, TXK va T texnologik jarayonlarini tashkil qilishni takomillashtirish hamda bajaruvchilar ishini ilmiy asosda tashkil qilish muhim o`rin tutadi. Bu tashkiliy-texnik tadbirlarni hayotga ttabiq etish, avtomobil transporti sohasida erishilgan ilm-fan yutuqlari asosida amalga oshiriladi.

Avtomobillarning nosozliklarini bartaraf qilishda texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash texnologiyasi asosiy bo`g`in hisoblanadi va avtomobillarning texnik holatini zaruriy darajada ushlab turish, uning o`zgarish sabablarini o`rganish, nosozliklarni aniqlash hamda bartaraf qilish usullarini o`rganadi. Buning uchun avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi to`g`risidagi ilm hizmat qiladi. U texnik holatning o`zgarish qonuniyatlarini o`rganadi, texnik hujjatlarda keltirilgan talablarni qondiruvchi ekspluatatsiya ko`rsatkichlarining miqdoriy qiyamatini va avtomobillarning ishlash qobiliyatini, saqlab turish usullarini ishlab chiqadi.

Bu bo`limda avtomobillarning ishlash qobiliyatini ta`minlovchi texnologik jarayonlarning umumiy tavsifi, avtomobil agregatlari va tizimlariga texnik xizmat ko`rsatish va joriy ta`mirlash texnologiyasi hamda avtomobil shinalari texnik ekspluatatsiyasining o`ziga xos xususiyatlari borasida ma`lumatlar berilgan.

**Avtotransport tarmog'i korxonaları.** Avtomobillar ishtirokidagi transport jarayonini tashkil etish, avtomobilarni saqlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, yonilg'i-moylash mahsulotlari va ehtiyoq qismlar bilan ta'mirlash ishlarni tashkil qilish uchun avtotransport tarmog'i korxonaları muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish vazifasiga ko'ra ular avtotransport, avtoxizmat va avtota'mirlash korxonalariga bo'linadi. Bu korxonalar o'z navbatida harakatdagi qismni texnik tayyor holda ushlab turuvchi va yuqori ishlab chiqarishni ta'minlovchi ishlab chiqarish texnika negiziga ega bo'lishi zarur.

**Avtotransport korxonaları (ATK)** - avtomobilarni saqlash, ularga TXK va ta'mirlash, harakatdagi qismni ehtiyoq qismlar va avtoeksploatatsion materiallar bilan ta'mirlash, yuk va yo'lovchilar tashish ishlarni amalga oshiradi.



Ish bajarish turiga qarab ATKlar yuk tashuvchi, yo`lovchi tashuvchi, aralash va avtokombinatlarga bo`linadi. Aralash ATKlarda avtomobilarning hamma (avtobus, taksi, yuk tashuvchi) turlaridan bo`lishi mumkin.

Bo`ysunishi bo`yicha: umumiy foydalaniladigan, vazirliklar va alohida tashkilotlarga tegishli bo`lishi mumkin.

Avtokombinatlarda avtomobillar soni 700-1000 tagacha yetadi.

**Avtomobilarga xizmat ko`rsatish korxonaları (ATXK)** — maxsus ATK bo`lib, ular avtomobilarga TXK va T hamda materiallar bilan ta`minlash uchun xizmat qiladi. Ular markaziy texnik xizmat ko`rsatish stansiyalari (MTXKS), texnik xizmat ko`rsatish stansiyalari (TXKS), avtomobilarga yonilg'i quyish shaxobchalari (AYOQSH) va saqlash joylariga iborat.

*Texnik xizmat ko`rsatuvchi (TXK) korxonalar* o`z navbatida avtomarkazlar (avtosavdo bazalari, do`konlari), avtomobilarga texnik xizmat ko`rsatuvchi shahar hududidagi, yo`l yoqasidagi stansiyalar va turli ishlarga ixloslashgan avtoustaxonalar hamda ayrim postlardan iboratdir.

*Avtoqaqlash joylari* — avtomobilarni saqlash, ko`pincha TXK va ekspluatatsiya materiallari bilan ta`minlash uchun xizmat qiladi.

**AYOQSH** — Avtomobilarni yonilg'i-moylash mahsulotlari bilan ta`minlash uchun xizmat qiladi. Benzin, dizel yonilg'isi va gaz tarqatuvchi turlarga bo`linadi. Oxirgi vaqtarda 250 dan ziyod avtomobilari bo`lgan ATK lar o`z hududida AYOQShga ega bo`lishi ta`minlanmoqda.

*Avtosavdo bazalari, do`konlari* — Avtomobilarni sotuvga tayyorlash va sotish bilan shug`ullanadi.

**Avtota`mirlash korxonaları** avtomobil yoki uning agregatlarini qayta tiklash bilan shug`illanadilar. Ular avtomobilarni ta`mirlash va agregatlarini ta`mirlash zavodlari, agregatlarni (birikmalarni) markazlashgan holda ta`minlash bazalari, maxsuslashtirilgan avtota`mirlash ustaxonaları, shina ta`mirlash zavodlari kabilalar hisoblanadi.

# AVTOMOBILLARNING ISHLASH QOBILYATINI TA`MINLOVCHI TEXNOLOGIK JARAYONLAR


## TEXNIK XIZMAT KO`RSATISH VA TA`MIRLASHDA BAJARILADIGAN ISHLARNING TAVSIFI

Mamlakatimiz xalq xo`jaligida ishlayotgan zamonoviy avtomobillar tuzilishlarining takomillasib borishi TXK va T jarayonlaridagi bajariladigan ishlarning murakkablashishiga olib kelmoqda. Ularga texnik xizmat ko`rsatish hamda ta`mirlash jarayonida turli xildagi va hususiyatlarga ega bo`lgan amallar (tozalash-yuvish, nazorat qilish, sozlash, qotirish, ko`tarish-tashish, ajratish-yig`ish, chilangarlik, mexanik, temirchilik, tunukasozlik, payvandlash, misgarlik, moylash-to`ldirish, yamoqchilik, akkumulyator, bo`yoqchilik) bajariladi.

Statistik ma`lumotlarga asosan, avtomobilarning texnik tayyor holda bo`lishi uchun sarflanadigan harajatlarning asosiy qismi ta`mirlash ishlarini tajarishga to`g`ri keladi (2-rasm).

Amaliyotda avtomobilarning tuzilishi va puxtaligiga hamda bajariladigan texnik xizmat ko`rsatish ishlarning sifatiga ko`ra, ularning joriy ta`mirlashda turib qolishlari turlicha bo`lishi mumkin (1-jadval).

Keltirib o`tilgan va boshqa omillarning o`zaro bog`liqligi texnologik jarayonda mujassamlashadi.



## TEXNOLOGIK JARAYON TO'G'RISIDA TUSHUNCHА

Avtomobil yoki uning birikmalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ma'lum texnologiya asosida bajariladi.

Avtomobilarning ishlash qobiliyatini ta'mirlash maqsadida uning texnik holatini o'zgartirish uslullarining majmui texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologiyasi deb tushuniladi.

Texnik talablar va rejaga asosan ma'lum bir ketma-ketlikda avtomobil (agregat) ustida ma'lum ish va amallar majmuasini bajarishga texnologik jarayon deyiladi. Avtotransport korxonalarida texnologik jarayonning har xil variantlaridan foydalilanadi.

Tanlab olingen texnologik jarayon quydagi larni ta'mirlashi lozim:

- kam xarajatlilik va mehnat xavfsizligi;
- bajarilgan ishning yuqori sifati;
- bajarilayotgan ishlar uchun shaxsiy javobgarlik;
- profilaktik tadbirlarning solishtirma qismini ko'paytirish, shu jumladan, oldindan ta'mirlash ishlari;
- TX va Tning rejim va me'yorlarini rostlash (optimizasiya);

TXK va T ishlarini bajarish uchun maxsus ioyihalash tashkilotlari tomonidan namunaviy texnologiyalar ishlab chiqiladi. Bu texnologiyalardan har bir aniq korxona uchun, ularning o'z ekspluatatsiya toifalari ijlim sharoitlari va korxonadagi mayjud texnik negizlar hisobga olingen holda o'zgartirishlar kiritilib foydalilanadi.

TXKning namunaviy texnologiyalari, ulardan foydalananishda juda kam o'zgartiriladi. Chunki TXKning barcha turlari bo'yicha, o'tkazilish davrlari,

*1-jadval. Turli agregatlarning buzilishi natijasida avtomobilarning joriy ta'mirlashda turish vaqtлari taqsimoti, % da*

Avtomobilning agregat va tizimlari nomi	Katta yuk ko'tarish qibiliyatiga ega bo'lgan yuk avtomobili	Gidromexanik uzatmali katta sinfdagi avtobus
Dvigatel	19,5	5,1
Uzatmalar qutisi	15,5	25,7
Ilashish mustasi	10,1	-
Orqa ko'rik	9,9	1,5
Kardan uzatmasi	3,3	2,6
Osma	8,7	20,5
To'xtatish tizimi	6,4	10,2
Rul boshqarmasi	4,8	10,2
Kabina, kuzov, rama	4,5	2,6
Elektr jihozlari	4,1	10,2
Boshqalar	13,2	11,4


jami agregatlar va qismilar bo'yicha bajariladigan ishlar va ularning mehnat hajmi belgilangan bo'lib, ular o'zgartirilmay bajariladidi.

Texnologik jarayonning variantini tanlashda albatta u yoki bu ishlab chiqarish joylari (uchastkalari), diagnostikaning mayjudligi va ularning korxona hududida joylashishi, jihozlanish darajasi, texnik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uslublari hisobga olinishi zarur.

Texnik xizmat ko'rsatish texnologik jarayonlariga tuzatish kiritish talab etilmaydi, chunki har bir xizmat ko'rsatish davri va undagi ish hajmi, birkma va agregatlar bo'yicha bajariladigan ishlar doimiydir.

Texnik xizmat ko'rsatish korxonalaridagi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning texnologik jarayoni boshqa avtoekspluatatsion korxonalariniga qaraganda birmuncha farqliroq bo'lib, bunda aholiga va kichik korxonalarga tegishli bo'lgan avtotransport vositalarini qabul qilib olish va qaytarish jarayonlari hisobga olinadi.

Joriy ta'mir texnologik jarayonlariga tuzatish kiritish maqsadga muvofiqdir, chunki avtomobilarning ishdan chiqishi vaqt, joy va ish hajmi bo'yicha ehtimoliy hisoblanadi.



Korxonaning umumiy texnologik jarayoni TX turlari va ta'mirlash bo'yicha bajarilayotgan ishlarning texnologik jarayonlaridan tashkil topadi. Bular esa o'z navbatida bajarilayotgan operatsiyalardan iboratdir.

**Operatsiya** — avtomobil yoki uning qismlariga bir ishchi postida bir yoki bir necha bajaruvchilar tomonidan bajariladigan texnologik jarayonning yakunlangan qismi.


Operatsiyaning ishlatiladigan jihoz yoki asboblarni o'zgartirmasdan bajariladigan bir qismiga *o'tish* deyiladi.

Ishlarni eng qulay ketma-ketlikda bajarish uchun texnik hujjatlardan,

ya'ni texnologik xaritalardan, zavod ko'rsatmalaridan, texnik shartlardan foydalaniladi. TXK va JT texnologik jarayoni ishchi postlarida va ish o'rinalarida bajariladi.


**Ishchi posti** — TXK jihozlari, yordamchi uskunalar o'rnatilgan va avtomobil uchun joy ajratilgan bir yoki bir necha ish o'rinalidan iborat bo'lgan muhit.

**Ish o'rni** — ma'lum bir ishni bajarish uchun texnologik uskunalar,



Avtomobilarning safardagi vaqtি	Ish vaqtি 6	10	14	18	22	2	6
Kundalik xizmat (KX)							
Birinchi texnik xizmat (1-TX)							
Ikkinci texnik xizmat (2-TX)							
Joriy ta'mirlash (JT)							
Ishlab chiqarish ustaxonalari							
Asosiy omborlar							
Yordamchi omborlar (aylanma detal, agregat)							

2-jadval. ATK bo`limlarining ishlashi va texnologik jarayonning chiziqli grafigi



*3-rasm. ATKda TX va JT ishlari bajariladigan ishlab chiqarish binosi shakli:*

*1-KX mintaqasi; 2-1-TX va 2-TX mintaqasi; 3-ishlab chiqarish ustaxonalari; 4-JT mintaqasi; 5-omborxonalar*

yordamchi jihoz, moslama, qurilma va asboblar bilan jihozlangan bir ishchining mehnat qilish muhiti.

TXK va JT texnologik jarayoni ATK ning ishlab chiqarish texnika negizida texnologik va operatsion xaritalar, post xaritalari, xarita-sxemalar TX uchun qo'llanma, JT uchun qo'llanma va boshqa turdag'i hujjatlar ishlatilib tashkil qilinadi.

Texnologik jarayonlarni to'g'ri tashkil qilish kam mablag' sarflashni, mehnat xavfsizligini, ishchilarning kamroq ko'chib yurishini, ishchilar va ishchi postlariga

mehnat hajmining bir xil taqsimlanishini, biriktirilgan operatsiyalarni sifatlari bajarilishini ta'minlaydi.

ATK sharoitida TXK va JT texnologik jarayonini 2-jadvaldagi kabi tasavvur qilish mumkin. Jadvaldan ko'riniib turibdiki, avtomobillar soat 8 dan 20 gacha safarda bo'ladi, safardan qaytgach ularga KX va 1-TX belgilangan vaqt bo'yicha o'tkaziladi. 2-TX va JT zonalari hamda ishlab chiqarish ustaxonalari va omborlarning ishlash vaqtini soat 8 dan boshlanadi. Yordamchi omborlarning ish vaqtini asosiy omborning ish vaqtini tugagach boshlanadi va ishlab chiqarish tugagunga qadar davom etadi.

Ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarish binosidagi mintaqalarda va ustaxonalarda bajariladi (3-rasm).

## **TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA JORIY TA'MIRLASH ISHLARINING UMUMIY TAVSIFI**

Hozirgi vaqtgacha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida ishlab chiqarilgan va chiqarilayotgan avtomobilarga TXK va ularni T sobiq SSSRda mavjud bo'lgan rejaviy-ogohlantiruvchi tizim va «Avtomobil transportiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash haqidagi Nizom» asosida bajariladi va bu o'z navbatida TXK va T tizimiga quyidagi talablarni qo'yadi:

a) moddiy va ishslash harajatlarini kam sarflagan holda avtomobilarning ekspluatatsion xususiyatlarini saglab turish;

b) TXK va T ni rejaviy va tashkil eta oluvchi rejaviy-me'yoriy xarakterga ega bo'lishi;

v) barcha avtomobil ekspluatasiysi korxonalar uchun majburiyligi;

g) barcha muhandis-texnik xodimlar uchun aniq va yaqqol anglash mumkinligi;

d) ishslash sharoitiga qarab aniq me'yorlarning bir maromdaligi va moslashuvchanligi;

e) avtomobilarning har xil sharoitda ishlatalishini hisobga oluvchanligi.

Respublikamizda TXK va T ishlarining me'yoriy asoslari va ularni tashkil etish «Avtomobil transporti harakatdagi tarkibiga TXK va T to'g'risidagi Nizom» bo'yicha amalga oshiriladi.

MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan ko'pgina avtomobilarga TXK ishlari belgilangan me'yoriy davriylilikda (1-TX yengil avtomobillar uchun—4000 km, yuk avtomobilari uchun—3000 km, avtobuslar uchun—3500 km va o'z navbatida 2-TX—16000, 12000, 14000 km da) o'tkaziladi.

Harakatdagi tarkibga *TXK va T NIZOMI* asosiy hujjat hisoblanib, unga deyarli barcha ishlar rejalashtiriladi, tashkil etiladi hamda qo'shimcha me'yoriy texnologik hujjatlar ishlab chiqiladi. Nizom ikki qismidan iborat:

a) *birinchi qism* — harakatdagi tarkibga TXK va T asoslaridan iborat bo'lib, butun avtoransport tizimi va unda olib boriladigan texnik siyosatni aniqlaydi. Bunda TXK va T ning turlari, boshlang'ich ko'rsatgichlar, ekspluatatsiya sharoitlari va me'yorlarni to'g'rilash turlari, TXK va T ni tashkil etish usullari va bajariladigan operatsiyalarning nomlari keltiriladi;

b) *ikkinchi qismda* har bir turdag'i avtomobil uchun alohida me'yoriy ko'rsatgichlar keltiriladi.

«Avtomobil transporti harakatdagi tarkibiga TXK va T to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra, harakatdagi tarkibga TXK ishlari bajarilish davri va mehnat hajmiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- kundalik xizmat ko'rsatish	- KX
- birinchi texnik xizmat ko'rsatish	- 1-TX
- ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish	- 2-TX
- mavsumiy xizmat ko'rsatish	- MX

KX ishlari harakat havfsizligini ta'minlashga qaratilgan nazorat, tashqi ko'rinishni tegishlicha tozalash, yonilg'i quyish, moy va sovutish suyuqliklarini me'yoriga keltirish, maxsus avtomobilarning kuzovlariga sanitariya qoidalariga ko'ra ishlov berishdan iborat bo'lib, bu ishlar harakatdagi tarkib safardan qaytgach bajariladi.

1 va 2 - TX ning asosiy vazifasi avtomobil detallarining yeyilishi jadalligini

pasaytirishdan iborat bo'lib, unga diagnostikalash, mahkamlash, sozlash va harakat xavfsizligi bilan bog'liq ishlar (25476-91 sonli davlat standarti. Avtotransport vositalari, harakat xavfsizligi shartlari bo'yicha texnik holati talablarga muvofiq), yonilg'i-energetika resurslarini tejab sarflash, atrof-muhitni muhofaza qilish, buzilish va nosozliklarni aniqlash va oldini olish, ularni o'z vaqtida bartaraf etish ishlarini o'z ichiga oladi. Shu jumladan, asosan tozalash, yuvish, quritish, tekshiruv diagoz qo'yish, qotirish, sozlash, elektrotexnik, shina, akkumulyator, moylash va agregat, mexanizmlardagi moylarni me'yoriga keltirish va almashtirish ishlari bajariladi.

MX yiliga ikki marta o'tkaziladi va yilning sovuq hamda issiq vaqtida harakatdagi tarkibni ishlatishga tayyorlash ishlaridan iborat. Bizning sharoitda MX ni 2-TX bilan birga o'tkazish va ishni 50 foizga oshirish tavsiya etiladi.

Ta'mirlash ishlari o'zining xarakteri va yo'naliishi bo'yicha qayta tiklash (QT) va joriy ta'mirlash (JT) kabi turlarga bo'linadi.

QT ishslash qobiliyatini yo'qotgan avtomobil va uning agregatlarini keyingi qayta tiklash yoki safdan chiqqunga qadar buzilmasdan ishslashini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Avtomobilarni yoki uning agregatini qayta tiklashda bo'laklarga ajratish, tiklash va detallarni almashtirib qayta yig'ish, sozlash va sinash ishlari bajariladi. Avtomobil yoki agregat QTga, uning o'zak va asosiy detallari ta'mortalab bo'lgan yoxud me'yoriy yo'lni bosib o'tgan holda, ish samaradorligi talab darajasidan pasayib ketgan taqdirda jo'natiladi.

JT ishlari avtomobil va uning agregatlarida ekspluatatsiya jarayonida paydo bo'lgan buzilishlarni, nosozliklarni bartaraf etish va qayta tiklashgacha bo'lgan me'yoriy davrni bosib o'tishini ta'minlash uchun bajariladi.

Avtomobilarni JT ning eng asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- avtomobilning ishonchliligin oshirish;
- JT tannarxini kamaytirish, ya'ni JTdan keyingi ishdan majburan qaytib kelishni kamaytirish.

Avtomobilarni JT ularni ishlab chiqarish, QT va TXK sifatiga bog'liqidir.

Bajarilish joyi va ish xarakteri bo'yicha joriy ta'mirlash postlarida va ustaxonalarda bajariladigan ish turlariga bo'linadi.

Postda bajariladigan ishlarga: tekshiruv-nazorat, sozlash, qotirish, ajratish-yig'ish kabi ishlar kiradi.

Ustaxonalarda agregat, elektr jihozlari, ta'minot tizimi, akkumulyator, shina ta'mirlash, kamera yamash, qoplamachilik, kuzov ishlari, payvandlash, misgarlik, temirchilik, bo'yoqchilik va boshqa turdag'i texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash ishlari bajariladi.

Quyida harakatdagi tarkibga TXK va JT da bajariladigan ishlarning to'liq tavsifi keltirilgan.

**Tozalash-yuvish ishlari.** Avtomobillardan turli maqsadlarda, turli yo'

va iqlim sharoitlarida foydalanish, ularning turli xil ifloslamishiga olib keladi. Yuk avtomobili kuzovlarining ifloslanishi tashiladigan qum, tu'proq, ko'mir, qurilish materiallari va iste'mol mollari kabi yuk turiga bog'liq.

Tashqi muhit, ya'ni harorat, yog'ingarchilik va kuzovga yopishib qo'igan iflosliklar ta'sirida bo'lgan kuzovdagagi bo'yoqning kimyoviy va fizik xususiyatlari o'zgarib, yuza asta-sekin eskiradi. Shu bilan birga, avtomobil kuzovi transmissiya agregatlariga hamda yurish qismiga yopishgan iflosliklar TX va T ni sifatli o'tkazish imkoniyatini pasaytiradi. Bularning oldini olish va TXK ishlarini sifatli bajarish maqsadida tozalash, yuvish va quritish ishlari olib boriladi.

*Avtomobil kuzovini tozalash.* Tozalash ishlaridan maqsad kuzovda qolgan yuk qoldiqlarini yig'ishtirish, yuk avtomobillarining kabinalari, avtobus va yengil avtomobil salonlarini changdan tozalashdan iborat.

Avtomobillarni tozalash uchun qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan changyutgichlardan, junli cho'tkalardan, qirg'ichlardan va artish materiallaridan foydalaniladi.

*Avtomobillarni yuvish.* Avtomobil tashqi qismlarini va shassisini yuvish uchun iliq suvdan ( $25-30^{\circ}\text{C}$ ) foydalaniladi va uning harorati yuviladigan sirtning haroratidan farqi  $18-20^{\circ}\text{C}$  dan oshmasligi, aks holda bo'yagan yuzalarga salbiy ta'sir etishi mumkin. Suv bosimi ostida purkash yo'li bilan avtomobil yuvilganda, uning sifatini oshirish uchun cho'tka, gubka kabi materiallardan foydalaniladi.

Suv sarfini kamaytirish va yuvish sifatini oshirish uchun maxsus sintetik yuvish vositalaridan foydalaniladi (progress, avtoshampun, avtoemulsiya va h.k.). Ular o'z navbatida, yuzadagi kirlarni yumshatadi, moy izlarini eritadi va yuvishni yengillashtiradi. Misol uchun, yengil avtomobillar kuzovini yuvishda 40-50 gramm sintetik yuvish vositasi ishlataladi. Sintetik kukunning 7-8 grammi 1 litr, harorati  $35-45^{\circ}\text{C}$  suvda eritilib, suv purkagich yoki yuvish pistoleti bilan sepiladi. Suv sarfini kamaytirish uchun, undan qayta foydalanish tizimi qo'llaniladi. Bundan tashqari, qabul qilingan hukumat qarorlariga muvofiq, hamma suv iste'molchilarini sarfni kamaytirish va tozalanmagan suvni tashqariga chiqarib yuborishni to'xtatishlari zarur. Shuning uchun hamma ATK lar o'z hududida suv tozalash inshootlariga va suvdan qayta foydalanish tizimiga ega bo'lishlari zarur.

*Kuzovni quritish.* Kuzov toza suv bilan chayilgandan so'ng quritish ishlari bajariladi. Bunda kuzov sirtidagi narnlik bartaraf etiladi. Suv qoldiqlarini qo'lida quritishda g'ovak materiallar — zamsh, doka va boshqa matolardan foydalaniladi. Yuk avtomobillarida kabina, yon va oldingi oynaklar, kapot, qanot va yoritgichlar artiladi. Avtomobillar mexanizatsiya yordamida sovuq yoki issiq havoni tashqi yuzasiga purkash yo'lli bilan quritiladi.

Kuzovni yaltiratishdan maqsad, sirtda chidamli himoya qatlamini hosil

qilish va bu bilan kuzovnining metall asoslarini tashqi muhitning salbiy ta'siridan himoyalash, uning estetik ko'rinishini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun yangi yoki eski kuzov sirtlariga vaqtiga vaqtiga bilan emulsiyalar, erituvchilar va suv asosida tayyorlangan yaltiratish pastalari yordamida ishlov berib turiladi. Yangi kuzovni bir oyda 1,5-2 marta yaltiratish maqsadga muvofiqdir. Yaltiratish hususiyatini yo'qotgan eski kuzovlarga asosi abraziv materiallardan iborat bo'lgan avtoytiratgichlar yordamida ta'sir ko'rsatiladi.

**Tekshiruv nazorat va sozlash ishlari.** Tekshiruv nazorat ishlari avtomobilning harakat xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhitga zararli ta'siri talablarga javob berishini aniqlash, avtomobilning va uning agregat, birikmalarini bo'laklarga ajratmasdan turib texnik holatini hamda ularda yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlashdan iborat. Bu ishlar texnologik jarayonning o'zagi hisoblanadi (3- va 4-jadvallar).

Jadvalda keltirilgan diagnoz qo'yish usullaridan tashqari avtomobilarning o'ziga o'rnatilgan diagnostikalash asboblari yordamida diagnostikalash usuli ham mavjud bo'lib, ma'lumotlar asboblar paneliga chiqariladi. Masalan, tormoz kolodkasi qoplamasining yeyilishi, shinadagi havo bosimi va h.k.

Sozlash ishlari diagnoz qo'yish jarayonining oxirgi bosqichi hisoblanadi. Ular tizim va birikmalarning tarkibiy qismlarini almashtirmasdan ishlay bilish qobiliyatini tiklashga yo'naltirilgan. Avtomobilning maxsus sozlovchi birikmalariga (tormoz barabanlaridagi eksentriklar, tasmalarni tortish moslamalari, uzgich taqsimlagichning burish birikmasi va h.k.) me'yoriy ko'rsatgichlar to'g'rilanadi.

Avtomobilning juda muhim ko'rsatgichlari (yonilg'i sarfi, quvvat, shina yedirilishi, tormoz yo'li) ko'pgina hollarda diagnostikalash va sozlash ishlarini o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq bo'ladi.

**Mahkamlash ishlari.** Mahkamlash ishlari rezbalari birikmalarning me'yoriy holatini ta'minlash (qotirish) uchun yo'naltirilgan. TXK va harakatdagi qism turiga qarab, bu ishlar TXK hajmidagi ishlarning 30% ini tashkil qiladi. Masalan, «KamAZ» avtomobillarida rezbalari birikmalar soni 3,5 mingdan ortiq bo'lib, 1-TX da o'nlab birikmalarni tekshirish va mahkamlashga to'g'ri keladi. 2-TX da esa ular soni yana oshadi. JT da ajratish-yig'ish va o'rnatish-yechish operatsiyalari mahkamlash ishlari bilan

*3-jadval. Tekshiruv nazorat va sozlash ishlarining TXK va JT mehnat hajmidagi ulushi, % hisobida*

Ishlar	1-TX	2-TX	JT (postdag'i)
Tekshiruv nazorat	5 - 16	5 - 12	1,5 - 2,5
Sozlash	9 - 12	7 - 14	1 - 4,5

#### 4-jadval. Diagnoz qo'yish usullari va qo'llaniladigan jihozlar

Avtomobilning texnik holatini aniqlovchi alomatlar	Diagnoz qo'yish tamoyillari	Qo'llaniladigan jihozlar
Pachaqlanish, sinish, g'ovak bo'lish, texnik suyuqliklarning oqib ketishi, tutash, shovqin, g'ichirlash	Tashqi nazorat qilish, eshitish	Optik texnika, stetoskoplar, tutuno'lchagichlar
Sovutish suyuqligi, moy. ishqalanish birikmalari, agregat korpuslarining harorati	Haroratni o'lhash	Termometrlar, termoparalar, termorezistorlar
Tirqishlar, lyuftlar, salt va ishchi yurishlar, o'matish burchaklari	Chiziqli yoki burchaklı siljishlarni, geometrik o'lchamlarni aniqlash	Shuplar, indikatorlar, lyuftomerlar, chizg'ichlar, «shaytonlar»
Shovqin balandligi va ampletudasi, tebranish, notejis aylanish	Tebranish jarayonlarini o'lhash	Stroboskoplar, vibro-akkustik apparatlar, stetoskoplar
Kompressiya, havoning siyraklanishi, gazning chiqib ketishi	Bosimni, havoning siyraklanishi, gaz miqdorini o'lhash	Kompressometrlar, kompressograflar, gaz va havo o'lchagichlar, vakuummetrlar
Havo, moy, yonilg'i bosimi	Bosimni o'lhash	Havo va suyuqlik monometrlari
Motor va transmissiya moylarining ifloslanganligi	Moy tarkibini tekshirish	Spektrograflar, mikrosotometrlar, moydag'i metall zarrachalarini aniqlovchi asboblar
Dvigatelda yonish mahsulotlari tarkibi	Chiqindi gazlar tarkibini tekshirish	Gazoanalizatorlar, tutunyutgichlar
Elektr zanjiriali ko'rsatgichlari	O't oldirish tizimidagi birlamchi va ikkilamchi zanjirlar ishlashini tekshirish	Elektron gazli trubkalar (motor testrlar), stroboskoplar, elektron, indikatorli va strelkalni asboblar
Yoritish asboblari quvvati va yo'nalishi	Yorug'lik to'plami kuchi va yo'nalishini o'lhash	Fotometrlar, belgilangan ekranlar
Yonilg'i sarfi, quvvat.	Yonilg'i miqdorini, avtomobil g'ildiragidagi quvvatni, dvigatel burovchi momentini o'lhash	Yonilg'i sarfo'lchagichlari, tortish xususiyatini aniqlovchi jihozlar
Avtomobilning tormoz yo'li	G'ildirakdagi tormoz kuchi, tormoz tepkisiga ta'sir etuvchi kuch, avtomobilning sekinlanishini o'lhash	Tormoz xususiyatlarini aniqlovchi jihoz, deselerometrlar
Transmissiyadagi, gupchaklardagi, rul chambaragidagi qarshilik	Qarshilik ko'rsatuvchi kuchlarni aniqlash	Aylanuvchi barabani jihozlar, kuch'o'lchagich (dinamometr)lar



chambarchas bog`langan. Shuning uchun rezbali birikmalarga TXK ishlari usullarini to`g`ri qo`llash avtomobilning ekspluatatsiya xususiyatlarini oshiradi, ishchilar mehnatini yengillashtiradi va ish hajmini kamaytiradi.

Rezbali birikmalar detallarning o`zidagi rezbalar yordamida (o`t oldirish shamlari, rul uzatmasining sharli barmoqlari, gaz taqsimlash mexanizmidagi sozlash vintlari) yig`ilibgina qolmay, balki qotiruvchi detallar — boltlar, shpilkalar, oddiy va maxsus gaykalar yordamida ham yig`iladi. Maxsus gaykalar, javobgarligi yuqori bo`lgan birikmalarda (shatun boltlari, silindr kallagi shpilkalari, g`ildirak qotirish gaykalari) yoki ajratish-yig`ish texnologiyasi murakkablashadigan yerlarda qo`llaniladi (masalan, aylanib ketishning oldini oluvchi, ariqchalarga qo`yiladigan kvadrat gaykalar). O`ta muhim ahamiyatga ega bo`lgan mahkamlash birikmalarida mayda qadamli va himoya qoplamiga ega gaykalar ishlatiladi.

*Rezbali birikmalarning nosozliklari* birikmalarning bo`shashib qolishi, o`z-o`zidan buralib yoki uzilib ketishi bilan tavsiflanadi. Rezbali birikmalarning bo`shashib ketishi hamda o`z-o`zidan buralib ketishi sozlash me`yorlarini buzadi va avtomobilning ekspluatatsiya xususiyatlarini yomonlashtiradi, birikmalarning jipsligi yo`qotadi, detallarga ta`sir qiluvchi dinamik yuklanishlarni oshiradi va ularning ishdan chiqishiga olib keladi. O`z-o`zidan buralib ketish tebranish natijasida sodir bo`lib, natijada rezba, gayka yoki bolt yuzasida ishqalanish kuchi kamayadi. 2-TXda dvigateldagi mo`ljallangan qotirish ishlarini to`liq bajarmaslik 80-100 ming km yurgandan so`ng rezbali birikmalarning mahkamligi me`yordan 17 %, 150-180 ming km dan so`ng esa me`yordan 25% kamni tashkil qiladi. Shuningdek, starter, generator, yonilg`i nasosi va kardanli vallar o`z joylaridan tezda

*5-jadval. Ta`mirlash jarayonidagi ZMZ dvigatellari rezbali birikmalar ishdan chiqishning takrorlanishi, % hisobida*

Nº	Ishdan chiqqan rezbali birikmalar	ZMZ-24	ZMZ-53
1	Silindrlar bloki kallak shpilkasi rezbasining ishdan chiqishi	15,4	31,8
2	Silindrlar bloki kallak shpilkasining uzulishi	9,8	21,5
3	Silindrlar bloki kallagi klapanlar korobkasini qotirish vintlari rezbasining ishdan chiqishi	50,0	-
4	Yonilg`i nasosini qotirish shpilkasi rezbasining ishdan chiqishi	9,8	14,4
5	Moy nasosini qotirish shpilkasi rezbasining ishdan chiqishi	4,9	10,8
6	Paddonni qotirish shpilkasi rezbasining ishdan chiqishi	10,1	21,5
<b>Jami</b>		<b>100</b>	<b>100</b>

bo'shab ketish ehtimolligi juda yuqori. Agar mahkamlash vaqtida rezba shikastlangan bo'lsa, uning o'z-o'zidan bo'shab ketishi tezlashadi. Zarur bo'limganda rezbali birikmalarni mahkamlash ham ularning holatini yomonlashtiradi va bu bilan birlamchi mustahkamlikning 20-25 % ini kumaytirishi mumkin. 10-15 marta qotirib bo'shatilgan detallar mustahkamlikni 2-4 marta kamroq ta'minlaydi.

ATK sharoitida rezbalarning uzilib ketish hollari juda ko'p uchraydigan nosozlik hisoblanadi (5-jadval). Buning asosiy sababi rezbali birikmalarni me'yordidan ko'proq kuch bilan tortishdan iboratdir.

Shikastlangan rezbalarni maxsus kesuvchi asboblar (metchik, plashka) yordamida tiklash mumkin. Uzilib qolgan bolt yoki shpilka qismlari kichik diametrligi teshgich yordamida olib tashlanadi.

*Rezbali birikmalarni yig'ish.* Ularda ma'lum kuchlanishni hosil qilishdan iborat. Qotirish kuchlanishini aniqlashning bir necha usuli bor. Ulardan keng tarqalganlari:

- bolt yoki gaykanı mahkamlashda burovchi momentni nazorat qilish;
- bolt yoki gaykaning burilish burchagini nazorat qilish;
- bolt uzayishini nazorat qilish.

ATK larda eng keng tarqalgani dinamometrik kalit yordamida mahkamlashdagi burovchi momentni nazorat qilish hisoblanadi. Burovchi moment shunday qabul qilinadiki, u belgilangan yuklanishlarda birikmaning ishlash qobiliyatini ta'minlashi va rezbali birikmalardagi kuchlanish, metallarning oquvchanligining paydo bo'lishiga 15-20 % yetmasligi kerak. Kerakli burovchi moment jadvallar yordamida rezba diametri va materialga qarab tanlab olinadi. Avtomobilarda 30 yoki 35 markali po'latdan tayyorlangan rezbali birikmalar ko'p bo'lib, ularni mahkamlashdagi burovchi momentning miqdorini ko'rsatuvchi jadvallar mavjud, shu bilan birga ularni quyidagi ifoda yordamida taxminiyligi aniqlash ham mumkin.

$$M_b = 1 / 30 D^3, \text{Nm}$$

*Bu yerda:  $M_b$ —burovchi moment, N·m; D—rezbaning diametri, mm.*

Dinamometrik kalitlardan foydalanylinda rezbaning holatini ham inobatga olish zarur, chunki u kiriangan yoki zanglagan bo'lishi mumkin.

Rezbali birikmalarni bolt yoki gaykaning burilish burchagi bo'yicha mahkamlash ishlarini tajribali avtochilangarlar qo'llaydilar. Bunda avval birikma 30-40 Nm burovchi moment bilan qotiriladi, keyin avtochilangar bolt yoki gaykanı tajriba yo'li bilan aniqlangan burchakka buradi. Bu usul dinamometrik kalit qiyin yetib boradigan rezbali birikmalar uchun qo'llaniladi (masalan, kardan valini qotirishda).

Rezbali birikmalar boltining uzayishi bo'yicha nazorat qilish qotirishning aniqroq usuli hisoblanadi, lekin buning uchun maxsus moslamalar, 0,01 mm aniqlikka ega bo'lgan indikatorlar talab qilinadi, bu o'z navbatida, mahkamlash ishlari hajmini oshirib yuboradi.

*Rezbani himoyalash.* Avtomobilarning TXK va JT dagi turish vaqtini ko'pincha me'yordan oshib ketadi, buning sababi zang bilan qoplangan rezbali birikmalarni yechishning qiyinlashishi natijasidir. Yechish vaqtida sinish, uzilish va darz ketishlar sodir bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun rezbali birikmani yig'ishdan avval tozalash va moylash zarur. Zanglashga qarshi vositalardan foydalanish ko'proq naf beradi hamda rezbali birikmalarni ajratish va yig'ish ishlarini osonlashtiradi.


Detallarga shikast yetkazmaslik uchun zanglagan birikmalar temir cho'tka bilan tozalanadi va tormoz suyuqligi bilan namylanadi. Zanglashni yo'qotuvchi moddalardan foydalanish ko'proq naf beradi, ammo undan so'ng rezbali birikmani suv bilan yuvib yuborish yoki moylash zarur.

*Rezbali birikmalarni cheklab qo'yish.* Rezbali birikmalarning ishonchligini oshirish uchun cheklab qo'yiladi. Eng keng tarqalgan usul cheklash gaykalarini (kontrgaykalarni) qo'llash. Hozirgi vaqtida avtomobil sanoatida ular yuqori yuklanishlar mavjud bo'lgan, birikmada ma'lum tirqish yoki oraliqni ushlab turish kerak bo'lgan yerlarda, masalan, ilashish muftasi sozlanuvchi shtogida, saylent-bloklarni qotirishda ko'proq qo'llaniladi.

Birikmalarda katta ishqalanish kuchini hosil qiluvchi prujinali shaybalar ham ko'p tarqalgan bo'lib, ular gayka yoki bolt o'z-o'zidan buralib ketishining oldini oladi. Yulduzcha ko'rinishidagi prujinali shaybalar ko'p afzallikka ega bo'lib, ular yupqa devorli detallarni biriktirishda ishlataladi.

Eng ishonchli cheklash usullaridan yana cheklash plastinalarini, simlarni, qirqimli gaykalar bilan birgalikda shplintlarni qo'llash hisoblanadi. Oxirgi vaqtarda o'zicheklovchi gaykalarni qo'llash usuli keng tarqalmoqda.

Neylon tiqinli gaykalarni qo'llash eng zamonaviy hisoblanib, ular cheklash qobiliyatini 25-30 marta qotirishgacha yo'qotmaydi.



**4-rasm. O'zicheklovchi gaykalar:**

a-konusining kichik qismi siqiluvchi konussimon gayka;

b-mo'ylabchasi egiluvchi qirqimli gayka;

c-ellipssimon gayka;

d-neylon tiqinli konussimon gayka.

*Qotirish ishlarini mexanizatsiyalash.* Mahkamlash ishlarida asosan gayka kalitlari to`plami qo`llaniladi. Qo`lda qotirish og`ir va ko`p hajmli bo`lib, ba`zi hollarda jarohat keltiruvchi bo`lishi ham mumkin. Masalan, «KamAZ-740» dvigateli karterini yechishda (22 ta bolt va 6 ta gayka) 15 daqiqa sarflab 300 marta kalitni aylantirish zarur. Ba`zi ishlar, masalan, ressor sirg`alaridagi gaykalarni yechish juda katta kuch talab qiladi.

Mahkamlash ishlarida qo`l asbobi sifatida gidravlik, elektrik yoki pnevmatik gaykaburagichlar ishlataladi, ular ish hajmini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Masalan, «KamAZ-740» dvigateli poddonini yechish va o`rnatishda pnevmatik gaykaburagichning ishlatalishi ish vaqtini 4 barobarga kamaytiradi.

Biroq ish vaqtini qisqartirish gaykaburagichlardan foydalanishning asosiy mezoni hisoblanmaydi. Bunda gaykaburagichni keltirish, elektr manbaiga ulash va ishlatishga tayyorlash vaqtini hisobga olish zarur, demak quyidagi shart bajarilgandagina ularni qo`llash maqsadga muvofiqdir:

$$T_g + T_t < T_q$$

*Bu yerda:  $T_g$ —operatsiyani gaykaburagich bilan bajarish vaqt;  $T_t$ —gaykaburagichni ishgaga tayyorlash vaqt,  $T_q$ —operatsiyani qo`l bilan bajarish vaqt.*

6-jadvalda keltirilgan misolda chiziq bilan belgilangan o`ng qismdagи hollarda gaykaburagichni qo`llash maqsadga muvofiq emas.

Katta burovchi moment talab qiladigan gaykalar (g`ildirak, ressor sirg`asi gaykalari) uchun pol ustida harakatlanuvchi gaykaburagichlar qo`llaniladi.

**Ko`tarish-tashish ishlari.** Ko`tarish-tashish ishlari ATK dagi TXK va JT ishlarining asosiy qismini tashkil etib, ular avtomobilarni postdan-postga siljishi hamda katta og`irlikdagi birikma va agregatlarni (dvigatel, uzatmalar qutisi, ko`priklar, orqa ko`pri reduktorlari va h.k.) ko`tarish va siljitishlardan iborat.

2-TX va JT mintaqalarida avtomobillar o`zining harakati bilan qo`zg`alishi yoki maxsus konveyerlar yordamida siljitelishi mumkin. JT postlarida agregatlarni ko`tarish va tashish ishlari har xil turdagи ilgichlar bilan

*6-jadval. 6 ta M12 boltini yechish uchun sarflanadigan vaqt*

Rezbali qism uzunligi, mm	Echish uchun sarflanadigan vaqt, daqiqa					
	Gayka kalitida	T <sub>q</sub> ni hisobga olgan holda, gaykaburagichda				
		0	1	2	3	4
10		2,8	0,8	1,8	2,8	3,8
15		3,4	0,9	1,9	2,9	3,9
20		4,4	1,1	2,1	3,1	4,1

jihozlangan va havfsiz ishni ta'minlovchi ko'tarish-tashish mexanizmlari yordamida bajariladi. Bu ishlar yakka relsda siluvchi elektrotelferlar yoki kran-balkalar, ular bo'limgan taqdirda gidravlik ko'targichlar va yuk aravachalari yordamida bajariladi. Shu aravachalar yordamida yechilgan agregatlar agregat ustaxonasiga, ta'mirlangandan so'ng omborga yoki JT postlariga yetkazilishi mumkin.

Avtomobilarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda, ularni pol sathidan ko'tarish uchun turli tuzilishdagi ko'targichlardan foydalaniladi. Ko'rish ariqchasida oldingi va orqa ko'priklarni osish uchun ko'rish ariqchasi ko'targichlaridan foydalaniladi. Avtomobilarni pol ustidagi postda oldi va orqa qismidan ko'tarish uchun har xil yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan harakatlanuvchi garaj domkratlari qo'llaniladi. Suratlarda ko'rsatilgan vositalarning TXK va JT postlarida qo'llanilishi ko'tarish-ko'rish ishlarini yuqori mexanizatsiyalashganlik darajasini ta'minlaydi, ishlab chiqarish sur'atini va madaniyatini oshiradi.

**Ajratish-yig'ish ishlari.** Ajratish-yig'ish ishlari avtomobilarni JT ning boshlang'ich va oxirgi operatsiyalari hisoblanadi. Ular o'z ichiga avtomobilarning nosoz agregat, mexanizm va birikmalarni soziga almashtirishni, ular ichidagi nosoz detallarni yangisiga yoki ta'mirlanganiga almashtirishni, shu jumladan ayrim detallarni ta'mirlash va o'z joyiga joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni oladi. Dvigatellarni, ko'priklarni, uzatmalar qutisini, radiatorlarni, ilashish muftalarini, ressorlarni, agregatlardagi va birikmalardagi yedirilgan detallarni almashtirish eng asosiyalaridan hisoblanadi. Bu ishlar JT postlarida bajariladi. Shu jumladan, bu yerda avtomobildan yechmasdan turib agregatlarni qisman bo'laklarga ajratish va nosozliklarni bartaraf etish ishlari bajariladi.

Postda bajariladigan ajratish-yig'ish ishlaring salmog'i juda katta, u avtomobilning turiga bog'liq holda JT mehnat hajmining 28-37% ini, postda bajariladigan ishlarning 80% ini tashkil etadi. JT ning ajratish-yig'ish ishlari postda bajariladigan ishlardan tashqari, avtomobildan yechilgan turli agregat va birikmalar (dvigatel, uzatmalar qutisi, ko'priklar, rul mexanizmi, generator, starter, uzbek-taqsimlagich, yonilg'i nasosi, forsunkalar, akkumulyatorlar va h.k.) bo'yicha barcha ishlab chiqarish ustaxonalarida bajariladi.

Ajratish-yig'ish ishlaring sifati keng ko'lamda harakatdagi qismning ekspluatatsion ishonchligini ta'minlaydi, shuning uchun ATK larda muhandislik-teknika xizmati bunga alohida e'tibor berishi zarur. Ozgina yaxhilangan ajratish-yig'ish ishlarni tashkil etish katta texnik-iqtisodiy samara beradi. Texnologiya bo'yicha bajarilgan ajratish ishlari detallar saqlanuvchanligini ta'minlaydi, keyingi ta'mirlash ishlarini, mehnat hajmini

kamaytiradi. Avtotransport korxonasida ajratish-yig'ish ishlarni to'g'ri tashkil etish 70-80% detallarni qaytadan ishlatsizni ta'minlaydi.

Ajratish-yig'ish ishlarni mexanizatsiyalashganlik darajasini oshirish maqsadida turli xildagi gaykaburagichlar, moslamalar, kalitlar to'plami va h.k. lardan foydalanish zarur. «UzDaewooAvto», «ZIL», «GAZ», «KamAZ», «MAZ», «VAZ», «AZLK» va boshqa avtomobillar zavodlari tomonidan ajratish va yig'ish ishlarni bajarish uchun maxsus asboblar va moslamalar to'plamlari ishlab chiqariladi. Ularning tuzilishlari avtomobil turlariga moslab bajarilgan bo'lib, mehnat hajmini kamaytiradi va ish sifatini oshiradi. Bulardan tashqari, ko'pgina maxsus korxonalar mavjud bo'lib, ular avtomobillarda ajratish-yig'ish ishlarni bajarishda foydalaniladigan asboblar to'plamini ishlab chiqaradilar. Agregat ustaxonasida bajariladigan ajratish-yig'ish ishlari agregatlarni ta'mirlashda qulaylik yaratuvchi maxsus jihozlarda tashkil etiladi.

Yuk avtomobilari va avtobuslardan g'ildiraklarni yechish va ularni bo'laklarga ajratish ishlari ko'pgina qiyinchiliklar tug'diradi, shuning uchun bu ishlarni bajarishda g'ildiraklarni yechish, o'rnatish va siljitiш aravachasi hamda shinalarni ajratish va yig'ish jihozlaridan foydalaniladi.

**Chilangar-mexanik ishlari.** Chilangar-mexanik ishlari qotirish detallarini (boltlar, gaykalar, shpilkalar, shaybalar) tayyorlashni, payvandlash va qoplashdan so'ng mexanik ishlov berishni, tormoz barabanlarini charxlashni, podshi pnik uyalari tiklovchi vtulkalarni tayyorlash va kengaytirishni, ilashish muftasi siquvchi disklari ishchi yuzasini tekislashni va h.k.larni o'z ichiga oladi. Yuqorida qayd qilingan ishlar ATK dagi chilangar-mexanik ustaxonasida tokar-vint qirquvchi, teshuvchi, yo'nuvchi, tekislovchi va boshqa hammabop metallarga ishlov beruvchi hamda chilangarlik dastgohlari yordamida bajariladi. Chilangar-mexanik ishlari umumiy joriy ta'mir mehnat hajmining 4-12% ini tashkil qiladi.

Avtomobilning eng ko'p ishdan chiqishlar soni detallarning mexanik yemirilishi va yedirilishiga to'g'ri keladi. ATK sharoitida bu detallar payvandlash yoki chilangar-mexanik ishlov berish yordamida tiklanadi.

Birinchi holda shikastlangan detallar gaz yoki elektr toki yordamida payvandlanadi, keyin mexanik ishlov beriladi. Har xil kronshteyn va silindr bloki kallagi yoriqlarini payvandlash ko'p uchraydigan hollardan hisoblanadi.

Ikkinci holda ta'mirlash o'lchamlari usulidan foydalaniladi, ya'ni yedirilgan val bo'yning belgilangan o'lchamgacha mexanik ishlov beriladi va yedirilish izlari olib tashlanadi. Shu usul bilan gaz taqsimlash valining tayanch bo'yinlari, klapanlar, itargichlar, moy nasosi valchalarini va boshqa detallar tiklanadi. Ko'pgina hollarda qo'shimcha detallar o'rnatish usulidan foydalaniladi. Masalan, uzatmalar qutisidagi yetaklovchi valning bo'yning mexanik ishlov berilib o'lcham kichiklashtiriladi va shu materialdan yupqa

devorli vtulka tayyorlanib unga presslanadi. Presslangan vtuikaning tashqi diametriga ishlov berilib val bo'ynining boshlang'ich o'lchamiga keltiriladi. Xuddi shu usul bilan teshik o'lchamlari ham tiklanadi. Masalan, silindr bloki kallagi teshigi rezbasi yedirilsa, katta o'lchamdag'i rezba ochilib unga rezbalı vtulka buraladi va uning ichki qismiga kerakli o'lchamdag'i rezba ochiladi.

**Temirchilik ishlari.** Temirchilik ishlari metallarga plastik ishlov berishni o'zida namoyon qiladi va JT mehnat hajmini 2-3% ini tashkil etadi. Asosiy ish salmog'i ressorni ta'mirlash va uning singan listlarini almashtirish hamda birlamchi shakliga keltirishdan iborat. Undan tashqari, har xil turdag'i stremyankalar, skobalar, xomutlar va kronshteynlar tayyorlanadi.

**Tunukasozlik ishlari.** Bu ishlar avtobus va yengil avtomobil kuzovlarini (JT ishlari mehnat hajmini 7-9%) hamda yuk avtomobilari kabinalarini (JT ishlari mehnat hajmini taxminan 2%) ta'mirlashdan iborat. Ko'rsatilgan mehnat hajmlariga tunukasozlik ishlaridan kelib chiqadigan payvandlash ishlari ham kiradi.

**Payvandlash ishlari.** Bu ishlar yoriqlarni, uzilgan va singan yerlarni ulash (bartaraf) etish, turli kronshteyen, burchakcha va h.k.larni mahkamlashdan iborat. ATK da elektrpayvandlash va gazli payvandlash usullaridan foydalaniadi. Elektrpayvandlash yo'li bilan og'ir detallar (rama, o'zito'kgich kuzovi), gaz payvandlash yo'li bilan yupqa devorli detallar payvandlanadi. Payvandlash ishlarining hajmi yengil avtomobillar kuzovini va yuk avtomobilari kabinasini ta'mirlashni hisobga olmaganda JT mehnat hajmining 1-1,5% ini tashkil etadi.

**Misgarlik ishlari.** JT mehnat hajmining taxminan 2% ini tashkil qilib, rangli metallardan tayyorlangan detallar germetikligini ta'minlash uchun yo'naltirilgan. Bular radiatordi, yonilg'i baklarini, karbyurator qalqovuchlarini, latun trubali o'tkazgichlarlarida hosil bo'lgan teshiklar va yoriqlarni kavsharlab tuzatishdan iborat.

**Moylash-to'ldirish, tozalash-yuvib tashlash ishlari.** Bu ishlar ishqalanib ishlovchi birikmalardagi qarshilik kuchlarini kamaytirishga, yedirilish intensivligini va shu bilan birga texnik suyuqlik va moy bilan ishlovchi tizimlarni me'yoriy ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan. Bu ishlar 1-TX (16-20%) va 2-TX (9-18%) mehnat hajmining salmoqli qismini tashkil etadi. Moylash-to'ldirish ishlari avtomobil agregat va birikmalar katerlarini yonilg'i va texnik suyuqliklar bilan to'ldirish yoki ularni almashtirishdan iborat. Bu ishlarning sifati birikmalar resursiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yuk avtomobilari shkvoren birikmasini talab qilinganidek har 1-TX da moylamasdan, oralatib moylansa shkvorenning ish resursi 40%dan ortiq kamayadi. Dvigateldagi moy sathini me'yordan kamroq holda ishlatish moy bosimining pasayib ketishiga va tirsakli val vkladishlarining tez erishiga olib keladi. Tormoz suyuqligi sati

pasayishi tormoz tizimiga havo kirishiga va uning ishlamay qolishiga olib keladi. Moylash ishlari tarkibini aniqlovchi asosiy texnologik hujjat ximmatologik xarita hisoblanib, unda moylash joyi va nuqtalari soni, moylash davriyiligi, moy turi va uning sarfi ko'rsatiladi.

Tozalash-yuvib tashlash ishlari moy va texnik suyuqliklarni to'liq hajmda almashtirish ishlarining asosiy qismi hisoblanadi. Tormoz tizimini vaqtiga bilan (yiliga bir marta) yuvib tashlash undagi rezina manjetlari ishslash davrini 1,5-2 marta oshiradi. Yuvib tashlash vaqtida detallar yedirilish mahsulotlaridan xalos qilinadi, bu esa detallarning ishslash sharoitini yaxshilaydi. Har bir birikma va tizimni yuvib tashlash me'yorlangan bo'lib, yakka texnologiya asosida bajariladi.

**Akkumulyator ishlari.** Bu ishlar akkumulyator batareyalarini tashqi nazorat qilish, zaryadlanganligini, elektrolit sathi va solishtirma zichligini tekshirish, seperator va monobloklarni almashtirishlardan iborat. Plastinalarni almashtirish qayta tiklashga tegishli bo'lib, juda kam hollarda bu ishni ATK larda bajarish mumkin, chunki akkumulyatorni qayta tiklash mehnat hajmi uni yangi tayyorlashdan 10 barobar ortiqdir. Akkumulyator bankalarida elektrolit sathi kamayib ketgan hollarda disterlangan suv quyish bilan me'yoriga keltiriladi. Solishtirma zichlik kapmayib ketganda esa elektrolit almashtiriladi. Elektrolit tayyorlashda maxsus idishga avval disterlangan suv quyib, sungra kislota qo'shiladi.

**Yamash ishlari.** Bu ishlar shikastlangan avtomobil kameralarini yamash va shinalar mayda jarohatlarini bartaraf etish, ya'ni mahalliy ta'mirlash o'tkazishdan iborat.

**Bo'yoqchilik ishlari.** Bu ishlar avtomobil kuzovlarini himoyalovchi va estetik ko'rinish beruvchi lak bo'yoqli qoplamlarni paydo qilishdan iborat bo'lib, yuk avtomobili uchun joriy ta'mir mehnat hajmini 5% ini, avtobus va yengil avtomobili uchun 8% ini tashkil etadi.

Himoya-estetik qoplama bir necha qatlardan iborat: notekisliklarni to'ldiruvchi shpatlevkadan, adgeziya hosil qiluvchi bruntovkadan va bo'yash qatlamanidan. Qoplamaning estetik ko'rinishi xususiyati tropik iqlim sharoiti uchun 3 yilgacha saqlanadi. Himoya xususiyati tropik iqlimda 3 yilgacha, me'yorigi iqlimda 5 yilgacha saqlanadi.

## TEXNOLOGIK JIHOZLAR

ATK da harakatdagi tarkibga TXK va JT da hammabop (metall qirquvchi, yog'ochga ishlov beruvchi, presslar, kran-balkalar, payvandlash transformatorlari va h. k.) va maxsus (yuvish mashinalari, ko'targichlar,

diagnostikalash asboblari va h. k.) jihozlar ishlataladi. Bulardan tashqari, o'z kuchi bilan ATK sharoitida tayyorlangan nostandard jihozlar (tokchalar, dastgohlar, aravachalar va h. k.) ham qo'llaniladi.

ATK da ishlataladigan texnologik jihozlar o'zining qo'llanilishi bo'yicha ko'tarish-qarash, ko'tarish-tashish, avtomobilarga TXK va JT uchun maxsuslashtirilgan turkumlarga bo'linadi.

Ko'tarish, qarash va tashish jihozlari JT va TXK da ishlatalib ular avtomobilarga har tomondan (ustidan, tagidan, yonidan) TXK va T ga imkon yaratadi va ish unumini oshiradi. Avtomobilarga TXK ishlarning 40-50 % tagidan, 10-20 % yonidan va 40-45 % ust tarasidan bajariladi.

Ko'tarish, qarash va tashish jihozlari ish unumini oshiribgina qolmay, uning sifatini oshirishga ham imkon yaratadi.


**Ko'tarish-qarash jihozlari.** Ishlarni bordaniga tagidan, yonidan va ustidan bajarishni ta'minlaydigan hammabop ko'rish moslamalari ko'rish ariqchalari (5-rasm) hisoblanadi. Boshi berk va boshi ochiq postlar hamda oqimli qatorlar ko'rish ariqchalari bilan jihozlanadi. Ular kengligi bo'yicha ensiz va enli turlarga bo'linadi. Ariqchalar kengligi avtomobil enidan kam bo'lsa ensiz deb, keng bo'lsa enli deb tushuniladi.

Ko'rish ariqchalaringning tuzilishi avtomobilarning turiga bog'liq bo'lib, uzunligi avtomobil uzunligidan 0,5-0,8 m uzun, chuqurligi esa yengil avtomobillar uchun 1,4-1,5 m, yuk avtomobillar va avtobuslar uchun 1,2-1,3 m bo'ladi. Eni esa avtobus va yuk avtomobili uchun 0,9-1,1 m, yengil avtomobillar uchun 0,8 m bo'ladi. Ko'rish ariqchalariga past kuchlanishli yoritgichlar (42 V) o'rnatiladi, har 1 metr uzunlikka 200 m<sup>3</sup>/soat

hajmidagi, harorati 16-25°C, tezligi 2-2,5 m/s bo'lган 45° burchak ostidagi yo'nalishda havo oqimi bilan shamollatib turiladi. Chiqindi gazlarni chiqarish uchun maxsus quvurlar o'rnatiladi. TX va T jarayonida avtomobil dvigatellarini ishlatalish zaruriyati tug'ulsa, bu quvurlar avtomobil glushiteliga ulab qo'yiladi.

Ko'rish ariqchalari, ularda bajariladigan ish

### 5-rasm. Ko'rish ariqchalaringning tasnifi.



turiga qarab ko'targichlar, harakatlanuvchi voronkalar, moy quyish qurilmalari bilan jihozlanadi.


Ensiz ko'rish ariqchalari yorug' emasligi, ba'zi agregatlarni yechish va o'rnatishning qiyinligi, enli ariqchalar esa ko'p joy egallashi kabi kamchiliklarga egadirlar.


*Estakadalar*— temir-betondan, metall konstruksiyalardan yoki yog'ochdan balandligi 0,7-1,4 m qilib ishlangan, 20-25% qiyalikdagi chiqish va tushish rampalari bo'lgan ko'priklardan iborat bo'ladi. Ular boshi berk va boshi ochiq hamda qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan bo'lishi mumkin. Avtomobilning ustidan, yonidan va tagidan birdaniga ish bajarish uchun ular chuqur bo'lмаган ko'rish ariqchalari bilan jihozlanadi. Estakadalardan avtomobillarga dala sharoitlarida TXK va T ishlari bajarilganda, avtomobillarni qo'lida yuvishda foydalaniлади.

*Ko'targichlar*. O'rnatilishi (6-rasin) bo'yicha — ko'targichlar qo'zg'almas va harakatlanuvchan, ko'tarish mexanizmi bo'yicha — mexanik, gidravlik va pnevmatik, ishga tushirilishi bo'yicha — qo'l bilan boshqariluvchi va elektrotexnik, joylashishi bo'yicha — pol ustida va ko'rish ariqchasida bo'lishi mumkin. Ko'targichdagi tayanch ramaning tuzilishi bo'yicha — koleyalı, koleyalararo va ko'ndalang ramali hamda tayanch traversali turlarga bo'linadi. Avtokorxonalarda va texnik xizmat ko'rsatish shaxobchalarida elektromexanik va gidravlik ko'targichlar keng qo'llaniladi.

Qo'zg'almas elektromexanik ko'targichlar 1, 2 va ko'p plunjjerli, yuk ko'tarish qobiliyati 2, 4, 8, 12, 16 va 20 tonnali bo'ladi. Ko'targichlarning bitta, ikkita, uchta va to'rtta ustinligi va avtomobillarni qiyalatuvchi turlari bo'lishi mumkin.


Bir plunjjerli elektro-gidravlik ko'targichda (7-rasm) elektrovdigatel (3) ishlab turganda moy bakdan (2) so'ruvchi klapan (1) orqali nasos (4) bilan silindriddagi (12) plunjer (11) tagiga yuboriladi. Boshqaruvchi kranning (6) ushlagichi (9) yordamida o'tkazuvchi klapan (8) orqali ko'tarish vaqtida silindrga moy yo'naltiriladi yoki tushirish vaqtida bakka yuboriladi.





*7-rasm. Bir plunjjerli elektro-gidravlik ko'targichning shakli*

*8-rasm. Elektromexanik ko'targichning umumiy ko'rinishi*



iborat bo'lib, har bir ustun ichiga yuk ko'tarish gaykasida harakatlanadigan yuruvchi vint joylashgan. Gaykaga koretka (2) o'rnatilgan, unga ushlagichlar

Plunjerni ko'tarilish tuga-gach, 0,9 MPa bosimga sozlangan reduksion klapan (5) moyni bakka o'tkazib yuboradi. Tizimdag'i moy bosimi monometr (7) yordamida nazorat qilinadi. Plunjerni tushishi ushlagichning ma'lum holatida, ramaga (10) joylashtirilgan avtomobilning og'irligi ta'sirida ostida sodir bo'ladi. Tushish tezligi o'tkazuvchi klapan orqali sozlanadi. Ko'tarilgan ramaga o'rnatilgan avtomobilning o'z-o'zidan tushib ketishini oldini olish maqsadida ko'targich rama tagiga ustunchalar qo'yiladi. MDH davlatlari sanoatida elektrogidravlik plunjjerli ko'targichlarning P138G (2 t.) va P151 (12,5t.) turlari ishlab chiqariladi. Ulardan birinchisi 1-plunjjerli bo'lib, yengil avtomobillar uchun, ikkinchisi 2-plunjjerli bo'lib, yuk avtomobillari va avtobuslar uchun mo'ljallangan.

Elektromexanik ko'targichlar 1, 2, 4 va 6 ustunli bo'lib, ularning yuk ko'tarish qobiliyati 1,5 dan 14 tonnagacha bo'ladi. Ikki ustunli elektromexanik ko'targich (8-rasm) 2 ta korobkasimon ustundan (1) va ko'ndalang birikmadan (7)

(3) sharnir yordamida joylashtirilgan. Yuk ko'taruvchi (harakatlanuvchi) vintlar elektrodvigatel (5) yordamida ustunlardan biriga o'rnatilgan reduktor (6) orqali harakatga keltiriladi, boshqa vintga harakat ko'ndalang birikma ichiga o'rnatilgan zanjirli uzatma yordamida yetkaziladi. Ko'targichni boshqarish tugmachali uzgich-ulagich (4) yordamida bajariladi. Ko'tarish balandligi 1800 mm ni, ko'tarilish vaqt 45-60 s ni tashkil qiladi.

MDH davlatlarida 2 t yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan P133 va P145 modelli yengil avtomobilarni ko'tarishga mo'ljallangan elektromexanik ko'targichlar ishlab chiqariladi.

Bunday ko'targichlarni Koreya, Vengriya, Polsha va Chexiya ham ishlab chiqaradi. Jumladan, 4 (P150 modelli) va 6 (P142 modelli) ustunli elektromexanik ko'targichlar ham ishlab chiqarilib, ular ATK larda yuk avtomobilari va avtobuslarni ko'tarish uchun ishlatiladi. Ular qo'zg'almas va harakatlanuvchi bo'lishi mumkin. 1-holatda ko'targichning har bir ustuni rama, aravacha, gaykali harakatlanuvchi vint, elektrodvigatel, reduktordan iborat bo'lib, anker boltlari yordamida polga qotiriladi. 2-holatda esa harakatlanuvchan qilib bajariladi. P10 turidagi harakatlanuvchi ustunli elektromexanik ko'targichlar *harakatlanuvchi ustunli ko'targichlar* deb ataladi (9-rasm).

Ular 10 tonnagacha og'irlidagi yuk avtomobilari va avtobuslar uchun mo'ljallangan (reduktor yuritmali, g'ildirak tagidan ko'taradi, ko'tarish balandligi 1700 mm, 380 v da ishlovchi 4 ta dvigatelli, har bir ustunning tashqi o'lchamlari 920x1260x2570 mm, og'irligi 1900 kg).

ATK sharoitida ko'targichlardan foydalanish, ko'targich bilan jihozlangan xizmat ko'rsatish ishlari bajariluvchi ishchi postlarni har qanday tekis polli joylarda tashkil qilishga imkon beradi. Bulardan tashqari, ko'tarilgan avtomobillar tagiga ko'targich majmuiga kiruvchi maxsus tayanchlarni o'rnatib, qo'zg'aluvchi ko'targichlarni boshqa ishchi postlarida ham ishlatish mumkin. Ko'targichni boshqarish qo'zg'aluvchi boshqarish pultlari yordamida bajariladi.


Ko'rish ariqchasi dagi ko'targichlar 1 yoki 2 ustunli, gidravlik yoki elektromexanik bo'lishi mumkin. Qo'l bilan boshqariluvchi bir plunjjerli yuritmali gidravlik ko'targich ko'rish ariqchasi dagi harakatlanuvchan

9-rasm. Harakatlanuvchi ustunli ko'targich(PP-10)



aravacha ramasining ko'ndalang balkalariga o'rnatiladi. Aravachalar ko'rish ariqchasining bo'ylama devorlariga o'rnatilgan yo'naltiruvchi qismga roliklar yordamida o'rnatiladi. Shunday qilib, ko'targich ko'rish ariqchasida ko'ndalang va bo'ylama harakat qilishi mumkin.

Bajariladigan ishning turiga qarab ko'rish ariqchasiagi ko'targichning plunjeringa ushlagich yoki avtomobil agregatlarini yechib olish va o'rnatish uchun moslama o'rnatiladi. 10-rasmida PNK-1-01 turidagi ko'rish ariqchasiga moslashgan, osma oyog bilan harakatga keltiriluvchi, yengil avtomobilarga xizmat ko'rsatuvchi gidroko'targich tasvirlangan. Yuk ko'tarish qobiliyati 2 tonnagacha bo'lib, eni 930-1250 mm bo'lgan ko'rish ariqchalari uchun mo'ljallangan. U harakatlanuvchi almashtirilishi mumkin bo'lgan tayanchlarga ega bo'lib, tashqi qismi turli shakllarga ega avtomobilarni ko'tarish imkoniyati




*10-rasm. Ko'rish ariqchasi uchun gidravlik domkrat*



*11-rasm. Harakatlanuvchi, yuk ko'tarish qibiliyati 20 tonnaga ega bo'lgan gidravlik domkrat (Markasi-5.8204, ko'tarish balandligi 220-680 mm, maydonchasi 179 mm, massasi 315 kg)*



*13-rasm. Buklanuvchan harakatlanuvchi kran (Markasi-5.1310, yuk ko'tarish qobiliyati 250-500-750-1000 kg., ilib olish balandligi-min 10-100-190-280 mm, max 2030-1955-1880-1805 mm, ko'targich uzunligi 1100-1010-920-830 mm., tashqi o'lchamlari 1260x980x1400 mm, massasi 75 kg.)*



*12-rasm. Transmissiya agregatlari uchun harakatlanuvchi ustun (marka-5.1206, yuk ko'tarish qobiliyati 600 kg, ko'tarib olish balandligi 1125 mm, ko'tarish balandligi 1950 mm, tashqi o'lchamlari 375x305x112 mm, massasi 49 kg).*

mavjud. Texnik tasnifi: ko`tarish balandligi 390 mm, o`tish balandligi 110 mm, tashqi o`lchamlari 555x(1100x1450)x460 mm, og`irligi 140 kg.

*Ag'dargichlar* avtomobilga tag tomonidan xizmat ko`rsatish va ta`mirlashda avtomobilarni yonboshlatish uchun xizmat qiladi. Eng ko`p yuk ko`tarish qobiliyati 2 t va eng ko`p yonboshlatish burchagi 90° ni tashkil qiladi. Ular payvandalash, kuzov va bo`yoqchilik ishlarida hamda yengil avtomobillar tagiga zanglashga qarshi ishlov berishda ishlatiladi.

*Garaj domkratlari* harakatlanuvchi yuk ko`tarish mexanizmlari bo`lib, ular ko`tarish moslamasi va kuch hosil qiluvchi qismidan iborat bo`ladi. Ular avtomobillarning oldingi yoki orqa qismidan osish uchun xizmat qiladi. Ko`tarish mexanizmining turi bo`yicha gidravlik hisoblanib, qo`l bilan boshqariladi. Garaj domkratlarining yuk ko`tarish qobiliyati 1,6-12,5 t oraliqda bo`lib, ko`tarish balandligi 430-700 mm ni tashkil etadi. Shulardan biri 11-rasmida keltirilgan. Ularni ATK da qo'llash TXK va JT ishlarini pol ustidagi postlarda, kerak bo`lgan hollarda kutish postlarida tashkil qilishga imkon yaratadi.

**Ko`tarish-tashish jihozlari.** Katta ATK larda yuk ko`tarish qobiliyati 0,25-1 t dan iborat bo`lgan yakka relsli elektrotelferlardan va yuk ko`tarish qobiliyati 1-3 t bo`lgan osma kran-balkalardan hamda elektrokaralardan foydalaniлади. Kichikroq ATK larda esa harakatlanuvchi kranlardan foydalaniлади. Ularning yuk ko`tarish qobiliyati 1-2,5 t ni tashkil etadi.

*Yuk tashuvchi aravachalar* agregat va birikmalarini (uzatmalar qutisini, radiatorlarni, ko`priklarni, kardan vallarini, ressorlarni va h.k.) avtomobildan yechuvchi moslamalar bilan qurollangan bo`lishi mumkin. Bunga avtomobillar g`ildiraklarini, transmissiya agregatlarini va dvigatellarini yechish, tashish va o`rnatish aravachalari misol bo`la oladi. Bunday aravachalardan namunalar 12- va 13-rasmida tasvirlangan.

*Konveyerlar* oqimli qatorlarda avtomobilarni bir joydan ikkinchi joyga qo`zg`atish uchun xizmat qiladi. Ular ishslash prinsipi bo`yicha — uzlusiz yoki to`xtab-to`xtab harakatlanuvchi, avtomobilni harakatlantirish bo`yicha — itarib yuruvchi, ko`tarib yuruvchi va tortuvchi bo`lishi mumkin (14-rasm).

Hozirda bir kolejali itarib yuruvchi konveyerlar keng targalgan bo`lib, ular avtomobilarni oldingi yoki keyingi g`ildiragidan maxsus itargich yordamida harakatlantiradi (KX, 1,2-TX), ko`tarib yuruvchilar — maxsus lentalar ustida (15-rasm) avtomobilarni postdan postga ko`chirishda ishlatiladi (KX, 1-TX, 2-TX), tortuvchi konveyerlar — avtomobil oqimli qator bo`ylab o`rnatilgan ilgakka maxsus tross yoki zanjir yordamida biriktiriladi va ilgak qo`zg`alishi bilan harakatga keladi.

Konveyerlarni harakatga keltirish avtomat tarzda yoki uni boshqaruvchi operator yordamida amalga oshiriladi.



Konveyerlar asosan «Rosavtospesoborudovaniya» birlashmasi tomonidan ishlab chiqariladi. Ularning uzunligi 26-52 m gacha bo'lib, TXK dagi avtomobil larning turiga bog'liq bo'ladi.

Konveyrlarni qo'llash TXK texnologik jarayonini tashkil qilishni takomillashtiradi va ishlab chiqarish surati oshadi.

**TXK va JT uchun maxsuslashtirilgan jihozlar.** Avtomobilarga TXK va JT da sozlash va yechish-o'rnatish ishlarini bajarish uchun ajratish-yig'ish, ta'mirlash jihozlari ishlatiladi.

Bularga dinamometrik kalitlar (16-rasmi), turli asboblar to'plami, gaz balonli avtomobillar ta'minot tizimiga TXK va JT uchun, elektrotexnik va

14-rasm. Konveyerlarning turlanishi



15-rasm. Itarib yuruvchi konveyerning prinsipial shakli:

1-harakatlaniruvchi stansiya; 2-itaruvcchi aravacha; 3-zanjir; 4-tortuvchi stansiya; 5-yo'naltiruvchi yo'llar; 6-etaklovchi yulduzcha


boshqa turdag'i ishlarni bajarish uchun kalitlar to'plami ishlataladi. Misol tariqasida 17-rasmida 2446 modelli kalitlar to'plami keltirilgan.

2-TXK va JT postlarida maxsus gaykaburagichlar ishlataladi. Masalan, 1330 turidagi gaykaburagich yuk avtomobilari va avtobuslar g'ildirak gaykalarini qotirish va yechish uchun xizmat qiladi (19-rasm).


Gaykaburagichning ishlash prinsipi ulash vaqtida yetaklanuvchi valdan (9) uzatiluvchi maxovikda (3) hosil bo'lgan quvvatni ishlatalishdan iborat. Elektrdvigatelda hosil bo'lgan burovchi moment yassi tasma orqali yetaklovchi val maxovigiga (5) ikki kulachokli uzatgich (6), ikki kulachokli shlisali musta (7), prujina (8), yetaklanuvchi val, kallakli kalit (10) orqali richagning

#### *16-rasm. Dinamometrik kalit:*

1-almashtuvchi kallakni ushlagich; 2-ko'ssatgich; 3-egiluvchan sterjen; 4-shkala; 5-ushlagich.




#### *17-rasm. Avtochilangarning 2446 rusmdagi asboblar to'plami*



*18 - r a s m .  
Avtochilangarning K-  
4670 rusumdag'i metal  
idishli asboblar to'plami*

#### *19-rasm. 1330 modelli g'ildirak gaykasini qotirish va yechish gaykaburagichining prinsipial shakli:*


1-elektrdvigatel shkti; 2-harakatga keltiruvchi tasma; 3-maxovik; 4-to'xtatish richagi; 5-maxovik vali; 6-maxovikning ikki kulachokli uzatgichi; 7-ikki kulachokli shlisali musta; 8-prujina; 9-etaklanuvchi val; 10-yon yuzali kalit



(4) yoqilgan holatida uzatiladi. Birinchi yuklanishda burovchi moment 350-450 Nm ni tashkil etadi. 1000-1100 Nm moment hosil qilish uchun muftani 4-5 marta uzib ularash zarur. Gaykaburagichlardan foydalanish avtochilangarlarning ish sur'atini 3-4 barobarga oshiradi.


*R637, R638 va R658 turidagi agregat va birikmalarni almashtirish postlari* JT ishlarini bajarishda agregatlarni yechish va o'rnatish operatsiyalarini mexanizatsiyalashga imkon beradi. R637 turidagi post oldingi va orqa ko'priklarni, uzatmalar qutisini, orqa ko'prik reduktorini, resorni almashtirish uchun kengligi 1100 va chuqurligi 1200 mm li ko'rish ariqchasiga o'rnatilgan 5 t yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan harakatlanuvchan elektromexanik ko'targich bilan qurollangan. Undan tashqari post transmissiya agregatlardan moylarni to'kish moslamasi, g'ildiraklarni yechish va o'rnatish aravachasi, g'ildirak gaykalari uchun gaykaburagich, ressor sirg'alari uchun gaykaburagich, moy tarqatuvchi bak, asboblar to'plami bilan ta'minlangan avtochilangar uchun harakatlanuvchi post yuk avtomobillarini ramasidan osib qo'yish uchun moslamalar bilan ta'minlangan.

Bunday postlarni ATK da qo'llash ajratish-yig'ish ishlarida ish unumini 2-3 barobar tezlashtiradi. ATK dagi agregatlarni ta'mirlash va boshqa ustaxonalardagi ajratish yig'ish ishlarini bajarish uchun tuzilish jihatdan prinsipial bir xil bo'lgan (rama-1, ustun-2, harakatlantiruvchi mexanizm-3, agregatlarni qotirish uchun kranshteyn-4) har xil jihozlardan foydalaniladi (20-rasm). Agar aggregatning og'irligi katta bo'lsa, aggregat qotirilgan



**21-rasm.** Tormoz barabanlarini silliqlovchi va tormoz kolodkasining ishdan chiqqan qoplamalarini qirquvchi qo'zg'aluvchan moslama:

1-g'ildirak stupisasi; 2-tormoz barabani; 3-elektrodvigatel; 4-reduktor; 5-karetka; 6-qirqqich; 7-shpindel.



kronsliteynni kerakli burchakka burishni ta'minlovchi ustunga (2) qo'1 (3) yordamida yoki elektromexanik boshqariluvchi uzatma o'rnatiladi. MDH davlatlarida hozirgi vaqtida «Moskvich», «Jiguli», «Volga» yengil avtomobilari uchun R641 modelli, «ZMZ-53» va «ZIL-130» dvigatellari uchun R642 modelli «YAMZ-236», «YAMZ-238», «KamAZ-740», «KamAZ-741» dizel dvigatellari uchun R770 va R776 modelli, «Ikarus» avtobusi dvigatellari uchun R643 modelli jihozlar ishlab chiqariladi.

Ajratish-yig'ish ishlarida xuddi yuqoridagi tuzilishga ega bo'lган uzatmalar qutisining (R210 modelli, gidromexanik uzatmani R636 modelli), orqa ko'priq reduktorining (R640 modelli), oldingi va orqa ko'priknинг (2450 modelli) jihozlari ham ishlatiladi. ATK sharoitida tormoz barabanlarini tekislash va tormoz kolodkasi qoplamlarini yo'nish uchun maxsus moslama ishlatiladi, u qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas bo'lishi mumkin (21-rasm).

Hozirda yengil avtomobillar uchun R117 modelli, yuk avtomobilari uchun R114 modelli, yuk avtomobilari va avtobuslar uchun R159 modelli moslamalar ishlab chiqariladi. Ularni ATK da qo'llash ko'p hajmli ajratish-yig'ish ishlarini mexanizatsiyalashga imkon yaratadi, ishlab chiqarish sur'atini va ish sifatini oshiradi.

**Tozalash-yuvish jihozlari.** Yengil avtomobil va avtobuslarning kuzovi, yuk avtomobilining kabinasi va platformasini kir va changdan tozalashda elektr changso'rgichlardan foydalaniadi. Ular qo'zg'almas chang so'ravchi qurilma, qo'lda eltid yuruvchi va qo'zg'aluvchan kabi turlarga bo'linadi. Elektr chang so'rgich quyidagilardan tuzilgan: elektr shabadalatgich va changso'rgich uchida konussimon kallak va cho'tkali egiluvchan shlangalardan iborat. Chang so'rgichning havo so'rish bosimi 11-12 Pa oraliqda bo'ladi. Bunday changso'rgichlardan birining shakli 22-rasmda keltirilgan. Yirik ATK larda, avtobus saroylarida qo'zg'almas chang so'rgichlardan foydalanish katta samara beradi.

**Avtomobilarni yuvish jihozlari.** Avtomobilarni yuvish qurilmalari umumiyl va maxsus turlarga bo'linadi. Umumiy turdag'i yuvish jihozlari yuvishga qulay bo'lib, ular yordamida

*22-rasm. Tashqi tozalash ishlariga mo'ljallangan KSM 750 B XL turidagi supirish mashinasi (5 o.k. ga ega bo'lган Honda dvigatelli, ishlab chiqarish qobiliyati 4000 m<sup>2</sup>/soat, o'tish kengligi 100 mm, konteyneri 40 litr, ishchi tezligi 4 km/soat, tashqi o'lchamlari 1240x690x1150 mm, massasi 80 kg.)*



avtomobilning ostini ham yuvish mumkin. Bu ishlar maxsus maydonda va turli ko`rish arıqlarida, estakada va ko`targichlar yordamida bajariladi. Ko`rish arıqchalari devorlari, maydonchalari yuzasi nam o`tkazmaydigan lappakchalar bilan qoplanib, poli suv oson oqib ketishi uchun 2-3% qiyalikda bo`ladi.

Avtomobillar turiga hamda yuvish usuliga qarab, maxsus yuvgichlar qo`lda yuvish uchun moslashgan, mexanizatsiyalashgan, avtomatlashgan va aralash turlarda bo`lishi mumkin.




*Oddiy, qo`lda yuvish:* shlanga va sepkich yordamida past bosimli (0.2-0.4MPA) va yuqori bosimli (1-2.5MPA) bo`lishi mumkin.

*Mexanizatsiyalashgan zarrachali yuvish jihozlarining ishchi organi* forsunkalar (23-rasm) hisoblanib, ular suv yoki yuvish aralashmasini yetkazib beruvchi qo`zg`aluvchi yoki qo`zg`almas quvurli o`tkazgichlarga o`rnatilgan bo`ladi.

Zarrachali yuvish qurilmasi asosan yuk avtomobillari, o`zito`kgichlar, tirkama va yarimtirkama bilan ishlovchi avtomobillarni yuvish uchun mo`ljallangan.

*Cho`tkali yuvish jihozining asosiy organi* silindriksimon aylanuvchi cho`tkalar bo`lib, ularga naylar yordamida suv yoki yuvuvchi aralashma yetkazib beriladi. Ular yengil avtomobillar, avtobuslar va furgonli avtopoyezdlarni yuvishda ishlataladi.

*Shlangali yuvish jihozlari* kichik ATK larda ishlatilib, ular aravachaga o`rnatilgan agregatdan iborat. Agregat 6,5 MPa gacha bosim hosil qiluvchi plunjjerli yoki markazdan qochma nasoslardan, shlanga uchiga o`rnatilgan yuvuvchi kallakdan va yuvuvchi aralashma uchun sig`imdan iborat bo`ladi. Yuvuvchi kallakka teshigining diametri har xil bo`lgan forsunkalar o`rnatiladi.



23-rasm. Yuvish jihizi uchun mo`ljallangan forsunka turlari:

a-sozlanuvchi; b-sozlanmaydigan yon tomonidan sachratuvchi;

1-korpus; 2-o`tuvchi kanal; 3-teshikning konus halqasi; 4-gayka; 5-buraluvchi konus; 6-tiqin; 7-chegaralovchi gayka.



Horigda yuqorida ko'rsatilgan shlangali yuvish jihozlarining takomillashgan turlari qo'llaniladi. Ularda yuvish aralashmasining haroratini ko'tarish uchun maxsus isitgichlar qo'llaniladi. Jihoz yuvilayotgan yuzaga 80°C isitilgan suv zarrachasini 5-7 MPa bosmda va 140°C da isitilgan parli zarrachani 1,4-1,6 MPa bosmda yetkazib beradi. Havo issiq paytlarda isitgich o'chirilib suv yoki yuvish aralashmasi sovuq holda ham yetkazib berilishi mumkin.

Isitgichli jihoz hammabop bo'lib, ular avtomobilarning sirtini, tagini, dvigatellarini, agregatlarni bo'laklarga ajratilganda ularning detallarini, xonalarning devorlari va polarini yuvishda ishlatalishi mumkin. Bir necha turda ishlab chiqariladigan bu jihozlar suvni 750-3000 l/s hajmda yetkazib berishi mumkin.

M129 modelli avtomat (24-rasm) ravishda boshqariluvchi qo'zg' almas zarrachali yuvish jihizi yuvish postining ikki tomoniga o'rnatilgan ikkti oldingi (2) va ikkita orqa (3) yuvish mexanizmlaridan hamda suv yig'uvchi yuza ariqchadan iborat bo'ladi. Postga kirish oldidan ivitish ramkasi (4), postdan chiqishda chayish ramkasi (1) o'rnatilgan.

M129 modelli jihoz avtomobilning tagidan yuvishni ta'minlamaydi,

24-rasm. M129 modelli  
yuk avtomobillarini zarrachali yuvish jihizi




25-rasm. Harakatlanuvchi portalli avtomobillarni yuvish jihizi:

1-chiqindi yig'gich; 2, 4-tag kollektori uzatmasi richaglari; 3-tag kollektor uzatmasi tortqilari; 5-yuvilgan chiqindilar; 6-pastki kollektor elektr uzatmasi; 7-forsunkali yon kollektor; 8-sachratish forsunkalari; 9-himoya ekrani; 10-bosimli suv o'tkazgich; 11-buraluvchi kronshteyn; 12-quvurlar; 13-portal yo'naltiruvchisi; 14-portal ramasi.

shuning uchun takomillashtirilib M136 modeldagи jihoz ishlab chiqarilgan. Bu jihoz qо'shimcha ravishda pol sathiga o`matiladigan tebranuvchi forsunkalar bilan qurollangan, uning ishlab chiqarish qobiliyati avtomobilning turiga qarab 25-60 avt./soat ni, suv sarfi 200-500 l/avt. ni, suv bosimi 2MPa ni tashkil qiladi. Tirkama bilan ishlovchi avtomobillar va o`zito`kgichlar uchun harakatlanuvchi portalli zarrachali yuvish jihozlari ishlatiladi, ular birdaniga sirtqi va tag tomonidan yuvish ishlarini bajaradi (25-rasm).

Zarrachali yuvish jihozlarining afzallik tomonlari tuzilishining oddiyligi, kam metall sig`imiligi va hammabopliligidadir. Kamchiligi ko`p suv sarf qilishi va yengil avtomobillar va avtobuslarni sifatlari yuvmaslidigidir.

Cho`tkali yuvish jihozlari ishchi organining tuzilishi bo`yicha — harakatlanuvchi (yuvilayotgan avtomobilning sirti bo`yicha bo`ylama



26-rasm. Yengil avtomobillar uchun harakatlanuvchi cho`tkali yuvish jihoz:

1-buyruq tekshiruvchi; 2-portol roliklarini harakatga keltiruvchi dvigatel; 3,4,7-suv, aralashma va shampun sepuvchi forsunkali gorizontal yo'naltiruvchi; 6-shampunli bak; 8-firma emblemesi; 9- sintetik yuvish aralashmasi baki; 10-aylanuvchi havopurkagich; 11-yuvish aralashmasini tarqatuvchi forsunka; 12-buraluvchi kronshteyn; 13-vertikal cho`tkani harakatlaniruvchi dvigatel; 14-elektro`tkazgich; 15- gorizontal shetkani harakatlaniruvchi dvigatel; 16-avtomobilni quritish shamollatgichi; 17,21-yaltiratgich baklari; 18-forsunkalarning og`ish buchagini sozlovchi moslama; 19-echiladigan cho`tkaushlagishlar; 20-chap tomon cho`tkasi; 22-gorizontal cho`tka posongisi; 23-g`ildirak disklarini yuvish moslamasi; 24-relsli yo'l.

harakatlanadi, bunda avtomobil qo'zg'almay joyida turadi) va qo'zg'almas (bunda avtomobilning o'zi yoki u konveyer yordamida harakatlanadi) bo'lishi mumkin. Harakatlanuvchi jihozlar (26-rasm) arkadan iborat bo'lib, u yuvish postiga to'shalgan relsli yo'lda elektr yuritma yordamida harakatlanadi. Portalga elektr uzatmali 2 ta vertikal va 1 ta gorizontal cho'tka, purkagich (yuzani quritish uchun) o'rnatilgan.

Avtomobilni yuvish portalning 1 yoki 2 martadagi (ikki tomonga) harakatida bajariladi. Yengil avtomobilarni bu jihozlar yordamida yuvish uchun 5-6 daqiqa sarflanadi, shuning uchun bu jihozlardan uncha katta bo'limgan TXKS lari va ATK larda keng ko'lamda foydalaniladi.

Katta ATK larda yengil avtomobilarni avtomatik ravishda yuvish uchun mehnat unumdarligi 60 avt./s bo'lgan cho'tkali M130 rusumdagisi jihozlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, M130 yuvish jihizi, M131 g'ildirak disklarini yuvish jihizi va M132 quritish moslamasi bilan qurollangan, mehnat unumdarligi 60-90 avt./s ni tashkil etgan M133 rusumdagisi avtomobilarni yuvish oqimli qatoridan foydalaniladi.

Bundan tashqari, avtobuslar sirtini yuvish uchun cho'tkali yuvish jihozlari (M123 va M128) va «KamAZ», «MAZ», «Shkoda» avtopoyezdlarini va avtomobilarni yuvish uchun zarrachali-cho'tkali yuvish jihozlari (M127) ishlab chiqariladi. Ulardan birinchisi 5 ta harakatlanuvchi cho'tkadan tashkil topgan bo'lib, ishlab chiqarish qobiliyati 60 avt./s, ikkinchisi 7 ta cho'tkali bo'lib, ishlab chiqarish qobiliyati 80-120 avt./s ga teng. Moy qoldiqlari va smolalar bilan kirlangan detal va birikmalarni yuvish uchun M316 va M317 yuvish mashinalaridan foydalaniladi. Ular qo'zg'almas bo'lib, ifloslangan detal va birikmalarni yuvadigan kameralari mavjud. Detallarni yuvish forsunkalari bilan qurollangan aylanuvchi kollektorlar yordamida ishqorli eritmalarini purkash yo'li bilan amalga oshiriladi. Yuvish vaqt 10-15 daqiqa, qattiq kirlangan bo'lsa 20-30 daqiqa. Moslamaning tag qismida yuvish aralashmasi uchun bak, so'rish moslamasi va aralashmani tozalash filtri joylashgan. Moslamaning ichki qismi shamollatib turiladi.


**Avtomobilarni yuvishdagi yordamchi jihozlar.** Yuvish joylaridan chiqayotgan suv kanalizasiya tizimini, suv havzalarini va atrof-muhitni ifloslamasligi uchun loy tindirgich va moybenzintutgichlardan foydalaniladi. Loytindirgichning oddiy turi 27-rasmida ko'rsatilgan. Avtomobilarni yuvish posti (3) orqali suv maxsus idishga (2) oqib tushadi. Qattiq og'ir zarrachalar loytindirgichga tushib, tezligini yo'qotadi va tindirgich tubida to'planadi. Tozalangan suv quvur (5) orqali moybenzintutgichga (8) oqib keladi.

Suv loytindirgichdan quvur (1) orqali (27-rasm) qalpoq (2) ostiga quyilib quduqni (3) to'ldiradi (bu suv to'kkichning (4) yuqori qirrasigacha



suv to'lguncha amalga oshiriladi). Suv loytindirgichdan suv toshib chiqqandan so'ng, qurvur (5) orqali oqova suv (kanalizasiya) tarmog'iga oqib tushadi. Yuvish natijasida ifloslangan suv tarkibidagi yonilg'i va moy mahsulotlari maxsus «Moybenzentutgich» (28-rasm) qurulmasida tozalanadi. Bunda moy va benzinning solishtirma og'irligi (aralashma uchun o'rtacha 0,85) kichik bo'lgani uchun qopqoqning ustki qismiga to'planib, quduqdagi suv sathidan toshib chiqadi. Qopqoq kallagida to'plangan moy va benzin aralashmasi, qurvur (6) orqali idishga (7) quyiladi. Loyerdirgichda to'planadigan loyqani vaqtiga bilan tozalab turish uchun diafragmali nasosdan foydalaniлади. Bu loyni haydovchi nasos injektorli yoki pnevmatik turda bo'lishi mumkin. Loyerdirgichda to'plangan loyqa siqilgan havo yordamida tozalab tashlanadi. Loyerdirgich (2) tubida to'plangan loyqa elektromexanik uzatmali qopqoq (9) ochilib sig'imga (7) tushadi. Shundan so'ng, qopqoq berkilib, qurvur (1) orqali (suyuq loyqa hosil qilish uchun) idishga suv beriladi. So'ogra qurvur (8) orqali 0,4MPa dan kam bo'limgan bosim bilan siqilgan havo

#### *27-rasm. Loytindirgich*

1. Avtomobilarni yuvish joyidan keladigan qurvur. 2. Loytindirish joyi. 3. suv sathini chegaralovchi nov. 4. Tindirilgan suv ketadigan qurvur.



#### *28-rasm. Moybenzintutgich*



a) Ishlash shakli;  
b) Moybenzin aralashmasini ajratish. 1. Tindirilgan suv keladigan qurvur. 2. Moybenzin aralashmasi ajratish qalpog'i. 3. Moybenzintutgich qudug'i. 4. Suv sathini chegaralovchi nov.  
5. Tozalangan suvni oqova tarmog'iga o'tkazuvchi qurvur. 6. Moybenzin aralashmasini o'tkazuvchi naycha. 7. Moybenzin aralashmasi yig'iladigan idish.


yuboriladi. Idishda to'plangan loy, quvurdan (4) ( $\varnothing$  150 mm) bunkerga (avtomashinaga yuklab, jo'natish uchun) tushiriladi.

Bunday qurilma chiqindi suvini sifatli tozalashni ta'minlamaydi va o'rnatish uchun katta maydon talab qiladi. Shuning uchun bundan samaraliroq hisoblangan «KRISTALL» qurilmasidan foydalaniлади.

Agar ATK markazlashgan tartibda suv manbai bilan ta'minlanmagan bo'lsa va tashqi muhitni muhofaza qilish maqsadida avtomobil yuvishdan chiqqan suv tozalanib, undan qayta foydalanish mumkin. Buning uchun suv oqib tushadigan havzalarga, idishlarga, tozalash qurilmasi o'rnatiladi. Avtomobilarni yuvishda qaytadan foydalanadigan (zarrachalardan tozalangan) suv kimyoviy usulda (loyqatib, to'zitib) tozalanadi.

Bu qurilma asosan aralashmagan zarrachaлarni, qumlar va neft mahsulotlarini (tartib bilan filtrlab) tozalashga asoslangan. Qurilma filtrlash jarayonini tebranuvchi filtr hisobiga bajaradi. Tozalash qurilmalarini ixcham joylashgan hamda ish unumi bo'yicha turli xilda mavjud bo'lган «KRISTALL» (29-rasm) qurilmasining asosiy afzalligi tubdag'i chiqindi suvini sifatli tozalashidir.

Qurilmada ifloslangan oqindi suv yuvish postidan rezervuarga (1) oqib tushadi. Suv sathi me'yoriga yetganda, ko'rsatkich (datchik) ishlaydi va nasosni (2) ishlataladi, so'ngra quvur orqali vibrofiltrga (3) suv kela boshlaydi. Suv filtrlangandan so'ng u neft mahsulotlaridan qayta tozalash blokiga oqib tushadi; avval dag'al tozalash kamerasiga (7) va undan keyin toza svuni to'plovchiga (6). Qum va boshqa iflosliklar, vibrofiltrning konus qismida (4) to'planadi va bular vaqt-i-vaqti bilan tozalab turiladi. Neft qoldiqlari kameradan (5) to'plovchiga (8) o'zi oqib tushadi va u yerdan patrubka (9) orqali qurilmaga yoqib-kuydirib yuborish uchun to'planadi. Patrubka (10) suv va quyqani to'kib yuborish uchun xizmat qiladi. Toza suv sathi ma'lum darajasiga ko'tarilgandan so'ng, ko'rsatkich (datchik) yordamida nasos (11) ishlab,




29-rasm. Suvdan qayta foydalanishda ishlataladigan «KRISTALL» qurilmasi shakli

qayta foydalaniладиган сувни ювish постига yetkazib beradi. «KRISTALL» qurilmasining ish unumi rusumiga qarab 10 dan 120 m<sup>3</sup> gacha bo`ladi, filtrlangandan so`ng suvning iflosligi quyidagicha: qoldiq zarrachalar — 7-10 mg/l, neft mahsulotlari — 3-5 mg/l.

Diagnoz qo'yish jihozlari avtomobilni to'liq yoki uning alohida birikma va tizimlariga diagnoz qo'yish uchun mo'ljallangan. Avtomobillar texnik holati harakat xavfsizligini ta'minlash, tashqi muhitga ta'sir, tortish-iqtisodiy tafsiflar bilan baholanadi.

GOST25478-82 ga muvofiq tormoz xususiyatini tekshirish avtomobillar harakatlanish yo'li bilan va jihozlar yordamida bajarilishi mumkin (30-rasm). Avtomobillarning harakatlanishida tormoz tizimini tekshirish uchun to'liq yuklangan avtomobil teklis asfalt qoplangan yo'lda 40 km/soat tezlikda harakatlanadi va birdaniga tormozlanadi. Bu vaqtida tormoz yo'li va sekinlanish aniqlanib me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Qo'l tormozini tekshirish uchun avtomobil belgilangan qiyalikka qo'yilib, uning o'z-o'zidan harakatlanib ketishi tekshiriladi: bu to'liq vazndagi avtomobillar uchun 16%, yuklangan yengil avtomobillar va avtobuslar uchun 23%, yuklangan yuk avtomobili va avtopoyezdlari uchun 31% ni tashkil etadi. Avtomobillar harakatlanish davridagi tormoz tizimini tekshirish deselerometr (sekinlanishni aniqlovchi asbob) yordamida yoki oddiy nazorat yo'li balan bajariladi. Bu usul juda noaniq bo'lib, hozirgi vaqtida tormoz tizimini jihozlar yordamida tekshirish keng tarqalmoqda. Bu jihozlar (31-rasm) maydonchali va rolikli (32-rasm) bo'lishi mumkin.

Rolikli jihozlar kuchlar orqali ishlovchi va inersiyali turlarga bo'linadi. usulda avtomobil 6-12 km/soat tezlikda harakat qilib, uning g'ildiraklari (4) maydoncha (1) ustiga chiqqach birdaniga tormoz beriladi. Agar tormoz




*30-rasm. Avtomobillarning tormoz tizimini tekshirish usullari*


nosoz bo'lsa, avtomobil g'ildiraklari uning ustidan yurib o'tib ketadi, maydoncha esa harakatlanmaydi. Agarda tormoz soz bo'lib samarali ishlasa, g'ildiraklar aylanishdan to'xtaydi, natijada avtomobilning inersiya kuchi, jihozning surilish miqdori prujinalar orqali tuliq chegaralanmagan maydonchalarini (1) harakatga keltiradi. Maydonchalarining datchiklar orqali qabul qilingan roliklar (3) ustidagi harakati boshqarish pultidagi o'lhash asboblarida qayd qilinadi. Bu jihozlarning afzalliklari — oddiyligi, tezkorligi, kam metall va quvvat sig'irnligidadir. Kamchiligi esa g'ildiraklarning maydoncha bilan ilashish koefitsiyenti bir xilda emasligidadir (g'ildirak iflos bo'lishi, ho'l bo'lishi va h.k.), shuning uchun ham bu jihozlar kamroq ishlab chiqariladi.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklar rolikli jihozlarda kuzatilmaydi, shuning uchun ular butun dunyoga tarqalgan. Ular bir-biri bilan zanjirli uzatma yordamida biriktirilgan 2 ta bir juftli barabandan iborat. O'chirilganda elektromagnit mustalari orqali mustaqil dinamik tizimni tashkil qiluvchi barabanlarga aylanma harakat, 55-90 kvt. quvvatga ega bo'lgan elektrodvigateldan reduktor yordamida yetkazib beriladi. Rolikli tormoz jihozlarining afzalliklari, ular ko'sratkichlarining aniq va radiatsiz (g'ildirak va roliklar orasidagi ilashish koefissiyentini o'zgarmasligi sababli) aniqlashidadir. Kamchiligi esa uning yuqori og'irlilikka egaligidadir.

Hozirgi vaqtida kuchlar orqali ishlaydigan tormoz jihozlari keng tarqalmoqda, ularning prinsipial shakli 33-rasmida keltirilgan. Ularning tuzilishi inersiyali jihozga o'xshash bo'lib, faqatgina har bir juft rolik alohida reduktor orqali 4-13 kvt. quvvatga ega bo'lgan elektrodvigatellar bilan harakatga



*31-rasm. Tormozlarni tekshirishni maydonchali jihozining shakli*



*32-rasm. Rolikli inersion tormoz jihozlarining shakli:*

1-maxovik; 2-jihoz barabani; 3-zanjirli uzatma; 4-elektromagnitli mufta; 5-reduktor; 6-elektrodvigatel.


keltiriladi. Bu jihozlarning afzalliklari roliklarning aylanish tezligini kamligi va ko'satkichning aniqligidadir, kamchiligi esa og'irligida.

Takomillashtirilgan kuchlar orqali tortish xususiyatlarini tekshiruvchi stendlar ko'p tarqalgan bo'lib, ular quvvat ko'satkichlari bilan bir qatorda avtomobilning yoqilg'i-iqtisodiy ko'satkichlarini ham aniqlashga imkon beradi. Bu jihozlar 2 ta barabandan (33-rasm) bitta yoki ikkita bir juft barabandan tuzilgan, ulardan biri yuklovchi qurilmaga ulangan bo'ladi. Hozirgi vaqtda yuklovchi qurilmaning gidravlik va induksion tormozli turlari keng tarqalgan.

Bu jihoz yordamida tezlik, g'ildirakdagagi quvvat (yetaklovchi g'ildiraklardagi tortish kuchi), tezlanish va salt yurish ko'satkichlari, har xil yukanish va tezliklarda yonilg'ining sarfi aniqlanadi.

Yuqorida tilga olingan xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan jihozlarning bir necha turi 34- va 35-rasmarda keltirilgan.


**Chiqindi gazlar zaharlilikini aniqlashda** karbyuratorli avtomobillar uchun gazoanalizatorlar va dizel dvigatellari uchun dimomerlar ishlatiladi. Gazoanalizatorlar alohida yoki motor-testorlar bilan birligida ishlab chiqariladi. Hozirgi vaqtda infraqizil va katalitik turdagagi gazoanalizatorlar ishlatiladi. Birinchi turdagagi gaz tekshirichning ishlashi uzun to'lqinli infraqizil nurlarning gaz komponentlarini yutishiga asoslangan. GAI-2 (MDH) va INFRALIT (Germaniya) gazoanalizatorlari shular jumlasidandir. Ikkinci turdagagi gazoanalizatorlarining ishlashi elektr mosti yordamida chiqindi **gazlar** tarkibidagi uglerod oksidini yondirishga va natijada haroratning oshishini aniqlashga asoslangan. AST (Polsha), Elkon-S105A (Vengriya) va K-456 (MDH) rusumlari shular jumlasidandir. Dizel dvigatellarida chiqindi



33-rasm. Kuchlar orqali ishlovchi rolikli tormoz jihizi shakli:

1-rama; 2-rolik; 3-zanjirli uzatma; 4-val; 5-motor-reduktor; 6-yordamchi rolik; 7-avtomobil g'ildiragi; 8-bosim datchigi.


34-rasm. G`ildirak o`qiga 3,5 tonnagacha yuklanish ruxsat etilgan yengil avtomobillar uchun LPs 2020 turidagi kuchli jihoz (dvigatel qurvati 260 kVt, tezlik 260 km/soat yachta).



35-rasm. DMA 100 rusumli yo`l sharoitida tormoz tizimi samaradorligini baholovchi asbob (avtomobilning tormolanishidagi sekinlanishini, tezlik olayotgandagi tezlashishini hamda tormozlash tepkisiga ta`sir etuvchi kuchni aniqlaydi)

gazlarning tutash darajasi dimomerlar yordamida baholanadi va ular chiqindi gazlar tomonidan yorug`lik oqimini yutishi asosida ishlaydi. Bulardan tashqari, rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan, chiqindi gazlar tarkibidagi zaharli moddalarni aniqlovchi jihozlar 36- va 37-rasmlarda ketirilgan.

Diagnostikalash jihozlarining asosiy qismi avtomobilning alohida birikma va tizimlari (o`t oldirish, ta`minot, elektr jihozlari tizimlari, dvigatelning silindr-porshen guruhi va klapan mexanizmi, rul boshqarmasi, oldingi ko`priq va g`ildirak burchaklarini o`rnativish) uchun mo`ljallangan. O`t oldirish tizimini tekshirish uchun motor-testorlar (38-rasm) ishlatiladi.



36-rasm. DO-1 rusumli dizel dvigatellarning chiqindi gazlarni tezkor nazorat etish tutuno`lchash asbobi (gaz oqimini yoritish usulida ishlaydi, kuchlanishi 12 va 220 v yoki 24 va 220v, tashqi o`lchamlari: detektor 555x310x255 mm/3,2 kg, o`lchagich 200x190x150 mm/2,1 kg).


37-rasm. Avtotest-01.04 rusumli gazoanalizator-tutuno`lchagich (SO, SN, ayl/daq., tutash darajasini - o`lchaydi; 0-10% SO, 0-5000 ppm CH, 0-10000 ayl/daq., 0-10 m<sup>3</sup> / 0-100% tutash darajasi. Elektr iste`moli 12 i 220 V. Tashqi o`lchamlari 290x98x300 mm. Massasi 4,3 kg).

Uning tarkibida elektr zanjiridagi kuchlanish o'zgarishini baholovchi boshqarish pulti (8) bilan birgalikda ossillograf (5) va boshqa asboblar (voltmetr (9), taxometr (6), vakkummetr (7), gazoanalizator (10), o't oldirish va kontaktning yopiq holati burchagini ko'rsatuvchi ko'rsatkich (11) to'plami kiradi. Undan tashqari, o't oldirish burchagini aniqlovchi stroboskopik pistolet-lampa (12) ham mayjud. Har qanday turdag'i motor-testor datchiklar (1, 4) yordamida o't oldirish tizimiga ulanadi, ularning ikkitasi yuqori va ikkitasi past kuchlanishga ega bo'ladi. Birinchi datchik (past kuchlanishli) o't oldirish tizimining birlamchi zanjiriga, ya'ni yuqori kuchlanishli g'altakning birlamchi klemmasiga yoki uzgich-taqsimlagichdagi kondensator klemmasiga ulanadi. Ikkinci datchik (yuqori kuchlanishli) ikkilamchi zanjirga, ko'pgina hollarda taqsimlagichning yuqori kuchlanishli simidan oldin ulanadi. Uchinchi datchik (past kuchlanishli) avtomobilning korpusiga, to'rtinchi datchik (yuqori kuchlanishli) esa birinchi silindrini o't oldirish shamiga ulanadi.

Avvalgi uchta datchiklar birlamchi va ikkilamchi zanjirdagi kuchlanishlar tavsifini olishni, to'rtinchisi esa birinchi silindrning o't oldirish shamidagi signalni sinxronlashni ta'minlaydi. Sinxronlash asosan ossillografda hosil bo'lgan shakllarni taqqoslash bilan amalga oshiriladi va silindrلarning yaroqsizini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga stroboskop lampasi ham to'rtta datchik yordamida ishlab, 1-silindrning yondirish shamida uchqun hosil bo'lishi vaqtini ko'rsatadi.

Motor-testor ossillograf yordamida aniqlangan ko'rsatkichlarni me'yorly silogrammalar bilan taqqoslash orqali o'zgaruvchan tok generatori, kondensator va o't oldirish g'altagini birlamchi sim chulg'ami holati, taqsimlagich kontaktlari orasidagi tirkish va uning holatini, o't oldirish shamlaridagi kuchlanish va o't oldirish g'altagini ishlash qobiliyatini aniqlab beradi. Hozirgi vaqtida motor-testorlarning ikkinchi avlodni bo'lgan mikroprotsessori tizimiga asoslangan avtostestorlardan keng foydalanish diagnostika jarayonini to'liq avtomatlashtirish imkonini beradi. Bunday motor-testorlardan biri 39-rasmida ketirilgan.

*38-rasm. Motor-testor shakli*



O't oldirish tizimini diagnostikalashda quyidagi 40-rasmida keltirilgan stroboskoplardan ham foydalaniladi. U boshlang'ich o't oldirish ilgarilatish burchagini, markazdan qochma va vakuum sozlagichlarning ishlashini, aylanishlar sonini va uzgich-taqsimlagich kontaktining ochilib turish burchagini o'lchaydi.

Yoritish tizimini diagnostikalashda, eng asosiysi faralarning o'rnatilish burchagini tekshirish hisoblanadi. GOST25478-82 talabiga asosan faralarni tekshiruvchi diagnostikalash jihozlari faraning yoritish kuchi va yorug'lik oqimining yo'nalishini nazorat qilishni ta'minlashi zarur. Asbobning tuzilishini ixchamlashtirish maqsadida bu jihozlar optik kameralardan tayyorlanadi.

Hozirgi vaqtida zamonaviy avtomobilarda simmetrik (amerikacha) va asimmetrik (europacha) tizimli faralar qo'llanilmoqdi. Ularning bir-biridan farqi 41-rasmida keltirilgan bo'lib, asimmetrik tizimli faralarda yon tomonagi ekran hisobiga chap tomonagi yorug'lik oqimini lampaga qayta yo'naltirish bilan yorug'lik oqimini kuchaytiradi hamda yorug'lik nurini qarama-qarshi kelayotgan avtomobil haydovchisi ko'ziga tushishining oldini oladi. Simmetrik tizimli faralarda yorug'lik oqimini tekshirish, uzoqni ko'rsatuvchi chiroqni yoqqanda ekranda hosil bo'lgan ellipssimon yorug'lik izining joylashishini nazorat qilish bilan amalgalash oshiriladi. Yorug'lik izining markazi ekrandagi

### *39-rasm. KAD-400-rusumli dvigatellarni kompyuterli diagnostikalash kompleksi*

(KAD-400 ning tarkibiga personal kompyuter, motortestor, skaner MT-2E, ossilograf MO-2 va generator GS-1 kiradi. MT-2E kompyuter skaneri «VAZ», «GAZ» va «UAZ» avtomobillarining elektron boshqarish bloki tizimini nazorat etish uchun mo'ljallangan)



*40-rasm. DA-3100 benzinda ishlorchi dvigatellarning o't oldirish tizimini nazorat qiluvchi riqamli stroboskop.*



tik va yotiq chiziqlarning kesishish markazida bo'lishi kerak. Asimmetrik tizimli faralarda esa yorug'lik oqimi yaqin chiroqni yoqqanda tekshiriladi. Bu holda yorug'lik oqimi (5) bir yerga to'planmaydi, shuning uchun asbobning ekranida (6) yorug'lik izi emas, balki yorug'likning bir tekis tarqalishi kuzatiladi. Bu vaqtida ekranda yoritilgan va soyalashgan yuzalarning chegarasi (7) aniq ko'rindi. Bu chegara ekrandagi etalon chegarasi (8) bilan taqqoslanadi, agar izlar chegarasi bir xil bo'lmasa, yoritgichni sozlash zarur bo'ladi.



**Ta'minot tizimini diagnostikalash asboblari** karbyurator va dizel dvigatellari uchun mo'ljallangan bo'ladi. Karbyuratorlarni tekshirish uchun 489A modelidagi moslamalardan foydalaniladi, u karbyuratorning avtomobilda ishslash jarayonini namoyon qiladi va kiritish quvuro'tkazgichlarida aerodinamik qarshilikni aniqlaydi. Yonilg'i nasosini tekshirish avtomobilning o'zida 527B yoki K436 modelli jihozlar yordamida amalga oshiriladi. Jihozlar eng yuqori bosim klapanlarining o'rindig'iga zich o'tirishini va birikmaning zichligini aniqlaydi.

Dizel yoqilg'i apparatlarini tekshirish uchun K261 modelli maxsus analizator yoki SDTA-1 va SDTA-2 turkumidagi jihozdan foydalaniladi. Bu jihozlar dvigatel tirsaklı valining va yonilg'i nasosi kulachokli valining aylanishlar chastotasini hamda sepilayotgan yonilg'i ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi.

Eng asosiy asboblardan biri yonilg'i sarfini aniqlash asbobi hisoblanadi. Hozirgi vaqtida avtomobil transportida 3 xil turdag'i yonilg'i sarfini tekshirgichlardan foydalaniladi. Ular hajmiy, og'irlikli va retometrik turlarga bo'linadi. Hajmiy va og'irlikli asboblarda belgilangan hajmdagi yonilg'ini vaqt yoki yurish oralig'ida sarflash hamda yo'lga yoki vaqtga nisbatan sarfni hisoblashdan iborat. Uchinchi turdag'i saif aniqlagich asboblar uzlusiz ishlovchi bo'lib ular har qanday vaqtida yonilg'i sarfini ko'rsatib turadi.

O'zining oddiyligi tufayli karbyuratorli avtomobillarda hajmiy yonilg'i

**41 -rasm .**  
Simmetrik (a) va  
asimmetrik (b)  
yoritgichlarni  
tekshirish va sozlash  
shakli



surf aniqlagichlari keng ko'lamda ishlatalib kelinmoqda, 42-rasmida xuddi shunday asbobning prinsipial shakli keltirilgan.


U kengaytirish bachogi (1), yonilg'i ini ulash va o'chirish uchun uch tomonlamali kran (2), yonilg'i hajmlarini nazorat chiziqchalari (4) bilan belgilangan o'lhash kolbasidan (3) tuzilgan. Yonilg'i yonilg'i nasosidan kengaytirish bachogiga uch yo'nalishli kran orqali tushib karbyurator tomon harakatlanadi. Yonilg'i ini tekshirish vaqtida avtomobilning belgilangan tezligi va yuklanishi vaqtida uch yo'nalishli kran orqali benzin karbyuratorga o'lhash kolbasidan kela boshlaydi. O'lhash kolbasi fotoelementlar bilan chegaralangan bo'lib, yonilg'i tepa chegaradan pastga tusha boshlagach hisoblagich yoki sekundomer yoqiladi, yonilg'i pastki chegara chizig' idan o'tgach, hisoblagich yoki sekundomer o'chadi. O'lhash kolbasidagi belgilangan miqdor yonilg'ining qancha vaqtga yoki yo'lga yetganligi aniqlanadi. Hisoblash jadvallariga muvofiq aniqlangan ko'rsatkich bo'yicha avtomobilning chiziqli yonilg'i surfi aniqlanadi.

Og'irlik o'Ichovli surf aniqlagichning ishlash jarayoni xuddi yuqoridagi kabi bo'lib, faqatgina o'lhash kolbasi o'miga tarozida turuvchi sig'im ishlataladi.

Mikroelektronika va avtomatikaning eng oxirgi yutuqlaridan hisoblangan uzlusiz surf aniqlagichlar texnologik jihatdan juda qulay va bularni ishlab chiqarish xorijiy davlatlarda va bizda endigina tarqalmoqda. Bu surf aniqlagichlar avtomobilning o'ziga o'rnatilishi va ulardan olinayotgan ma'lumotlarni jihozlarda bevosita ko'rish, yonilg'i sarfini aniqlashda qo'laylik to'g'diradi.

**Silindr-porshen guruhining va klapan mexanizmining holati siqish takti** oxiridagi bosim (kompressiya) orqali aniqlanadi. Tekshiruv har bir silindr uchun karbyuratorli avtomobillarda 1 MPa gacha shkalasi bo'lган, dizel dvigatellarida esa 6 MPa gacha shkalasi bo'lган kompressometrlarda bajariladi (43-rasm).

Siqish takti oxiridagi bosim yoki kompressiya dvigatel 70-80°C gacha qizdirilgach aniqlanadi. Kompressometrning rezinkali konussimon kallagini yondirish shami teshigiga o'matib starter yordamida tirsaklı val aylantiriladi va jihozning ko'rsatkichi hisoblanadi. Dizel dvigatellaridagi kompressor 80°C



42-rasm. Hajmiy turdag'i yonilg'i sarfini aniqlagichning shakli:  
1-kengaytirish bachogi; 2-uch tomonlamali kran; 3-o'lhash kolbasi;  
4-yonilg'i hajmlarini nazorat chiziqchalari

haroratda 450-550 ayl./daqiqada tezlikda salt yurishda har bir siindr uchun aniqlanadi. Kompressometr tekshirilayotgan silindrning forsunkasi o'rniga qo'yiladi.

Silindrlerning unumli ishlashini K484 jihozisi yordamida aniqlash mumkin, uning ishlashi silindr o'chirilganda dvigatel tirsakli vali aylanishlar sonining kamayishini o'lchashga asoslangan. Agar silindr o'chirilganda aylanishlar soni o'zgarmasa, bu holat silindr ishlamayotganligini ko'rsatadi. K272 asbobi (44-rasm) yordamida silindriga yuborilgan siqilgan havoning sarfi aniqlanadi.




43-rasm. Manometri (a) va o'zi yozuvchi (b) kompressometrlar

U juda oddiy va tezkor bo'lib, ko'rsatkichlar yordamida silindr va porshen halqalarining yedirilganligi, klaparlarning kuyganligi va nozichiligi, klapan prujinalarining sinishi, porshen halqalarining sinishi, blok kallagi tiquining kuyganligini aniqlash mumkin.

Nuqsonlarning mavjudligi siqilgan havoning silindriddagi sarfiga qarab aniqlanadi. Bunda siqilgan havo qizdirilgan dvigatelga reduktor (3) va shtutser (10) orqali mufta yordamida ulangan shlangadan yuboriladi. Yuqorida ko'rsatilgan nuqsonlardan birining bo'lishi silindr va o'tkazgich (4) orasidagi havo bosimining pasayishiga olib keladi hamda uni manometr (5) ko'rsatadi. Siqilgan havo sarfini aniqlashda porshen yuqori o'lik nuqtada bo'lishi kerak. Olingan ma'lumotlar me'yoriylari bilan taqqoslanadi.

**Rul boshqarmalari** umuman K187 turidagi asboblarda aniqlanadi. U umumiyluvti (rul chambaragi burilish burchagi bo'yicha) hamda umumiylishtish qurʼani shinalar kontakt ishqalanishlarining olidini olish uchun oldingi g'ildiraklar osib qo'yiladi va maxsus dinamometr yordamida rul cham-



44-rasm. Dvigatel silindrlerining porshen ustki qatlami zichligini tekshirish jihozining principial shakli:

1-tez yechiluvchi mufta; 2-kirituvchi shtutser; 3-reduktor; 4-kalibrlangan o'tkazgich; 5-manometr; 6-manometr strelkasi dempferi; 7-sozlovchi vint; 8-chiqaruvchi shtutser; 9-ulovchi mufta; 10-maxsus shtutser.


baragini aylantirish kuchi o`lchanadi. Gidrokuchaytirgichlar bilan qurollangan rul tiziqlariga xizmat ko`satishda K465M modelli jihozlardan foydalaniildi. Ular tizimning zinchligini, gidravlik nasos bosimini va ishlab chiqarish qobiliyatini aniqlashga yordam beradi.


**Yuk avtomobilari oldingi ko`prik shkvoren birikmasining holati T-1** modelli jihoz yordamida aniqlanadi. Uning ishlash tartibi keyingi bo`limlarda keltirilgan. G`ildiraklarni o`rnatish burchaklarini nazorat qiluvchi jihozlarning turlari juda ko`p.

Oldingi g`ildiraklarni o`tuvchi platformali yoki reykali o`rnatish burchagini aniqlovchi jihozlar (45-rasm), avtomobil g`ildiraklari geometrik joylashuvini ekspres diagnostikalash uchun mo`ljallangan. Agar g`ildirakning o`rnatish burchaklari me`yoriga mos kelmasa, shinalarning kontakt joyida yon tomondan ta`sir etuvchi kuch hosil bo`ladi. U platforma yoki reykaga ta`sir qilib siljitimsga olib keladi. Bu ko`satkich o`lhash moslamasida hisobga olinadi.

Aylanuvchi barabanli jihozlar avtomobil boshqaruvchi g`ildiragining kontaktlarida yon tomondan ta`sir qiluvchi kuchni aniqlashga mo`ljallangan. Buning uchun avtomobil jihoz ustiga qo`yiladi va uning barabarlari elektrodvigatel yordamida aylantiriladi. Rul chambaragi yordamida har bir boshqaruvchi g`ildirakka ta`sir qilayotgan kuch asboblar yordamida tenglashtiriladi. Agar ko`satkich me`yoridan farq qilsa o`rnatish burchaklari sozlanadi.

Statik ravishda g`ildiraklarni o`rnatish burchaklarini nazorat qiluvchi jihozlar shkvoren o`qining bo`ylama va ko`ndalang og`ish burchagini, burilish burchaklarining farqini va yaqinlashuv burchagini aniqlash uchun xizmat qiladi. Buning uchun asbob avtomobil g`ildiragiga qotirilib suyuqliklik posongi («shayton») «gorizont» holatiga keltiriladi (46-rasm, a). G`ildirakni o`ng va chap tomonga burab, qanday burchakka og`ishi aniqlanadi. Bu burchak g`ildirakni o`rnatish burchagi kattaligini beradi. 46-rasm, b-da sterjenlarning qisqarishi orqali g`ildiraklarni o`rnatish burchagini aniqlash qurilmasining





**46-rasm.** G'ildiraklarni statik tarzda nazorat qilish anjomlari: 1-shaytonli asbob; 2-yo'nalti-ruvchili o'lchash kallagi; 3-o'lchash sterjenlari; 4-g'ildirakka qoti-riluvechi tayanch disk; 5-proyektor; 5-o'lchash shkalasi bo'lgan nur tarqatish manbai; 6-ko'zguli nur qaytaruvchi

shakli keltirilgan. Bu turdag'i K622 jihozini yengil avtomobilarga mo'ljallangan bo'lib, uni yuk avtomobilari uchun ham takomillashtirish mumkin.

Yorug'lik shu'lesi bo'yicha aniqlashda avtomobillar g'ildiragiga ingichka yorug'lik yoki lazer nuri jo'natuvchi proyektor o'matiladi (46-rasm, c).

G'ildirakning joylashishi shkala bo'yicha o'zgartirilib, uning o'rnatish burchaklari ketma-ket aniqlanadi. Bu turdag'i jihozlarga yengil avtomobilari uchun K111, yuk avtomobilari uchun K621 jihozlari misol bo'la oladi. Qaytariluvchi nur bo'yicha aniqlashda, avtomobil g'ildiragiga uch qirrali nur qaytargich oynak qotiriladi. Bunda markaziy oynak g'ildirakning tebranish tekisligiga parallel bo'lishi kerak, oynakka vizer simvolli nur yuboriladi (46-rasm, d).

G'ildiraklar holatini o'zgartira borib uni vizer holatiga solishtirish yo'li bilan ularning o'matilish burchaklari aniqlanadi. Bu turdag'i jihozlar (1119M modeli) ATKlarda juda ko'ptarqalgan, chunki ular ishonchli va unda ishlash juda oddiy. Faqat yaqinlashuv burchagini aniqlash uchun maxsus teleskopik lineykadan foydalaniлади, у juda oddiy bo'lib hamma avtomobillar uchun mo'ljallangan. Bu lineykadan yuqorida qayd qilingan jihozlar bo'lmagan taqdirda foydalanim mumkin, chunki uning anqlik darajasi qo'zg'almas jihozlarga qaraganda 2-4 barobar past bo'lib zamonaliviy avtomobillar uchun yetarli darajada emas.

**Moylash-to'ldirish jihozlari.** Bu jihozlar yuqori ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan TXK postlaridagi qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan turlarga bo'linadi. Moy yoki suyuqlik tarqatish-so'rish moslamasi yordamida amalga oshirilib, elektr dvigatel yoki siqilgan

havo yordamida ishlaydi. Ba'zi bir jihozlar qo'l bilan boshqarilishi ham mumkin. Ixtisoslashtirilgan moylash va to'ldirish postlarida S101 rusumdag'i moslamalar amaliyotda ko'proq tarqalgan (47-rasm). Moslama o'zi o'raluvchi 5 ta barabanli shlangalardan, motor hamda transmissiya moylarini tarqatish kallaklaridan iborat.

Moy va surkov moylari tarqatuvchi shlangalarga bochka va sig' imlarga o'matilgan pnevmatik nasoslar yordamida yetkazib beriladi. Bo'shagan bochkalar yangisiga almashtiriladi.


Suyuq moy tarqatishda bosim 0,8 MPa gacha yetadi. Surkov moylarini yetkazib berishda esa ishchi bosim 25-40 MPa ni tashkil etadi.

Bosimning yuqori bo'lishiga sabab, ishqalanib ishlovchi birikmalarida hosil bo'ladigan yedirilish mahsulotlarini yetkazib beruvchi kanallarga tigilib qolishidadir. Ba'zi hollarda qo'l bilan harakatlanuvchi moylash jihozlaridan ham foydalilanadi. Rasmida ko'rsatilgan devorga qotiriluvchi moslama, polga o'matiluvchi (S101-1 modeli) va shiftga o'matiluvchi (S102 modeli) variantlarda ham ishlab chiqariladi.

Sanoatda bir moy turiga mo'ljallangan moy tarqatuvchi moslamalar ham ishlab chiqariladi. Motor moyini tarqatishga mo'ljallangan moy tarqatish kolonkasi (3155M1 rusumli) moy sarfini hisoblashi va kerak bo'lganda uni isitib berishi ham mumkin.

367M4, 397A, S228 va boshqa rusumlar moyni isitib bermaydi. Transmissiya moyini tarqatish uchun 3119M, 3161 va boshqa turdag'i moslamalar ishlab chiqariladi. Ularda moyning sarfini hisobga oluvchi hisoblagichlar yo'q. Plastik surkov moylari uchun S321, 1127 va boshqa turdag'i moy tarqatgichlar ishlab chiqariladi. Ularning turlari va texnik tavsifi yuqorida keltirilgan.

Bu moslamalarning texnik tavsifi yuqoridagilardan unchalik farq qilmaydi, faqatgina yetkazib beruvchi nasos va moy (surkov moyi) sig' imlarining tuzilishi bilan farq qiladi. Gidravlik tormoz tizimini to'lg'izish, undagi havoni chiqarish va suyuqlikni almashtirish uchun 326 modelli moslamadan foydalilanadi. U sig'imi 10 litr hajmdagi bakdan iborat bo'lib, tormoz suyuqligini 0,3 MPa



47-rasm.  
Mexanizatsiyalashgan moy tarqatish moslamasi

bosim ostida shlang va rezbali shtutser orqali bosh silindrga yetkazib beradi. Bu moslamada bir ishchi tormoz suyuqligini almashtirish yoki tizimdagi havoni chiqarishi mumkin.

**Avtomobilning tag qismiga** zanglashga qarshi suyuq qoplamlalar bilan ishlov berish uchun 183M1 modelli harakatlanuvchi moslama ishlab chiqariladi. Zanglashga qarshi qoplamaning (qovushqoqligi  $70\text{--}150 \text{ mm}^2/\text{s}$ ) havo bilan aralashmasi avtomobilga  $0,5\text{--}1,0 \text{ MPa}$  bosim ostida aralashtirgich orqali sepiladi. Hozirgi vaqtida avtotransport korxonalarida avtokaralarga yoki kichik avtomobillarga o'rnatilgan kichik hajmdagi moy, issiq suv, siqilgan havo tarqatuvchi moslamalar keng tarqalmoqda. Mazkur moslamalarga kuchli akkumulyator batareyalari ham joylashtirilgan bo'lib, ulardan qish vaqtida avtomobillar usti ochiq holda saqlanganda, agregat va mexanizmlarni to'lg'azish hamda avtomobilni ishga tushirishni yengillashtirishda foydalaniladi.

*a. 33024-rusumli  
harakatlanuvchi motor va  
transmissiya moylarini  
tarqatish qurilmasi. Sig'imi  
24 litr va sathni tekshirish  
indikatoriga ega.*



*b. 46115-rusumli moyni  
so'rib oluvchi vakuumli  
qurilma. Sig'imi 115 litr.  
Harakatlanuvchi 14 litr  
sig'imga ega bo`lgan to`kish  
vannasiga va sathni tekshirish  
indikatoriga ega.*

*c. 30200-  
rusumli motor va  
transmissiya  
moylarini stan-dart  
bochkalaridan  
tarqatish qurilmasi.  
Aravacha va  
hisobla-gich  
yordamida  
operatsiyalar  
bajariladi.*



*d. 42050-  
rusumli Standart  
baklarga ishlatilgan  
moylarni yig`ish  
majmui. Majmuga  
60 litrli bochka,  
balandligi 1300-  
1800 mm ga  
sozlanadigan 13  
litrli to`kgich va  
aravacha kiradi.*

**48-rasm. Moy tarqatish va yig`ish jihozlari.**

# **AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO`RSATISH VA JORIY TA`MIRLASH TEXNOLOGIYASI**

## **DVIGATEL VA UNING TIZIMLARI**

Dvigatelning ekspluatatsiyasi jarayonida detallarning tabiiy yeyilishlari, to'satdan ishdan chiqishi, ish qobiliyatini yo'qotishi natijasida silindr porshen guruhi (SPG), krivoship shatun mexanizmi (KShM) va gaz taqsimlash mexanizmi (GTM) hamda boshqa birikma va agregatlarda turli nosozliklar paydo bo'ladi.

SPG ning asosiy nosozliklariga silindrлarning, porshen halqalari va ariqchalarining, porshen bobishkasidagi devor va teshiklarning, shatun kallagi vtulkalarining, tirsakli val bo'yinlaridagi vkladishlarning yeyilishi, porshen halqalarini qurum bosib qolishi kiradi. Asosiy ishdan chiqishlarga esa porshen halqalarining sinishi, silindr yuzasining yeyilishi, porshenning tiqilib qolishi, podshipniklarning erishi, silindr bloki va uning kallagida darzlar hosil bo'lishi misol bo'la oladi.

KShM nosozligining alomatlariaga dvigatel silindrлaridagi kompressiyaning yo'qolishi va uning shovqin bilan ishlashi, ko'p miqdorda gazlarning karterga o'tib ketishi va moy quyish bo'g'zidan quyuq tutun chiqishi misol bo'ladi.

GTM ning asosiy nosozliklariga turtgich va vtulkalarining, klapan tarelkalari va o'rindiqlarining, shesternyalarining, gaz taqsimlash vali tayanch bo'yinlarining va kulachoklarining yeyilishi, klapan va koromisla orasidagi tirqishning buzilishi kiradi. Ishdan chiqishlarga esa klapan prujinalari elastikligining yo'qolishi va sinishi, gaz taqsimlash shesternyasining sinishi va klapanlarning kuyishi misol bo'ladi.

Gaz taqsimlash mexanizmining shovqin bilan ishlashi, karbyuratorдан alanga chiqishi va tutun so'ndirgichdan shovqin chiqishi nosozlik alomatlari hisoblanadi.

**KShM va GTM ga texnik xizmat ko'rsatish.** Dvigatelning buzilishi va unda hosil bo'luchchi nosozliklarning oldini olish maqsadida avtotransport korxonalarida kompleks profilaktik tadbirlar bajariladi. Bu ishlar



diagnostikalash, KXK, 1-TXK, 2-TXK va MX davridagi dvigatel bo'yicha mahkamlash, diagnostikalash, sozlash va moylash hisoblanadi. Shu jumladan, zamonaviy yengil avtomobillar uchun ham shu maqsadda davriy servis xizmat ko'rsatish ishlarini bajarishda yuqorida keltirilgan operatsiyalar bajariladi. Xizmat ko'rsatish davrida asosiy e'tibor mahkamlash va nazorat-sozlash ishlariga qaratiladi.

**Mahkamlash ishlarini** bajarishdan maqsad dvigatel birikmalarining (dvigatelning rama tayanchiga, silindr kallagi va karterning silindrlar blokiga va h.k.) germetikligini tekshirishdan iborat. Gaz vasovutish suyuqligi chiqib ketmasligining oldini olish uchun silindr kallagini blokka mahkamlash momenti tekshiriladi. Bu vazifa avtomobilarni ishlab chiqaruvchi zavod ko'rsatmasiga binoan belgilangan ketma-ketlikda (49-rasm) hamda me'yoriy burash momentida dinamometrik kalitdan (16-rasm), avtochilangar asboblari to'plamlaridan (17- va 18-rasmlar) foydalananib bajariladi. Cho'yan kallaklar issiq holatda, alyumin kallaklar esa sovuq holatda mahkamlanadi.

**KShM va GTM bo'yicha diagnostikalash ishlari.** Amaliyot shuni ko'rsatadiki dvigatel bo'yicha nosozliklar va buzilishlarning asosiy qismi GTM va KShM zimmasiga tushadi hamda bajariladigan ish hajmining yarmidan ortig'i shu nosozlik va buzilishlarni bartaraf etishga sarflanadi. Ko'rsatilgan mexanizmlarni diagnostikalash, ularning diagnostika ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat bo'lib, bu ishlar dvigateli bo'laklarga ajratmasdan turib bajariladi.

*Porshenning yuqori qismi zichligi bo'yicha diagnostikalash ishlari uning kompressiyasini, karterga o'tuvchi gazlar miqdorini, moyning kamayishini, kiritish taktidagi havoning siyrakligi, sifilgan havo silindriga yuborilganda uning bosimi pasayishini aniqlashdan iboratdir.*

*Dvigatel kompressiyasi bo'yicha:* bu ish akkumulyator batareyasi tirsaklı



49-rasm. KamAZ-740  
(a), ZIL-130 (b) va Neksiya  
(c) dvigatel-larinining silindr  
kallakkani gaykalarini  
mahkamlash ketma-ketligi

valni aylantira olish chastotasida silindrda hosil bo'ladigan bosimni aniqlashdan iborat. Kompressiyani aniqlash qizdirilgan dvigatelda va maxsus jihozlar yordamida (43-rasm) bajariladi. Dvigatellarning turiga qarab bu ko'rsatgich, karbyuratorli dvigatellar uchun 0.44-12 MPa ni, dizel dvigatellari uchun kami bilan 2 MPa ni tashkil qiladi. Kompressiya, kompressometr yoki kompressografi yordamida, sham yoki forsunka o'midan aniqlanadi (bu ko'rsatkich me'yordan 30-40 % dan kam bo'lmasligi kerak).

*Moyning kamayishi bo'yicha:* avtomobilni ekspluatatsiya qilish davrida moy sathi me'yorigacha to'ldirish yo'li bilan aniqlanadi. Moyning kamayishi halqlalar yeyilishi va klapanlar zichligining buzilishi natijasida sodir bo'ladi. Moy sathi me'yordan kamayishi yoki ko'payishi dvigateldan chiqadigan gazlarning rangi o'zgarishiga olib keladi. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, u avtomobil eksplutasiyasi bilan bog'liq bo'lib, faqt halqalarning yeyilishi bilangina emas, balki klapan vtulkalarining yeyilishi va zichlik buzilishi oqibatida ham bo'lishi mumkin.

*Gazlarning karterga o'tishi* silindr-porshen guruhi (SPG) detallarining yeyilishiga bog'liq bo'lib, ish jarayonida ko'payib boradi. Gazning hajmi, diagnostikalash jihizi yordamida, yuklanish va eng katta burovchi momentda aniqlanadi. U gaz hisoblagichigi yordamida aniqlanib, moy o'lhash tayoqchasi o'miga ulanadi va ma'lum vaqt ichida karterga o'tgan gaz miqdori aniqlanadi.

*Kiritish taktidagi havo siyrakligi* havo to'ldirish tezligiga, kompressiyaga, havo tozalagich karshiligidagi, klapanlarning egarida to'liq o'tirmasligiga va ish jarayonining notejis borishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun havoning siyrakligi va uning doimiyligi dvigatel texnik holatini xarakterlaydi. Havoning siyrakligi vakuummetr yordamida, kiritish kollektori orqali anilanadi. Dvigatel mexanizmlari holatini aniqlash, ta'minot va o't oldirish tizimlari sozlangandan so'ng bajariladi.

Dvigatelning soz holda, uni starter bilan aylantirganda ko'rsatgich 0.5-0.57 MPa ni hamda salt yurishda 0.64-0.745 MPa ni tashkil etishi va bu ko'rsatgich o'zgarmay turishi kerak.

*Siqilgan havoning silindrda chiqib ketishi bo'yicha:* bu vaqtida porshen yuqori yoki pastki o'lik nuqtada, klapanlar berkilgan holatda bo'ladi, diagnostikalash natijasida porshen halqalarining yeyilganligini, ular egiluvchanligining yo'qolganligi, singan yoki qurum bosib qolganligini, silindrning yeyilganligini, klapanlar va porshenlar zichligi buzilganligini aniqlash mumkin.

Dvigatel holati K-69M pribori yordamida, sham yoki forsunka o'midan silindirga yuborilgan havo sarfini monometr yordamida aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

*Shovqin va tebranishlar bo'yicha:* mexanizmlarning ishlashi jarayonida

tebranish va shovqin hosil bo`ladi. Bu shovqinlar chastotasi balandligi va fazasi maxsus asbob yordamida aniqlanadi va etalon ko`rsatgich bilan solishtirib texnik holat aniqlanadi.


*Karterdag'i moyning ko'rsatgichlari bo'yicha:* dvigatel detallarining yeyilishi, havo va moy filtrining ishlash sifati,sovutish tiziminining zichligi, moyning yaroqli yoki yaroqsizligi aniqlanadi. Buning uchun vaqtiga vaqtiga bilan karterdag'i moydan namuna olib turish, uning qovushqoqligini, tarkibidagi suv, kremniy va yedirilgan mahsulotlar miqdorini aniqlab turish kerak. Moydag'i bu mahsulotlarning miqdori bilan birikmalarining texnik holati aniqlanadi. Kremniy miqdorining oshishi — havo tozalagichlarning nosozligini, suvning paydo bo`lishi — sovutish tiziminining nosozligini, qovushqoqlikning kamayishi — moyning yaroqsiz holga kelib qolganligini ko`rsatadi.

Dvigatellarda KShM va GTM bo'yicha sozlash ishlari klapan sterjenining yuqori qismi bilan turtgichlar yoki koromislolar oralig'i idagi tirkishni sozlash, dvigatel tayanchining rama bilan birikmasini qotirish, silindrlar kallagi va karterni silindr bloki bilan birgalikda qotirish ishlardan iborat bo`lib, diagnostikalash ishlari natijasiga ko`ra bajariladi.

Klapan tirkishlarini sozlash ishlari 2-TX da yoki zaruratga ko`ra bajarilib, GTM ning ravon ishlashini ta'minlaydi, gaz taqsimlash jarayonini me`yorlaydi, silindrlarning yonilg'i aralashmasi bilan to`lishini ta'minlaydi. Bular o`z navbatida dvigatelning quvvati va kompressiyaning oshishiga imkon yaratadi.

Silindr, silindr kallagi, shtanga va klapanlarning yuritma mexanizmidagi boshqa detallar dvigatelning isishiga qarab 80-150°C gacha, klapanlar esa 300-600°C gacha kiziydi. Bunda detallar orasidagi issiqlik tirkishi kamayadi, bu esa detallarning issiqlik ta'sirida deformatsiyalanishiga, klapanlarning o`z uyasiga zinch o'tirmasligiga olib keladi.

Dvigatel ishlaganda chiqarish klapanida issiklik tirkishi haddan ziyod kichik bo`lsa, tarelka o`ta qizib ketadi, unda yoriqlar paydo bo`ladi, klapan



egari yumshab, gazlar chiqib ketishi oqibatida uning yeyilishi tezlashadi. Ikkinchidan, yuqori harorat ta'sirida klapanlar ishlashida kuchli taqillashlar paydo bo'ladi va gaz taqsimlash mexanizmi detallari jadallik bilan yeyila boshlaydi. Issiqlik tirqishi, odatda, po'lat shchup yordami bilan 20-25°C haroratda aniqlanadi (51-rasm).


Buning uchun porshen siqish taktida silindrda yuqori chekka nuqtaga keltiriladi va birinchi silindrga tegishli klapanlar bilan koromislo orasidagi tirqish shchup yordamida aniqlanadi va zarur bo'lsa sozlanadi, qolgan klapanlar va koromisolar orasidagi tirqish esa silindrarning ishlash ketma-ketligi bo'yicha bajariladi.

Klapanning issiqlik tirqishini sozlashda quyidagilarni ham e'tiborga olish zarur (51-rasm, a). Tutashuvchi sirtlarning yeyilishi hisobiga ariqcha (4) hosil bo'ladi va u o'lhash jarayonida shchup ostida qoladi. Natijada haqiyqiy tirqish shchup bilan o'lchanigan tirqishdan katta bo'ladi. Shuning uchun yuritma richagi klapan bilan tutashadigan zonasidagi yo'lini o'lhashda indikatordan foydalangan ma'qul.

Ko'pgina avtomobilarda, masalan, klassik tuzilishga ega bo'lgan «VAZ»da (52-rasm) taqsimlash vali kulachoklari bilan 1-koromislo orasidagi tirqishni sozlash 2-sozlovchi vintni burash bilan bajariladi, so'ngra 3-kontrgayka bilan chegaralanadi.

«VAZ-2108», «VAZ-2109» va shunga o'xshash avtomobilarning dvigatelida taqsimlash vali kulachogi bilan silindrik itargich orasidagi tirqish sozlovchi shaybalar qalinligini tanlash bilan bajariladi. Uning texnologiyasi quyidagicha:

1) yondirish shammini (shamni) yechish;



*51-rasm. Gaz taksimlash mexanizmlaridagi issiqlik tirqishini rostlash va shchup bilan tekshirish shakli.*

*a—rostlash vinti va klapan tirqishi oralig'i, b—kulachok va turtkich kirgizmasi oralig'i, c—klapan o'zagi va karamislo tumshug'i oralig'i. 1—shchup, 2—rostlash vinti, 3—klapan qalpog'i, 4—ariqcha, 5—kulachok, 6—kirgizma, 7—turtkich, 8—gaika, 9—otvertka A—yeyilishni e'tiborga olgandagi kirgizma qalinligi, B—kirgizma qalinligi, C—issiqlik tirqishi.*

2) shkivdag'i va tishli tasma orqa qopqog'idagi o'rnatish belgilari to'g'ri kelguncha tirsakli valni aylantirish (53-rasm, a), keyin yana  $40-50^\circ$  ga burish, bu vaqtida birinchi silindrda ishchi yurish takti bo'ladi;

3) shchup to'plamlari yordamida taqsimlash valining birinchi va uchinchi kulachoklaridagi tirkishni tekshirish (53-rasm, b), kulachok raqamlarini taqsimlash vali shkivi tomonidan boshlab hisoblanadi;

4) agar tirkish me'yordan farq qilsa itargichning kesik tomonini old tomoniga qaratish (kesik itargichning yuqori qismida joylashgan) va taqsimlash valining kulachogi hamda 2-sozlovchi shayba orasiga moslamani qo'yib, 3-itargichni 4-tayanch bilan cho'ktirish (53-rasm, c);

5) taqsimlash vali va itargich qirrasi orasiga 5-moslamani qo'yib itargichni pastki holatda ushlab turish (53-rasm, d);

6) itargichdan sozlovchi shaybalarni pinset yordamida olish va mikrometr yordamida uning qalinligini o'chash;

7) yangi shayba qalinligini quyidagi ifoda orqali aniqlash:

$$H = B + (A - S),$$


*bu yerda: H— yangi shayba qalinligi, B—yechilgan shayba qalinligi, A—o'changan tirkish, S— me'yoriy tirkish;*

(Misol: agar  $A=0,26$  mm,  $B=3,75$  mm,  $S=0,2$  mm (kiritish klapani uchun) bo'lsa,  $H = 3,75 + (0,26 - 0,2) = 3,81$  mm. Tirkishning  $\pm 0,05$  mm kattaligini hisobga olib, yangi shayba qalinligini 3,8 mm deb qabul qilamiz);

8) yangi shaybani itargichga o'rnatish va ushlab turnychi moslamani olish; yana tirkishni tekshirish; agar kiritish klapani tirkishiga 0,2 mm li, chiqarish klapani tirkishiga 0,35 mm li shchup bir oz siqilib kirma, tirkish sozlangan hisoblanadi;

9) tirsakli valni yarim aylanaga burash, (bu o'z navbatida (shkivdag'i belgiga asosan) taqsimlash valining  $90^\circ$  burilishiga teng), keyin yana navbatdagi klapanlar bo'yicha sozlash ishlarini bajarish mumkin.

Zamonaviy «Neksiya», «Espero» va shunga o'xshash dvigatellar GTM tuzilishlarida gidrokompensatorlarning paydo bo'lishi klapan mexanizmida tirkish sozlanishini avtomatik ravishda




52-rasm. Klassik tuzilishdagi «VAZ», «Tiko» va «Matiz» avtomobilari gaz taqsimlash mexanizmining issiqlik tirkishini sozlash shakli.

1-koromislo; 2-sozlovchi vint; 3-kontrgayka.

ta'minlaydi, ammo gidrokompensatorlar moyning sifati va uni tozalanish darajasiga judayam sezgir. Moyning kokslanishi, yeyilgan va yemirilgan detallar zarrachalari gidroitargichning qotib qolishiga sabab bo'ladi. Bu vaqtida mexanizmda hisobga olinmagan zarbli yuklanishlar hosil bo'ladi, natijada klapan va taqsimlash valining foydalanib bo'lmaslik darajasigacha yeyilishiga olib keladi.

**KShM va GTMlarni joriy ta'mirlash.** Dvigatelni joriy ta'mirlashdagi eng asosiy va muhim ishlar quyidagilardan iborat: porshen halqlari, porshenlar, porshen barmoqlari, o'zak va shatun bo'ynidagi vkladishlar (ta'mirlash o'lchamlariga moslab), blok qistirmasini almashtirish, klapanning egarini silliqlash, so'ngra maxsus aralashma bilan artish, maxsus eritmalar bilan moy yo'llarini yuvish va tozalash, reduksion klapanni tozalash yoki almashtirish va boshqalardir.

Silindr bloki gilzalarini almashtirish ishlari uning pastki va yuqori qo'nim o'lchamlarining yeyilishi, darz ketishi, chuqurchalar hosil bo'lishi natijasida bajariladi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan ko'pgina yengil avtomobilarning gilzalari silindr bloki bilan birqalikda quyma tarzida bo'ladi. Gilzalarning yeyilishi natijasida, o'lchamlar me'yoriy ko'rsatgichlardan farq




**53-rasm. VAZ-2108 va VAZ-2109 turidagi avtomobillarining gaz taqsimlash mexanizmidagi issiqlik tirqishlarini sozlash ketma-ketligi:**  
 a-belgilarning to'g'ri kelishi, b-tirqishni tekshirish, c-itargichni cho'ktirish, d-itargichni pasiki holatda ushlab turish; A-orqa qopqoqdagi belgi; B-taqsimlash vali shkividagi belgi; C-sozlanish tirqishi; 1-kulachok, 2-sozlovchi shayba, 3-itargich, 4-tayanch, 5-moslama

qilib qoladi, shu bilan birga yeyilish gilza diametri bo'yicha notekis bo'ladi, bu holda ular mexanik ta'sir ko'rsatish yo'li (rastochka) bilan keyingi o'lchamlarga keltiriladi hamda porshen va halqalari gilzaning yangi o'lcham guruhiga mos keluvchilari tanlab olinib o'rnatiladi.

Gilzani silindr blokidan yechib olish juda og'ir ish hisoblanib, u pastki qismidan yuqoriga tortib chiqaruvchi maxsus yechgich yordamida siqib chiqariladi. Gilzalarni boshqa usullar bilan chiqarish, silindrlar blokidagi qo'nim teshigi va gilzalarning shikastlanishiga olib keladi. Rezinali germetiklovchi halqlar o'rnatilgan gilzalar silindrlar blokiga press yordamida o'rnatiladi. Bu ishni maxsus moslamalar yordamida bajarish ham mumkin. Bunday moslamalardan birining tuzilishi 54-rasmda keltirilgan. Rezinkali halqalarni gilzaga kiygazishda uning ariqchada cho'zilib va buralib ketmasligiga e'tibor berish zarur.

Porshenlarni almashtirish uning yubkasida chuqurchalar hosil bo'lganda, tag qismi va kompression halqa atrofidagi yuza qismi kuyganda hamda halqalarni o'rnatish ariqchalari kengayib ketganda bajariladi. Gilzalarda yeyilish kam bo'lib, porshenlarda yuqorida keltirilgan kamchiliklar yuzaga kelganda, dvigatelni avtomobilidan yechmasdan turib, porshenlarni almashtirish mumkin. Bunda karterdagи moy to'kib olinadi, karter va silindr bloki kallagi yechiladi, shatun boltlarining gaykasi burab olinadi, shatunning pastki qopqog'i yechiladi va porshen shatun bilan birgalikda yuqori tomonдан sug'urib olinadi. Keyin porshen bobishkasidan press yordamida porshen barmoqlari yechib olinadi, porshen shatundan ajratiladi. Agar kerak bo'lsa,

*54-rasm. Gilzani silindrлar blokiga presslash moslamasi:*  
1-maxsus o'q; 2-ushlagich; 3-gilza; 4-tanyach halqa; 5-tiqin



*55-rasm. Porshen va silindr orasidagi tirkishni tekshirish shakli*

shatunning yuqori qismidagi bronza vtulkasi ham press yordamida yechib olinib almashtirilishi mumkin.

Buning uchun porshen yassi shup bilan birlgilikda yuqori qismi bilan silindrga kiritiladi. Shup porshen barmog'i o'rnatalish teshigi o'qiga perpendikulyar joylashishi zarur. Keyin dinamometr yordamida shup tortiladi va shupning chiqish vaqtidagi kuch aniqlanadi. Aniqlangan kuch avtomobil dvigatellarining turiga qarab, ekspluatatsiya yoki ta'mirlash qo'llanmasida keltirilgan me'yoriy ko'satkichlar bilan taqqoslanadi. Masalan, «ZIL-130» dvigateli uchun shupning qaliligi 0,08 mm, eni 13 mm va uzunligi 200 mm bo'lishi, uni silindr bilan porshen orasidan tortib chiqaruvchi kuchning kattaligi 35-45 N ni tashkil qilishi kerak. Agarda tortib chiqaruvchi kuch me'yordagi ko'satkichdan farq qilsa, porshen boshqasiga almashtiriladi.

Porshenni almashtirishdan avval uni silindrga moslab tanlab olish zarur, buning uchun gilzaning o'lchamlar guruhiga mos keluvchi porshen tanlab olinadi va lentasimon shup yordamida silindr hamda gilza orasidagi tirqish tekshiriladi (55-rasm).

«ZIL-130» dvigatelei gilza va porshenlari me'yoriy va ta'mirlash o'lchamlari bo'yicha oltita guruhga bo'linadi. Xuddi shunday boshqa turdag'i dvigatellarning ham ta'mirlash o'lchamlari turlichadir.


ATK sharoitida silindrga porshenni tanlashda yuqoridagilardan tashqari porshen bobishkasidagi teshik, porshen barmog'i va shatunning yuqori kallagidagi bronza vtulka diametrлari bir xil o'lchamlar guruhida bo'lishi kerak. Shuning uchun «porshen-barmoq-shatun» to'plamini yig'ishda ularga bo'yoq yordamida qo'yilgan belgilar bir xil rangda bo'lishiga e'tibor berish kerak. To'g'ri tanlangan porshen tepe qismi bilan silindrga qo'yilganda o'zining og'irligi bilan asta-sekin pastga tushishi lozim.

Porshen bilan shatunni bir-biriga biriktirishdan avval shatun kallakkari parallelligini tekshirish zarur, u indikatorli tekshirish moslamasida (56-rasm) tekshiriladi.

Tekshiruvdan so'ng, porshen 60°C haroratdagi moyli vannaga solinib

*56-rasm. Shatunni tekshirish va to'g'rakash moslamasi:*


1-shatunni to'g'rakash uchun tayanch; 2-moslama korpusi; 3-shatun; 4-shatunning yuqori kallagi uchun tigin; 5, 7-indikatorlar; 6, 8-tayanchlar; 9-to'g'rakash uchun kalit; 10-shatunning pastgi kallagi uchun tigin.




qizdiriladi, keyin esa porshen barmog'i porshen bobishkasi va shatunning yuqori kallagiga presslanadi. Presslangandan so'ng babishkadagi ariqchaga chegaralovchi halqlari o'matiladi. Porshen bilan shatun yig'masini silindr blokiga o'matishdan avval porshen halqlari porshen ariqchasiga joylashtiriladi. Porshen ariqchasi bilan porshen halqasi orasidagi tirkish shup yordamida (57-rasm) aniqlanadi. Bundan tashqari, halqaning yorug'lik nurini o'tkazishi tekshiriladi, buning uchun halqa silindrning yedirilmagan yuqori qismiga joylashtiriladi va silindr bilan uning orasidan yorug'lik nuri o'tishi aniqlanadi.

Porshen halqasini tutashish joyidagi tirkish shup yordamida (58-rasm) aniqlanadi. Agar u me'yorida kichik bo'lsa, halqaning tutashish joylari egovlanadi. Bu ishlarni bajargandan so'ng halqa porshenga o'rnatiladi. O'rmatilgan halqlarning tutash joylari har tomona aylana bo'yicha qo'yib chiqiladi. Porshen yig'masini silindrga o'matish maxsus moslama yordamida amalga oshiriladi (59-rasm).

Tirsakli val vkladishlari podshi pniklar taqillagandava reduksion klapan hamda moy nasosi soz bo'lib, tirsakli valning 500-600 ayl./daqiqa tezligida magistratalidagi moy bosimi 0,05 MPa dan kam bo'lganda almashtiriladi. Vkladishlarni almashtirish ular bilan tirsakli valdagagi tayanch hamda shatun bo'yinlari orasidagi tirkish me'yorida ko'payib ketganda ham amalga oshiriladi. Avtomobil dvigatellarining turiga qarab, tayanch bo'yini bilan vkladish orasidagi me'yoriy tirkish 0,026-0,12 mm, shatun bo'yini bilan vkladish orasidagi me'yoriy tirkish esa 0,026-0,11 mm oralig'ida bo'ladi.



*57-rasm. Porshen halqasi va ariqchasi orasidagi tirkishni tekshirish shakli*




*58-rasm. Porshen halqasini tutashish joyidagi tirkish o'lchamini aniqlash:*  
1-shup; 2-silindr ichki yuzasi; 3-porshen halqasi

Tirsakli val podshipniklaridagi tirkish nazorat qiluvchi jez plastinkalari yordamida aniqlanadi (60-rasm). Moylangan plastinka ichqyma va val bo'yni orasiga qo'yiladi hamda qopqoq boltlari dinamometrik kalit yordamida har bir dvigatel uchun belgilangan me'yoriy burovchi moment bilan tortiladi. («ZIL-130» dvigatelida tayanch podshipniklari 110-130 Nm, shatun podshipniklari 70-80 Nm). Agar 0,025 mm li plastinka qo'yilganda tirsakli val juda bo'sh aylansa, bu — tirkishning katta ekanligini ko'rsatadi. U holda, tirsakli val bo'yni orasiga har biri 0,025 mmga qalinroq bo'lgan moylangan plastinkalar qo'yib borilib tirsakli val his qilinadigan kuch bilan aylanadigan bo'lguncha davom ettiriladi va plastinkaning qalinligiga qarab kerakli o'lchamdagisi vkladishlar tanlanadi.

Tirsakli val bo'yinlarining holati tekshirilgach (yuzada yejilish va tirmalish izlati bo'lmasligi kerak), tanlangan vkladishlar yuviladi, artiladi va motor moyi bilan moylanib joyiga o'rnatiladi.


Tirsakli valning o'q bo'yicha siljishini sozlash ishlari ko'pgina dvigatellarda tayanch shaybalarini tanlash yo'lli bilan amalga oshiriladi. «ZMZ-53» dvigatellarida orqa tayanch shaybasi va tirsakli val orasidagi tirkish 0,075-0,175 mm, «ZIL-130» dvigatellarida esa 0,075-0,245 mm ni tashkil etadi. «YAMZ» va «VAZ» dvigatellarida esa siljish (0,08-0,23 mm) yarim shaybalar yordamida sozlanadi. Ekspluatatsiya jarayonida o'q bo'yicha siljish kattalashib boradi, shuning uchun JT da shayba va yarim shaybalarning qalinligi keyingi ta'mirlash o'lchamdagisidan foydalaniladi.

Blok kallagining asosiy nosozliklariga blok bilan birlashuvchi yuza qatlamidagi



*59-rasm. Porshen yig'masini silindrغا о'rnatish:*

1-silindr blokida gilza; 2-moslama; 3-porshenning shatun va halqalar bilan birlgilidagi yig'masi



*60-rasm. O'zak podshipniklarining diametral tirkishini tekshirish:*


1-podshipnik qopqog'i, 2-nazorat plastinkasi

darz ketish, sovutish ko`ylagidagi darz ketish, klapan yo`naltiruvchisi teshiklarining yeyilishi, klapan o`rindiqlari faskasining yeyilishi va unda chuqurchalar hosil bo`lishi, klapan o`rindig`i presslangan yeridan bo`shab ketishi misol bo`la oladi. Alyuminiydan tayyorlangan silindr kallagi yuzasidagi 150 mm gacha uzunlikda bo`lgan yoriqlar payvandlanadi, payvandlashdan avval yoriqning ikki tomonidan 4 mm diametrda teshik teshiladi. Keyin kallak elektropech yordamida 200°C gacha qizdiriladi, undan so`ng yoriq temir cho`tka bilan tozalanadi va payvandlanadi. Sovutish ko`ylagi yuzasida uzunligi 150 mm gacha bo`lgan yoriqlar epoksid yelimi yordamida yelimanadi. Yelimlashdan avval yoriqqa xuddi payvandlashdan avvalgidek ishlov beriladi, atseton bilan moysizlantiriladi, ikki qatlam alyuminiy kukunlari aralashtirilgan epoksid yelimi surtiladi va 18-20°C haroratda 48 soat bostirib qo`yiladi.

Kallakni silindrler bloki bilan tutashish joyidagi o`yilish va chuqurliklarni frezalab yoki silliqlab ta`mirlanadi. Ishlov berilgan kallak nazorat plitasida tekshiriladi. Bunda 0,15 mm li shup plita va kallak orasidan o`tmasligi kerak.

Yo`naltiruvchi vtulkalarining teshigi yedirilgan bo`lsa, yangisiga almashtiriladi. Almashtirishda gidravlik press va maxsus moslama ishlatiladi. Klapan faskalarining yeyilishi va o`yilishi tozalash yoki silliqlash yo`li bilan bartaraf qilinadi. Tozalash ishlari uchiga klapanni o`ziga majburan tortib turadigan «so`rg`ich» o`rnatilgan pnevmatik drel yordamida bajariladi. Klapamlarni tozalashda tozalash pastalaridan (15 g M20 yoki M12 elektrokorund kukuni, 15 g M40 bor karbidi va motor moyi aralashmasi) va GOI pastasidan foydalaniladi. Tozalangan klapan va uning egarida aylana bo`ylab  $a \geq 1,5$  mm kenglikda xira iz hosil bo`ladi (61-rasm).

Tozalangan yuza sifatini klapanning yuqori qismida bosim hosil qiluvchi asbob yordamida ham tekshirish mumkin (62-rasm). 0,07 MPa ga yetgan bosim 1 daqiqa ichida sezilarli darajada tushib ketmasligi kerak.



61-rasm. Tozalangan klapan yuzalari



62-rasm. Klapanni tozalash sifatini tekshirish


Agar klapan egarlarining faskasini tozalash yo'li bilan tiklab bo'lmasa, yuza yo'nish yo'li bilan ta'mirlanadi. Yo'nish 15, 30, 45, 75° li yo'nuvchi asboblar yordamida bajariladi (63-rasm). 30° li asbob kirituvchi klapan egarlari uchun, 45° li asbob chiqaruvchi klapan egarlari uchun mo'ljallangan. Yo'nishdan so'ng faska silliqlanadi va tozalanadi.

Klapan egari o'yilib ketgan yoki bo'shab qolgan bo'lsa, maxsus yechgich yordamida chiqarib olinadi (64-rasm), teshik esa ta'mirlash o'lchamiga moslab kengaytiriladi. Ta'mirlash o'lchami bo'yicha tanlab olingan klapan egari maxsus presslagich yordamida qoqiladi (65-rasm).

Klapanlarning asosiy nosozliklari faskasining yeyilishi, klapan sterjenining yeyilishi va egilishidan iborat. Klapanlarni saralashda ularning to'g'riliqi va ishchi faskalarining sterjenga nisbatan notejisligi aniqlanadi. Sterjen tag qismining notejis yeyilishi charx yordamida tekislanadi. Klapan faskasi R108 modelli jihozda silliqlanadi. Koromislodagi yedirilgan bronza vtulkalari yangisiga almashtirilib, uning ichki diametri ta'mirlanadi yoki me'yoriy o'lchamga keltiriladi.

Detallarni tiklovchi maxsus ustaxonalari bo'lgan katta ATK lar va avtobirlashmalarda tirsaklı va gaz taqsimlovchi vallar ta'mirlanadi. Tirsaklı valning yedirilgan tayanch va shatun o'mratuvchi bo'yinlari hamda gaz taqsimlovchi valning tayanch bo'yinlari silliqlash jihozlari yordamida ta'mirlash o'lchamlariga keltiriladi. Silliqlashdan so'ng tirsaklı va gaz taqsimlash valining bo'yinlari abraziv lentasi yoki GOI pastasi yordamida tozalanadi. Gaz taqsimlash valining yedirilgan mushtchalariga maxsus silliqlash jihozlari yordamida ishlov beriladi.

**O't oldirish tizimi.** Avtomobillardan foydalanish davrida elektr jihozlarida uchraydigan nosozliklarni bartaraf etish TXK va JT ish hajmlarining 11-17% ini tashkil qiladi, shuningdek statistika ma'lumotlariga ko'ra karbyuratorli dvigatellarda 40% atrofdagi nosozliklar va buzilishlar batareyali o't oldirish



63-rasm. Klapan egarlari niyo'nish ketma-ketligi



tizimiga to'g'ri keladi. Bular o'z navbatida ko'pincha yoniq'i sarfi 5-6% ga ko'payishiga olib keladi.

*O't oldirish tizimida uchraydigan asosiy nosozliklar.* O't oldirish tizimidagi elementlar nosozliklari sodir bo'lishini har biri bo'yicha ko'rib chiqamiz. Yuqori kuchlanishli g'altakning nosozliklariga g'altak qopqog'ining darz ketishi va kuyishi, birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar himoya qobiqlarining kuyishi oqibatida o'ramlar orasidagi qisqa tutashuv, chulg'amlarning ulangan joyidan uzilib qolishi, qo'shimcha rezistorning uzilib qolishi yoki birlashgan qismrlarning bo'shashib qolishlari kiradi.

Uzgich-taqsimlagichning nosozliklariga kontaktlarning moylanishi yoki kuyishi, uzgich kontaktlari orasidagi tirkishning yetarli emasligi yoki juda kattaligi, kondensatorning shikastlanishi yoki kuyishi, rotor va qopqoqning ifloslanishi, qopqoqning darz ketishi, richag prujinasi tarangligining bo'shashishi, yetaklovchi valik vtulkasining yeyilishi, uzgich richagi vtulkasining yoki turkichining yeyilishi, podshipnikning yeyilishi, markazdan qochma sozlagich prujinasining kuchsizlanishi va yukchalarining qadalib qotib qolishi, vakuumli rostagich diafragmasining teshilishi, uzgich kulachogining yeyilishi, markazdan qochma rostagich yukchalarining teshiklari va o'qlarining yeyilishi, himoya qobiqi yoki «massa» simlarining uzilishi, taqsimlagich qopqog'i ichki yuzasidagi elektrodlarning kuyishi va oksidlanib qolishi, yuqori kuchlanishli simlar himoya qoplamarining kuyishi kabilar kiradi.

*64-rasm. Klapan egarini yechgich yordamida chiqarish shakli:*

1-echgich korpusi; 2-vint; 3-uchta ushlagichli gayka; 4-tortish prujinasi; 5-ushlagichlarni tortuvchi konus; 6-echgich ushlagichi; 7-klapan egari; 8-silindr kallagi



*65-rasm. Klapan egarini joyiga qoqish shakli:*

1-qoqgich; 2-markazlovchi barmoq; 3-temir plita

Shamlarning asosiy nosozliklari korpus va markaziy elektrod bo'yicha germetiklikning yetarli emasligi, yon va markaziy elektrodlarning yeyilishi, himoya qoplami etagining yemirilishi, shamning ichki yuzalarida elektrodlar orasidagi havo tirkishining qisqarishiga olib keluvchi qurum qoplaming (66-rasm) paydo bulishidir.

Agar dvigatelda karbyurator va o't oldirish tizimi to'g'ri sozlangan hamda me'yoriy ishlasa, shuningdek yonilg'i sifatli bo'lsa, dvigateldan yechib olingen shamning rangi zangli jigarrang ko'rinishida bo'ladi (66-rasm, a). Ishlash davomiyligiga qarab korpus yupqa qurum qatlami bilan qoplanadi. Markaziy elektrod me'yoriy kulrang tusda bo'ladi. Bunday shamlarni temir cho'tka yoki qumqog'oz bilan tozalab, tirkishini rostlangandan so'ng yana dvigatelga o'matish mumkin.

Agar shamning yonish kamerasiga kirib turuvchi qismi mayda qurum zarrachalari bilan qoplangan bo'lsa (66-rasm, b), demak buning asosiy sabablari aralashmaning o'ta boyligi, havo tozalagichning ifloslanishi, uchquunning kuchsizligi, dvigatelning ko'p vaqt salt ishslash rejimida ishlashi va klapanlar issiqlik tirkishining noto'g'i rostlanganligidir.

Shamning moy bilan qoplanishi (66-rasm, c) porshen halqalarining yeyilganligi, klapan salnigi teshigining kengayib ketganligi, dvigateldagi moy sathining yuqoriligi, moy filtri ifloslanishi, karbyuratordagi aralashmaning boyligi, o't oldirish tizimining nosozligi tufayli sodir bo'ladi.

Shamda kulrang-jigarrangdan to'kulrang-ko'kgacha bo'lган qurumning mavjudligiga (66-rasm, d) sham kalil sonining pastligi, karbyuratordagi aralashmaning kambag'al bo'lishi, yondirish momenti ertaligi, porshen tubi va silindr kallaginiqurum bilan qoplanishi, dvigatel silindriga qo'shimcha havoning so'riliishi, shamda zichlash halqasining yo'qligi sabab bo'ladi.

Yuqori kuchlanishli simlarning asosiy nosozliklariga himoya qoplaming



*66-rasm. Sham yuzalarining ko'rinishi:*


*a-me'yoriy; b-sham qurum bilan qoplangan, c-sham moy bilan qoplangan, d-kuygan sham*

yorilishi va teshilishi, uchlarining kuchsiz qisilishi tufayli yomon kontaktda bo'lishi, sinishlar, uzilishlar va qarshilikning ortib ketishi kiradi.

Eng ko'p tarqalgan o't oldirish tizimi batareyali bo'lib, u uzgichulagich, o't oldirish g'altagi, sham, yuqori va past kuchlanishli simlardan tashkil topgan.

O't oldirish tizimini diagnostikalashda elektron-nur trubkali qo'zg' almas motor-testrlardan hamda elektron avtotestrlardan (sonli aks ettiruvchi) foydalaniladi (36-, 37- va 38-rasmlar).

Nosozliklarni silindrlar bo'yicha aks ettirish birlamchi va ikkilamchi sim chulg'amlari orasidagi kuchlanish fazalarining o'zgarishi va ish jarayonining ko'p marotaba takrorlanishi hisobiga amalga oshiriladi. Elektron-nur trubkalarida kuchlanishning o'zgarishini baholash nazar tashlash va etalon shakl bilan taqqoslashdan iborat.



*67-rasm. 4-taktli dvigatellar uchun taqsimlagich valdag'i kulachokning burilish burchagiga nisbatan batareyali-kontaktli o't oldirish tizimi past va yuqori kuchlanish zanjiri me'yoriy ish jarayonini (siklini) ossillogrammalari:*

*U<sub>k</sub> - t a q s i m l a g i c h kontaktlaridagi yoki o't oldirish g'altagini chiqarish klemmasidagi kuchlanish; K - kondensator hisobiga kuchlanishning o'zgarishi; UR - kontaktlarning ajralish holatidagi burchagi; // -uzgich-taqsimlagichning burilish burchagi; I - uchqun aksi; U<sub>o</sub> - o't oldirish shami elektrodlaridagi kuchlanish; P - o't oldirish g'altagi magnit maydonidagi kuchlanishning tushishi; MZ - kontaktlarning tutashish vaqt; IK - uchqun paydo bo'lishi vaqt;*

67-rasmda 4 silindrli dvigatellar uchun taqsimlagich valdag'i kulachokning  $90^\circ$  ga va 8 silindrli dvigatellar uchun taqsimlagich valdag'i kulachokning  $45^\circ$  ga burlish vaqtidagi batareyali-kontaktli o't oldirish tizimi past va yuqori kuchlanish zanjirining ossillogrammasi aks ettirilgan. 0 nuqtada kontaktlarning ajralishi sodir bo'ladi. Bu vaqtda ikkinchi chulg' amda tok induksiyasi hisobiga U<sub>v</sub>-kuchlanish qiymati 8-12 kV ga yetadi va o't oldirish shami elektrodlari orasida uchqun paydo bo'ladi, 0-1 oraliq 1,0-1,5 kV kuchlanishni ta'minlab turuvchi uchqun yonish jarayonini ko'rsatadi. 1-nuqtada uchqunli razryad uziladi hamda o't oldirish g'altagi induktivligi va kondensator sig'imi bilan bog'liq bo'lgan birlamchi va ikkilamchi zanjirda tebranuvchi so'nish jarayoni sodir bo'ladi.

Bu vaqtda 2-3 oraliqdagi akkumulyator batareyasi yoki generator bilan hosil qilinuvchi kuchlanish birlamchi zanjirda tiklandi, ikkilamchi zanjirda esa kuchlanish nolga tushadi. 3-nuqtada uzgich kontaktlari birlashadi va o't oldirish g'altagini birlamchi chulg' amidan uning qarshiligiga va qo'shimcha rezistor hamda uzgich kontaktlari holatiga bog'liq bo'lgan tok oqadi. Bu vaqtda o't oldirish g'altagi atrofida magnit maydoni hosil bo'ladi va yuklanish ta'sirida birlamchi g'altakda kuchlanish miqdori nolga yaqinlashadi (kontaktlar holati yaxshi bolsa, kuchlanish 0,1 V dan oshmasligi kerak). Natijada ikkilamchi g'altakdag'i kuchlanish (taxminan 5 kV) quvvati o't oldirish shamingin elektrodlari orasida uchqun hosil qilish uchun yetarli bo'lmaydi, shuning uchun 3-nuqtadan keyin ikkilamchi chulg' amdag'i kuchlanish yana nolga intiladi. 4-nuqtada jarayon keyingi silindr uchun takrorlanadi.

Kontaktlarni ajralib turish holatidagi UR — birlamchi kuchlanishni ossillogramma bo'yicha o'chish va me'yoriysi bilan taqqoslash (4 silindrli



68-rasm. Uzgich kontaktlarini sozlash(a) va tozalash(b):  
1-kontaktlar, 2-abraziv plastana.

dvigatellar uchun  $45\text{--}49^\circ$  va 8 silindrli dvigatellar uchun  $13\text{--}17^\circ$ ) kontaktlar orasidagi tirkish kattaligini aniqlab beradi. O't oldirish shamlarining elektrodlari orasida uchqun hosil qiluvchi kuchlanishning —  $U_k$  qiymati agarda elektrodlar orasidagi tirkish katta bo'lsa katta, ishlab turgan dvigatel silindridagi kompessiya me'yordan past bo'lsa kichik bo'ladi. Agarda o't oldirish g'altagi birlamchi sim chulg'amlari orasida qisqa tutashish bo'lsa yoki induktivlik pasaysa, ikkilamchi ossillogramma 1-2 oralig'ida tebranish jarayoni to'liq yo'q bo'ladi. Agarda 3-nuqtada kuchlanishning keskin pasayishi kuzatilmasa, bu holat uzgich kontaktlari yomon holatdaligini ko'rsatadi. 4-nuqtada qo'shimcha kuchlanish pog'onasining hosil bo'lishi (IK) kontaktlar orasida uchqun hosil bo'lganligini, bu esa kondensatorning nosozligini ko'rsatadi.

Tranzistorli o't oldirish tizimining birlamchi va ikkilamchi kuchlanish ossilogrammalari 67-rasmidagi kabi bo'lib, faqat undan tebranishlar qiyamatining kattaligi bilan farq qiladi (kontaktsiz o't oldirish tizimida faqat ikkilamchi kuchlanish ossillogrammasi tahlil qilinadi). Hozirgi vaqtida ko'p tarqagan tranzistorli o't oldirish tizimida ossillogramma orqali kontaktlarning ajralib turish pog'onasini oson ajratish mumkin va yuqori kuchlanish ossillogrammasi orqali faqat elektrodlararo uchqun hosil qiluvchi kuchlanish —  $U_k$  qiymatini baholash mumkin.

Oxirgi vaqtarda uzgich kontaktlari orasidagi tirkish kattaligini aniqlovchi taxometr va voltmetrdan iborat bo'lgan oddiy asboblar qo'llanilib, ular 20 V va  $0,5\text{--}1,0$  V gacha (kontaktlar birikib turgan holatdagi kuchlanishni aniqlash uchun) oraliqdagi kuchlanishni o'lichash uchun moslashgan.

*Texnik xizmat ko'rsatish.* Taqsimlagichni davriy ravishda moylab turish, uning kontaktlari orasidagi tirkishni tekshirish va rostlash, detallarning holati hamda tozaligini kuzatib borish lozim.

Xizmat ko'rsatish vaqtida taqsimlagichning mahkamlanganligi tekshiriladi va zarur bo'lsa, u mahkamlanadi. Mahkamlashdan avval o't oldirish momenti to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish lozim. Taqsimlagich qopqog'i yechib olinib, uning ichki va tashqi sirtlari kirdan tozalanadi.

Uzgich kontaktlari orasini moy qoldiqlari va changdan benzin shimdirligan zamsh matoda tozalash kerak. Kuygan kontaktlarni maxsus abraziv plastina yoki donadorligi 150 bulgan mayin oynasimon jilvir bilan tozalash zarur. Kontaktlarni tozalashda ishlash vaqtidagi ularning yuzasida hosil bo'lgan do'nglik va chuqurliklar tekislanishi lozim. Bu do'nglik va chuqurliklarni to'liq tekislash tavsiya etilmaydi. Kontaktlar tozalangandan so'ng ularni havo bilan purkash, so'ngra benzinda yengil namlangan zamsh bilan artish va kontaktlar orasidagi tirkishni sozlash lozim.

Harakatlansuvchi kontakt o'qida qadalib qolishini tekshirishda richag barmoq bilan tortib, so'ng qo'yib yuboriladi. Qo'yib yuborilgan richag prujina

yordamida chertilgandek, tez suratda dastlabki holatiga qaytishi lozim. Agar richag dastlabki holatiga sekin qaytsa, harakatlanuvchi kontakt yoki kontakt to'liq holda yangisiga almashtiriladi.

Taqsimlagichdag'i markazdan qochma va vakuumli sozlagichlarning ishlashi hamda uchquunning bir maromdaligini tekshirishni, shuningdek, kontaktlarning ochiq holatda turish burchaklarini o'matishni maxsus SPZ-12 jihozida yoki shunga o'xhash jihozlarda amalga oshirish darkor. Uzgich o'qining ichquymasi hamda ko'pgina avtomobilarda qo'llanilayotgan vakuum sozlagich poshi pnigini davriy ravishda moylab turish lozim.

*Oldindan o't oldirish burchagini tekshirish va sozlash.* Bu ishni bajarish siqish taktida, ishlamay turgan dvigatelda porshenning yuqori chekka nuqtaga yaqinlashish chog'ida blokdagi va shkivdagi (yoki maxovikdagi) belgilarni to'g'ri keltirilib, so'ngra bir uchi kontaktga keluchi simga va ikkinchi uchi «massa»ga ulangan lampochkaning yonish momentini aniqlash orqali bajariladi. Biroq bu usulda xatolik  $\pm 5^\circ$  gacha yetadi. Shuning uchun yakuniy sozlash dvigatel salt yurishda ishlab turganida va tezlashayotgan vaqtida tezlik va yukanish, vakkumli va markazdan qochirma sozlagichlar ishi hisobga olib amalga oshiriladi. Agarda dvigatelning salt yurishida vakuumli sozlagich uzib qo'yilsa, to'satdan tirsakli valning aylanishlar soni tushib ketadi, markazdan qochirma sozlagichning yomon ishlashi dvigatelning tezlik olish qobiliyatini yomonlashtiradi.

O't oldirish burchagini aniq sozlash ishlayotgan dvigatelda stroboskop yordamida bajariladi. Uning ishlashi qisqa vaqt (0,0002 s) oralig'ida belgilangan onlarda aylanuvchi detal qisqa yorug'lik impulsi bilan yoritilsa, u qo'zg'almas bo'lib ko'rinishiga asoslangan. Shunga asosan tirsakli valning kichik, o'rtalikka aylanishlar sonida o't oldirish burchagini me'yoriy qiymatlari tekshiriladi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, uzgich-taqsimlagich sozlanadi yoki almashtiriladi. Almashtirilgan uzgich-taqsimlagich ustaxonada ta'mirlanadi va ta'mirlash sifati jihozlar (SPZ-12 kabi) yordamida tekshiriladi.

*Benzinda ishlovchi dvigatellar ta'minot tizimi.* Butun avtomobil bo'yicha nosozliklar va buzilishlarning 5 % ga yaqini ta'minot tizimiga to'g'ri keladi. Tizimning asosiy elementi bo'lgan karbyuratorning me'yoriy to'g'ri sozlanganligi yonilg'i tejamkorligini ta'minlash bilan bir qatorda chiqindi gazlar tarkibidagi zaharli birikmalarning ruxsat etilgan konsentratsiyadan oshmasligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ta'minot tiziminining asosiy nosozliklari germetiklikning buzilishi, yonilg'i baki va trubkalaridan yonilg'inining oqishi, tezlatuvchi nasosning ishlamasligi tufayli drossel qopqog'i bordaniga ochilganda dvigatelning bo'g'ilib ishlashi, yonilg'i va havo tozalagichlarining ifloslanishi, kalibrangan teshik va jiklyorlar o'tkazuvchanlik qobiliyatining o'zgarishi, salt yurish jiklyorlarining

ifloslanishi, ignali klapan germetikligining buzilishi, po'kakli kamerada yonilg'i sathining o'zgarishi, yonilg'i nasosidagi diafragmaning teshilishi va prujina elastikligining yo'qolishidan iborat.

Karbyurator, yonilg'i nasosi va ular alohida elementlarining ko'zga tashlanmaydigan nosozliklari jihozlar yordamida va avtomobilni yurgazib sinash yo'li bilan hamda ular avtomobildan yechilganda bo'laklarga ajratib, ustaxonadagi sinash jihozlari yordamida aniqlanadi. Ta'minot tizimini diagnostika qilish ko'rsatkichlari: dvigatelning og'ir o't olishi, yonilg'i sarfining oshishi, dvigatel quvvatining pasayishi, qizib ketishi, chiqindi gazlar tarkibidagi zaharli gazlar miqdorining oshib ketishidan iborat.

Ta'minlash tizimining diagnoz qo'yish ishlari quyidagilardan iborat bo'lib, dvigatel salt ishlaganda, tirsakli valning eng kichik aylanishlar soni bilan bir tekis aylanishi tekshiriladi va sozlanadi; karbyuratorning po'kakli kamerasiyadagi yonilg'i sathi va ignasimon klapanning germetikligi tekshiriladi, tezlatish nasosining ishlashi sozlanadi, jiklyorlarning o'tkazuvchanlik qobiliyati aniqlanadi, karbyurator iflosliklardan va smolalardan tozalanadi. Dvigatel salt ishlaganda, karbyuratorni kichik aylanishlar soniga sozlash uning bir tekis va tejamkor ishlashini ta'minlab turadi.

Ta'minot tizimini diagnostikalashda avtomobilni yurgazib yoki jihoz yordamida sinash usullari qo'llaniladi. Ikkala holda ham avtomobilga maxsus qurilma *arfaniqlagich* o'rnatilib, belgilangan rejimdagi yonilg'i sarfi aniqlanadi. Avtomobilni sinashdan avval to'liq 2-TX hajmidagi ishlarni bajarish zarur.

Ishlash sharioitida ta'minot tizimini diagnostikalashda 1 km tekis yo'lida yonilg'inining sarfi aniqlanadi. Bu ishni tortish sifatini aniqlovchi jihozda ham bajarish mumkin.

Karbyuratorli dvigatellar chiqindi gazlar tarkibidagi CO gazi salt yurishda ( $0.6 n_{nom} + 100$ ) 1978 yilgacha chiqqan avtomobillar uchun miqdori 2-3.5%, zamonaviy avtomobillar uchun esa 1.5% dan oshmasligi kerak.

*Texnik xizmat ko'rsatish.* Kundalik xizmat ko'rsatishda ta'minot tizimining germetikligi tekshiriladi. Avtomobil havoda chang miqdori ko'p bo'lgan yo'llarda ishlatalganda, havo filtri tozalanadi. Bakdag'i benzin sathi tekshiriladi va zarur bo'lsa benzin quyiladi.

1-TXKda ta'minlash tizimidagi barcha asboblarning holati va ularning birikmalari germetikligi ko'rib chiqiladi, topilgan nosozliklar bartaraf etiladi.

2-TXKda tizimdag'i asboblar va agregatlarining dvigatelga mahkamlanishi hamda ular detallarining o'zaro mustahkamlanishi, havo zaslonskasi va drossel yuritmalarining to'la ochilishi va yopilishi, ya'ni to'g'ri ishlashi tekshiriladi. Yonilg'i va havo filtrlari bo'yicha zarur profilaktik ishlar o'tkaziladi, benzin nasosini dvigateldan yechmasdan, uning ishlashi NIIAT (527B ruzsumli) asbobi yoki monometr yordamida tekshiriladi, po'kakli kameradagi yonilg'i

sathi va dvigatelning oson o't olishi hamda bir tekis ishlashi tekshiriladi. Zarurat bo'lganda karbyurator salt ishlash rejimida ishlatilgan gazlardagi uglerod oksidining miqdorini nazorat qilgan holda rostlanadi.

Havo filtriga xizmat ko'rsatish moy vannasidagi moyni almashtirish (agarda moy vannasiga ega bo'lgan filtr bo'lsa), filtrlovchi elementni yuvish (agarda ko'p marta ishlatiladigan bo'lsa, aks holda yangisiga almashtiriladi) va uning dvigatelga mahkamlanishini tekshirishdan iborat. Filtrlovchi element yuviladi, so'ng toza moyga botirib qo'yiladi, u yerdan olib moy qib bo'lguncha kutiladi va o'rniga qo'yiladi. Filtr korpusining ichki tomoni kirlardan, moydan va cho'kindilardan obdon tozalanadi. Filtr vannasiga dvigatel uchun mo'ljallangan moy (toza yoki ishlatilgan) quyiladi.

Yonilg'i dag'al tozalovchi filtridan davriy ravishda kir va suv qoldiqlarini to'kib turish, filtrlovchi elementni esa benzin yoki atsetonda yuvib, siqilgan havo bilan purkash zarur. Filtrlovchi elementni qismrlarga ajratish tavsya etilmaydi.

Karbyuratorlarni qismrlarga ajratganda qistirmalar va detallarga zarar yetmasligi uchun ehtiyyot bo'lish zarur. Jiklyorlar, klapanlar, ignalar va kanallar toza kerosinda yoki etillanmagan benzinda yuviladi. Bu ishlar havosi so'rib turiladigan postlarda yoki shkaflarda bajariladi. Karbyurator korpusidagi kanallar va jiklyorlar yuvilgandan so'ng, siqilgan havo bilan purkaladi. Jiklyorlar, kanallar va teshiklarni tozalash uchun qattiq sim yoki boshqa metall buyumlar ishlatish mumkin emas. Shuningdek yig'ilgan karbyuratorni benzin beriladigan shtutser yoki balansirlash teshiklari orqali, siqilgan havo bilan purkashga yo'l qo'yilmaydi, chunki bu po'kakning shikastlanishiga olib keladi.

Karbyurator detallarini qatqaloqlardan tozalash uchun ularni bir necha daqiqa atseton yoki benzolga solib qo'yish kerak. Shundan so'ng, dettalar ho'llangan toza latta bilan yaxshilab artiladi.

Karbyuratorning po'kakli kamerasidagi berkituvchi ignada zichlovchi shayba bo'lsa, bu shaybani ignadan yechish ham, uni benzin va kerosindan tashqari boshqa erituvchilarda yuvish ham tavsya etilmaydi. Po'kak kamerasidagi benzin sathi avtomobilni gorizontal maydonchaga qo'yib, dvigateli ishlamay turganda tekshiriladi.


«ZIL-130» dvigatelia o'rnatiladigan K-88A karbyuratorida ekonomayzer qudug'inin pastki qismidagi tiqin bo'shatib olinadi hamda uning o'rniga rezina shlangi va shisha naychasi (4) (69-rasm, b) bo'lgan oraliq o'tkazgich qotiriladi. Naychani tik joylashtirib, yonilg'i nasosidagi qo'lda ishlatiladigan richagdan foydalanib po'kak kamerasiga benzin haydaladi. Benzin sathi, karbyuratorning yuqorigi va o'ita qismi ajraladigan tekislikdan 18-19 mm baland bo'lishi lozim.

Zarur bo`lganda benzin sathi po`kak richagini egish orqali yoki karbyuratordagagi ignasimon klapan korpusining ostidagi qistirmalar miqdori o`zgartirib rostlanadi.

«ZMZ-53» dvigatellariga o`rnataladigan K-126B karbyuratorida po`kakli kameradagi yonilg`i sathi ko`rish oynasi (3) (69-rasm, a) orqali nazorat qilinadi. Yonilg`i sathi karbyuratorning yuqorigi va o`rta qismi ajraladigan tekislikdan 19-21 mm pastda bo`lishi kerak. Yonilg`i sathini tekshirish uchun po`kak richagidagi til egiladi.

DAAZ karbyuratorlarining po`kakli kamerasidagi benzin sathini rostlashda po`kakning (1) yuqorigi sirti bilan qistirma orasiga tavsya etilgan A tirkishni o`rnatish kerak. Bu ishni karbyurator qopqog`idagi shtutserni (5) tik (69-rasm, c) shaklda ko`rsatilgandek holatda bajarish qulay. A o`lchamni aniqlashda (6,5 mm) andozalardan foydalanish tavsya etiladi. Rostlashni po`kak tilini egish orqali amalga oshirish lozim, bunda tilning ignasimon klapan (2) o`riga perpendikuylar bo`lishti kuzatib turish kerak. Shu bilan bir paytda, po`kak yo`lini ham tekshirish zarur, sababi, bu yo`l 8 mm ga teng bo`lishi kerak. Zarurat bo`lsa, shunga taalluqli tirkaklar holati o`zgartiriladi.

Ninasimon klapanning germetikligini yetarlicha aniqlik bilan dvigateldan yechib olingan karbyuratorda yoki alohida uning qopqog`ida rezina havo bergich (grusha) yordamida tekshirib ko`rish mumkin. Agar rezina havo bergich yordamida shtutserda siyraklanish hosil qilingandan so`ng, taxminan



*69-rasm. Karbyuratorlarning po`kakli kamerasidagi benzin sathini tekshirish va rostlash shakli*

a-K-126B; b-K-88A; c-DAAZ, 1—po`kak, 2-ninasimon klapan, 3—ko`rish oynasi, 4—shisha naycha, 5—shtutser

15 soniya mobaynida asbobning ezilgan shakli o'zgarmasa klapanning germetikligi yetarli deb hisoblanadi. Germetiklikni yana ham aniqroq tekshirishni maxsus vakuumli asbobda bajarish mumkin.

Avtomobilga o'rnatilgan karbyuratorni sozlashdan avval dvigatelning sovutish tizimidagi suyuqlik harorati 75-80°C gacha qizdirilib olinadi va o't oldirish tizimi to'liq nazoratdan o'tkaziladi. Karbyuratorni kollektorga o'matish jipsligi va yonilg'i kirituvchi kanallar germetikligi tekshiriladi. Undan so'ng dvigateli ni salt ishslashga moslab sozlash ishlari quyidagi tartibda bajariladi: yonilg'i sifatini sozlash vintini oxirigacha qotirib, so'ngra 1,5 - 2 marta aylantirib bo'shatiladi va drosselning tayanch vintini yoki miqdor vintini burab, mumkin bo'lgan eng kichik aylanishda ravon ishslashiga erishiladi. Yana sifat vinti buralib dvigatel eng katta aylanishlar sonidagi ravon ishslash rejimiga keltiriladi va miqdor vinti orqali kichik ravon aylanishlar soni sozlanadi. Bu jarayon bir necha marta qaytarilib, dvigatel eng past aylanishlar sonida ravon ishslash holatiga keltiriladi. So'ngra drossel birdaniga ochilib va berkitilib, karbyurator ishlashi tekshiriladi. Punda dvigatel o'chmasligi kerak. Dvigatelnинг tirsaklı vali eng kichik va bir tekis ishslashiga erishilgandan so'ng, chiqindi gazlar tarkibidagi uglerod oksidi miqdori tekshiriladi va sozlanadi.

*Yonilg'i o'tkazgich va yonilg'i baki*ni tekshirishda o'tkazgich va filtriarning holati tekshiriladi hamda ularning o'rnatilish jispliklari, ya'ni zichligi aniqplanadi va zarur bo'lsa tozalanadi. TXK davrida rezbali birikmalar mahkamlanadi. Bir yilda bir marta (MX davrida) yonilg'i baki yuvilib, yonilg'i o'tkazgichlar siqilgan havo bilan purkab turiladi. Yonilg'i bakidan yonilg'i kerakli miqdorda so'rilihini ta'minlash uchun, qabul qilish naychasidagi filtr tozalanadi va bakning qopqog'idagi shamollatish teshigi nazorat qilinadi.

*Yonilg'i nasosi* TXK davrida nazorat qilinadi va unga xizmat ko'rsatiladi yoki bu jarayon o'rta hisobda 5-10 ming km masofa yurilgandan keyin ham bajarilishi mumkin. Bu vaqtda uning ichki qismi va filrlash to'ri tozalanadi, shuningdek, nasos hosil qiladigan eng yuqori bosim va havoning siyraklanishi, klapanlar germetikligi va ish unumi tekshiriladi. Yonilg'i nasosi avtomobilning o'zida yoki yechib tekshirilishi mumkin.

Yonilg'i nasosi avtomobilda tekshirilganda u bilan karbyurator orasiga monometrli moslama o'rnatilib, dvigatel ishlayotgan holatda hosil bo'lgan bosim aniqplanadi. Yonilg'i nasosi hosil qiladigan bosim 0.02-0.030 MPa, ishlab chiqarish qobiliyati 0.7-2 l/daqiqa va 30 soniya mobaynida bosimning pasayishi 0.008-0.010 MPa ni tashkil qilishi kerak. Tekshirish natijalariga ko'ra nasos qismlarga ajratilib barcha detallarning holati tekshiriladi, tozalanadi hamda diafragma ostidagi pruijinaning yuk bilan va yuksiz holatdagi uzunligi aniqplanadi, me'yoriy qiymatlari bilan taqqoslanadi.

«Neksiya» va «Espero» avtomobilларининг та’минот тизими карбураторли дигителларнидан фарқ қилиб, уларда карбуратор о’рнода инжекторлар ham ишлатилади. Инжекторнинг vazifasi yonilg’и насосидан босим ostida (0.35-0.8MPa) кelayotgan yonilg’ини керакли миқдорда silindрга purkab berishдан iboratdir.

Та’минот тизими диагностикаланганда yonilg’и насоси hosil qilayotgan босим, инжекторнинг texnik holati va yonilg’и filtrining holati назоратдан o’tkaziladi. Bunda yonilg’и насосининг texnik holati, ya’ni hosil qilayotgan босимини tekshirish учун инжектор блокига kelgan yonilg’и shlangasi yechilib, o’rniga monometrл o’lchov asbobi o’rnataladi va yonilg’и насосининг maxsus «K» klemmasi kuchlanish tarmog’iga уланади.

Injektorlarning texnik holati ularни birin-ketin uzish yo’li bilan aniqlanadi. Uning ishlamayotganligini dvigatel tirsakli valining aylanishlar soni o’zgarmasligidan bilish mumkin.

10000 km dan so’ng yonilg’и filtri yechib olinib, siqilgan havo bilan ishlashiga qarshi yo’nalishda purkab tozalanadi va 20000 km dan so’ng yangisiga almashtiriladi.

**Dizel dvigatellari ta’minot tizimi.** Dizel dvigatellari ta’minot tizimiga avtomobillar asosiy nosozliklarining 9 % gachasi to’g’ri keladi. Tizimning asosiy nosozliklariга yuqori босимли насос ва forsunka zichligining buzilishi, havo va yonilg’и filtrlarining kirlanishi, plunjер juftining yeyilishi va buzilishi, forsunka purkash teshigini qurum босishi, yonilg’и purkashni boshlash vaqtining o’zgarishi misol bo’ladi. Bu nosozliklar yonilg’и насосларining bir maromda ishlamasligi, ya’ni uning ishlab chiqarish qobiliyatи va yonilg’и purkash sifati pasayishi, bu esa dvigatelning tutab ishlashiga va quvvatining 3-5 % ga pasayishiga sabab bo’ladi.

Dvigatel ta’minlash tizimining nosozligi va ishlamay qolishining tashqi belgilari uni ishga tushirishning qiyinlashishi, notejis ishlashi, tutashi, quvvatining kamayishi, qattiq to’qillab ishlashi va yonilg’и sarfining ortib ketishi kabilardan iborat.

Dvigateli ishga tushirishining qiyinlashishiga asosiy sabab yonilg’и камерасига kam miqdorda yonilg’и uzatilishidir. Tizimga havo kirib qolishi, filtrlovchi elementlarning ifloslanishi, past босимли насоснинг nosozligi (yoki yuqori босимли yonilg’и haydash насоси — YuBYoN), plunjер juftining yeyilishi natijasida босимнинг kamayishi, forsunka purkagichi kallagi teshigining yeyilishi, purkash teshigini qurum to’sib qolishi natijasida yonilg’иниг purkalishi yomonlashadi.

Dvigatelning turg’un ishlamasligi (tirsakli val aylanishlar soni kamligida) ta’minlash tizimiga havo so’rilib qolishidan, yonilg’и насоси seksiyalaridan yonilg’и notejis yetkazib berilishi va forsunka holatining nosozligidandir. Dvigatelning tutab (qora tutun chiqarib) ishlashi YuBYoNdan yonilg’иning

erta yoki kech yetkazib berilishi sababli to'la yonmasligi, forsunka purkash kallagi teshigining kengayishi natijasida purkash bosiminining kamayishi, kech yonilg'i yetkazib berilishi, forsunkadan sizib oqishi, havo filtrining ifloslanishi, purkash teshigining qurum bosib ketishi natijasida purkashning yomonlashishi, forsunka sepish kallagining ifloslanishi va yonilg'ida suv to'planib qolishi sabablidir.

Dvigatel quvvatining kamayishi ta'minlash tizimiga havo so'rilib qolishi, havo filtrining ifloslanishi, yonilg'ining yetarli miqdorda yetkazib berilmaligi, purkash burchagi sozlanishining buzilishi, forsunkadan yonilg'i purkalishining yomonlashishi, YuBYoNDan yonilg'ining notejis va kam yetkazib berilishi, kompressiyaning kam bo'lishi, belgilangan yonilg'idan foydalanmaslik oqibatidir.

Ta'minot tizimini diagnostikalash va sozlashda, tizim zichligi, yonilg'i va havo tozalagichlar holati, yonilg'i haydash nasosi va yuqori bosim nasosi ishlashi tekshiriladi.


Tizim zichligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u ishdan chiqsa bakdan yonilg'i haydash nasosigacha bo'lган qismida tizimiga havo surilishiga va yonilg'ining ko'proq sarf bo'lishiga hamda apparatlarning yaxshi ishlamasligiga olib keladi. Bu qism maxsus asbob-idish yordamida, qolgan qismi esa ko'z bilan tekshiriladi. Yonilg'i va havo filtrlari nazorat yo'li bilan tekshiriladi.

Yonilg'i haydovchi nasos va yuqori bosimli nasoslarning texnik holati avtomobilning o'zida yoki yechib olib maxsus jihozlar (SDTA-1 yoki SDTA-2) yordamida tekshiriladi.


Yuqori bosimli nasos va forsunkani avtomobilning o'zida tekshirish usuli forsunka bilan YuBYoN oralig'iga o'matilgan mahsus datchik yordami bilan tizimdag'i bosimni nazorat qilishga asoslangan (70-rasm).

Ossilogrammadagi 1-nuqtada nasos plunjeringin harakati tufayli bosim osha boshlaydi, 2-nuqtada so'ruvchi klapanning ishi me'yorlashadi va

**70-rasm. Forsunka shutserida hosil bo'lган bosim ossilogrammasi:**



a) dvigatelning salt yurish rejimida ishlagan paytida




b) yonilg'ini tuliq berilishi va dizelning yuqori quvvatda ishlagan paytida

plunjerning sekin harakati tufayli bosim birmuncha kamayadi. 3-nuqtada forsunka ignasi ko'tariladi. Bu vaqtda bosim pasayadi, chunki bo'shagan hajm yonilg'i bilan to'lishga ulgurmeydi. 4-nuqta tirsakli valning yuqori aylanishlar chastotasida sachratish jarayonidagi eng katta bosimni ko'rsatadi. 5-nuqtada forsunka ignasi o'z o'rindig'iga o'tiradi va sachratish jarayoni tugaydi. 6-nuqtadagi qoldiq bosim so'rish klapanining yaxshi zichlanmaganligini ko'rsatadi. S<sub>1</sub> oralig'ining kattaligi forsunka prujinasini tortilishi va sachratish boshlanishidagi statik bosimni ko'rsatadi. DR oralig'idagi bosimning tushishi forsunka ignasining harakatlanuvchanligini ko'rsatadi. Eng yuqori sachratish bosimi-S<sub>3</sub> sachratgich kallagi kesimining o'tkazuvchanlik qobiliyatini bildiradi. Integratsiyalash yo'li bilan esa t<sub>v</sub> sachratish vaqtidagi yonilg'i uzatish davrini baholash mumkin. Yuqorida qayd qilingan usulda diagnozlash o'matiluvchi yagona datchik va stroboskopdan (K-261) foydalanilanib bajarilishi mumkin.

### *71-rasm. SDTA-1 jihozining asosiy shakli*

1—yuqori bosimli yonilg'i nasosi, 2—forsunkalar, 3—menzurka, 4—yonilg'i sahining korsatkichi, 5—termometr, 6—yonilg'i bakchasi, 7—jihozning yonilg'i haydash nasosi, 8—filtr, 9—monometr, 10—dempfer, 11—kranlar, 12—pastki yonilg'i baki.



Ustaxona sharoitida esa yuqori bosimli va yonilg'i haydash nasoslari, SDTA-1 va SDTA-2 jihozlarida tekshiriladi (71-rasm). Yonilg'i haydash nasosining berilgan qarshilikdagi ish unumdorligi va yonilg'i kanali to'la yopiq bo'lganda, u hosil qiladigan bosim tekshiriladi.

Yonilgi haydash nasosini tekshirish uchun undan filtrga ketgan naycha o'lchov bakchasiga tushiriladi, yonilg'ining nasosdan chiqishi esa, chiqishdagi bosim 60-80 KPa gacha ko'tarilishi uchun kran vositasida biroz yopiladi. «KamAZ-740» dvigatelining soz holatdagi past bosimli nasosi va yonilgi haydash nasosi kulachokli valning 1300 min<sup>-1</sup> bo'lgan aylanishlar chastotasida o'lchov bakchasiga 2,5 l/min miqdorda yonilg'i berishi kerak. Shu aylanishlar chastotasida yonilg'i haydash nasosi hosil qiladigan bosim monometrnning (9) ko'rsatishiga qarab,

nasosdan yonilg'i chiqishi kran bilan asta berkitgan holda aniqlanadi. Agar nasos 0,4 MPa dan oz bosim hosil qilsa, klapanlarning germetikligini, porshenlarning yeyilganligini va turtkichning erkin harakatlanishini tekshirish zarur. Yuqori bosimli yonilg'i nasosi har bir forsunkaga beriladigan yonilgi boshlangich paytiga, bir tekisligiga va miqdoriga tekshiriladi.

Yonilgi berishning boshlangich paytini aniqlash va rostlash uchun STDA jihozlarida har bir seksiyaning chiqish shtutseriga o'rnatalgan momentoskoplar (ichki diametri 1,5-2,0 mm bo'lgan shisha trubkalar) ishlataladi. Nasosning kulachokli vali aylantirilib, shisha trubkalar hajmining yarmi yonilg'i bilan to'ldiriladi, so'ng val yurutmasi soat mili bo'yicha asta aylantirilib trubkalardagi yonilg'i sathi kuzatiladi. Nasos seksiyalaridan yonilg'i berishning boshlanishi momentoskoplarning shisha trubkalaridagi yonilg'i harakatlanishining boshlanishiga qarab aniqlanadi.

SDTA jihozlari korpusining nasosni aylantiradigan vali tomoniga darajalarga bo'lingan disk, nasos kulachokli valini jihozdag'i yuritma val bilan biriktiradigan muftaga esa strelka o'rnatilgan. Birinchi silindr trubkasidagi yonilg'i harakatlanishining boshlangich payti sanoq boshi — 0° deb qabul qilinadi. «KamAZ-740» dvigatel'i silindrlarining ishlash tartibiga (1-5-4-2-6-3-7-8) mos ravishda, boshqa silindrlarga yonilg'i berilishining boshlanishi nasos kulachokli vali quyidagi burchaklarga burliganda sodir bo'ladi: 5-silindrga (nasosning 8-seksiyasi)-45°, to'rtinchiga (4-seksiya)-90°, ikkinchiga (5-seksiya)-135°, oltinchiga (7 seksiya)-180°, uchinchiga (3 seksiya)-225°, yettinchiga (6 seksiya) -270° va sakkizinchiga (2 seksiya)-315°. Bunda birinchi seksiyaga nisbatan har bir seksiyadan yonilg'i berishning boshlanishi orasidagi intervalning noaniqligi 0,5°dan ortib ketmasligi kerak.

Yonilg'i berishning boshlanishini tekshirish, yonilgi purkalishini ilgarilatish muftasini yechib qo'ygan holda amalga oshiriladi.

«KamAZ-740» dvigatelidagi yuqori bosimli yonilg'i nasosi konstruksiyasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, seksiyalar nasos korpusidan alohida qilib tayyorlangan va seksiya o'z korpusi bilan yig'ilgan holatda almashtirilishi mumkin. Kulachokli valning burilish burchagiga qarab, har bir seksiyadan yonilg'i berishning boshlanishi, turtkichi tovonining qalinligining o'zgartirishi bilan rostanadi; tovon qalinligini 0,05 mm ga o'zgarishi 0° 12' burilish burchagiga to'g'ri keladi.

Nasos jihozda sinalayotganda, har bir seksiya berayotgan yonilg'ining miqdori, jihozning forsunkalar ostidan maxsus to'siqchani avtomatik ravishda olib qo'yadigan qurilmasidan foydalangan holda menzurkalar yordamida aniqlanadi. Sinov soz va rostlangan forsunkalar to'plami bilan birgalikda o'tkaziladi. U forsunkalar nasos seksiyalari bilan bir xil ( $600\pm2$  mm) uzunlikdagi yuqori bosimli naychalar vositasida biriktiriladi. Plunjerning

bitta yo`lida seksiya beradigan yonilg`i miqdori (siklik uzatish) «KamAZ-740» dvigateli uchun 75,0-77,5 mm<sup>3</sup>/siklni tashkil qilishi kerak. Nasos seksiyalari berayotgan yonilg`ining notekisligi  $\pm 5\%$  dan oshmasligi lozim. Seksiyalar ishlab chiqarish qobiliyatining ( $V_F$ ) farqi quyidagicha aniqlanadi:

$$V_F = \frac{(V_{\max} - V_{\min})^2}{V_{\max} + V_{\min}} \cdot 100\%$$

*bu yerda:  $V_{\max}$  — eng ko`p ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo`lgan seksiyaning ko`rsatkichi, mm<sup>3</sup>;  $V_{\min}$  — eng kam ishlab chiqarish qibiliyatiga ega bo`lgan seksiyaning ko`rsatkichi, mm<sup>3</sup>.*

Nasosdagi har bir seksiyaning yonilg`i berishi seksiya korpusini nasos korpusiga nisbatan burish orqali rostlanadi. «KamAZ-740» dvigateli nasosining seksiyalari soat miliga qarshi burilsa, siklik yonilg`i uzatish ortadi, soat mili bo`yicha burilsa kamayadi.

Dizel forsunkalari germetiklikka, bosimga va yonilg`ining changlanish sifatiga tekshiriladi.


Nosoz forsunka ishlab turgan dizelda tekshirilayotgan forsunkaning tashlama gaykasini biroz bo`shatib aniqlash mumkin. Forsunkalar gaykasini navbatma-navbat bo`shatib, tirsakli valning aylanishlar chastotasini kuzatish kerak. Agar soz forsunka uzib qo`yilsa, dizel notekis ishlaydi. Nosoz forsunka uzilsa, dvigatelning ishlashi o`zgarmaydi.

Forsunkalar holatini NILAT-1609 asbobida (72-rasm) to`liq tekshirish mumkin. Bu asbob yonilg`i bakchasiidan (1) dastasi bilan harakatga keltiriladigan yonilg`i nasosidan va monometrdan iborat. Forsunka (2) asbobga o`matilgandan so`ng, richag (7) vositasida bosim asta-sekin oshiriladi.

«KamAZ-740» dizeli forsunkasidagi yopiq to`zitgich korpusining germetikligini jihozda, bosimning 17-17,5 MPa oralig`ida bir daqiqa mobaynida

### 72-rasm. Forsunkalarni tekshirish asbobi

1—yonilg`i bakchasi, 2—forsunka, 3—yuqori bosimli naycha, 4—monometr, 5—yonilg`i berish naychasi, 6—nasos seksiyasi, 7—richag



ushlab turib aniqlanadi. To'zitgich turshug' idan 1 daqiqa davomida ikki tomchidan ortiq yonilg'i hosil bo'lib tomsa, bunday to'zitgich ishlatalishga yaroqsiz deb hisoblanadi. Bu holatda plunjер juftligi yangisiga almashtirilishi lozim.

«KamAZ-740» dvigatelidagi forsunkaning (73-rasm) purkash bosimi to'zitgich gaykasi (2), oraliq detal (3) va shtangani (5) yechib olib, shaybalar (11,12) vositasida rostlanadi. Shaybalarning (11,12) umumiy qaliligi 0,05 mm ga orttirlisa, purkash boshlanadigan bosim 0,03-0,35 MPa ga ortadi.


Dvigatel forsunkalarini purkash boshlanadigan bosimga (igna ko'tarilishining boshlanishiga) rostlash kerak. Bu bosim «KamAZ-740» forsunkalari uchun  $18 \pm 0,5$  MPa ga, «YaMZ»-236 forsunkalari uchun  $16,5 \pm 0,5$  MPa ga teng.

Agarda richag (7) (73-rasm) bir daqiqada 70-80 marta tebratilganda yonilg'i to'zitgichning har bir teshigidan tomchilamasdan, oqish konusining ko'ndalang kesimi bo'yicha bir tekisda chiqib, tumanga o'xshash holatda purkalsa, changlatish sifati qoniqarli deb hisoblanadi. Purkalishning boshlanishi va oxiri aniq bo'lishi lozim. Yangi forsunkada yonilg'ining purkalishi o'tkir tovush bilan birga kuzatiladi. Ishlatilgan forsunkalardan bunday tovushning chiqmasligi, ularning sifatsiz ishlashi alomati emas.

To'zitgich teshiklarini qurum bosganda, ularni (forsunka qismilarga ajratilgandan so'ng) ingichka po'lat sim bilan tozalash va etillanmagan benzinda yuvish kerak bo'ladi.

Yonilg'i baklariga xizmat ko'rsatishda ular yechib olinadi va avvalo, quyqalardan tozalanguncha kaustik sodaning 5 foizli issiq suvdagi eritmasi bilan, so'ng oqib turgan suv bilan yuviladi.

Ishlatilgan gazlarning tutashi, tutun o'lchagich (6) (74-rasm) shkalasi bo'yicha aniqlanadi. Tahlil etish uchun gaz olish, maxsus gazolgich (2) yordamida amalga oshiriladi. Gazolgich (2), ressiver (5) orqali chiqarish quvuri (4) bilan ulangan o'lchash quvuriga (3) o'rnatilgan. O'lchash quvuridagi bosimni oshirish uchun zarur ho'llarda, u zaslonda (1) bilan jihozlanadi. Tutashni o'lchash TXK da va



73-rasm. «KamAZ-740» dvigatelinining forsunkasi  
 1—tuzitgich korpusi, 2—to'zitgich gaykasi, 3-oralig detal,  
 4—o'rnatish shiftlari, 5—shtanga, 6—forsunka korpusi, 7—  
 zichlovchi halqa, 8—shtutser, 9—filtr, 10—zichlovchi vtulka,  
 11, 12—rostlash shaybalar, 13—prujina, 14—to'zitgich ninasi

ta'mirdan so'ng yoki yonilg'i apparaturalarini rostlash paytida ko'zg' almasdan turgan avtomobilning dvigatelini salt ishlashidagi ikki xil rejimda: erkin tezlanishda (tirsakli valning aylanishlarini minimal chastotadan maksimal chastotaga yetguncha tezlanishi) va valning eng yuqori maksimal chastotali aylanishlarida amalga oshiriladi. Ishlatilgan gazlar tutashi ularning optik zichligiga qarab baholanadi va foizlarda ifodalanadi. «KamAZ», «MAZ» va «KrAZ» avtomobillarining dvigatellarida ishlatalgan gazzlarning tutashi, erkin tezlanish rejimida 40 foizdan, eng yuqori (maksimal) chastotali aylanishlarda 15 foizdan oshmasligi kerak.


**Gaz ballonli avtomobilarning ta'minot tizimi.** Suyultirilgan va siqilgan gazzlarda ishlovchi avtomobillar uchun mo'ljallangan gaz uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish ko'pgina umumiylukka ega. Gaz ballonli uskunalarga texnik xizmat ko'rsatishni maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va guvohnomaga ega bo'lgan malakali chilangarlar o'tkazishi mumkin. Quyida «ZIL-138A» avtomobilining gaz ballonli uskunasiga texnik xizmat ko'rsatish ishlari tarkibi keltirilgan.

**Tizimning asosiy nosozliklari.** Bu nosozliklar tizim germetiklaginiing buzilishiga va gazning sizib chiqishiga bog'liqdir. Reduksiyalovchi uzelning klapani va korpus detallari birikmalarining germetik emasligi yuqori bosim reduktorining asosiy nosozliklari hisoblanadi. Drossel zaslondkalari ochilganda reduktoring chiqishida bosimning keskin pasayishi filtr ifloslanganligidan dalolat beradi.

Past bosimli gaz reduktorining asosiy nosozliklari — dvigatel ishlamayotganda klapanlar orqali gaz qo'yib yuborishi hamda gazni umuman yoki yetari darajada uzatmasligidir.

Birinchi bosqich klapanining nogermetikligini past bosim monometri yoki eshitish orqali aniqlash mumkin.

Ikkinci bosqich klapanining nogermetikligi dvigateling o't olishini



74 - rasm.  
Dizeldan chiqayotgan ishlatalgan gazlarning tutashini o'lchash shakli.

1-zaslanka, 2-gazolgich, 3-o'lchash quvuri; 4-dizelni chiqarish quvuri; 5-ressiver, 6-tutun o'lchagich.

qiyinlashtiradi, salt ishslash rejimida dvigatelning ishslashini yomonlashtiradi, dvigatel to'xtagandan so'ng, gaz kapot osti bo'shilg'iغا sizib chiqadi.

Birinchi bosqich diafragmasi germetikligining buzilishi natijasida birinchi bosqich prujinasining rostlash gaykasidagi teshik orqali gazning sizib chiqishi hosil bo'ladi. Ikkinci bosqich diafragmasining germetikligi buzilganda esa, gaz shu bosqichni rostlash nippelining qopqog'i orqali sizib chiqadi.

*Teknik xizmat ko'rsatish.* Kundalik xizmat ko'rsatishda gaz ballonlarining mahkamlanishi va gaz tizimining hamma birikmalari germetikligi ko'rish orqali tekshiriladi. Ish kunining oxirida esa ballonlar armaturalari va sarflash ventillari germetikligi tekshiriladi. Past bosimli gaz reduktoridan quyqum to'kiladi. Benzin o'tkazuvchi birikmalarda va elektromagnitli klapan-filtrda benzinning tomchilashi bor-yo'qligi tekshiriladi.

1-TXK da KXK da bajariladigan ishlardan tashqari, yuqori bosimli gaz reduktori saqlash klapanining ishlashi ham tekshiriladi. Magistral, to'ldirish va sarflash ventillarining shtoklaridagi rezbalar moylanadi. Magistral va yuqori bosimli reduktor filtrlarining filtrash elementlari yechib olinadi, tozalanadi va o'z urniga o'rnatiladi. Gaz tizimining germetikligi siqilgan azot va siqilgan havo bilan tekshiriladi. Dvigatelning o't olishi va salt ishslash rejimida qanday ishlashi ham gazda, ham benzinda tekshiriladi.

2-TXK da KXK va 1-TXK da bajariladigan ishlardan tashqari, past va yuqori bosimli reduktorlarning germetikligi tekshiriladi va lozim bo'lganda chiqishdagi bosim hamda saqlash klapanining ishga tushish bosimi rostlanadi (yuqori bosimli reduktorda). Past bosimli reduktorning birinchi va ikkinchi bosqichidagi bosim qiymati rostlanadi. Gaz ballonining saqlash klapani hamda yuqori va past bosim monometrlarining qanday ishlashi tekshiriladi. Karbyuratorning mahkamlanishi hamda aralashtirgich-o'tkazgichining karbyuratorga mahkamlanishi tekshiriladi. Isitgich yechiladi, tozalab yuviladi va uning germetikligi, zaslonda hamda yuritmasining qanday ishlashi tekshiriladi, so'ng o'z joyiga o'rnatiladi. Havo filtri yechiladi va tozalab yuviladi, uning vannasiga toza moy quyiladi. Aralashtirgich tekshiriladi va lozim bo'lganda, ishlatilgan gaz tarkibidagi uglerod oksidining eng kam miqdoriga rostlanadi.

Mavsumiy xizmat ko'rsatish karbyurator-aralashtirgichni, reduktorlarni, filtrlarni va elekromagnitli to'sish klapanlarini qismlargacha ajratish, tozalash va rostlash ishlarini o'z ichiga oladi. Yuqori bosimli reduktor (75-rasm) saqlash klapanining ishga tushish bosimini ham tekshirib ko'rish lozim. Uch yilda bir marta gaz ballonlari ko'rikdan o'tkaziladi. Qishda ishlatishga tayyorlashda cho'kindilar to'kiladi va avtomobilning benzin baki yuviladi.

Gaz o'tkazgichlar va birikmalarning nogermetikligi quyidagicha bartaraf etiladi:

1. Yuqori bosimli reduktor va ballonlar orasidagi trubkani ta'mirlash yoki almashtirish uchun (tashqi tomoni qizil bo'yoq bilan bo'yagan) ballonlarning sarflash ventillari berkitiladi, tizimdagi gaz ishlatib bo'lingandan yoki chiqarib yuborilgandan so'ng qismlarga ajratiladi va trubka almashtiriladi.

2. Birikmalar nogermetikligi gaykalarni qo'shimcha burash bilan tuzatiladi. Agar bu natija bermasa, birikma qismlarga ajratiladi, trubka uchi nippel bilan birgalikda kesib tashlanadi vayangi nippel kiydirilib birikma yig'iladi, bunda trubkaning yuza qismi shtutserning ichki yuza qismiga qadalib turishi lozim.

3. Shikastlangan rezinali shlanglar almashtiriladi.


Yuqori bosimli reduktor gazning bosimini reduktordan chiqishda 1,2 MPa bo'lishini ta'minlashi kerak. Rostlash ishlarini bajarishda (75-rasm) bosimni ko'paytirish uchun vint (1) soat mili bo'yicha aylantiriladi.

Past bosimli reduktor filtrining to'rini tozalash uchun krestovinadagi magistral ventil berkitiladi, gazni ishlatib bo'lib, o't oldirish tizimi o'chiriladi,

### 75-rasm.


#### *Yuqori bosimli gaz reduktori:*

1-rostlash vinti, 2-kontrgayka, 3-vtulka, 4-prujina tarelkasi, 5-prujina, 6-saqlash klapani, 7-membrana, 8-tashlama gayka, 9-reduksion klapani, 10-reduktor korpusi, 11-klapan korpusi, 12-filtr, 13-vint, 14-shayba



#### *Past bosimli reduktorni rostlash:*

1,2-pezometrlar, 3-reduktor qopqog'i, 4-trubkali tiqin, 5-uchlik, 6, 8, 15—trubkalar, 7-ekonomayzer qurilmasining qopqog'i, 9-reduktorni ikkinchi bosqichi, 10-haydovchi kabinasidagi monometr, 11-birinchi bosqichning rostlash gaykasi, 12—monometr datchigi, 13,17-kontrgayka, 18-ikkinchi bosqichning rostlash nippeli, 19-shtok sterjeni



filtrlovchi element bo'shatib chiqariladi, to'r yechib olinadi va u benzin, atseton yoki boshqa erituvchida yuviladi, so'ng siqilgan havo bilan purkaladi.

Reduktorni avtomobilda rostlash mumkin, buning uchun qisqa chiqarish quvurining teshigiga (75-rasm, b) pezometrga (2) ulaydigan trubkasi bo'lган tiqin (4) o'matiladi. Tagqopqoqning qisqa quvuri pezometrga (1) shlang yordamida oldindan tayyorlangan uchlik (5) orqali ulanadi. Trubkalar (6, 8) orqali vakuumli nasos yordamida reduktorni yukszlantirish qurilmasidagi bo'shlida siyraklanish hosil qilinadi. Birinchi bosqich bo'shlig'ining kirish joyiga filtr shutuscriga ulangan shlang (15) orqali, kompressorda 0,22-0,6 MPa bosimgacha siqilgan havo uzatiladi. Birinchi bosqich bo'shlig'idagi gaz bosimi 0,18-0,20 MPa bo'lishi lozim. U gayka (11) bilan rostlanadi (qotirilgan holatda bosim ko'payadi) va monometr (10) orqali nazorat qilinadi. Rostlashdan so'ng kontrgayka (13) qotirib qo'yiladi. So'ngra ikkinchi bosqich klapanining ochilishi rostlanadi. Buning uchun qopqoq (3) yechib olinadi, kontrgayka bo'shatiladi va rostlash vintini, ikkinchi bosqich klapanidan havo chiqishi boshlanguncha bo'shatiladi. Rostlash vinti 1/8 -1/4 marta aylantirib qotiriladi, klapan orqali chiqayotgan havoning to'xtashini eshitish orqali aniqlab, so'ng kontrgayka qotirib qo'yiladi. Trubkalar (6, 8) orqali yukszlantirish qurilmasi bo'shligida siyraklanish hosil qilinadi va uning miqdori pezometrga (1) qarab 0,7-0,8 kPa chegaragacha keltiriladi. Bunda ikkinchi bosqich klapani ochilishi kerak. Uni rostlangandan so'ng ikkinchi bosqich bo'shlig'ida, pezometr (2) bo'yicha ni ppelni (18) aylantirish bilan atmosfera bosimidan 0,05-0,07 kPa ga ortiq bo'lган bosim hosil qilinadi, bu paytda yukszlantirish qurilmasida avvalgi siyraklanish mavjud bo'ladi. So'ng kontrgayka (17) qotiriladi va sterjenning (19) yo'li tekshiriladi. Agar sterjenning yo'li ikkinchi bosqich klapani ochilganda 5 mm dan kam bo'lsa, reduktorni yechib nosozlikni bartaraf etish lozim.

Reduktorni rostlashda avval ikkinchi bosqich klapanining yo'li tekshiriladi: tekshirish ikkinchi bosqich diafragmasining sterjeni yo'li bo'yicha amalga oshiriladi (bu yo'li 5 mm dan kam bo'lmasligi kerak).

Gaz dvigatelini yurgazish paytida yuqori bosim monometri bo'yicha ballondagi gaz miqdori tekshiriladi (bosim 1,2 MPa dan ko'p bo'lishi lozim), ballonlardagi sarflash ventillari va krestovinadagi magistral ventil ochiladi. Yonilg'i turini almashlab ulagich «Gaz» holatiga qo'yiladi, drossel zaslonskasi qo'l bilan boshqariladigan tugmchasini esa shunday holatga qo'yish lozimki, bunda qizigan dvigatel  $700-800 \text{ min}^{-1}$  aylanish chastotasini hosil qilsin. O't oldirish tizimi va starter ulanadi (aylantirish vaqt 5 s dan oshmasligi lozim). Dvigatel ishlay boshlashi bilanoq starter uziladi va 1-2 daqiqadan so'ng drossel zaslonskasi sekin-asta biroz ochiladi hamda valning  $800-1000 \text{ min}^{-1}$  aylanishlar chastotasida dvigatel qizdiriladi. Drossel zaslonskasining qo'l bilan boshqariladigan tugmchasi to'la ochiq holatga keltiriladi.

Dvigatelni gaz bilan o't oldirishda havo zaslonkalarini berkitish tavsya etilmaydi, chunki bunda aralashma boyib, o't oldirish qiyinlashadi.

Agar dvigatel o't olgan yoki benzinda ishlayotgan bo'lsa, uni gazga o'tkazish uchun ballonlardagi va krestovinadagi ventillar ochiladi, yonilg'i turini almashlab ulagichini «O» holatiga, so'ngra po'kakli kameradagi benzin ishlatib bo'lingandan keyin (dvigatel notejis ishlay boshlaydi) almashlab ulagich «Gaz» holatiga o'tkaziladi va shu bilan dvigatel gazda ishlay boshlaydi. Gazdan benzinga o'tish teskari tartibda amalga oshiriladi.

Gazda salt ishlashni rostlash, faqatgina juda qizigan dvigatelda amalga oshiriladi. Dvigatelni to'xtatib (75-rasm, b), vint (7) benzinda ishlayotgan holatiga nisbatan 1/2 aylanaga qotiriladi, vintlar (8 va 9) esa oxirigacha qotiriladi. Keyin vint (8) uch marta aylantirib, vint (9) esa bir marta aylantirib bo'shatiladi. Vintlar (8 va 9) qotirilganda aralashma kambag' allashadi, bo'shatilganda esa boyiydi. Vintlar (4) bo'shatiladi va aralashtirgich-o'tkazgich (5) flanesining ostiga teshiksiz qistirma o'matib, flanes qaytarish klapani korpusiga vintlar (4) bilan qotiriladi. Dvigatel gazda o't oldiriladi va bir maromda drossel zaslonkasi ochiladi. Agar tirsakli valning aylanishlar chastotasi 1300-1400 min<sup>-1</sup> bo'lsa, rostlash bajarilmaydi, aks holda vintni (8) burab gaz berish o'zgartiriladi. Dvigatel to'xtatiladi, aralashtirgich-o'tkazgich flanesi ostidagi qistirma teshikli qistirma bilan almashtiriladi va yana dvigatel yurgizilib, tirak vint (7) yordamida valning turg'un aylanish chastotasi o'matiladi (500-600 min<sup>-1</sup>). Aralashma vint (9) bilan kambag' allashtiriladi, dvigatel aniq uzilish bilan ishlay boshlagandan so'ng, vint (9) 1/16 aylanaga bo'shatiladi. Rostlashning to'g'riliqi drossel zaslonkasi tepkisini birdaniga bosish bilan tekshiriladi, agar dvigatel aylanishlar chastotasini tez sur'atda ko'paytirmasa, vinti yana 1/16 aylanaga bo'shatiladi. Yonilg'inining bir turidan ikkinchi turiga o'tganda tirsakli valning salt ishslash rejimidagi aylanishlar chastotasi faqatgina tirak vint (7) yordamida ketlanadi.

**Moylash tizimi.** Dvigatelning ishlash jarayonida uning karteridagi moy sathi kamayib, sifati o'zgaradi. Bular dvigatelning buzilishiga va boshqa nosozliklar kelib chiqishga sabab bo'ladi. Dvigatelning ishlash jarayonida moy sifati yomonlashishiha sabab, unda metall zarrachalari va yonilg'i qo'shilib ifloslanishi hamda oksidlanishidir. Shuningdek, moyda moylash sifatini yaxshilovchi qo'shimchalarining kamayib borishi uning sifatini pasaytiradi. Moy tarkibidagi mexanik aralashmalar, metall zarrachalaridan iborat bo'lib, bular ikki ishqalanuvchi sirtning bir-biriga nisbatan sirpanishidan hosil bo'ladi. Mineral aralashma (qum, chang)lar, havo bilan moyga qo'shilib, uning moylash hususiyatini kamaytiradi. Moy tarkibida mexanik aralashmaning miqdori 0,2% dan oshmasligi kerak. Shu bilan birga havodagi kislороднинг та'siri bilan moy oksidlanib qoladi va karterga tushib, qizigan va

kirlangan moy bilan aralashib ketadi. Kislotalar oksidlovchi modda hisoblanib, silindrler devori, porshen halqasining yemirilishida va zanglashga uchrashida asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, bu modda podshi pniklarda ishqalanishiga qarshilik ko'sratuvchi muhit yaratadi. Smolalar esa porshenda va porshen halqasida laksimon qatlam hosil qiladi hamda ular qo'zg' aluvchanligini keskin kamaytiradi. Mayda kolloid va erigan yoki quyqa holida karterga tushuvchi (qattiq aralashmalar, ya`ni karbon, karboid va kokslar) moy kanallari va naychalaridan o'tib (moy aylanib o'tishini sustlashtirib) ishqalanuvchi sirtga ta'sir etib, ularda qirilgan, chizilgan yuzali (abraziv) yeyilish hosil qiladi.

Karbyuratorli dvigatellarni sovuq holatda yurgizish natijasida silindrler devori orqali karterga benzin o'tib ketishi yoki reduksion klapan plunjeringin yeyilishi, kirlanib qolishi va ochiq qolishi natijasida tizimdag'i moy bosimi kamayib ketadi. Moy nasosi reduksion klapanining plunjeri yeyilib yoki kirlanib qolsa (berkilib qolib), tizimdag'i moy bosimining oshib ketishiga sabab bo'ladi. Tarkibida 4-6% dan oshiq yonilg'i bo'lgan moylar to'kib tashlanib, yangisiga almashtiriladi. Dvigatel karterida moy sathining kamayishiga zichlikning buzilishi, moy ushlagich va boshqa birikmalardan moyning sizib chiqishi va kuyishi sabab bo'ladi. Porshen halqasining yeyilishi tufayli, yonish kamerasinga o'tib ketadigan moy, yonilg'i bilan qo'shilib, kuyib yonadi. Bundan tashqari, dvigatelning ish jarayonida, mayin va dag'al moy filtrlari ifloslanib, moyning tozalash qobiliyati kamayadi, buning natijasida tirsakli valning yelkalari vapondshi pniklarining (vkladish) yeyilishi jadallahadi. Moylash tizimining nosozliklari qo'yidagilardan iborat:

- karterdag'i moy sathi moy o'lhash shupidagi «MIN» belgicidan kam;
- moyning bosimi tirsakli valning o'rtacha aylanishlar sonida 0,1-0,15 MPa dan kam;
- dvigatelning salt ishlashida (500 ayl/daq.) bosim 0,05 MPa dan kam.

Bundan tashqari, moy tarkibiga yonilg'inинг qo'shilib borishi moy qovushqoqligini va moy bosimining kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Moyning sifati hamda qorayib ketganligi, bosma qog'ozga tomizib aniqlanadi. Bundan tashqari (jips mahkamlangan joyning bo'shab qolishidan), moy sizib oqsa hamda mayin va dag'al filtrlar tez-tez kirlansa ham moylash tizimi nosozligidan darak beradi.

TXK da karterdag'i moy sathi va sifati tekshiriladi, zarur bo'lsa, uning sathi me'yoriga yetkaziladi. Shuningdek, filtrlar tozalanadi yoki almashtiriladi, xizmat muddatini o'tab bo'lgan moy almashtiriladi. Dag'al moy tozalash filtri, ustidagi dastasining aylanishi tekshiriladi. Bundan tashqari, (ma'lum davrdan keyin) alohida moylash qurilmalari va mexanizmlarini moylab turish zarur. Shabadalatgich parragini vali va suv nasosining podshi pniyi

(konsistent, plastik 1-13 yoki YANZ-2 moyi bilan) hamda generator podshipnigi va elektr jihozlarining moylanish joylari moylanadi. Bundan tashqari, yana havo filtrining sig' imidagi moy almashtiriladi. Dvigatel karteridagi moy sathi avtomobil tekis maydonda turganda dvigatel ishdan to'xtagandan 3-5 daqiqa o'tgach tekshiriladi.

Dvigateldagi moyni almashtirish ishlari (uning ishlash vaqtiga, detallarning yejilish darajasiga, moy sifatiga, yo'l va iqlim toifasiga bog'liq bo'lib) avtomobil 1,5-10 ming km gacha yurgandan so'ng bajariladi. Hozirda xorijiy firmalar (KASTROLL (1-ilova), SHELL (2-ilova), MOBIL, TEKSAKO va h.k.) tomonidan ishlab chiqarilayotgan moylarning resurslari 10-50 ming km ni tashkil etadi. Moyni dvigatel qizigan vaqtida almashtirish tavsiya etiladi. Ishlatib bo'lingan moy dvigateldan to'kib yuborilgandan so'ng, moylash tizimi kam qovushqoqligi vereten moyi, dizel yonilg'isi hamda dizel yonilg'isi bor moy aralashmasi yoki 90% uayt spirti yoxud 10% atsetonli yuvish aralashmasi bilan yuviladi. Dvigatel karteriga (moylash tizimining sig' imiga bog'liq holda) 2,5-3,5 l yuvish suyuqligi quyiladi, dvigatel yurgizilib, uni tirsakli valning minimal (600-800 ayl/daq.) aylanishida salt holatda 4 va 5 daqiqa ishlatilib, yuvish suyuqligi to'kib yuboriladi va yangi moy quyiladi.

«YAMZ-236», «YAMZ-238», «KamAZ-740», «Neksiya», «Damas» va boshqa turdag'i avtomobil dvigatellarining karterlariga 6l dizel moyi va 10l dizel yonilg'isi konsentrasiyasida aralashma tayyorlanib, bu aralashma kerakli miqdorda (karterga quyiladigan 2/3 moy hajmida) quyilib, moylash tizimi yuviladi. Zamonaviy avtomobillarning moylash tizimini yuvish uchun Rossiyada «VNIINP-113/3», FIAT firmasi «Olioflat L-20» va «Shell» firmasi «Shell Donaks» yuvish moylarini tavsiya etadi.

Maxsus qurilma va yuvish moyi (20-industrial moy) yordamida dvigatelning moylash tizimini yuvish yaxshi samara beradi. M-1147 turdag'i «Rosavtospesoborudovaniya» zavodi tomonidan ishlab chiqarilayotgan moylash tizimini yuvadigan qurilma quyidagicha ishlashga asoslangan, ya'ni yuvish moyi, shtutser orqali (karterning moy to'kish teshigiga ulab qo'yilib) vaqtiga vaqt bilan dvigatelning karteriga nasos yordamida berib turiladi va undan tizim tozalab yuvib chiqadi. Moylash tizimi, dvigatel salt ishlaganda yuviladi. Bu qurilmada mayin tozalash filtri mavjuddir. Yuvish moyi bir necha marta (filtrdan o'tkazib) tozalangandan so'ng, kelgusida foydalanish mumkin. Moylash tizimi 6-10 ming km masofani bosgach (navbatdagi 2-TX paytida) haimda mavsum almashish paytida albatta yuviladi. 1-TX paytida mayin moy filtridan quyqa to'kib yuboriladi. Karbyuratordi dvigatellarda moy almashtirilganda filtrlovchi elementlar ham almashtiriladi. Moy almashtirishdan oldin filtr korpusidan quyqani to'kib yuborish lozim. Filtrlovchi element chiqarib olinib, korpusining ichki tomoni kerosin bilan yuviladi va quruq qilib artiladi. Markazdan qochma

kuch bilan ishlovchi filtrda moy tozalash sifati rotorning aylanishlar soniga bog`liq bo`lib, buni nazorat qilish uchun dvigatelni to`xtatib (ishlatmay) qo`yib, rotorning shundan so`nggi erkin aylanishi kuzatiladi. Markazdan qochma filtrning (sentrofuganing) yaxshi ishlayotganligini aniqlashda uning rotorini dvigatel ishdan to`xtagandan keyin 2,5-3 daqiqa mobaynida erkin aylanib turishini kuzatish kifoya. Filtrning qoniqarsiz ishlashi aniqlansa, u qismrlarga ajratib tozalanadi va yuviladi.

Moyni dag`al tozalash filtrida yig`ilgan quyqa (dvigatel moyini navbatdagi almashtirishda) to`kib yuboriladi va filtrlovchi diskda yig`iladigan smolali qoldiqlar har kuni dvigatelning issiq holatida filtr ustki dastagini ikki-to`rt marta aylantirish bilan tozalab turiladi. Shuningdek, quyqa to`kilib, korpusdan filtrlovchi diska bloki chiqarib olinib, (qismrlarga ajratmay) junli cho`tkada, kerosinli vannaga tushirib yuviladi va siqilgan havo bilan purkab quritiladi. Belgilangan muddatda (5-6 ming km dan so`ng), karterning shamollatish yo`llari, detallarining mahkamlanishi, klapanlar va naychalarda quyqaning yo`qligi tekshiriladi va quyqalar har 10-12 ming km dan so`ng tozalanadi. Dvigatel karterining shamollatish yo`llari kirlanib, ifloslanib qolganda, bosim ortib ketadi, natijada karter salniklaridan (qistirma) moy sizib chiga boshlaydi. Dvigatel moyini almashtirishda, karterning shamollatish tizimidagi havo filtrining korpusi kerosin bilan yuviladi, so`ngra filtr vannasiga ma`lum ko`rsatilgan sathgacha moy quyiladi.

«Neksiya» avtomobillarida motordagi moy har 10000 km da yoki 1 yilda bir marta almashtirib turiladi. Servis xizmat ko`rsatish davrida doimo moyning sathi nazorat etilib, agarda moyning sathi «MIN» belgidan pastda bo`lsa, me`yoriga keltiriladi. Zavod ko`rsatmasiga muvofiq SG 5W/30, SAE25W/30, SAE 10W/40, SAE 15W/40, SF/CC turidagi motor moylaridan foydalanish maqsadga muvofiqliр. Moylash tizimidagi moyni almashtirish davri avtomobil va moyning turiga bog`liq bo`lib, uning sathi almashtirilgandan 2-3 daqiqa o`tgach tekshiriladi.

**Sovutish tizimi.** Sovutish tizimining nosozliklarini quyidagi tashqi alomatlaridan bilsa bo`ladi:

- dvigatel uzoq muddatga, zo`riqib ishlaganda ham qiziydi, agar ta`minot va o`t oldirish jihozlari noto`g`ri sozlangan bo`lsa, radiator suyuqligi qaynab ketadi.

- termostat klapani asta-sekin ochilsa yoki mutlaqo ochiq bo`lsa (dvigatel yurgizilgandan keyin) asta-sekin qiziydi, bordi-yu klapan kech ochilsa, dvigatel tezroq qizib ketadi.

Tizimning nosozliklari zichlikning buzilishi, ya`ni suv nasosi salnigidan, patrub`ka va boshqa joylaridan suyuqlikning sizib oqishi, tasma tarangligining bo`shashib qolishi, uning uzilishi, termostat qopqog`ining berk qadalib


yoki ochiqligicha qolishi, nasos parragining sinishi, radiator qopqog'ining jips yopilmasligi, tarmoq devorlarida suyuqlik cho'kindisi (quyqa) hosil bo'lishi hisoblanadi.

Dvigatel sovitish tizimini diagnostikalashda tizimning qizish holati va zichligini, tasmaning tarang tortilishi va termostatning ishlashi tekshiriladi. Dvigatel me'yorida ishlaganda sovitish tizimi suyuqligining harorati 80-95°C chegarasida bo'lishi kerak, radiatording yuqori va pastki qismidagi suyuqlik haroratinining farqi 8-12°C oralig'ida bo'ladi. Sovitish tizimi suyuqligining sizib oqishini suv nasosining va boshqa birikish joylarining ostki qismlaridagi suyuqlik izlaridan payqash mumkin. Buni nazorat qilish dvigatelning sovuq holatida bajariladi. Tizimning zichligi, radiatording ustki suyuqlik bilan to'lmagan qismiga kiritilayotgan havo (0,06 Mpa) bosimi bilan tekshiriladi.

Termostat klapanining dastlabki ochilishi paytida suyuqlik harorati 65-70°C va to'la ochilishida 80-85°C bo'ladi. Nosoz termostatni almashtirish zarur.

Yechib olingan termostat, qizitilgan suvli vannaga botirilib, ishlashi tekshiriladi.

Termostatlarni tekshirish uchun, klapanning ochilishidagi boshlang'ich harorat va klapanning yo'li aniqlanadi. Masalan, «KamAZ-740» dvigatelinining termostati quyidagi tartibda tekshiriladi (76-rasm):



**2.25-rasm. Termostatni tekshirish chizmasi**  
1—kronshteyn, 2—termometr,  
3—indikator, 4—termostat, 5—  
suvli vanna, 6—Elektr plitka

1. Termostat olinib, quyqumlardan tozalanadi va elektr plitkaga (6) o'rnatilgan suvli vannaga (5) tushiriladi.

2. Suv aralashtirib turgan holda qizdiriladi va uning holati bo'linmasining qiymati 1°C dan katta bo'lмаган simobiли termometr yordamida nazorat qilib turiladi.

3. Indikator (3) bilan klapan ochilishining boshlanishi tekshiriladi, ya'ni klapan 0,1mm ga ochiladigan harorat  $(80 \pm 2)^\circ\text{C}$  aniqlanadi. Qaynayotgan suvda klapan kamida 8,5 mm ga to'liq ochiladi.

*Texnik xizmat ko'rsatish.* Kundalik xizmat ko'rsatishga tizim germetikligini ko'rish va sovitish suyuqligining sathini me'yoriga keltirish kiradi. Agar sovitish tizimi suv bilan

to`ldirilmagan bo`lsa, qish vaqtlarida avtomobil garajdan tashqarida, ya`ni ochiqlikda saqlanganda sovitish tizimidagi, yurgazib yuborish isitkichidagi, shuningdek peshoynani yuvish uchun mo`ljallangan bakchadagi suv to`kib tashlanadi. Dvigatelni yurgazishdan oldin tizim issiq suv bilan to`ldiriladi yoki dvigatel isitish tizimiga ulanadi.

1-TXK o`tkazilganda yuritma tasmalarining tarangligi tekshiriladi, lozim bo`lsa rostlanadi. 2-TXKda shamolparrak radiator hamda jalyuz tekshiriladi va kerak bo`lsa mahkamlanadi. Yuritma tasmalar tarangligi rostlanadi, suv nasosining hamda shamolparrak tasmasini taranglovchi qurilmaning podshipniklari moylanadi. Mavsumiy xizmat ko`rsatishda sovitish va isitish tizimining, shuningdek yurgazib yuborish isitgichining germetikligi tekshiriladi, sovitish tizimi yuviladi, qishki mavsumga tayyorgarlik ko`rilayotganda yurgazib yuborish isitkichining ishlashi tekshiriladi. Germetiklik nazorat qilinadi, shlanglar yuzalaridagi yoriqlar, shishgan joylar va qatlamlarda xalqob bo`lmasligi kerak. Bunday tekshirishlar uchun havo nasosi, monometr va radiator bo`g`zi bilan biriktiriladigan qurilmadan tashkil topgan asbobdan foydalangan ma`qul. Nasos yordamida radiatorining yuqori qismida 60 kPa atrofida bosim hosil qilinadi. Agar tizim germetik bo`lsa, kran berkitilgandan so`ng monometr strelkasi o`rnidan qimirlamaydi, germetiklik yo`qolgan bo`lsa strelka bosimning pasayishini ko`rsatadi. Radiator yoki kengaytirish bachogi qopqog`idagi havo va bug` klapanchalar qo`l barmoqlari bilan bosib ko`rib tekshiriladi.

Sovitish tizimini yuvish quyidagi tartibda bajariladi: sovitish suyuqligi to`kiladi; tizim suv bilan to`ldiriladi; dvigatel yurgaziladi va qizdiriladi; suv to`kib tashlanadi; tizim shu tartibda yana bir marta yuviladi; so`ng sovitish suyuqligi bilan radiator to`ldiriladi, radiator qopqog`ini o`rniga qo`yib kengayish bakchasiga, «MIN» belgisidan 3-5 sm balandlikgacha suyuqlik quyladi. Konstruksiyaning o`ziga xos tomonlarini va materiallarning xossalalarini hisobga olgan holda tayyorlovchi zavodlar o`z ko`rsatmalarida sovitish tizimini yuvish tartibini hamda yuvish uchun ishlatiladigan suyukliklar tarkibini belgilab qo`yan.

Masalan, «KamAZ-740» va «OTOYO`L» dvigatelinining radiatori yechib olinadi va unga 5 foiz kaustik soda hamda 95 foiz suvdan yoki 2,5 foiz kuchsizlantirilgan sulfat kislota hamda 97,5 foiz suvdan iborat bo`lgan eritma quyladi. Eritmaning harorati 60-80°C bo`lishni kerak. 30-40 daqiqadan so`ng eritma to`kib tashlanadi va radiator issiq suv bilan yuviladi.

Sovitish suyuqligining yaxlab qolishi va tizimning zanglab yeyilishi hamda unda quyqa hosil bo`lishining oldini olish maqsadida, zamonaviy avtomobilarning barchasida antifrizdan foydalilanadi. Antifriz muzlab qolishining oldini olish maqsadida uning zichligi nazorat qilib turiladi. A-

40 antifrizining  $20^{\circ}\text{C}$  dagi zichligi 1,067-1,072 va Tosol A-40 antifriziniki esa 1,075-1,085 g/sm<sup>3</sup> bo'lishi kerak.

Sovutish tizimidagi suyuqlik dvigateli me'yoriy issiqlik rejimida ushlab turadi va zanglashning oldini oladi. Shuning uchun suyuqlik sathi pasaygan taqdirda mutlaqo suv quyish mumkin emas. Tizimdagisi suyuqlik 2 yilda almashtirib turiladi.


Ventilyator uzatmasi, tasmasining tarangligi shkivlarning o'rtasidagi masofada tasmani 30-40N kuch bilan bosib ko'rib tekshiriladi. Tasmaning me'yordagi tarangligi (turli dvigatellar uchun) 10-20 mm bo'lishi kerak.

«KamAZ-740» va «Volga» avtomobilining (77-rasm, a) ZMZ-24 dvigatellarida generator va suv nasosi yuritma tasmasining tarangligi generatorni (1), o'rnatish plankasidagi (2) ariqchasimon teshik bo'yab surib rostlanadi. Tasma to'g'ri rostlanganda, uning egilishi uzun tarmoqning o'rtasi 40-45 N kuch bilan bosilganda «KamAZ-740» dvigatedarida 15-22 mm ni va ZMZ-24 dvigelida 8-10 mm ni tashkil qilishi kerak.

ZMZ-53 dvigatelidagi suv nasosi va shamolparrak yuritmasi tasmasining (77-rasm, b) tarangligi, richag (5) dastasini surib taranglash roligi (4) yordamida rostlanadi. 30-40 N kuch ta'sirida tasma egilishi 10-15 mm bo'lishi lozim. Generator yuritmasining tasmasi esa o'rnatish plankasidagi ariqchasimon teshik bo'yab generatorni surish orqali taranganadi.

«ZIL-130» dvigatelida 3 ta tasmaning to'g'ri taranglanishini kuzatib borish lozim (77-rasm, c). Rul boshqarmasidagi gidravlik kuchaytirgich nasosi

*77-rasm. Dvigatellardagi yuritma moslamalarining tarangligini rostlash.*



a-»ZMZ-24», b-»ZMZ-53», c-»ZIL-130».  
1-generator, 2-o'rnatish plankasi, 3-gayka, 4-taranglash roligi, 5-richag, 6-tirsakli val shkivi, 7-generator shkivi, 8-rostlash bolti, 9, 10, 11-kompressor, shamolparrak va suv nasosi, rul boshqarmasidagi hidro-kuchaytirgich nasosining shkivlari, 12-taranglash kronshteyni.

yuritmasining tasmasi nasosni taranglash kroshteynida (12) surib taranganadi, generator yuritmasining tasmasi esa generatorni plankaga (2) mahkamlovchi gaykani bo'shatib, so'ng generator surib taranganadi. Bu tasmalarning engilishi 40 N kuch ta'sirida 8-14 mm dan oshmasligi kerak. Kompressor yuritmasining tasmasi rostlash bolti (8) yordamida kompressor kronshteyn tomon slijitib taranganadi. Bu tasmaning 40 N kuch ostidagi engilishi 5-8 mm bo'lishi lozim.

«YAMZ-236» dvigateleda kompressor yuritmasining tasmasini taranglash, vintli qurilma (78-rasm, a) vositasida amalga oshriladi. Suv nasosi yuritmasi (78-rasm, b) tasmasining (4) tarangligi esa, suv nasosi shkivining gupchagi bilan ajraluvchi yon qismi (3) orasiga qo'yiladigan po'lat shaybalar (2) miqdori o'zgartirib rostlanadi. Tasma tarmoqlari o'rtasiga 30 N kuch qo'yilganda suv nasosi va generator yuritmasi tasmasining engilishi 10-15 mm dan, kompressor yuritmasidagi tasmaning (kalta tarmoqdagi) engilishi esa 8 mm dan ortib ketmasligi kerak.

«Tiko» va «Damas» rusumli avtomobilarga TXKda sovutish tizimidaga suyuqlikning sati tekshiriladi (dvigatelning sovuq holatida), uning sati «FULL» va «LOW» belgilaringin oralig'ida bo'lishi zarur. Agar sati «LOW» belgisidan pastda bo'lsa, suyuqlik sati me'yoriga keltiriladi.


«Neksiya» va «Espero» avtomobillarida suyuqlik sati «COLD» belgisidan yuqorida bo'lishi kerak.

Sovutish tizimi bo'yicha bajariladigan joriy ta'mirlash ishlari quyida keltirilgan.

a)



b)



78-rasm. YAMZ-236 dizelidagi suv nasos va kompressor yuritmasi tasmalarining tarangligini rostlash shakllari.

a-kompressor yuritmasida, b-suv nasos yuritmasida 1-vintli qurilma, 2-shayba, 3-shkivning ajraluvchan qismi, 4-suv nasosi yuritmasining tasmasi

Sovutish tizimining zichligi shikastlangan mis o'tkazgichlarni kavsharlash, zarurat tug'ilsa almashtirish yo'li bilan ta'mirlanadi. Radiatorlarni ta'mirlashda ularning yaroqsiz holga kelgan o'tkazgichlarini 5 % gacha berkitib qo'yishga va 20 % gacha yangisiga almashtirilishiga ruxsat etiladi.

Jez qorishmasidan tayyorlangan radiatorlarni kavsharlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Alyuminiy qorishmasidan tayyorlangan radiatorlarni kavsharlash juda mushkul. Buning uchun diametri 3-5 mm li SVAK simi, 34A markali kavsharlash qotishmasi, F-34A markali kukunsimon flyus ishlataladi. Kavsharlashga tayyorlangan yuza 400-560°C haroratda alanga bilan qizdiriladi. Agar yuza bir tekis qizdirilmasa, kavshar yuzaga bir tekis yoyilmaydi va qumoq-qumoq bo'lib qoladi. Amalda kavsharlash yuzasi bir tekis qiziganligini aniqlash uchun yog'och sterjenden foydalaniladi. U bir tekis qizdirilgan yuzaga tekkazilganda, ko'mirsimon tusga kiradi va yuzada qora iz qoldiradi.

Radiatori avtomobilga o'rnatishdan avval 0,1 MPa bosim ostidagi siqilgan havo bilan 3-5 daqiqa mobaynida tekshiriladi. Suv bilan tekshirilganda bosim 0,1-0,15 MPa ni tashkil etishi kerak.

## TRANSMISSIYANING AGREGAT VA MEXANIZMLARI

Bizga ma'lumki, avtomobil transmissiyasining asosiy agregatlariga ilashish uftasi, kardanli uzatma, shesternyali yoki gidromexanik uzatmalar qutisi, tayqimlovchi quti va yetaklovchi ko'priq (asosiy uzatma va differensial) kiradi. Avtomobilarning transmissiyasi agregatlari barcha nosozliklarning 10-15% ini va texnik xizmat ko'rsatish umumiyligi mehnat hamda materiallar sarfining 40% ini tashkil etadi.

**Transmissiya agregatlarining asosiy nosozliklari.** Transmissiya agregatlaridagi nosozliklar avtomobilni ekspluatatsiya qilish jarayonida, shuningdek, ayrim detallar rostlanishining buzilishi, yeyilishi yoki sinishi oqibatida vujudga keladi. Agregatlarning boshlang'ich holatini tiklaydigan rostlash ishlarini bajarish yoki ayrim detallarni almashtirish natijasida nosozliklar bartaraf etiladi.

Ilashish muftasidagi nosozliklar ko'pincha uning to'liq ulanmasligi yoki to'liq ajralmasligi natijasida kelib chiqadi. To'liq ulanmaslikda aylantiruvchi moment dvigateldan to'liq uzatilmaydi, ilashish muftasining tepkisi qo'yib yuborilganda avtomobil o'rnidan juda sekin qo'zg'aladi yoki umuman qo'zgala olmaydi, ilashmadagi yetaklanuvchi disk esa juda tez yeyiladi va qisqa muddat ichida ishdan chiqadi.

Ilashmaning to'liq ajralmasligi tufayli uzatmalarni ularash chog'ida metallarning zarbli va qiyinchilik bilan qo'shilishi kuzatiladi hamda richagga ko'proq kuch bilan ta'sir etish talab etiladi. Bu nosozliklarga ilashma ajratish yuritmasi rostlanishining buzilishi, yetaklanuvchi diskning moylanib qolishi yoki yeyilishi sabab bo'ladi. Ilashmasi gidroyuritmali bo'lgan avtomobilarda esa gidroyuritma tizimiga havo kirib qolishi yoki tizimdan suyuqlikning qisman oqib ketishi ilashma nosoz ishlashiga sabab bo'lishi mumkin.

Uzatmalar qutisi va taqsimlash qutisidagi nosozliklar uzatmalarni almashlab ularashda ular o'z-o'zidan uzilib qolishi mumkin yoki ishslash vaqtida shovqin chiqaradi. Almashlab ularash mexanizmlarning ayrisi yoki kallagidagi boltlarning bo'shab ketishi, fiksatorlarning qadalib qolishi, shesternyalar, podshipniklar va vtulkalarning yeyilishi oqibatida uzatmalarni ularash qiyinlashadi. Sinxronizator muftasi va shesternyalar tishlarining yon tomonida hamda ishchi yuzalaridagi yeyilishlar, uzatmalarning to'liq ularmasligi, fiksator prujinalarining bo'shashib qolishi tufayli uzatmalarning o'z-o'zidan uzilib qolishi sodir bo'ladi. Uzatmalar qutisidagi shovqinni esa vallar podshipniklaridagi hamda shesternya tishlarining ishchi yuzalaridagi yeyilishlar va sinishlar, moy sathining pasayishi keltirib chiqaradi.

Asosiy va kardanli uzatmalar, differensial, yarim o'qlar va teng burchak tezligiga ega bo'lgan sharnirlardagi nosozliklar ularni uzoq muddat ishlatish yoki sifatsiz texnik xizmat ko'rsatish oqibatida yuzaga keladi. Asosiy uzatma va differensialdagи nosozliklarga shesternya tishlarini, differensial krestovinasini hamda podshipniklarning yeyilishi yoki sinishi, shuningdek, asosiy uzatma salniklari germetikligining buzilishi misol bo'ladi. Ularning hammasi harakatlanish chog'ida orqa ko'rik karterida shovqinning kuchayib ketishi bilan namoyon bo'ladi. Avtomobil o'midan qo'zgalayotganda, burilayotganda yoki harakatlanayotganda taqillashlar hamda zarblarning mavjudligi kardanli uzatmalardagi yoki teng burchak tezligiga ega bo'lgan sharnirlardagi nosozliklardan darak beradi. Bu nosozliklar krestovina o'qlari va sharnir kosachalari ko'p yeyilishidan yuzaga keladi, kardan valining muvozanati buzilganda, transmissiyada kuchli titrash va shovqinlar hosil bo'ladi. Yarim o'qlardagi asosiy nosozliklar esa ular shlisalarining yeyilishidir.

*Transmissiya agregatlarining texnik holati diagnostika qilish.* Bu agregatlarining texnik holati haqida hamda zarur rostlash ishlarini bajargandan so'ng ularni yana ishlatish mumkinligi to'g'risida xulosa qilishga imkon beradi. Transmissiya agregatlarini avtomobil harakatlanganda, shuningdek, maxsus jihozda tekshirish mumkin. Bunday holatda, jihoz konstruksiyasiga qarab ilashmaning to'liq qo'shilmasligiga; uzatmalar qutisi, kardanli uzatma va orqa ko'rik esa (shovqin buyicha) tishli ilashmalarning yeyilganlik darajasiga diagnostika qilinadi.

Transmissiyani diagnostika qilishning oddiy usuli 79-rasmda ketirilgan K-428 asbobi yordamida yetaklovchi ko'priq, kardan vali va uzatmalar qutisidagi aylana lyuftlar yig'indisini aniqlash hisoblanadi. Asbob qamrovchi skobali dinamometrik qurilmadan (2) va uni tashkil etuvchi qo'zgaluvchan (4) hamda qo'zralmas (3) jag'lardan iborat. Qamrovchi skoba tekshirilayotgan ob'ektga kiydiriladi, masalan, yarim o'qqa yoki kardan valiga, so'ng qo'zg'aluvchan jag' chervyak yordamida surib agregat detaliga mahkamlanadi.

Lyuftni aniqlash uchun dasta (1) kuch bilan buraladi va prujinali tovush daraklagichi ovoz chiqqagach, o'lhagich strelkasi tomonidan lyuft qayd qilinadi. O'lhagich shkalasini ixtiyoriy burchakka burish mumkin. Shuning uchun tekshirilayotgan agregatga o'rnatilgan asbobning strelkasini nolga keltirish zarur.

Transmissiya agregatlari texnik xizmat ko'rsatish KXK, 1-TXK, 2-TXK jarayonida amalga oshiriladi.

• KXK da transmissiya agregatlari avtomobilni o'midan jildirishda va harakatlanish vaqtida uzatmalar almashlab ulab tekshiriladi. Yetaklovchi ko'priking holati va germetikligi nazorat qilinadi.

1-TXK da KXK dagi ishlarga qo'shimcha ravishda ilashish muftasi tepkisining erkin yurish yo'li tekshiriladi va zarur bo'lsa rostlanadi, yuritma detallari plastik meteriallar bilan moylanadi. Uzatmalar qutisi, kardanli uzatma, taqsimlash qutisi, orqa ko'priq karterining mahkamlanishi tekshiriladi, aggregatlardagi moy sathlari me'yoriga keltiriladi, zichlagichlarning holati tekshiriladi.

2-TXK da transmissiya agregatlari bo'yicha KXK va 1-TXK dagi barcha ishlar bajariladi, moylash xaritasiga mos ravishda aggregatlardagi moylar almashtiriladi. Agar aggregatlarda nosozliklar aniqlansa, ular ishchi holatiga keltirish uchun ta'mirlanadi.

Qo'shimcha ravishda, har bir transmissiya agregatlari bo'yicha bajariladigan ishlarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

*Ilashish muftasiga texnik xizmat ko'rsatish.* Ekspluatatsiya jarayonida ilashma



79-rasm. Transmissiyadagi aylana  
lyuftini aniqlaydigan K-428 asbobi.

rostlab turiladi, ammo bundan oldin ilashma tepkisining erkin yo'li tekshiriladi. Buning uchun ikkita surilgichi bo'lgan chizg'ichdan foydalaniladi. Chizg'ichning bir uchi kabina poliga tiraladi, surilgich esa tepki maydonchasiga to'g' rilanadi. Ilashma tepkisi harakatlanishga qarshilik keskin ortgunga qadar bosiladi va shu vaziyat ikkinchi surilgich yordamida qayd qilinadi. Chizg'ichning ikkala surilgichi orasidagi masofa tepkining erkin yo'lini aniqlaydi.


Mexanik yuritmalii lashmalardagi tepkining erkin yo'lini rostlash (80-rasin) uchun tepki o'qining richagi hamda ajratish ayrisini tutashtirib turuvchi tortqining (2) uzunligi o'zgartiriladi. Ko'pchilik yuk avtomobillarida bunday rostlash ishlari tortqi yuritma detallaridan ajratmagan holda bajariladi, ya'ni tortqidagi gaykani (1) burashning o'zi kifoya qiladi. Bunda gayka bo'shatilsa tepkining erkin yo'li ortadi, qotirilsa erkin yo'li kamayadi.

Gidroyuritmalii lashish mustasidagi tepkining erkin yo'lini rostlash yuqoridagilardan jiddiy farq qiladi. Chunki tepkining erkin yo'li asosiy silindrda porshenni, kompensatsiyalovchi teshikni berkitgunga qadar bosib o'tgan yo'lidan, asosiy silindrda porshen va turtkich orasidagi tirqishdan hamda ajratish podshipnigi va ilashmani ajratuvchi richag uchlari orasidagi tirqishdan iborat bo'ladi.

Ilashish mustasi me'yoriy ishlashi uchun ajratish podshipnigi va ajratish richagi orasida 2,5-3 mm li tirqish, asosiy silindr turtkichi va porshen orasida esa 0,5-1,5 mm li tirqish bo'lishi kerak. Ko'rsatilgan tirqishlarga tepkining 32-44 mm li erkin yo'li mos keladi. Ilashish mustasining tepkisi to'liq bosilganda ishchi silindrda turtkichning yo'li 23 mm dan kam bo'limasligi lozim. Agar turtkichning yo'li ko'rsatilgan qiymatdan kichik bolsa, ushbu holat tepki erkin yo'lining noto'g'ri rostlanganligidan yoki gidroyuritma tizimiga havo kirib qolganligidan darak beradi. Bunday vaziyatda gidroyuritmadan havoni chiqarib yuborish yoki tepkining erkin yo'lini rostlash zarur.

Ilashish mustasi yuritmasidagi havo quyidagi ketma-ketlikda chiqarib yuboriladi. Ishchi silindrning shtutseri kallagidagi qalpoqcha yechib olinadi, shtutserga rezina shlang kiydiriladi va uning bir uchi tormoz suyuqligi quyilgan shisha stakanga tushiriladi. Asosiy silindr qopqog'ining rezbalini uchiga havo nasosining shlangini kiydirish va damlash yoki tepkini bir necha bor ketma-ket bosish bilan

80-rasm. «ZIL-130» avtomobilidagi mexanik yuritmalii ilashma tepkiuning erkin yo'lini rostlash



silindr ichida bosim hosil qilinadi. Shtutser yarim aylanishga bo'shatiladi, stankanga suyuqlik oqa boshlaydi va u bilan birga pufakchalar ko'rinishidagi havo ham chiqo boshlaydi. Pufakchalar chiqishi to'xtagandan so'ng shtutser qotirib qo'yiladi va shu bilan haydash ishlari yakunlanadi.

Shundan so'ng, asosiy silindrini porshen va turkich orasidagi tirkish tekshiriladi, zaruriyat bo'lsa ular orasidagi tirkish ikki harakat bilan me'yoriga keltiriladi. Bunday rostlash tepki yo'liga qarab baholanadi. Turkich porshenga qadalgunga qadar bo'lgan yo'li 3,5-10 mm ni tashkil etishi lozim.

Mustaning ajratish podshipnigi va richag uchlari orasidagi tirkishni qo'yish uchun ishchi silindr turkichining uzunligi o'zgartiriladi. Agar rostlash ishlari to'g'ri bajarilgan bo'lsa, prujinasi yechib qo'yilgan ayri tashqi uchining ishchi yo'li 4-5 mm oralig'iда bo'ladi. Ilashmasi gidroyuritmali bo'lgan yengil avtomobilarda ham tepkinining erkin yo'lini rostlash ishlari xuddi yuk avtomobillaridagi kabi bajariladi.

*Uzatmalar qutisi va taqsimlash qutisiga texnik xizmat ko'rsatish.* Qutilarning qanday ishlashi har kungi ko'rikda hamda avtomobilning harakatlanishida tekshirib turiladi. Zichlagichlarning germetikligiga, uzatmalarning oson va shovqinsiz ulanishiga alohida e'tibor beriladi. Tekshirilayotgan agregatlarning ishlashi vaqtida begona taqillashlar va shovqinlar bo'lmasligi kerak. Uzatmalar ulanganda shesternyalar to'liq birikib qolishi lozim, uzatmalarning o'zo'zidan uzilib qolishiga yo'l qo'yilmaydi.

Uzatmalar qutisi korpusining qizishi avtomobil to'xtatilganda qo'lni kuydirmaydigan darajada bo'lishi kerak.

KXK va 1-TXK da nazorat qilib, eshitib hamda haroratga qarab tekshirishdan tashqari, qutilar korpusi kirlardan tozalanadi, mahkamlanishlari tekshiriladi va tortib qo'yiladi, moy sathi me'yoriga keltiriladi. 2-TXK da yuqorida qayd etilgan ishlarga qo'shimcha ravishda qutilardagi moylar xarita bo'yicha almashtiriladi. Bu ish ko'targich yoki ko'rish ariqchalariga ega bo'lgan maxsus postlarda bajariladi. Qutidagi moylar dvigatel to'xtagan zahotiyoyq, ya'ni quti sovib ulgurmasdan to'kiladi.

Agregatlardagi moy sathi shchup yordamida yoki nazorat teshigi orqali tekshiriladi. Moy almashtirish quyidagicha bajariladi: qutidagi ishlab bo'lgan moy to'kib tashlangandan so'ng, uning o'rniga 1 -2 1 miqdorda yuvish moyi quyladi. Avtomobil orqa ko'prigining birorta g'ildiragi ko'tarib qo'yiladi, dvigatel ishga tushiriladi va birinchi uzatma ulanadi. Transmissiya ishlay boshlaydi, buning evaziga qutining ichki bo'shlig'i yuviladi va cho'kindilardan tozalanadi. Bir necha daqiqadan so'ng yuvish moyi to'kib tashlanadi, uning o'rniga esa toza moy quyladi. Moy almashtirilayotgan paytda, to'kish teshigi tiqinining magniti ham tozalanadi.

Taqsimlash qutisi boshqarish richaglarining zarur vaziyati tortqilar

uzunligini rostlash orqali ta'minlanadi. Shu maqsadda tortqi barmoqlari shplintlardan ozod qilinadi va ayridan ajratiladi. Fiksatorlar aniq ishlagan vaqtida shtoklar to'liq ulangan holatga o'rnatiladi. Richaglar uzatmalar ulangan vaziyatga qo'yiladi va ayri aylantirib, tortqining kerakli uzunligi o'rnatiladi. So'ng tortqi o'z joyiga qo'yiladi, barmoq shplintlanadi va kontrgayka qotirib mahkamlanadi.

Gidromexanik uzatmalar qutisining asosiy kamchilik va nuqsonlariga yetaklovchi disk prujinasining ishdan chiqishi, diskaning (standart talablariga javob bermaydigan moyda ishlashidan) yeylimshi va qiyshayishi, markazdan qochma kuch ta'sirida ishlaydigan rostlagichlar rostlanishining buzilishi, rostlash vintining yomon taqalib turishi natijasida uzatmaning qayta ulash mexanizmi rostlanishining buzilishi va boshqalar misol bo'la oladi. Gidromexanik uzatmaning asosiy nosozligini ifodalovchi ko'rsatkich, bu — moy gidrotransformatordan to'kib yuborilayotganda nazorat qilib turiladigan harorati bo'lib, uning eng yuqori chegarasi 125°C dan ortiq bo'lmasligi, taglikda (yilning eng issiq vaqtida) 110°C, minimal harorat esa 70°C yoki 60°C bo'lishi kerak. Moyning harorati taglikdagagi datchik orqali va to'kish klapanidan nazorat qilinadi. Gidrotransformatordagagi moyning qizishini nazorat qilish lampochkasi 120-125°C da yonadi. TXK paytida har 15 ming km masofadan so'ng gidromexanik uzatmaning moyi almashtiriladi. Taglikcagi moy sathi (1 va 2-TX paytida) uzatmalar qo'shilgan holda 40-50°C haroratda (drossel qiya, kichik ochiqligida) avtomobil tormozlab tekshiriladi. 1-TX paytida (5 ming km dan so'ng) uayt spirti bilan avtomatik uzatma tozalab yuviladi. Elektromagnit klemmalari tozalanadi va nazoratni ulab-uzgich ham tozalanib, starter bilan qo'shilib ishlashi tekshiriladi. 30 ming km dan so'ng moy qabul qilgich yechib olinib tekshiriladi, yana 30 ming km dan so'ng boshqarish mexanizmi (periferik zolotnikli) tekshiriladi va sozlanadi.

Uzatmalar qutisining oldingi uzatma ulanganda shovqin bilan ishlab, harakatlar yaxshi qo'shilmay qolganda (bu sixronizator halqasi ishga yaroqsiz bo'lib qolishidan kelib chiqadi), sixronizator muftasi tishlarining tashqi, yonbosh sirtlari yeyilganda, podshipniklar, vallar yeyilganda, shesternya tishlari singanda joriy ta'mirlanadi. Yeyilgan detallar holatiga qarab, (birikish jufti bilan) almashtirib ta'mirlanadi. Detallarni almashtirish — uzatmalar qutisini qismrlarga ajratmay, uzoq muddatli shikastlanmay ishlashini ta'minlaydi va bu almashtirilgan detalning uzoq muddatli ishlashi natijasida tannarxi kamayadi hamda ta'mirlashga kam mehnat sarf etiladi. Uzatma shesternyasining sixronizator gupchagi va boshqa detallarini yechib (chiqarib) olishda maxsus yechgichlardan foydalilanadi.

*Asosiy va kardanli uzatmalarga texnik xizmat ko'rsatish.* Kardanli va asosiy uzatmalarni nazoratdan o'tkazish avtomobil harakatlanganda amalga oshiriladi.

Bunda transmissiyada aylantiruvchi moment uzatish rejimi tortishdan tormozlanishga yoki aksincha, o'zgarganda begona shovqinlar va taqillashlar kuzatilmasligi lozim.

Kardanli uzatmalarga texnik xizmat ko'rsatishda kardanli birikma flaneslari mahkamlanishi tekshiriladi va tortib qo'yiladi. Xizmat ko'rsatishda kardan sharnirlarining podshi pniklari va vallarning shlisali birikmalari moylanadi. Buning uchun № 158, US-1 va boshqa moylash materiallari ishlataladi.

Yengil avtomobilarda kardan sharnirlar transmission moyda Litol-24, plastik moylash materialida yoki tayyorlovchi zavod ko'rsatmalariga mos keladigan boshqa materiallarda moylanadi. Moyni kardan krestovinasiga maxsus shpris yordamida o'tkazish klapanida yoki uning o'qlari podshi pniklaring salniklari ostida moy paydo bulguncha yuboriladi. Agar avtomobilga moy to'ldirilishi nazarda tutilmagan kardan sharnirlar o'matilgan bo'lsa, moylash ishlari faqat qismlarga ajratilganda amalga oshiriladi.

Yetaklovchi ko'priq karteridagi moy sathi 2-TXK da tekshiriladi va moy quyish teshigining qirrasigacha to'ldiriladi. Moyni to'liq almashtirish moylash xaritasiga muvosiq va ish mavsumi o'zgarganda amalga oshiriladi. Yetaklovchi ko'priq karteridagi moyni almashtirish jarayoni ham transmissiyaning boshqa agregatlari uchun qabul qilingan texnologiya asosida bajariladi.

Agar asosiy uzatmadagi yetaklovchi shesternyaning ilashishidagi bo'ylama tirkishi ruxsat etilgan qiymatdan orta boshlasa, konussimon podshi pniklar rostlanadi. Rostlash zavod ko'rsatmasiga binoan bajariladi yoki kardan val flanesi ajratiladi, yarim o'qlar sug'uriladi, asosiy uzatma karterini mahkamllovchi boltlar bo'shatiladi va yetaklovchi shesternya yig'ilgan holatida sug'urib olinadi. Yetaklovchi shesternya stakan tiskiga o'rnatiladi, mahkamlash uzeli qismlarga ajratiladi va podshi pnik ostidagi qistirmalarining qalinligi o'zgartiriladi. So'ngra yig'iladi va birikma mahkamlash darajasi dinamometrda tekshirilgan holda mahkamlanadi. Asosiy uzatma shesternyalari ilashishidagi tutashish va yon tirkish faqat detallar almashtirilganda (podshi pniklar haddan ziyod yeyilganda), ya'ni asosiy uzatma ta'mirlanganda rostlanadi.

## RUL VA TORMOZ BOSHQARMASI

Rul boshqarmasining asosiy nosozliklariga rul mexanizmi karterining bo'shab ketishi, mexanizm detallarining yeyilishi, rul chambaragi va kolonkasining bo'shab qolishi, chervyak jufti detallarining yedirilib ketishi misol bo'ladi. Gidrokuchaytirgichli rul boshqarmalarida yuqoridagi nuqsonlardan tashqari, nasos idishida moyning me'yordan kam yoki oshiq bo'lishi, tizimda havo va suvning yig'ilishi, nasosning ishlamay qolishi,


moyning sizib chiqishi, filtrning kirlanib qolishi, nasos himoya va o'tkazish klapalarining nosoz ishlashi, nasos uzatmasi tasmasining me'yor bilan tortilmasligi va boshqalar uchraydi.

Rul boshqarmasini diagnostikalash ko'rsatgichlariga rul chambaragining salt yurishi va uni burash uchun kerakli kuchni aniqlashdan iborat. Rul chambaragining salt yurishi, yengil avtomobillar uchun 7-12 daraja («ZIL-130» da 15, «VAZ» va «Neksiya» avtomobillarida 5°, «KamAZ» va «Mersedes-Bens» uchun 15°), avtobuslar uchun 10-15° ni tashkil qiladi. Rul chambaragini burash uchun sarflanadigan kuch 40-60 N ni tashkil etishi kerak.

Rul boshqarmasini sozlashda, tortgichlardagi sharnir va rul mexanizmi birikmalaridagi tirqishlar yo'qtoliladi. Rul mexaniznidagi chervyak podshi pmigining o'q bo'yicha siljishini prokladkalar yordamida sozlanadi. Rul soshkasining o'q bo'yicha siljishi tayanch bolt yordamida sozlanadi.

Rul boshqarmasidagi mahkamlash ishlari agregat va mexanizmlari qotirilganligini tekshirishdan iborat bo'lib, buni bajarishdan oldin rul mexanizmi karterining avtomobil ramasiga, rul tortqilari richagini burish mushtiga, soshkaga, bo'ylama va ko'ndalang rul tortqisi barmog'iga mahkamlanishi tekshirib ko'rildi.

Rul mexanizmi karteridagi va gidrokuchaytirgich bachogidagi moy sati navbatdagi TXK paytida tekshiriladi va me'yorigacha moy quyiladi. Gidrokuchaytirgich bachogi, uning filtri hamda karterni (yilda kamida 1 marta yoki mavsumda bahor va kuzda) benzin bilan yuvib, moyi almashtiriladi. Gidrokuchaytirgichga dvigatel salt ishlab turganda moy quyiladi. Rul mexanizmiga uzatmalar qutisi uchun mo'ljalangan Tap-10 va Tap-15L moylari yoki transmission moy quyiladi. Gidrokuchaytirgichli rul mexanizmiga yozda turbina moyi (markasi 22), qishda AU-veretyon moyi quyiladi. «MAZ-500» rul mexanizmiga TM-16P va gidrokuchaytirgichiga yozda industiali - 20 va qishda industrial - 12 moyi quyiladi. «KamAZ» avtomobilining gidrokuchaytirgichiga «R» markali moy quyiladi. Rul tortqilarining sharnirli birikmalari 1200-1800 km yurilgandan so'ng, navbatdagi TXK paytida US-2 yoki US-3, shuningdek USs-1, Uss-2 yoki Uss solidoli bilan moyylanadi. Hozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan «Neksiya», «Espero», «Mersedes-Bens» va boshqa



81-rasm. «ZIL-130» avtomobilining rul vali podshipnigini sozlash:

1—sozlovchi gayka; 2—rul kolonkasi; 3—dinomometr


Avtomobilinės ypatybes išimtis 2-TX va. JT yra didžiausia ypatybė, kai kurios yra būtinos išplėsti automobilinės ypatybes.

Hozijevi vagedda BSK (TU-6-10-153-75) va NEVA (TU 6-09-550-73) turidagi hamda xotijiyl firlamalarda islab chiqarilayotgan tomonos suyugliklariidan (DOT-2, DOT-3 va bosqalar) keng loyqalamalimoda. BSK suyugligi kanakujut moyi (47 %) va butti spliti (53 %) dan hamda qizil rang beruvchisi orqali moddadan tayyorbandal. Uning kamchiliги - 15° C dan past va 25°C dan yugʻot harortada oquvchalligini yo qotishidir. NEVA turamidaqt va zanglashega dashti do shinchalaridan tarikt topgan boʻladi. Bu suyugliklami va zanglashega dashti do shinchalaridan tarikt topgan boʻladi. Bu suyugliklami tormos suyugliklar etlikabitol suyugligi asosida boʻlib, quyuqashtinuvchi tormos suyugliklar etlikabitol suyugligi asosida boʻlib, quyuqashtinuvchi

Gidroyumimai törməz izimləgə ega bo ligan avtomobililərə texnik xizmat ko məsləhədəsi ishlar bosh törməz izimləgə ega bo ligan avtomobililərə texnik xizmat məsləhədəsi ishlar bosh törməz izimləgə ega bo ligan avtomobililərə texnik xizmat yuborush, törməz təpkisimlər salı yurish yo lini sözləş, kolodka va törməz barabənləri orasıldığı təqibləşməni sözləş, törməz qoplamaları yuzasidağı mövəamt fözəlasdan iboradır.

tasnambil, sini payvanandlamadi va yaniq rezba ochiladi.  
Rul mexanizmi karretiladiq! poschi pink o tinariladigean uyanting yeylige'an  
suyvalat yo nilladi va po lat halda presslab o matiladi. Taranangle'i pasaygen va  
simge'an prusimlar, sharsimlon barmodalzamling yeylige'an vekadisilah, bo ylama  
va ko nildarang torid! barmoqzlan almashtitladi. Egliban nul torqilat sovug  
və 800°C hərəkətəcək cəmənçəd.

Nasosuning giidrolukchaytingich bilan bireglikda ishlashti jilho yordamida yokti automobilning o'zida tekeştiladi. Soshkaning ikki tomonidan biringdag'i chig' chekka hozirda tizimdağı moy bosimi 5,5 MPa dan kam bo'masligi kerak. Rul bosqichqamasi mexanizmalarini joyti ta'milash detallariň almashishinsh hisobiga amalga oschitildi. Detallarining yeylige an soylatdi, masalan, soshka vali bo'yinlan xromlash yoz il bilan tiklandi, soshka vali oxidtagi rezba yo'ni




Rul mekanizmi yig'ish vaygida (82-rasm) viti (4) o'tasida qaykani beynashni tashkil etilishiiga e'tibor berish zatur. Gayka shartkardini tayyodishda 0,3 m bo'lishiga bo'libor burovchi moment 0,3-0,8 N·m va ular oralsida triplish 0,3 m jamaaniadi va ular bit-bitidan 2 km ga farq qiliadi. Shuning uchun yig'ish vaygida shartkardit bir guncha bo'lishi kerak. Agar gayka (5) vintida (4) yuzlasa shartkarm keta dianetigiga, qiyin avvalusasi kichik diametriliga almashtish zatur. Tayanch poshti punktakalting qidqishi gayka (11) yordamida almashtish zatur. Tashkili qillishi kerak. Sektor (12) va yeyka-porshen (2) ilashish viti (15) dramaometrik kaiti yordamida rekshtialiadi. Burovchi momenti 0,60-0,85 N·m ni tashtkili qillishi kerak.

Qidrolojichaytijech eng yugor hossil qiluvchi bosimga tekshiriladi — 60-75°C harororda bosim 6,5-7,0 MPa oraliq ida bo'lishi kerak.

turagai automobililar ruylar mexuzlumlikting giidrokuuchaytigichiga DEKSRON-  
II model qurghasdi.

*83-rasm. Tormoz kolodkasiga qoplamani yelimlash moslamasi:*

1—ushlagich; 2—chegaralovchi halqa; 3—vint; 4—chegaralagich; 5—tormoz kolodkasi; 6—qizdirgich.




Bunday sovutishda yelimlangan birikmada qoldiq kuchlanish kamayadi.

Yelimlashning boshqa usulida paxta qog'ozli lenta maxsus moslamalar yordamida VS-10T yelimi bilan shimdirliladi va quritiladi. Yelimlash vaqtida kerakli o'lchamdagи lenta qirqib olinadi, kolodka va qoplama orasiga qo'yiladi hamda u 0,2-0,3MPa bosim bilan siqiladi,  $180\pm5^{\circ}\text{C}$  haroratda 1,5 soat ushlab turiladi. Yelimlash sifati 7,5-8MPa bosim ostida press yordamida siljishga tekshiriladi.

Kolodkalarning ishchi yuzalari radiusi tormoz barabani o'lchamiga mos kelishi zarur. Buni amalga oshirish uchun tormoz kolodkalari R114 yoki R117 turidagi jihozlarda yo'nib tashlanadi. Bu jihozlarda tormoz barabanlarini ham yo'nish mumkin. Kolodkalarni tormoz barabanlariga o'rnatishda ishchi yuzalarning bir-biriga to'liq birlashishini ta'minlash zarur. Ular orasidagi tirqish juda kam qiyomatga ega bo'lishi, lekin barabanning erkin aylanishini ta'minlashi zarur.

Pnevmatik tormoz chervyakli sozlash mehanizmi, gidravlik tormoz esa ekssentrik yordamida sozlanadi. Tormoz tizimining ishdan chiqqan birikmalari bo'laklarga ajratiladi, yedirilgan detallar yangisiga

*84-rasm. Quvvat akkululyatorini moslamada bolaklarga ajratish.*



almashtiladi. «KamAZ» turidagi ko'p konturli tormoz tizimining siquvchi quvvat akkumulyatorlarini bo'laklarga bo'lish katta mas'uliyatni talab qiladi.


Quvvat akkumulyatorida kuchli prujina siqilgan bo'lib, ajratish vaqtidagi ehtiyojsizlik ishchiga jarohat yetkazishi mumkin. Uning bo'laklarga ajratish texnologiyasi quyidagicha (84-rasm):

- tormoz kamerasidan quvvat akkumulyatorini yechish;
- taglikni (1) 200-250°C gacha qizdirish va uni yechish. Chiqish joyiga (2) 0,6MPa dan kam bo'lmannan bosimdagи siqilgan havoni ulash;
- tayanch podshipnikining (6) chegaralovchi halqasini (4) yechish va podshipnikni cho'ktirish;
- mexanik tormozlansiztirish vintini (7) 8-10 marta aylantirib burash, siqilgan havo kelishini to'xtatish, quvvat akkumulyatori flanesini pastga qaratib burash, tayanch podshipnikini (6), uning tayanchini (5) va shaybasini (11) sug'irib olish;
- quvvat akkumulyatorini moslamaning ushlagichlariga (8) shunday qo'yish kerakki, ushlagichlar halqasi flanesga kirsin, vintning (10) tayanchi (9) vint (7) kallagini markazlashtirsin. Elektroakkumulyatorni vint (10) yordamida siqish;
- quvvat akkumulyatori silindrining (3) flanesga qotirilgan sakkizta boltini yechish;
- moslama vintini (10) orqaga burab, silindr ichidagi kuchli prujinani bo'shatish;
- quvvat akkumulyatorini ajratib olish.

Quvvat akkumulyatori teskari ketma-ketlikda yig'iladi, faqatgina chegaralovchi halqa (4) quvvat akkumulyatori markaziy quvuridan siqilgan havoni chiqarish vaqtida shunday tomonga yo'naltirilishi kerakki, bunda prujinaning kuchi ta'sirida ishonchsz o'rnatilgan halqaning o'midan chiqib ketishi ishchilar xavfsiz ishlashini ta'minlashi zarur.


85-rasm. «ZIL-4331» avtomobilining tormoz kuchini sozlagichi:

1-orga koprik karteri; 2-egiluvchan element; 3-tortqi; 4-sozlagich richagi; 5-tormoz kuchini sozlagich; 6-ko'ndalang tayanch; 7-sozlagich kranshteyni; 8-lonjeron.



Orqa ko'priksi, osmalarni yoki resorni almashtirishdan so'ng tormoz kuchi sozlagichini sozlash zarur (85-rasm). Tormoz kuchi sozlagichini sozlash «ZIL-4331» avtomobili uchun quyidagi tartibda bajariladi:

- avtomobilning orqa ko'prigiga yuk bilan va yuksiz ta'sir qiluvchi kuchlarning i-nisbatini hisoblash;
- orqa ko'priki ressorini noldan to'liq yuklanishgacha egilishi — f ni aniqlash;
- sozlagich richagi L uzunligini nomogramma (86-rasm) bo'yicha aniqlash;
- sozlagich richagi qotirish boltini bo'shatish, ulash muftasi sharnirini richagning burilish o'qidan L masofada markazga joylashtirish va qotirish. egiluvchan elementni (2) richagga (4) biriktiruvchi tortqi vertikal joylashishi kerak;
- orqa tormoz kameralariga siqilgan havoni yetkazuvchi magistral klapaniga nazorat monometrini o'matish;
- $R_{min} = 0,6 / i$ , MPa ifodasi bo'yicha eng kichik bosimni aniqlash;
- vertikal tortqi uzunligini ulovchi muftani siljitim yo'li bilan o'zgartirish hisobiga yuklanmagan avtomobilda tormoz tepkisini bosish vaqtidagi bosimni 0,6 MPa ga yetkazish, tormoz kuchi sozlagichidan chiqishda monometr bo'yicha siqilgan havoning hisoblangan qiymatini o'matish;
- tormoz tepkisini bir necha bor bosish yo'li bilan  $R_{min}$  bosim o'zgarmasligini tekshirish. Bu qiymatning o'zgarishi 0,02 MPa dan oshmasligi kerak. Tekshirishdan so'ng ulovchi mufta xomutini qotirish kerak. Bu vaqtda egiluvchan element kallagi (2) neytral holatda qolishi zarur;
- egiluvchan element kallagini (2) osmaning f-egilishi kattaligigacha ko'tarish. Nazorat monometri bo'yicha, tormoz tepkisini bosish vaqtidagi bosim 0,6 MPa atrofida bo'lishi kerak. Aks holda, sozlash qaytadan bajariladi.



86-rasm. «ZIL-4331» avtomobilining tormoz kuchi sozlagichi richagi uzunligini aniqlash nomogrammasi

Tormoz yuritmasining to'liq zichligi tizimdagи bosimning tushishi bilan tekshiriladi. Dvigatel o'chiq holatda turganda siqilgan havo bosimining pasayishi 15 daqiqa oralig'ida 0,015 MPa dan, tormoz mexanizmi ishga tushganda 0,03 MPa dan oshmasligi kerak.

1-TX dan tormoz tizimi bo'yicha

barcha birikmalar va quvur o'tkazgichlarning zichligi kompressorning hosil qiluvchi bosimi, jihozda tormozning ishlash sifati, detal va birikmalarning joyiga qotirilishi, tormoz tepkisining salt va ishchi yurishi tekshiriladi.

2-TX da 1-TX dagi ishlar bilan birgalikda tormoz barabanlari (disklari), kolodkalar, g'ildirak podshipniklari, gidravlik tormoz tizimidagi suyuqlik sathi, ko'p konturli pnevmatik tizimlardagi konturlar va tormoz kuchini sozlagichlarning ishlashi tekshiriladi.

Qo'shimcha ravishda kundalik xizmat ko'rsatish vaqtida ballonlardagi kondensatlar to'kiladi, kuz va qish vaqtlarida nam ajratgichdagi suyuqlik sathi tekshiriladi. Mavsumiy xizmat davrida bosim sozlagichdagi filtr kerosin bilan yuviladi va mavsum kirishiga nam ajratgich tayyorlanadi (harorat +5°C dan pasayganda nam ajratgich ushlagichi yuqori holatiga qo'yiladi).

## YURISH QISMI

Yurish qismi ramalar, o'qlar va g'ildirak osmalaridan iborat bo'lib, ularning nosozligi avtomobil harakatlanishida shovqin, tebranish, g'ichirlash va siltanish kabi noxush holatlarni ketirib chiqaradi. Natijada haydovchi va yo'lovchilarining toliqishi hamda avtomobilda tashiladigan yukning saqlanuvchanligi susayadi.

**Yurish qismidagi asosiy nosozliklar.** Yurish qismi elementlaridagi nosozliklar asosan avtomobilning eng yuqori (maksimal) yuk ko'taruvchanligidan ortiqcha yuklanish bilan ishlatilganda, shuningdek, shakl berilmagan yo'llarning og'ir sharoitlarida ishlatilganda yuzaga keladi. Rama qoldiq deformatsiya olib egiladi, unda yoriqlar paydo bo'ladi, parchinmixli birikmalar bo'shashadi, dvigatel transmissiya agregatlarining o'zaro to'g'ri joylashuvi buziladi.

Oldingi o'qdagi asosiy nosozliklarga to'sin egilishi, shkvoren va shkvoren vtulkalarining yeyilishi, g'ildirak podshipniklarning oboymalari o'mashadigan joylarning ishdan chiqishi, g'ildiraklarni o'matish burchaklarining buzilishi va shu kabilar kiradi. O'matish burchaklarining buzilishi oqibatida avtomobilni boshqarish yomonlashadi va shinalarning yeyilishi oritadi. Ressorning sinishi yoki osma prujinasining cho'kib qolishi, shuningdek, amartizatorlarning buzilishi ham oxir-oqibatda shinalarning tez yeyilishiga olib keladi. Yurish qismining ko'rsatib o'tilgan nosozliklari avtomobilni to'g'ri chiziqli harakatdan o'ngga yoki chapga toyishi, katta tezlikda harakatlanishda oldingi boshqariluvchi g'ildiraklarning ta'siri, avtomobilning bir tomoniga qiyshayishi, harakatlanish paytida osma atrofidagi taqillashlar va tebranishlar oqibatida yuzaga keladi.

Yurish qismining agregatlari va uzellaridagi nosozliklar qisman KXK paytida aniqlanadi. 1-TXK ning ish hajmiga amartizatorlarni, oldingi va orqa osmalarning holatini hamda mahkamlanishini tekshirish, g`ildirak gupchagi podshipniklaridagi va buriluvchi sapfa shkvorenlaridagi lyutflarni o`lhash, shuningdek, ramani va oldingi o`q to`sinining holatini baholashlar kirdi. Moylash xaritasiga mos ravishda grafik bo`yicha buriluvchi sapfa shkvorenlarining sharnirli tayanchlari yoki podshipniklari moylanadi. Shinalar ahvoli va ulardagagi havo bosimi tekshiriladi, zarur bo`lsa me`yorga keltiriladi.

2-TXK da yuqorida aytib o`tilgan ishlarga qo`shimcha ravishda oldingi va orqa ko`priklarning to`g`ri o`matilganligi, oldingi g`ildiraklarning o`matish burchaklari tekshiriladi hamda zarur bo`lsa rostlanadi, oldingi va orqa ressorlarning barmoqlari, uzangisimon tortqilari hamda xomutlari, amortizatorlar va ressor yostiqchalar mahkamlanadi, g`ildirak podshipniklariga minimal tirqishlar qo`yiladi.

*Rama va osmalarga texnik xizmat ko`rsatish.* Ramani ko`rikdan o`tkazib, uning geometrik shakli va o`lchamlaridagi o`zgarishlar, darzlar mavjudligi, lonjeronlar va ko`ndalang to`slnarning egilganligi, ressor, ressorostligi va amartizatorlar kronshteynlari ramaga mahkamlanishi tekshiriladi.

Ramaning geometrik shaklini tekshirish rama kengligini lonjeronlarning tashqi tekisligi bo`yicha oldindan va orqadan o`lchab ko`rish orqali bajarish mumkin. Rama kengligidagi farq «GAZ» avtomobilari uchun 4 mm dan ortmasligi lozim. Rama lonjeronlarini boshlang`ich holatga nisbatan surilishini, ramadagi ko`ndalang to`slnar orasidagi diagonallarni ayrim uchastkalarda o`lchab ko`rib aniqlash mumkin. Har bir uchastkalardagi diagonallar uzunligi bir xil bo`lishi kerak. Minimal chetga chiqishlar 5 mm dan ko`p bo`lmasligiga ruxsat etiladi.

Ko`priklarning o`zaro vaziyati, oldingi va orqa ko`priklar o`qlari orasidagi masofa o`ng hamda chap tomonidan o`lchab ko`rib aniqlanadi. O`lchanigan masofalar bir-biridan farq qilishiga ruxsat etilmaydi. Agar rama holatini tekshirishda uning konstruksiyasida jiddiy nosozliklar yoki bazaviy o`lchamlarda ruxsat etilgan qiymatlardan chetga chiqishlar aniqlansa, avtomobil asosiy ta`mirlashga jo`natiladi.

Osmalar holati texnik xizmat ko`rsatish chog`ida tashqi ko`rikdan o`tkazib, ularning mahkamlanishi esa kuch qo`yish orqali tekshiriladi. Ressorni ko`rikdan o`tkazib, singan yoki darz ketgan listlar (varaqlar) aniqlanadi. Ressorlar ko`zga ko`rinadigan darajadagi bo`ylama siljishga ega bo`lmasligi kerak. Bunday holat markaziyl bolning kesilishi oqibatida sodir bo`lishi mumkin. Ressorlarning ishonchli mahkamlanishini tekshirishda alohida e`tiborni uzangisimon tortqi gaykalari qanday tortilganligiga hamda ressorni sharnirli mahkamlaydigan vtulkalardagi yejilishlarning bor-yo`qligiga qaratish lozim. Agar ressoring bir uchi rezina yostiqchalarga mahkamlangan bo`lsa, yostiqchalarning butunligi va ularning tayanchda to`g`ri joylashganligi

tekshiriladi. Ressorning uzangisimon tortqilaridagi va xomutlaridagi gaykalar bir tekisda, avval oldingilari (avtomobilning harakatlanishi bo'yicha), so'ngra keyingilari tortib qo'yiladi.

Ressorlar elastikligi ularning erkin holatdagi yoysimonligi bo'yicha tekshiriladi. Bu ko'rsatkichni ressor uchlari orasidagi ip tortib va ipdan egilgan o'zak listning (varaqni) o'rtasigacha bo'lган tik masofani o'lchab aniqlash mumkin. Avtomobil osmalaridagi ressorlar bir-biridan yoysimonlik bo'yicha 10 mm dan ko'p farq qilmasligi kerak. Avtomobil harakatlanganda ressorlarda g'ichirlashlar, shuningdek, listlarda (varaqlarda) zang paydo bo'lsa, ularni kirlardan tozalash, kerosinda yuvish va graftida moylash lozim bo'ladi.

Amartizatorlarga texnik xizmat ko'rsatish ularning mahkamlanishini tekshirishdan va yeyilgan rezina vtulkalarni o'z vaqtida almashtirishdan iborat bo'ladi. E'tibor germetiklikni nazorat qilishga qaratiladi. Agar amartizator o'z xossalarni yo'qotgan va sirtida suyuqlik oqqan bo'lsa, amartizator ta'mirlanadi, sinovdan o'tkaziladi, so'ng avtomobilga o'matiladi.

Oldingi ko'priklar nosozliklariga gupchak podshi pniklari tarangligining buzilishi, ko'priklar balkasi va burilish richaglarining egilishi, shkvorenni o'rnatish teshigining, shkvoren va vtulkasining yeyilishi, buriluvchi sapfalar podshi pniklari o'rnatish teshigining yeyilishi misol bo'ladi. Oldingi ko'priklar detallarining yeyilishi g'ildiraklar o'rnatish burchaklarining buzilishiga, shinalarning bir tomonlama yeyilishiga va avtomobilni boshqarishning qiyinlashuviga olib keladi.

Avtomobilarning gupchagi-podshi pniklarini sozlash tormoz barabanining erkin holda aylanishi vaqtida bajariladi. Gupchak sozlovchi gaykasi oxirigacha kalit yordamida tortiladi va «GAZ» avtomobillarida 1/5 aylanishga orqaga aylantiriladi, «ZIL» avtomobillarida esa eng yaqin shplint o'rnatuvchi teshikkacha orqaga buraladi. Podshi pniklarning va gupchakning ichki qismi surkov moyi bilan to'ldiriladi va gupchak qalpog'i o'matiladi. Shkvoren birikmasining yeyilishi T1 asbobi yordamida aniqlanadi. Asbob indikatori avtomobilning oldingi ko'prigiga o'rnatiladi. G'ildirak osib qo'yiladi va indikatorning o'lchash sterjeni tayanch tormoz diskining pastki qismiga keltiriladi. Agarda shkvoren birikmasida yeyilish bo'lsa, g'ildirak tushirilganda indikator uning kattaligini ko'rsatadi. Birikmadagi tirkish 1;5 mm gacha bo'lsa, avtomobil foydalanishga yaroqli deb hisoblanadi.

Oldingi ko'priklar maxsus jihozlar yoki tagliklarda bo'laklarga ajratiladi. Shkvorenlarni, uning barmoqlarini, tashqi va ichki podshi pniklarini yechish uchun maxsus yechgichlardan foydalaniladi. Yedirilgan podshi pniklar va rul tortqilar sharnirlari yangisiga almashtiriladi. Oldingi ko'priklar balkasining egilganligi maxsus moslamalar, shablolar, lineykalar va burchak o'lchagichlar yordamida aniqlanadi. Yedirilgan shkvoren vtulkalari yangisiga

almashtiriladi. Avval vtulkaning bir tomoni, keyin esa ikkinchi tomoni almashtiriladi. Almashtirish vaqtida o'mida qolgan vtulka o'matilayotgan vtulka uchun markazlovchi rolini o'ynaydi.


Oldingi ko'rik nosozliklarining eng ko'p uchraydigani g'ildirakni o'matish burchaklarining buzilishidir. Tuzilishi jihatidan yuk avtomobilari va avtobuslar uchun faqat yaqinlashuv burchagi, yengil avtomobillar uchun g'ildirakning og'ish burchagi, shkvorenning bo'ylama og'ishi, burilish burchaklarining bir-biriga monandligi va yaqinlashuvi sozlanadi. Keltirilgan ketma-ketlik texnologik zaruriy hisoblanadi. Bu ketma-ketlikka rioya qilmaslik avval sozlangan burchakning buzilishiga olib keladi.

Yuk avtomobilari va avtobuslarda g'ildiraklarning og'ish burchagi hamda shkvorenning bo'ylama og'ish burchagi buzilishi, balkaning deformasiyasi hisobiga o'zgaradi. Agar balkani to'g'rilashning imkonini bo'lmasa, u yangisiga almashtiriladi. Hozirda ishlab chiqarilayotgan oldingi osmasi 2 ta richagdan iborat bo'lgan yengil avtomobil g'ildiraklarining og'ish burchagi yuqorigi yoki pastki richagni siljitim yo'li bilan sozlanadi. Buning uchun har bir qotirish bolti tagiga bir xilda tiqinlar qo'yiladi. Shkvorenning bo'ylama og'ish burchagi richag o'qlarini yotiqlikda burash hisobiga sozlanadi. Buning uchun sozlash tiqinlari bir bolt tagidan olib ikkinchisiga qo'yiladi. Tiqinlarni o'zgartirish soni sozlanuvchi burchakka bog'liq. G'ildirakning og'ish burchagi va shkvorenning bo'ylama og'ish burchagini sozlash uchun 1 ta operatsiya bajarilishi kerak.

Makferson (to'lg'anuvchi sham) turidagi osmali yengil avtomobillar uchun g'ildirakning og'ish burchagi va burilish o'qining og'ishini sozlash har bir rusum avtomobili uchun o'ziga xos hisoblanadi. Masalan, «AZLK-2141» avtomobili uchun (87-rasm) og'ish burchagini sozlovchi eksentrikni (1) burash evaziga hamda burilish o'qi og'ishini muvozanatlovchidagi (2) sozlovchi shaybalarni (3) qo'nimga (4) qo'yish yoki olish evaziga sozlash

87-rasm. «AZLK-2141» avtomobili g'ildiragining og'ish burchagi va buriluvchi o'qning og'ishini sozlash birikmasi:

1-sozlovchi bolt; 2-muvozanatlovchi shtanga; 3-sozlash shaybalari; 4-muvozanatlovchi sharnir qo'nimi.



ishlari bajariladi. 3 mm qalinlikdagi shaybalar burchak 20' ga o'zgarishini ta'minlaydi.

Burilish burchaklarining bir-biriga monandligi tortqilardan birini qisqartirish, ikkinchisini uzaytirish hisobiga sozlanadi. Bu shartni bajarmaslik yaqinlashuv burchagini o'zgarishiga olib keladi.

G'ildirakning yaqinlashuv burchagini to'g'ri sozlash eng muhim hisoblanib, uning me'yorida bo'lmasligi shina protektori juda tez va notekis yeyilishiga olib keladi.

Yuk avtomobilлarining yaqinlashuv burchagini ko'ndalang rul tortqilari uzunligini o'zgartirish yo'li bilan, chervyakli rul mexanizmli yengil avtomobilлarni — ikki yon tomonдagi tortqilardan birining, reykali rul mexanizmli yengil avtomobilлar uchun har bir g'ildiragining og'ish burchagi, ularни sozlovchi rul tortqilari uzunligini o'zgartirish yo'li bilan sozlanadi.

Orqa g'ildirakлari yetaklovchi avtomobilлar harakatlanishida, rul trapetsiyasining tag tirqishlari kattaligiga yo'l qarshiligi kuchlari ta'siri ostida oldingi g'ildirakлar kengayadi (oldingi g'ildirakлari yetaklovchi avtomobilлarning tortish jarayonida esa torayadi).

Yaqinlashuv burchagini me'yoriy ko'rsatkichlari hamma vaqt ham bu shartni ta'minlamaydi. Buning asosiy sababi, oldingi g'ildirakлar osmasi bir-biriga bog'liq bo'lмаган, har bir avtomobil texnik holatining o'zgachaligidadir. Bu kamchilikni bartaraф qilish uchun yengil avtomobilлarning yaqinlashuv burchagini yuklanish kuchlari ta'sirida sozlash usuli qo'llanadi, ya'ni maxsus yuklovchi ta'sirida avtomobilning oldingi ko'prigiga tik kuch (500-600N) va oldingi g'ildirakка siquvchi kuch ta'sir etiladi.

1-TX ko'rsatish vaqtida rul boshqarmasi va oldingi o'q bo'yicha rul chamberagining lyufti, rul tortqilari sharnirlari, g'ildirak gupchagi podshi pniklari, gidrokuchaytirgichli tizim germetikligi, sharli barmoqlarning qotirilganligi, soshka, burluvchi sapfa richaglari va shkvoren holati tekshiriladi.

2-TX ko'rsatishda 1-TX ni hisobga olgan holda oldingi o'q balkasi va oldingi g'ildirakning burchakлari to'g'ri o'rnatilganligi, g'ildirakлarning muvozanatsizligi, rul boshqarmasi kardan valining va barcha birikma hamda detallarning qotirilganligi tekshiriladi.

## KABINA, KUZOV VA TAYANCHLAR

*Avtomobilлar kuzov, kabina va tayanchlarining asosiy nosozliklari ularning qiyshayishi, pachoqlanishi, uzilishi, zanglashi, chirishi, boltli va parchinmixli birikmalarning bo'shashib ketishidan iborat.*

Ta'mirlash vaqtida ularni zanglash mahsulotlaridan tozalash, payvandlash, tekislash va yuzalarni silliqlash, qo'shimcha detallar qo'yish, himoya qatlamlarini yangilash yo'llari bilan tiklanadi.

Zanglash mahsulotlari metall cho'tka yoki erituvchi modda yordamida tozalanadi. Payvandlash ishlarni bajarishda ko'pincha gazli payvandlash turidan foydalilanildi. Payvandlash qo'l bilan yoki avtomat ravishda bajariladi.

Yeriqlar payvandlanib, yirtilib ketgan katta teshiklarga qo'shimcha qoplama qo'yiladi, bu qoplama yirtilgan yerdan 20-24 mm chiqib turishi zarur.


Pachoqlangan yerlar va qiyshayishlar sovuq yoki qizdirilgan (600-650°C gaz gorelkasi yordamida) holda to'g'rilanadi. Qizdirib to'g'rilash metall qavat-qavat bo'lib qolganda yoki sovuq holda to'g'rilab bo'lmay qolganda bajariladi.

Pachoqlar ikki harakatda to'g'rilanadi. Avvalambor pachoq bo'lgan joy urib chiqariladi. Chiqarilgan qismning ustiga (88-rasm) maxsus ushlagich (1) qo'yib markazdan sirtga qarab maxsus bolg'acha yordamida to'g'rilanadi, so'ngra yog'och yoki rezina bolg'acha yordamida tekislanadi.

O'tkir qirrasi va egilishi bo'lmagan chuqur pachoqlarni chiqarish o'rtasidan boshlanadi va asta-sekin bolg'acha yoki rezina bolg'acha bilan tekislash tashqi tomonga qarab davom ettiriladi. O'tkir qirrali burchaklari

bo'lgan pachoqlar o'tkir qirradan yoki taxlanib qolgan yeridan boshlab urib chiqariladi. Bitta chuqurlik bo'lsa, metalning tortilishi hisobiga markazdan tashqi tomonga bolg'acha bilan urib bartaraf etiladi (88-rasm, c). Chuqurlik chegarasiga yaqinlashishda bolg'acha bilan urish kuchi kamaytiriladi. Qancha ko'p aylana bo'ylab harakat qilinsa, tekislash shunchalik sifatli bajariladi. Agarda bir-biriga yaqin bir necha chuqurlik bo'lsa (88-rasm, d), avval ularning orasiga ishlov beriladi va bitta chuqurlikka keltiriladi, so'ngra chuqurlikning shakliga qarab keyingi silliqlash ishlari bajariladi.

Silliqlash ishlari to'g'rilana-yotgan yuzaning shakliga qarab tanlab olingan ushlagichlar (1) bilan tekislash bolg'achalari yordamida



#### *88-rasm: Pachoqni chiqarish va tekislash shakli:*

- a-ushlagich yordamida pachoqni chiqarish;
- b-ushlagich yordamida to'g'rilash;
- c-bir pachoqni bartaraf etish;
- d-bir necha pachoqni bartaraf etish

qo'lda yoki maxsus jihozlar va mexanizatsiyalashgan moslamalar yordamida bajariladi.

Masalan, avtomobil qanotlarining qattiq cho'zilib ketgan yerlarini urish yo'li bilan to'g'rilab bo'lmaydi. Bu hollarda qattiq pachoq bo'lgan va tekis bo'lmay qolgan yuzalar kesib olib o'miga kerakli listni payvandlash yo'li bilan tekislanadi. Qiyshiqliklar va egilishlar maxsus mexanik kengaytirgich yoki gidropresslar yordamida to'g'rilanadi.

G'adir-budur bo'lib qolgan yuzalar, payvand choklari maxsus termoplastik massalar (PFN-12, TPF-37), epoksid elimlari yoki yumshoq kavsharlash usullarini qo'llash bilan silliqlanadi.

Yuza tekislab bo'lmas hollarda ayrim bo'laklar temir arxa, temir qaychi yoki boshqa asboblar yordamida kesib tashlanib, o'miga shablon yordamida metall listlardan tayyorlangan bo'laklar payvandlanadi.

Yengil avtomobillar va avtobuslarning kuzovlari yaroqsiz holatga kelishi zanglash oqibatida yuzaga keladi.

Kuzov detallarining uzoq muddat ishlashi ikki omilga bog'liq bo'lib, ular avtomobillarning yurgan yo'li va ishlash muddati (89-rasm) hisoblanadi.

Uzoq ishlashi bo'yicha kuzov detallari 2 guruhga bo'linadi:

- oldingi va orqa qanotlar, orqa g'ildirak tepe qismlari, oldingi qism qirralari;

- oldingi va orqa panellari, yuk tashish qismi va salon pollari.


Yuqorida guruhlarning bir-biridan farqli xizmat qilish muddati 3 yil yoki 50 ming km ni tashkil etadi.

Birinchi guruh detallarining yaroqsiz holga kelishi, kuzovning tashqi ko'rinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, amma uning baquvvatlik ko'rsatkichlarini o'zgartirmaydi. Ikkinci guruh detallarining zanglashi va chirishi avtomobil baquvvatligini susaytiradi. Kuzovning yon ustunlari va lonjeronlarining chirishi bunga misol bo'la oladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, birinchi guruhdagi har qanday detalni almashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki payvandlangan joy ikkinchi guruh detallarining ishdan chiqishigacha

89. «VAZ» avtomobili kuzovi detallarini yemirilish vaqt (o'rtacha yillik yurgan yo'li va zanglashga qarshi qoplamlar yangilanmagan).

ishlash  
muddati,  
yil



yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin. Birinchi guruh detallarining zanglab yemirlishi mahalliy xarakterga ega bo'lib, uncha katta bo'limgan yuzalar shikastlanadi. Ularni ta'mirlashda termoplastik massalardan, epoksid tarkiblardan va yumshoq kavsharlardan foydalanish maqsadiga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtida katta yuzadagi yemirlishni tiklash uchun ta'mirlashning «panel» usuli ko'p qo'llaniladi. Zanglash yoki halokatga uchrash natijasida shikastlangan kuzov bo'lagi olib tashlanadi hamda uning o'rniغا yangi yoki boshqa avtomobildan kesib olingan xuddi shunga o'xhash ta'mirlash detali (paneli) o'rnatiladi.

Avariya uchragan kuzovlarni to'g'rilash uchun maxsus moslamalardan foydalaniadi, ular kuzov profili bo'yicha, geometrik o'lchamlariga rivoja qilgan holda tortish yo'li bilan o'z holatiga keltiriladi. Bu maqsadlar uchun R620 rusumdagи jihozlardan foydalaniadi. Uning ramasiga avtomobil qotiriladi, qo'lда yoki gidravlik to'g'rilash moslamalarida kuzovni tortish va to'g'rilash ishlari bajariladi. Yuk avtomobilari metall kuzovlarini to'g'rilash tartibi uning kabina va tayanchlarini to'g'rilash tartibiga monand bo'ladi. Kuzov metalining qalinligi tayanch metallining qalinligidan katta bo'lganligi uchun payvandlash ishlari osonlashadi, ammo to'g'rilash qiyinlashadi. Payvandlash ishlarida ko'pincha elektr. yoyli payvandlash usulidan foydalaniadi, to'g'rilash ishlarini bajarishdan avval esa yuza 600-650°C ga qizdiriladi.

Bo'yoqchilik ishlari kuzov ishlari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ATK sharoitida bo'yash va gruntovkalash bo'yoqsepgichlar yordamida bajariladi.

Eng ko'p tarqalgani bosim ostida bo'yoq sepish (0.3-0.7MPa) bo'lib, u maxsus jihozlar talab qilmaydi. Buning uchun bo'yoq eritgichlar yodamida suyultiriladi. Natijada bo'yoq qurigach, eritgich uchib ketadi va yuzadagi bo'yoq zarrachalari orasida yoriqlar hosil bo'lib, yuzaning zanglashga qarshi hususiyati, ko'rinishi va sifati pasayadi.

Takomillashgan bo'yash usullaridan biri kamroq eritgichga ega bo'lgan bo'yoqlardan foydalanish, bo'yoq 50-70°C gacha qizdiriladi va 0.15MPa bosim ostida sepijadi, natijada buyoqni 25% gacha tejash mumkin. Bu usul bo'yoqni yuzaga tekis va qalinroq sepish imkonini beradi va yuza silliq chiqadi. Ammo yong'inga qarshi havfsizlik qonunlariga asosan, bo'yoqchilik ustaxonalardan bo'yoqni faqat issiq suv bilan isitish mumkin, lekin isitish anjomi bo'yash kamerasida bo'lishi mumkin emasligi qiyinchiliklar tug'diradi.


Hozirgi vaqtida bo'yoqni maxsus jihozlar yordamida 10-30MPa bosim ostida, 0.17-1.0 mm diametrli sepgichlar yordamida sepish usulidan ham foydalanimoqda. Bu usulda mehnat unumidorligi juda yuqori va bo'yashda katta maydonдан foydaliniadi. Bu usulda quyuq bo'yoqlardan eritmasdan turib foydalanish mumkin. Bo'yash vaqtida tumanlik hosil bo'lishi juda kam va kerakli bo'yoq qalinligiga bir sepishda erishish mumkin. Bo'yalgan yuzaning

ko'rinishi boshqa usullarga qaraganda pastroq, chunki yuqori bosim hosil qilish uchun foydalaniladigan plunjерlari nasoslar bo'yodning bir tekis sephilishini unchalik ta'minlay olmaydi. Lekin hozirda bu kamchilikni bartaraf etish yo'llari topilgan.

Bo'yash ishlari texnologik jarayoni quyidagi ketma-ketlikda bajariladi: metall yuzani bo'yashga tayyorlash (zangdan, eski bo'yoqdan yuzani tozalash), shpatlevka surtish (yuzaga surtiladi va silliqlanadi), gruntovka surtish (GF-021 surtib, 1.5-2.0 soat quritiladi), bo'yash (ML-12, ML-197, ML-110 turidagi bo'yoqlar sepilib, yuza 130-140°C da 20 soat davomida, shundan 2 soat changga, 6 soat yopishqoqlikka, 12 soat mustahkamlikka quritiladi).

ATK da avtomobilarning rangi har xil bo'lganligi uchun kerakli rangdag'i bo'yoqni topish mushkul, shuning uchun kerakli rangni tayyorlash zarur. Buning uchun rangli halqadan foydalilanadi (90-rasm). Uch xil rang, ya'-ni qizil, sariq va havo rang boshqa ranglarni hosil qila oladi.

*90-rasm. Bo'yoq turini tanlash uchun ishlataladigan rangli halqa*



Rangli halqadagi pushti rangdan tashqari barcha ranglar xromatik hisoblanadi. Pushti, oq, qora va ularning aralash-tirishdan hosil bo'lgan kulrang axromatik hisoblanadi. Axromatik rangni xromatik rangga qo'shilganda ikkinchisi o'z tusini yo'qotmaydi, faqat to'q-roq yoki ochroq bo'lishi mumkin. Ko'k rangni oq rang bilan aralashtirsa havorang, qora bilan esa to'q ko'k rang hosil bo'ladi.

Ishlab chiqarishda mahsus bo'yoq aralashtirgich qurilmalardan foydalilanadi va ranglar spektr analiz yordamida tanlanadi.

## AVTOMOBILLARNI KORROZIYADAN HIMoyalash

Iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda avtotransport vositalarini korroziyalovchi asosiy omillarga havo harorati va namligi, tuman va havo tarkibidagi tuzlarning mayjudligi kiradi. Korroziya avtomobilarni yopiq

inshoatlarda saqlash paytidagi shamollatishning yomon tashkil qilinganligi sababli kuchayadi. Bizning respublikamizda avtovositalari, ayniqsa qishloq joylarida og`ir ekstremal sharoitlarda ekspluatatsiya qilinadi va saqlanadi. Izlanishlarning ko`rsatishicha, paxtachilikda qo`llaniladigan mineral ug`itlar, gerbitsidlar va defoliantlar transport vositalarining kuzovlari va boshqa qismlariga iqlim sharoitlariga qaraganda ko`proq zarar yetkazadi.

Atrof-muhitning ayniqsa shaharlarda ifloslanish ko`payishi, havo tarkibidagi agressiv kimyoviy moddalar oshib ketishi, bu esa avtomobillarda korroziyanishning tezlashishiga va havo tarkibidagi agressiv kimyoviy moddalar ko`p joylarda 2-2,5 barobar oshib ketishiga olib keladi. Turli mamlakatlar meterologik xizmatlarining ma`lumotlariga ko`ra, atmosfera oltингugurt ikki oksidi bilan ko`proq ifloslanmoqda, bu o`z navbatida havodagi namlik bilan qo`shilib sulfid kislotasini hosil qiladi. Bu kislota mashinalar detallariga (ayniqsa, kuzovga) o`tirib korroziyani tezlashtiradi.

Shaharlarda qish paytlari sirpanishning oldini olish uchun yo`llarga sepiladigan tuzlar ham korroziyaning oldini olishga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Avtomobillar detallarining korroziyanishida elektrokimyoviy korroziya korroziyanish tezligi kattaligi bilan muhim o`rin tutadi. Elektrokimyoviy korroziya metall yuzalardagi elektr tokini o`tkazadigan elektrolitni (tuzlar, kislotalar va ishqorlarning suvdagi eritmasi) hosil bo`lishi natijasida paydo bo`ladi.

Avtovositalarida bo`ladigan korroziyalar yuzaga kelishiga qarab quyidagi turlarga bo`linadi:


- gazli – yonish kamerasida, klapanlar faskalarida va chiqarish nayida;
- atmosfera ta`sirida – tabiiy, saqlash, transport vositalarini ekspluatatsiya qilish va tashish sharoitlarda;
- elektrolitli – namlik saqlanib qoladigan joylarda;
- biologik – tashiladigan mahsulotlar qoldiqlaridan paydo bo`ladigan mikroorganizmlar ta`sirida va boshqalar.

Avtomobilarning barcha tashqi va ichki detallari korroziyaga uchrashi mumkin. Kuzov detallarining yupqa (0.5-1.2 mm) po`latlardan tayyorlanishi va faqat ozgina qalinlikdagi gruntovka bilan himoyalanganligi, ularda 2-2,5 yilgi ekspluatatsiyadan keyin korroziya natijasida ishdan chiqqan joylarning paydo bo`lishiga olib keladi.

**Avtovositalarini korroziyadan saqlash uslublari va himoyalash anjomlari.** Avtovositalarini korroziyadan saqlashning birmuncha uslublari bo`lib, ikki asosiysi yon tomondagi chizmada ko`rsatilgan.

Birinchi guruh korroziyaning oldini olish, ikkinchi guruh esa avtomobilarni zararli muhit ta`siridan, ya`ni korroziyanishdan himoyalash bo`yicha tadbirlarni o`z ichiga oladi.

## Avtomobilarni korroziyadan saqlash



Albatta korroziya sabablarini yo`qotish maqsadga muvofiq, lekin buni qisman amalga oshirish mumkin. Iqlim ta'sirining oldini olish asosan avtomobilarni yopiq joylarda saqlash, shamollatishni yaxshi tashkil qilish bilan amalga oshiriladi. Zararli moddalar ta'sirini kamaytirishga esa, qishloq xo`jaligidagi ishlatalidigan kimyoviy moddalarning zararsizlaridan foydalanish bilan erishiladi. Lekin bu masala kelajakda hal qilinishi mumkin, xolos.

Avtotransport vositalarini loyihalashda va ishlab chiqarishda ishlatalidigan materiallarni to`g`ri tanlash va ijobiy konstruktiv ishlamalar bilan korrozilanishni kamaytirish mumkin. Masalan, avtomobillar kuzovlariga korroziyalanmaydigan otsinkovalik po`latlardan foydalanish. Bu uslub «Ford» (AQSH), «Sitroyen» (Fransiya), «Deymler-Bens» (Germaniya) firmalari tomonidan ishlab chiqarishda qo`llanilmoqda. Shu bilan birga, kuzovlar detallarini loyihalashda har xil iflos va namlik yig`iladigan «cho`ntak» joylarini mumkin qadar kamaytirish, tarkibida agressiv moddalar kam bo`lgan yonilg`i-moylash mahsulotlaridan foydalanish lozim.

Keyingi yillarda avtomobillar ekspluatatsiyasi va ta`mirlash davrida zararli muhit ta'siridan himoyalash keng qo`llanilmoqda. Avtomobilarning tashqi qismini himoyalash uchun, ular yuzasiga yupqa pliyonkalik korroziyaga qarshi material qoplanmoqda. Buning uchun asosan quyidagi materiallar: plastik moy (PVK (GOST 19537-74), VTV-1 (TU 38181180-78), UNZ po TU 38001277-76), mastika (mastika № 579, № 580, BMP-1, №4010) va konservatsiya moyi qo`llaniladi. Korroziyaga qarshi pliyonka detallarni zanglashdan saqlash bilan birga, shovqinni ham kamaytirishga yordam beradi.

Avtomobilarni korroziyadan saqlash jarayonini amalga oshirish uchun korroziyadan saqlash ishlama kartasi tuziladi. Mazkur kartada korroziyadan saqlash uchun ishlama beriladigan joylar, foydalaniladigan materiallar va ishlatalidigan jihozlar ko`rsatiladi.

## ELEKTR JIHOZLARI

Benzinda ishlovchi (o't oldirish tizimisiz) va dizel avtomobilarning elektr jihozlari nosozliklarini bartaraf etish TXK va JT ish hajmining 11-17% ini tashkil etadi. Eng asosiy nosozliklar akkumulyator batareyasiga, kuchlanishni sozlagich bilan generatorga va starterga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, yoritish va ogohlantirish jihozlariga alohida e'tibor berish zarur.

Akkumulyator batareyalarining asosiy nosozliklari bankalardagi kuchlanishning pasayishi, sulfatlanish va qisqa tutashishlardan iborat.

Sulfatlanish nosozliklarning eng qiyin bartaraf etiladigani bo'lib, u plastinka yuzalarining yirik  $Pb_2SO_4$  kristallari bilan qoplanishi natijasida sodir bo'ladi (akkumulyator batareyalari ko'p saqlanganda, elektrolit zichligi yuqori bo'lganda, starter bilan ko'p qo'shilganda). Uni bartaraf etish uchun kam tok kuchida (akkumulyatorlar sig'imining 0,04 ga to'g'ri keluvchi) uzlusiz kuchlanish berish (zaryadlash) bilan bartaraf etiladi.

Qisqa tutatish plastinkalardan aktiv massalarning to'kilishi natijasida sodir bo'ladi. Akkumulyator batareyalarini diagnostikalash, ular sirtining zichligini, elektrolit sathi va zichligini, qarshilik bilan kuchlanishni tekshirishdan iborat. Elektrolit sathini me'yorga keltirish distillangan suv quyish bilan amalgam oshiriladi. Elektrolit zichligi ariometr yordamida tekshiriladi va farq  $0,01g/sm^3$  dan oshmasligi kerak. O'zbekiston Respublikasi sharoitida akkumulyator batareyalaridagi elektrolit zichligi  $1,25 g/sm^3$  ga teng bo'ladi.

Akkumulyator batareyasini yuklamali vilka bilan tekshirish, uning qizigan dvigateli yurgazish rejimiga mos kelgan zaryadsizlanish holatini aniqdashga imkon beradi.

Yuklamali vilka (91-rasm, a) yordamida akkumulyator batareyasining zaryadlanganlik darajasini aniqlashda yuklanish ostidagi voltmetrning tekshirilayotgan batareya sig'imiga to'g'ri kelgan ko'rsatkichi 7-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga mos tushishi lozim:

7-jadval

Akkumulyatorning kuchlanisi	v	1,7-1,8	1,6-1,7	1,5-1,4	1,4-1,5	1,3-1,4
Zaryadlanganlik darjasи	%	100	75	50	25	0

Soz akkumulyator batareyasining kuchlanishi yuklamali vilka bilan tekshirilganda kamida 5 s davomida o'zgarmasligi keraq. Akkumulyator batareyasi qopqog'adagi teshiklar tiqinlar bilan berkitilgan bo'lishi lozim.

Elektrolitning zichligi  $1,2 \text{ g/sm}^3$  dan kam bo'lgan akkumulyatorlarni yuklamali vilkada tekshirish tavsija etilmaydi.

Elektrolit zichligining  $0,01 \text{ g/sm}^3$  ga kamayishi, akkumulyator batareyasi 6 % zaryadsizlanganligini ko'rsatadi. Batareyaning zaryadsizlanishi yozda kamida 50 % ni, qishda 25 % ni tashkil qilsa, uni zaryadlash kerak.

*Akkumulyator batareyasi* uch oyda bir marta haqiqiy sig'imining 1/10 dan 1/13 gacha tok kuchi bilan zaryadlanadi.

Batareyalarni zaryadlash ikki xil usul bilan:


- doimiy tok kuchi bilan;
- doimiy kuchlanish bilan zaryadlanadi.

Birinchi usulda, batareyani zaryadlash tarmog'iga ketma-ket guruhlab kuchlanishlar reostati orqali ulanadi. Batareya ikki bosqichda zaryadlanib, birinchi bosqichda zaryadlash, batareyaning bitta elementidagi kuchlanish 2.4 v ga yetguncha, ikkinchi bosqichda esa, tok kuchi 50 % ga kamayguncha bajariladi. Bu uslubning kamchiligi shuki, zaryadlash 10-15 soat davom etadi hamda ulanadigan batareyalar bir xil sig'imda bo'lishi va tok kuchi har soatda nazorat qilib turilishi zarur.

Ikkinci usulda, doimiy kuchlanish bilan har xil sig'imdag'i va har xil darajada zaryadlanadigan batareyalarni zaryadlash mumkin. Batareyalarning bir xil kuchlanishdagilari guruhlarga ajratiladi va zaryadlash qisqa vaqt davom etadi hamda tok kuchi rostlab turilishi zarur. Shuningdek, zaryadlashni bevosita avtomobilning o'zida bajarish ham mumkin. Zaryadlash jarayonining jadallahishi katta tok kuchi (50 A) hisobiga olib boriladi. ATK larda qo'llaniladigan to'g'rilagichlar (Vipryamitellar VAS - 111, VSA - 5 va h.k.) kuchlanish 80 V gacha va tok kuchi 12 A bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan («Neksiya», «Tiko» va «Damas» avtomobillariga qo'yilayotgan) 12V35AH va 12V55AH (MF) akkumulyator

91-rasm.



batareyalarida maxsus indikatorlar bo`lib, ular akkumulyatorning me`yoriy (yashil rang), zaryadtalab (qora rang) va elektrolitning kamligini (rangsiz) ko`satadi. Indikatorning rangiga qarab, akkumulyatorni zaryadlash yoki unga elektrolit quyish zarurligini aniqlash mumkin.

Akkumulyator batareyasini joriy ta`mirlashdan oldin uning tashqi sirti 3-5 foizli kalsiy sodasining (qaynoq) eritmasi bilan yungli cho`tkada yuviladi. Batareya yuvilgandan keyin sovuq suv bilan chayib, quruq latta bilan artiladi. Batareyaning kislotaga chidamli mumli (mastika) sirtining yoriqlari, jiips bo`limgan joylari elektrolitning sizib chiqishi va sachrashi orqali aniqlanadi. Bunday nuqsonlar akkumulyatorlar batareyasini qismlarga ajratmay turib bartaraf etiladi. Shu yoriq joylari ( $90-120^\circ$  burchak ostida) qizdirilgan iskana bilan o`yib ko`chirib olinadi, so`ngra qaynoq, suyultirilgan mum quyiladi. Ta`mirlash oldidan qismlarga ajratmay turib, batareyaning haqiqiy sig`imidagi tok  $1/20-1/15$  nisbatdagi qiymatida, kuchlanish  $1,5$  V ga pasayguncha zaryadsizlantiradi. So`ngra elektrolit sopol vanna yoki shisha idishlarga quyilib batareya distillangan suv bilan yuvib yuboriladi. Shundan so`ng, quvurchasimon frezada yoki diametri 18 mm li parmaida parmalab, peremichka chiqarib olinadi va qopqoqdagi kislotaga chidamli mum qobig`i ko`chirib tashlanadi.

Mum qoplamasni elektrda qizdirilgan kurakchalar yordamida ko`chirib tashlanadi. Batareyaning mumdan tozalangan qopqog`i yechgich yordamida yechib olinadi. Plastinaning yaxlit bloklari bakdan maxsus ushlagich yoki ombir-ushlagich yordamida chiqarib olinadi. Bloklarning nosoz majmuasi bakdan (peremichkani yechmay, batareyani qo`zg`atmay ushlab turib), qisib ushlagich yoki ombir-ushlagich yordamida chiqarib olinadi.

Qismlarga ajratilgan batareya kislotaga chidamli vannaga solib yuviladi. Nosoz separator va plastinalar (qulog`i kavsharlangan joyidan eritib) baretkalardan ajratib olinadi. Bak zichligi qaynoq suv quyib va uning sizib chiqishiga razm solib yoki elektr o`tkazuvchanligi sinab tekshiriladi. Buning uchun bakka elektrolitning suvdagi kuchsiz eritmasi quyiladi va yaxshi aralashtirilib, sinab bo`lingandan so`ng, vannaga to`kib yuboriladi. Vannada va bak ichida elektrodlar joylashib, ulardan voltmetr orqali  $127-220$  V kuchlanishli tok o`tkaziladi. Bak zich bo`lsa, voltmetr strelkasi «0» holatidan siljimaydi. Urilgan, yorilgan hamda turli ko`rinishlarda shikastlangan baklar ta`mirlanadi yoki almashtiriladi. Yig`ilgan plastinkalar blokida qisqa tutashuvlar sodir bo`lishi yoki bo`imasligi bakning alohida joyiga o`rnatib qo`yilgan voltmetr orqali tekshiriladi. Bunday paytda qopqoqni asbest yoki rezina chilvir bilan jiips mahkamlab, bu sirtga erigan suyuq mum quyiladi. Yig`ilgan batareyaga me`yordagi zichlikda elektrolit quyilib ( $25-30^\circ\text{C}$  haroratgacha sovitib) 4-5 soat ushlab turilgandan so`ng zaryadlanadi.

**Generator va sozlagich rele.** Hozirgi zamona viy avtomobilarda generator va rele-sozlagichlarning o`zgaruvchan tokda ishlaydiganlari qo`llaniladi.



Generator nosozliklariga kollektorning ifloslanishi, cho`tkalarning yeyilishi, cho`tka ushlagich prujinalari sinishi, sim chulg`amlarining uzilishi, chulg`amlar orasidagi qisqa tutashish, yakorning massa bilan qisqa tutashishi, yakor sim chulg`amlarining uzilishi, tasmaning bo`shashishi yoki uzilishlari kiradi.

O`zgaruvchan tokli generator va sozlagich relelarni diagnozlashda uning hosil qilayotgan kuchlanishi kattaligi va holati tekshiriladi. Kuchlanish hamma iste`molchilar ulanganda, 12 V dan kam bo`lmasligi kerak. Benzinli dvigatellardagi me`yoriy ishlayotgan generatorda hosil bo`layotgan kuchlanish o`zgarishi 1-1,2 V dan oshmaydi (92-rasm, a). Bitta ishdan chiqqan diod hisobiga uning kuchlanishni to`g`rilash husustiyati kamayib, kuchlanish 2,5-3 V ga oshadi (92-rasm, b). Bunda voltmetr ko`rsatayotgan kuchlanishning o`rtacha miqdori o`zgarmaydi, ammo akkumulyator va boshqa elektr jihozlarining ishlash muddati me`yordan qisqaradi. Ko`rsatilgan nosozlik ossillogramma orqali oson aniqlanadi.

*92-rasm. Rele sozlagichli generatorning kuchlanish ossillogrammasi:*

- a-generatorning soz holatidagi;*
- b-generatorning sim chulg`amlari va diodlari nosoz bo`lgandagi;*

*0-uzgich-taqsimlagich vali kulachogi burilish burchagi; U-avtomobil setidagi kuchlanish.*



O`zgaruvchan tok generatorida mexanik va elektr turkumidagi nosozliklar bo`lishi mumkin. Mexanik nosozlik: rotor valining yeyilishi, shponka uyasining kengayishi, podshipnikning yeyilishi va gayka rezbasining shikastlanishi va boshqalardan iborat. Ular razm solish va bo`laklarga ajratish yo`li bilan aniqlanadi. Ko`rsatilgan nosozliklar elektrotexnik va tokarlik ustaxonalarda bartaraf etiladi. Eng ko`p uchraydigan nosozliklar cho`tkaning yeyilib ketishi va uni ushlab turuvchi prujinaning elastikligi kamayishi hisoblanadi. Bu nosozliklar detallarni almashtirish yo`li bilan bartaraf etiladi.

«Neksiya», «Tiko» va «Damas» rusumidagi avtomobilarda 12V-1.4A turidagi o'zgaruvchan tok generatorlari qo'llaniladi, ularga TXK ishlarini tashkil etish MDH da ishlab chiqilgan generatorlarnikidan unchalik farq qilmaydi. Startering ishlash jarayonida uchraydigan nosozliklari natijasida dvigatelni o't oldirib bo'lmaydi. Bu o'z navbatida, avtomobilni ishga yaroqsiz holatga olib keladi.

*Startering asosiy nosozliklari.* Ularga quyidagilar kiradi: kollektorning ifloslanishi va kuyishi, cho'tkaning yeyilishi va osilib qolishi, cho'tka simining uzilib qolishi, erkin yurish muftasining qadalib qolishi yoki shataksirashi, yakor chulg' amining sochilib ketishi, tortish relesidagi starter ulash kontaktlarining kuyishi, tortuvchi vintlar bilan mahkamlangan qopqoqning bo'shab qolishi, cho'tkatutkichning izolyatsiyali shaybalari va plastinalari kuyishi, elektromagnitning g'altagi vtulkasida tortish relesi yakorining qadalib qolishi, podshi pniklarning yeyilishi, yakor vali yuritmasining qadalib qolishi, tortish relesi chulg' amlarining uzilishi, bufer prujinasining kuchsizlanishi, uyg'otish chulg' ami yoki yakorning «massa» bilan tutashuvi, kollektor plastinalari orasidagi tutashuv, starter ishlayotgan paytda chiqadigan o'ziga xos shovqinlar.

*Texnik xizmat ko'rsatish.* Starterlarga texnik xizmat ko'rsatishda avval starter zanjiridagi simlar va klemmalarning holati, so'ngra starter cho'tkalari hamda kollektorning holati tekshiriladi. Koilektorning ishchi yuzasi ko'p kuymagan va silliq bo'lishi lozim. Ishchi yuza kirlangan bo'lsa, benzin bilan namlangan toza lattada artiladi. Agar kuyish izini va kirlarni tozalashga erishilmasa, kollektorni mayin oynasimon (donadorligi 80-100 bo'lgan) jilvir bilan tozalash kerak. Cho'tkalar cho'tkatutkichda tiqilmay erkin siljishi hamda ko'p yeyilmagan bulishlari lozim.

Starter relesidagi kontaktlarning holati tekshiriladi, kontakt yuzasi esa changdan tozalanadi. Kontaktlar birmuncha kuygan bo'lsa, ular mayin oynasimon jilvir yoki mayin tishli tekis egov bilan tozalanadi. Agar kontakt boltilarining kontakt diskini bilan tutashadigan joylarida yeyilishi katta bo'lsa, ularni 180°C ga burish lozim. Dvigateldan yechib olingan starter salt ishlashda va to'la tormozlanish rejimida tekshiriladi. Salt ishlash rejimida, starter iste'mol qilayotgan tok miqdori va aylanishlar chastotasi tekshiriladi. To'la tormozlanish rejimida iste'mol toki, kuchlanish va tormozlash momenti o'lchanadi. Ushbu rejimda starterni ulash davomiyligi 5 soniyadan oshmaydi.

Starter shesternyasining o'q bo'yicha harakatlanishini tekshirish va rostlashda akkumulyator batareyasining musbat klemmasi starter relesi chulg' amining chiqarish klemmasiga, manfiy klemmasi esa starter korpusiga («massaga») ulanadi. Bunda rele yakori tortiladi va shesternyani suradi. Shesternyaning yon qismi bilan tirak halqa orasidagi tirqish metall chizgich yordamida o'lchanadi. Changlardan tozalash uchun starter havo bilan

purkaladi. Starterning ichki bo'shlig'i kuchli ifloslanganda uni qismlarga ajratib tozalash zarur.

Starter qopqog'i va yuritmasi iflosdan kerosinda namlangan latta yordamida tozalanadi. Yuqoridagi detallarni kerosinli vannaga botirib yuvish ta'qilgani, chunki erkin yurish muftasi yuritmasidagi va bronzagrafitli g'ovak sirpanish podshipniklaridagi moylar yuvilib ketishi mumkin. Yuritma harakatlanadigan starter vali SIATIM-201 yoki SIATIM-202 moyi bilan moylanadi. Avtomobilni qishda ishlashga tayyorlashda (MXK da), yurgazish isitgichini, shuningdek, dvigatetni yurgazishga ko'maklashuvchi boshqa yordamchi vositalarning holati va ishlashi tekshiriladi.


Yoritish va ogohlantirish anjomlarining nosozliklarining kelib chiqishi lampochkalarning kuyishi, uzgich-ulagichlarning ishdan chiqishi natijasida ro'y beradi. Eng asosiy qiyinchilik faralarning nosozligini aniqlashdan iborat. Yaqin yoritish chiroqlari 30 m ni, uzoq yoritish chiroqlari 100 m masofani yoritishi kerak. Burilish chiroqlarining o'chib-yonish chastotasi  $1,5 \pm 0,5$  Gs ni tashkil qilishi kerak.

Faralar maxsus optik priborlar yoki avtomobildan ma'lum masofada devorga o'rnatilgan maxsus ekran yoki jihozlar yordamida sozlanadi. Rostlash vaqtida bitta fara yorug'lik nuri o'tkazmaydigan g'ilof bilan yopib qo'yiladi. Agarda farani sozlashda ekrandan foydalanilsa, ekran avtomobilning turiga qarab, undan 5-12 m gacha uzoqlikda joylashtirilishi mumkin. Agar yorug'lik sharpasining ellipsismon shakli markazi bilan ekrandagi tik va yotiqliqlarning kesishish nuqtasi mos tushmasa, faralar rostlash vintlari yordamida sozlanadi. Shunday tartibda ikkinchi fara ham sozlanadi.

Fara nurlarini rostlash uchun avtomobilni (yuklanishsiz va shinalarda bosimning normal holatida), devordan yoki avtomobilning bo'ylama o'qiga perpendikulyar holatda soyada joylashgan tik ekrandan 10 m masofada, yotiqlar maydonchaga qo'yiladi va quyidagi ishlar bajariladi (93-rasm):

1. Chiziqlarni o'tkazish: faralar markazlarining o'qlari orasidagi masofaga mos keluvchi A masofada 2 ta tik chiziq; bu chiziqlar avtomobil o'qiga perpendikulyar bo'lgan tik chiziqdan bir xil masofada bo'lishi kerak (93-rasm); yer sathidan faralar markazi balandligida yotiql

93-rasm. «Evropacha» assimetrik yorug'lik faralarini tekshirish.



D — D chiziq; S — faralar markazi chizig'idan 300 mm (yengil avtomobil uchun 150 mm) pastda gorizontal B — B chiziqlar o'tkaziladi.

2. Yaqinno yorituvchi farani yoqib, ulardan birini navbat bilan berkitib, tik va yotiq rostlash vintlarini burab optik element shunday o'rnatiladiki, yoritilgan va yoritilmagan maydonchalarning chegaralovchi gorizontal chiziq B — B chiziqliga mos tushsin; ikkala faraning 15° burchak ostida yuqoriga yo'nalgan chegaralovchi qiya chiziqlari B — B yotiq chiziq va faralar markazining vertikal chiziqlarining o'zaro kesishish nuqtasidan o'tsin. Yorug'lik chegarasining bu nuqtadan tashqi tomonga ruxsat etilgan og'ishi 200 mm dan oshmasligi lozim. Shunday rostlangan faralarning uzoqni yorituvchi nur dastasi kerakli holatda joylashadi.

Turmanga qarshi faralarni rostlashda fara korpusi mahkamlash boltiga nisbatan bo'ylama va ko'ndalang vertikal tekisliklar bo'yicha buriladi. Farani shunday o'rnatish lozimki, avtomobil oldida 5 m masofada joylashgan ekranidagi nur dog'ining yuqori chegarasi, fara markazlari balandligidan 100 mm pastda o'tkazilgan yotiq chiziq bilan mos tushsin.

Faralarni rostlashda ekranlardan foydalananish katta maydon bo'lishini talab qiladi. Shu sababli kichik o'lchamli optik jihozlardan foydalananish samaralidir.


Faralarni tekshirish va rostlash uchun ishlataladigan NIIAT E-6 jihizi (94-rasm) optik kamera (5), bazalashtiruvchi shtanga (7) va ikkita olib qo'yiladigan nayzadan (8) iborat.

Optik kamera (94-rasm, a) metall korpus (5), linza (1), oyna (2), ekran (4) va «shayton»dan (3) (jihozning yotiq holatdaligini ko'rsatuvchi) iborat.

Faralari tekshirilayotgan avtomobil tekis yotiq tekislikka joylashtiriladi. Chizmadagi kabi yig'ilgan jihoz nayzalari bilan faralarni rostlash vintlariga to'g'rlanadi va «shayton» orqali jihoz yotiq holatga keltiriladi. So'ngra fara yoqiladi, linzaga yo'naltirilgan yorug'lik dastasi oyna orqali ekranga tushadi va unda yorug'lik dog'ini paydo qiladi. Yorug'lik dog'ining ekranga chizilgan o'q chiziqlarga nisbatan joylashishiga qarab faralar rostlanadi.

Yoritish jihozlari yaroqsiz detallari almashirish yo'li bilan ta'mirlanadi.

Tekshiruv-nazorat asboblarining ishlash qobiliyati va to'g'ri ko'rsatishi




tekshiriladi. Ularning nosozliklari sim chulg' amlarining kuyishi, simlarning uzilishi, noto'g'ri ko'rsatishi bo'lib, tuzatib bo'lmasa, ular yangisiga almashtiriladi. Moy bosimi, suv harorati va yonilg'i sathining ko'rsatgichlari datchik va qabul qiluvchilarining ishchanligini tekshirish uchun ular avtomobildan yechib olinadi va maxsus jihozlar yordamida me'yor ko'r-satgichlariga taqqoslab tekshiriladi.

Nazorat-ulchov asboblarining konstruksiyasi va vazifasining turli-tumanligini hisobga olib quyida misol tariqasida, haroratning magnitoelektrik ko'rsatkichidagi asosiy nosozliklar keltirilgan: datchikni dvigatelga mahkamlash paytida uning gaykasiga ortiqcha kuch bilan burash oqibatida datchik ballonidagi germetiklikning buzilishi (bu holda suv datchik ichiga o'tib termorezistorni ishdan chiqaradi); termorezistor tavsifnomasi barqarorligining buzilishi ishlatish jarayonida uning ortiqcha va uzoq vaqt qizishi oqibatida yuzaga keladi, masalan, dvigateli sovutish suyuqligisiz ishlatilganda; tebranish va zarblar ta'sirida qabul qiluvchi strelkasining magnit o'qida siljishi; qabul qiluvchi ichidagi simning uzilishi.

*Texnik xizmat ko'rsatish.* Datchik yoki qabul qiluvchining nosozligi aniqlanganda ularni soz holatdagi datchik yoki qabul qiluvchi bilan almashtirish tavsija etiladi, chunki ular konstruksiyasi qismlarga ajralmaydi va ekspluatatsiya jarayonida ta'mirlanmaydi.

Magnitoelektrik harorat ko'rsatkichlar sozligini tekshirishni  $20^{\circ}\text{C}$  da va ma'lum bir ketma-ketlik bilan amalga oshirish tavsija etiladi, buning uchun datchik va qabul qiluvchi avtomobildan yechib olinishi kerak. Qabul qiluvchi moslamaga ishchi holatda o'rnatiladi. Datchik to'ldirilgan va radiator qopqog'i



95-rasm. Harorat ko'rsat-kichlarni tekshirishning shartli tasviri

a—ko'rsatkich komplekt holati, b—qabul qiluvchi, c—datchik. 1—qabul qiluvchi, 2—datchik, 3—suvli germetik vanna, 4—simobli termometr, 5—avtomobil radiatori qopqog'i, 6—elektr ko'targichli uskuna, 7—chikish kuchlanishini rostlovchi avtotransformator, 8—garshiliklar qutisi, 9—etalon qabul qiluvchi, 10—ampermetr, 11—voltmetr.

bilan berkitilgan maxsus vannaga solinadi. Radiator qopqog'i vannadagi suv haroratini 100°C dan oshirishga imkon beradi.

Sovitish suyuqliklari haroratini o'chash uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlar datchigi faqat suvda tekshiriladi, chunki ular moyda qizdirilganda moyning jadal aralashmasligi tufayli issiqlik uzatish sharoitlari o'zgaradi va natijada o'chash xatoligi ko'payadi.

Moy haroratini o'chash uchun mo'ljallangan datchiklar moy to'ldirilgan vannada tekshiriladi. Qabul qiluvchi va datchikni tekshirish uchun tekshirish moslamasiga ulationning shartli tasviri 95-rasmida keltirilgan.

Moslamaga uzatiladigan kuchlanish miqdori 14 yoki 28 V ga teng (nominal kuchlanishi 12 va 24 V bo'lган asboblarga mos ravishda). Suv yoki moy to'ldirilgan vanna sekin-asta qizdirilishi lozim. Ko'rsatkich qabul qiluvchisining ko'rsatishlari vannaga o'matilgan simobli nazorat termometri ko'rsatishlari bilan solishtiriladi. Termometr shkalasidagi bo'lmalar qiymati 0,5°C dan katta bo'lmasligi kerak. Qabul qiluvchi shkalasidagi belgilardan ko'rsatkichlarni yozib olishdan avval kamida 2 daqiqa kutib turish lozim. Agar xatolik 8-jadvalda keltirilgan qiymatlardan kichik bo'lsa, qabul qiluvchi va datchik soz holatda deb hisoblanadi.

#### 8-jadval

Priyomnik shkalasining tekshiriladigan nuqtalari, °C	40	0	100	110	120
Ruxsat etilgan xatolik, °C	± 8	± 5	± 5	± 6	± 6

Xatolik yuqori bo'lган holatda harorat ko'rsatkichning qabul qiluvchisi va datchigini alohida tekshirish lozim.

Agar bu ko'rsatgichlar me'yor chegarasida bo'lsa, asboblar soz holda hisoblanadi, aks holda yangisiga almashtiriladi.

## AVTOMOBILGA UMUMIY DIAGNOZ QO'YISH

Diagnoz qo'yish deb, avtomobil yoki uning agregatlarini va mexanizmlarini bo'laklarga ajratmasdan turib texnik holatini aniqlashga aytildi va u avtomobilgarga TXK va JT ishlari texnologik jarayonini boshqarish elementlaridan biri hisoblanadi. Tekshiruv-diagnoz qo'yish ishlari davrida avtomobilning harakat havfsizligini ta'minlovchi agregatlarning holati aniqlanadi, TXK dan avval diagnoz qo'yilib ish hajmlari aniqlanadi, TXK va JT dan so'ng bajarilgan ishlarning sifati tekshiriladi.

Bajariladigan ish hajmi, davriyligi, ish turlari, mo'ljallanganligi va TXK, JT texnologik jarayonida tutgan o'miga qarab, diagnoz qo'yish ishlari D-1, D-2 va D<sub>r</sub> kabi turlarga bo'linadi. Ularning texnologik jarayondagi o'rni birinchi bo'limda keltirilgan (11-12 betlar).

D-1 dan asosiy maqsad, harakat xavfsizligini ta'minlovchi agregat va mexanizmlarning texnik holatini (tormoz, boshqarish mexanizmi, oldingi g'ildiraklarni o'matish burchaklari, yoritish priborlari), chiqindi gazlarning zararligini va yonilg'i sarfini aniqlashdan iborat. D-1 asosan 1-TX bilan birligida o'tkaziladi.

D-2 dan asosiy maqsad, avtomobilning tortish-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha to'liq texnik holatini aniqlash va asosiy agregat, tizim va mexanizmlarning nosozligini aniqlashdan iboratdir. D-2, 2-TX dan 1-2 kun avval o'tkazilib, ish hajmi aniqlab olinadi hamda ishlar tugagach uning sifati nazorat qilinadi. D-2 buyurtma bo'yicha JT dan avval ish hajmini aniqlab olish uchun ham bajarilishi mumkin.

TXK va JT ishlari o'tkazish uchun ma'lumotlar diagnoz qo'yish jihozlari va ko'tarib yuruvchi asboblar yordamida olinadi.

TXK va JT ishlari bajarish davrida nosozliklarni va buzilishlarni aniqlash uchun, («operativ-texnologik» diagnoz qo'yish D<sub>r</sub>), ko'tarib yuriluvchi va stol ustiga joylashgan asboblar qo'llaniladi.

Avtomobilarni to'liq diagnozlashdan maqsad, uning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini (dvigatel quvvati, yonilg'i sarfi, harakat hafsligi va tashqi muhitga ta'siri) va agregat hamda uzellari texnik holatini aniqlashdan iboratdir (9-jadval). Avtomobil yoki uning agregatlari bo'yicha ko'rsatilgan ko'rsatkichlar aniqlangach, ular me'yoriylari bilan solishtiriladi. Diagnostika ko'rsatichlari me'yoriylardan farq qilsa, chuqurroq diagnostika o'tkazilib mavjud nosozliklar aniqlanadi.

#### *9-jadval. Diagnoz qo'yish ko'rsatkichlari va ularni aniqlash jihozlari*

Avtomobilarning ekspluatatsion xususiyatlari	Diagnoz qo'yish ko'rsatkichlari	Diagnoz qo'yish jihozlari	
		Maxsus	Universal
Tortishish-iqtisodiy	N <sub>k</sub> , P <sub>k</sub> , V <sub>a</sub> , F <sub>f</sub> , S <sub>b</sub> , S <sub>r</sub> , t <sub>r</sub> , J <sub>r</sub> , CO, A, Q	Tortish xususiyatini aniqlash jihizi	(Aralash jihoz) Umumlashgan
Tormozlash	P <sub>t</sub> , S <sub>t</sub> , J <sub>z</sub> , t <sub>z</sub> , S <sub>z</sub>	Tormoz jihizi	(Aralash jihoz) Umumlashgan
Yurish qismi	P <sub>b</sub>	Yurish qismi holatini aniqlash jihizi	(Aralash jihoz) Umumlashgan

Avtomobilarga diagnoz qo'yish qo'zg'almas jihozlar yordamida yoki ekspluatatsiya sharoitida bajariladi. Ekspluatatsiya sharoitida tormoz tizimining texnik holati va yonilg'ning chiziqli sarfi aniqlanishi mumkin. Maxsus jihozlar yordamida diagnostikalash yuqori samara beradi, chunki ular yordamida avtomobilni kerakli tezlikka chiqarish, kerakli yuklanishni berish va har xil sharoitlarni namoyon qilishi mumkin.

Avtomobilarning ekspluatatsiyasidagi asosiy diagnostikalash ko'rsatgichlari quyidagilardan iborat:  $N_k$  - g'ildirakdagi quvvat,  $V_a$  - harakat tezligi,  $R_k$  - g'ildirakdagi yetaklovchi tortish kuchi,  $F_f$  - harakat qarshiligi,  $S_v$  - erkin yurish yo'li,  $S_t$  - tezlanish yo'li,  $t_r$  - tezlik va  $j_r$  - tezlanish vaqt,  $Q$  - yonilg'ining solishtirma sarfi,  $S_t$  - tormoz yo'li,  $R_b$  - tormozlash kuchi,  $t_s$  - sekinlanish vaqt,  $S_z$  - sekinlashish yo'li,  $R_b$  - tashqi ta'sir etuvchi kuchlar (shinaning yo'l bilan ilashishiga ta'sir etuvchi), CO - chiqindi gazlar zaharliligi, A - shovqin balandligi.

*Avtomobilning quvvati, tejamkorligi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatgichlari bo'yicha diagnozlash.* Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ATK larda avtomobilarning ko'pgina qismi nosoz holda, ya'ni to'liq quvvatidan foydalanmay hamda yonilg'ini me'yordan ko'proq sarflab ishlataladi. Bu kamchiliklarning 70% ini KX da sozlash va tekshirish yo'li bilan bartaraf qilish mumkin. Kamchiliklarning asosiy sabablari yonilg'i o'tkazgichlarning nozichligi, filtrlarning tiqilib qolishi, shinadagi bosimning pasayishi va shu kabilar hisoblanadi. Ammo 20% ga yaqin hollarda nuqsonlarni aniqlash uchun diagnozlash ishlarini bajarish zarur. Qolgan 10% ga yaqin hollarlardagi yonilg'ining ko'p sarf bo'lishiga haydovchi mahoratinining pastligi va foydalinish sharoiti sabab bo'ladi. Hisoblar shuni ko'rsatadiki, shahar sharoitida yonilg'ini me'yordan ko'p sarflash hollarini aniqlash va o'z vaqtida unga qarshi chora-tadbirlar ko'rish bilan bütün avtomobil saroyi bo'yicha sarfnini 3-5% gacha kamaytirish mumkin.

Avtomobillar dvigateli quvvati va iqtisodliligi pasayishini quyidagi ifoda bo'yicha yetakchi g'ildiraklarga dvigateldan keladigan quvvat -  $N_k$  ni aniqlash bilan tahlil qilish mumkin.

$$N_k = 10^{-3} \frac{h_u P_0 V_n n}{(al_0 + 1) RT} h_v h_i h_m h_{tp}$$

yoki texnik holat ta'sir qilmaydigan ko'rsatkichlari jamlangan holda,

$$N_k = 10^{-3} \frac{C \cdot n}{al_0 + 1} h_v h_i h_{tp},$$

bu yerda:  $h_v$  - yonish issiqligi,  $dj/kg$ ;  $R_o$  - tashqi muhit bosimi,  $Pa$ ;  $V_n$  -

sillindrning ishchi hajmi,  $l$ ;  $a$  - havo miqdorini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $l_0 = 1 \text{ kg yonilg'i yonishi uchun zarur havo miqdori (nazarat)}$ ;  $R$  - yonilg'i aralashmasini gaz o'zgarmasi,  $dj$ ;  $T$  - havo harorati,  $K$ ;  $n$  - tirsaklı val aylanish soni,  $S^{-1}$ ;  $h_v, h_p, h_m, h_r$  - to'ldirish, indikator, dvigatel va transmissiya-yurish qismining mexanik koeffitsiyentlari.


Yuqoridagi ifodadan ko'rniib turibdiki, asosan  $g$ 'ildirak quvvatining pasayishi (dvigatelning termodynamik yo'qotishi) transmissiyaning mexanik yo'qotishlariga bog'liq ekan.

Avtomobilarning texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari tortish jihozlarida va yonilg'i sarfaniqlagichlari yordamida aniqlanadi. Jihozlar yordamida avtomobillardan foydalanish sharoitlari hosil qilinadi va bu sharoitlarda tortish iqtisodiy ko'rsatgichlar aniqlanadi. Jihozlar yordamida foydalanish sharoitlarini hosil qilish avtomobilarning turi va modeliga bog'liq ravishda tanlab olinadi. 96-rasmda «GAZ-24» avtomobili yetaklovchi g'ildiraklardagi eng yuqori tortish kuchi va yonilg'i sarfini aniqlash uchun kerakli sharoitlarni tanlab olish keltirilgan. Umuman olganda, avtomobil dvigatelining tashqi tasnifi ( $N_e, M_e$ , va  $g_e$ )ga asosan har xil tezlikni qabul qilish (masalan, operator uchun qulay bo'lgan 60 km/soat) va shu tezlik uchun tortish kuchi va yonilg'i sarfini aniqlash mumkin. Ammo sinov o'tkazish jarayonidagi har doim uchrab turuvchi belgilangan tezlikdan chetga chiqish natijasida, jihozning aniqlik darajasiga bog'liq bo'limgan D-xatolikka yo'l qo'yishimiz mumkin. Shuni e'tiborga olgan holda, sinash jarayoni holatini tanlab olishda, dvigatellarning tashqi tasnifi egri chizig'i bo'yicha tezlik tanlab olinadi va natijada sezilarsiz darajadagi xatolikka yo'l qo'yiladi. Bu

ko'rsatmani inobatga olgan holda, «GAZ-24» avtomobili asfalt-beton qoplamlari tekis yo'lida harakatlanishini ifoda etuvchi, eng yuqori aylantiruvchi moment va yuklanishga to'g'ri keluvchi tezlik (66,2 km/soat),  $g_{emin}$  to'g'ri keluvchi tezlik (45 km/soat) asosida  $P_f$  - yuklanish qiymati texnik iqtisodiy ko'rsatgichlarni aniqlash uchun qabul qilinadi (96-rasm).

$$P_f = P_d + P_v - P_{st},$$

Bu yerda:  $P_f$ -jihozning yuklovchi qurilmasi yordamida hosil qilinuvchi yuklanish;  $P_d$  -yo'l qarshiligini ifodalovchi;  $P_v$  -havo qarshiligini



**96-rasm. Avtomobilarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashda kerarli sharoitni ifoda etuvchi qiymatlar tanlab olishning asosiy shakli**

*ifodalovchi;  $P_{st}$  — jihoz barabnlari hosil qiluvchi, yuklanishsiz tebranish qarshiligini ifodalovchi.*

Ko'rileyotgan misolda  $P_f = 133$  N. Bunda nazorat sarfi 8,5 l / 100 km bo'lishi kerak.

Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarni aniqlash bilan birgalikda chiqindi gazlar tarkibidagi zaharli moddalarning miqdori nazorat qilinadi. GOST 17.2.203-87 bo'yicha karbyurator dvigatelli avtomobilarning salt yurishida chiqindi gazlar tarkibidagi uglerod oksidi (CO) — 1,5% dan, tirsakli valning eng yuqori aylanishlar sonida — 2% dan oshmasligi kerak. Dizel dvigatellari uchun tutash erkin tezlanishda 40% dan, tirsakli valning eng yuqori aylanishlar sonida 15% dan oshmasligi kerak.

*Tormoz samaradorligi bo'yicha avtomobilarni diagozlash.* Statistik ma'lumotlarga ko'ra, texnik nosozlik tufayli sodir bo'ladigan yo'l-transport hodisalarining 50% ga yaqini tormoz tizimining nosozligiga to'g'ri keladi, baxtsiz hodisalarda esa uning salmog'i yanada yuqori. Diagnostikalash yo'li bilan tormoz tizimining nosozliklari o'z vaqtida aniqlanadi.

Avtomobilning tormozlash ususiyatlarni aniqlash quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

- yo'l sharotida yurib tekshirish;
- ekspluatatsiya qilish davrida tekshirish (avtomobildagi o'matilgan jihozlar yordamida);
- tormoz jihozlari yordamida tekshirish.

Yo'l sharoitida tekshirish, bu — yurayotgan avtomobilni bir zumda tormozlab to'xtatib, yo'l sathida qoldirgan izini o'lchashdan iborat. Avtomobil tormoz tizimining holati ko'chirib yuriladigan desselerometrni avtomobilga o'rnatib, uning yordamida, avtomobil tormozlangandagi sekinlanish miqdori o'lchanib aniqlanishi mumkin.

Tormoz tizimini yo'lda tekshirish tekis, quruq va yotiqlik bo'lgan maydonda bajariladi. Tormoz yo'li nazariy jihatdan quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$S_T = \frac{K_e V_a^2}{26 q \varphi}, \text{ m}$$

Bu yerda:  $V_a$  — tormozlashdan avvalgi avtomobil tezligi, km/soat;  $K_e$  — ekspluatatsiya sharoitini hisobga oluvchi koeffitsent (yengil avtomobil uchun - 1.44, yuk avtomobili uchun - 2.0-2.44);  $q$  — erkin tushish tezlanishi, 9.81 m/sek<sup>2</sup>;  $\varphi$  — shinaning yo'l bilan ilashish koeffitsenti.

To'xtash yo'li yengil avtomobillar uchun (30 km/soat) - 7.2 m, yuk avtomobilari va avtobuslar uchun yuk ko'tarish qobiliyatiga qarab - 9.5-11.0 m bo'ladi.

Tormoz tizimining sekinlashish bo'yicha texnik holatini aniqlash 10-

20 km/soat tezlikda avtomobilni bir zumda to'xtatish orqali bajariladi yoki quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$j_{\max} = \frac{V_a^2}{26S_t}, \text{ m/sek}^2$$

Yuqoridagi ifodaga  $S_t$  - qiymatini qo'yib, quyidagi ifodani hosil qilamiz.

$$j_{\max} = \frac{\varphi q^2}{K_s}, \text{ m/sek}^2$$

Bundan ko'rinish turibdiki avtomobilning sekinlashishi uning tezligiga bog'liq bo'lmaydi, bu qiymat yengil avtomobillar uchun  $5.8 \text{ m/sek}^2$ , yuk avtomobillari va avtobuslar uchun  $5.0-4.2 \text{ m/sek}^2$ , qo'l tormozlari uchun  $1.5-2.5 \text{ m/sek}^2$  ga teng bo'ladi.

*Tormoz tizimining samarador ishlashini qo'zg'almas jihozlar yordamida tekshirish.* Avtomobillar tormoz tizimi samarador ishlashini ekspluatatsiya sharoitlarida aniqlashda avtomobillar yo'l shariotida tekshiriladi, bu esa ko'p vaqtini oladi. Shu sababli, diagnostika ishlarini qo'zg'almas jihozlar yordamida o'tkazish ancha qulay va kam vaqt sarflanadi. Qo'zg'almas jihozlar yordamida aniqlanadigan ko'rsatkichlar, tormozlash solishtirma kuchi ishga tushish vaqt va tormoz kuchlarining o'q bo'yicha bir xil emasligini hisobga oluvchi koeffitsiyentlardan iborat. Jihozda sinash ishlarini bajarishda yengil avtomobillar va avtobuslar tormoz tepkisiga 490 N, yuk avtomobillari va avtopoyezdlarga 686 N kuch bilan ta'sir etib bajariladi. Umumiy solishtirma tormoz kuchining qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$g_t = SR_t / G_a,$$

Bunda:  $SR_t$  – hamma gildiraklardagi tormoz kuchining umumiy maksimal qiymati;  $G_a$  – avtomobilning to'liq massasi.

GOST 25478-82 bo'yicha  $g_t$  ning qiymati yengil avtomobillar uchun 0,53 dan, avtobuslar uchun 0,46 dan, yuk avtomobillari va avtopoyezdlari uchun 0,41 dan kichik bo'lmasligi kerak. O'q bo'yicha tormoz kuchining bir xildamasligini hisobga oluvchi koefissiyent -  $K_n$  avtomobilning har bir o'qi uchun alohida quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Kn = \frac{P_{T.ong} - P_{T.chap}}{P_{T.ong} + P_{T.chap}}$$

*Bu yerda:  $R_{t_{long}}$  va  $R_{t_{short}}$  – tormozlashda o'ng va chap g'ildiraklarda hosil bo'luvchi eng katta kuch.*

K<sub>n</sub> ning qiymati yengil avtomobillar uchun — 0,09, avtobuslar uchun — 0,11, yuk avtomobilari va avtopoyezdlar uchun — 0,13 dan katta bo'lmasligi kerak. Tormozning ishga tushish vaqtida deb tormozlanish boshlangandan so'ng sekinlanish bir tekisda bo'lgan oraliqqa aytildi. Bunda tormoz kuchi eng yuqori qiymatiga erishadi va keyinchalik o'zgarmas bo'lib qoladi. Ishga tushish vaqtida yengil avtomobillar uchun 0,6 s, avtobuslar uchun 1,0 s, yuk avtomobilari va avtopoyezdlar uchun 1,2 s dan katta bo'lmasligi kerak. Kuchlar orgali aniqlash usulida ishlovchi jihozlarda tormozni diagnozlash tartibi quyidagidan iborat: avtomobil oldingi yoki orqa o'qidagi g'ildiraklari bilan jihoz roligi ustiga qo'yiladi, jihoz elektrosvigatellari ishga tushiriladi, keyin operator tormoz tepkisini bosadi. Avtomobil g'ildiragida hosil qilingan tormozlash momenti qattiq val orgali posongisimon o'rnatilgan motor-reduktorga, g'ildiraklar bilan ilashishgan jihoz roliklaridan yetaklovchi rolik orgali yuboriladi. Tormozlash momenti ta'sirida posongisimon motor-reduktor o'z o'qiga nisbatan ma'lum bir burchakka buriladi va maxsus datchikka (gidravlik, pyezo elektrik va boshqalar) ta'sir ko'rsatadi, u o'z navbatida kuchni qabul qiladi va uni o'lchovchi asbobga o'tkazib yuboradi. O'lchovchi asbob tekshirilayotgan g'ildirakdagagi tormozlanish kuchini ko'rsatadi.

Tormozning ishga tushish vaqtida jihoz tuzilishida hisobga olingan, ikki rolik orasiga joylashgan ajratuvchi rolikni g'ildirak shinasiga tekkazib qo'yish yo'li bilan aniqlanadi. Tormozlanish kuchi eng katta qiymatga yetgach, avtomobil g'ildiraklari to'xtaydi, shu vaqtida ajratish roligi ham to'xtaydi. Tormozning ishga tushish vaqtida, tormoz tepkisini bosilgandan toki g'ildiraklar to'xtagunga qadar, ya'ni ajratuvchi rolik to'xtagungacha bo'lgan davrni o'lchash bilan aniqlanadi.

# AVTOMOBIL SHINALARI TEXNIK EKSPLUATATSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

## SHINALARNING TUZILISHI, BELGILANISHI VA TURLANISHI

Shinalar avtomobilarning ekspluatatsion sifatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi, yumishoq yurishi, o'tabilishi, tormozlanishini ta'minlovchi eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Ularni sotib olish va ularga TXK va JT ishlari uchun avtomobilning rusumi, tuzilishi, yuk ko'tarish qobiliyati va ekspluatatsiya sharoitlariga qarab transport ishi tannarxining 6-15% i sarflanadi.

Shinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari avtomobilarga TXK va JT dagi umumiy mehnat hajmining 3-7% ini tashkil qiladi. O'rta quvvatlari ATK larda shinalar texnik ekspluatatsiyasi bilan 3-6 kishi band bo'ladi. Shinalarning konstruksiyasiga qarab avtomobilda yonilg'i sarfi 4-7% ga farq qilishi mumkin. Shinalarning texnik holati ko'rsatkichlariga va ekspluatatsiya qoidalariga rioya qilmaslik yonilg'i sarfini 15% gacha va yo'l-transport hodisalari ro'y berishi ehtimolligini esa ikki barobarga oshiradi.

**Shinalarning tuzilishi.** Shina obodaga o'rnatiladi va u bilan birgalikda avtomobil g'ildiragini tashkil qiladi (97-rasm). Uning asosiy elementi *karkas* hisoblanadi, u kord matosidan (yigiruv, sun'iy tola, po'lat sim, oynali tola va h.k.) tayyorlanadi. Karkasning qiymati shina qiymatining 60% ini, protektor esa 5-7% ini tashkil qiladi.

Karkasning ishslash muddati protektornikiga nisbatan 2-3 barobar ortiq, shuning uchun protektor yedirilganda uning o'rniga yangi protektor yopishtirib, shinani tiklash mumkin. Shinalar mo'ljallangan vazifasiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: yengil avtomobillar va ularning tirkamalari uchun, yengil yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan yuk avtomobillari uchun, mikroavtobuslar uchun, yuk avtomobillari va uning tirkamasi uchun, autobuslar va trolleybuslar uchun. Protektor yuzasi chizgilari yo'l uchun, hammabop va qishki bo'lishi mumkin. Qishki protektorlar sirpanishga qarshi ignachalar bilan ta'minlanadi. Belgilangan sharoitga moslanmagan shina



97-rasm. Yuk avtomobili kamerali shinasi to'g'in bilan yig'masining qirqimi:

1-karkas; 2-breker; 3-protektor; 4-yon tomon; 5-kamera; 6-bort; 7-to'g'in lensasi; 8-to'g'in; 9-zanjir halqa(kesik); 10-bort halqasi (kestlimgan); D-tashqi diametr; d-o'rnatish diametri; B-profil kengligi; H-profil balandligi.

protektorlari chizgilarini qo'llash avtomobilning harakat havfsizligini, shinaning ishlash muddatini pasaytiradi, yonilg'i sarfini oshiradi, avtomobil chiroyini buzadi. Protektorni tayyorlashdagi rezina aralashmasining tarkibi va uning chizgisi shinaning ishlash davrini aniqlab beradi.

Karkasning tuzilishi bo'yicha shinalar diagonalli (breker va karkasdagi kort iplarining o'rnatalishi diagonal), radial (karkas kordi iplarining joylashishi meridional va brekerdagisi diagonal) bo'ladi. Zichlash usuli bo'yicha shinalar kamerali (havo qatlami kamera yordamida hosil qilinadi) va kamerasiz (havo qatlami zichlovchi rezinasi bo'lgan g'ildirak obodasi va pokrishka oralig'ida hosil qilinadi) kabi turlarga bo'linadi.

Shinalarning ko'ndalang

kesimi profilining turlanishi bo'yicha ( $N/V$ ) oddiy ( $N/V > 0,89$ ), keng profilli ( $N/V = 0,9+0,6$ ), past profilli ( $N/V = 0,88+0,70$ ), juda past profilli ( $0,5 < N/V < 0,7$ ), o'ta past profilli (arochniy) ( $N/V = 0,5+0,39$ ), havo katoklari ( $N/V = 0,39+0,25$ ) turlariga bo'linadi. Juda past profilli yengil avtomobil radial shinalarini 70 va 60 seriyalari bilan ishlab chiqariladi, bunda raqamlar  $N/V$  nisbatning foizini ko'rsatadi.

Radial shinalar tebranishi bo'yicha yaxshi tavsifga ega. Ularning ishlatilish davri (masofasi) diagonal shinalariga nisbatan 25-75%ga ko'proq. Ular yonilg'i sarfini 3-5% ga kamaytirishga imkon beradi. Biroq karkas kordi iplarining radial joylashishi shina yon devori mustahkamligini kamaytiradi. Og'ir yo'l sharoitida chuqur koleya bo'yicha harakatlanganda, ayniqsa shinadagi havoning bosimi me'yordan past bo'lganda, ular tezda ishdan chiqadi.

Kamerasiz shinalarini ajratish ya yig'isli tartibli bajarilmaganda zichligi buziladi. Ular maxsus germetiklikni ta'minovchi obodalarga o'rnatiladi.

Shina tuzilishining takomillashishi, uning profilini, ya'ni N/V nisbatni kamaytirish yo'li bilan amalga oshiriladi. G'ildirash bo'yicha quvvatning sarfi nuqtai nazaridan N/V ning muqobil nisbati 70-65 % ni tashkil etadi. G'ildirash bo'yicha qarshilikning 20 % kamayishi yonilg'i sарfini 2,5-3 % ga kamaytiradi. Past profilli shinalar avtomobilning tormozlanish yo'lini kamaytiradi va uning ravon yurishini ta'minlaydi.

Shina tuzilishi xususiyatlari, uning asosiy o'lchamlari (modeli, qavatlar soni, raqami, o'lchamlari va h.k.) yon qismida keltirilgan bo'ladi.

*Rusum* – ishlab chiqaruvchining shartli belgisi va tartib nomerini bildiradi. Masalan, IN-251 «Shina ishlab chiqarish ilmiy tadqiqot instituti» va Nijnekamskdagi №251 shina zavodining hamkorlikdagi mahsuloti.

*Qatlamlar meyori* – karkas mustahkamligining shartli belgisi hisoblanadi. Masalan, yuk avtomobilari uchun NS-10 yoki engil avtomobillar uchun 4RR, bu yerda raqamlar mato kordlarning necha qavati shina modeli karkasining mustahkamligiga monandligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga asosan yuk ko'tarish indeksi bilan almashtirilgan.

*Shinaning zavod ragami* qaysi zavodda, qachon va qanday tartib nomerida chiqarilganligini ko'rsatadi. Masalan, YalII01 153624 da: Ya —Yaroslavl shina zavodini; III01—2001 yil mart oyida tayyorlanganligini; 153624 —shinaning tartib nomerini bildiradi.

Yuk avtomobilari uchun *shina o'lchamlarini V va d* ning qiymati ko'rsatadi. Masalan, 320-508 (12,00-20). Bu yerda birinchi guruh raqamlari millimetrda, ikkinchi guruh o'lchamlari esa dyuymda ko'rsatilgan, ya'ni Vq 320 mm yoki 12,0 dyum, d<sub>q</sub> 508 mm yoki 20,0 dyum. Radial shinalar qo'shimcha ravishda harfli belgilarga ega bo'ladi 320-508R (12,00R20).

*Keng profilli* shinalarda o'lchamlar uchta ko'rsatkich D×V-d orqali ifoda etiladi. Masalan, shinaning taşqi diametri 1080 mm, profil kengligi 425 mm va o'rnatish diametri 484 mm bo'lsa, u 1080×425-484 kabi belgilanadi. Katta o'lchamli keng profilli shinalarda qo'shimcha ravishda V va d qiymatlar dyuumlarda keltiriladi: 20,5-25 (1510×520-635).

*Diagonal tuzilishi* yengil avtomobil shinalarida o'lchamlar ikki ko'rsatkich (V-d) bo'yicha millimetrda va dyuymda ko'rsatiladi. Masalan, 6,15-13 (155-300). Xuddi shu o'lcham radial shinalarda 155R13 kabi belgilanadi. O'ta past profilli shinalarda seriya va N/V ning foizdag'i nisbati keltiriladi (205/70R14).

*Kamerasiz shinalar* «Tubeless», kamerali shinalar «type» yozuviga ega bo'ladi. Balchiq va qorga mo'ljallangan shina protektorlarida «M+S» belgi ifoda etiladi. Hozirgi paytda barcha zamonoviy yengil avtomobilarda kamerasiz shinalar qo'llanilmoqda.

## SHINANING ISHLASH DAVRIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Harakatlanishda shinaga G - me'yoriy yuklanish va Q - urinma kuch ta'sir qiladi. Ular shinani yerga ta'sir qilish izida F - yuzaga  $q = G / F$  - solishtirma bosim va  $t = Q / F$  - urinma kuchlanish bilan ta'sir ko'rsatadi. t ning q ga nisbati shinaning ta'sir qilish izidagi kuchlanganlikni ( $h = t / q$ ) xarakterlaydi. Agar h ning qiymati shinaning yo'l bilan ilashish koeffitsiyentiga teng yoki katta bo'lsa, sirpanishi boshlanadi. Bu protektor yedirilishining asosiy sababidir. Kuchlanganlik h hamma nuqtalarda ham bir xil emas. U harakatlanish sharoitiga, shinalarning yuklanishiga, g'ildiraklarni o'rnatish burchagiga, shinadagi havo bosimining kattaligiga ya h.k.larga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan har qanday omilning me'yoriy ko'rsatkichlarga to'g'ri kelmasligi alohida elementlarning sirpanishiga va protektoring notejis yedirilishiga olib keladi. Masalan, shinadagi havo bosimining kamayishi bilan h ko'payadi, protektor elementlarining o'zaro joylashuvi o'zgaradi va sirpanishga olib keladi. G'ildirakni o'rnatish burchaklarining (asosan yaqinlashuv burchagi) me'yordan og'ishi, urinma ta'sir etuvchi enlama kuchlanishni oshiradi. Shinaning tayanch yuzadagi izdan chiqishida ilashish kuchlanishi oshib ketadi va sirpanishga olib keladi.

Radial shinalar va protektor chizgisi yedirilgan shinalarda urinma kuchlanish hamisha kam bo'ladi.

*Xavfli g'ildirash tezligi.* G'ildirash tezligining ko'payishi protektor elementining sirpanishiga olib keladi. Shina elementlarining yo'l bilan ilashish davrida ezligan qismlarning tiklanishi aylanish tezligidan orqada qoladi. Bu hol tiklanmagan elementlarning inersiya kuchlari ta'sirida tebrana boshlashiga olib keladi. Natijada, xavfli g'ildirash tezligi paydo bo'lib, shina yirtilib ketishi mumkin.

Shinaning havfli tezligi har doim avtomobilning me'yorlangan eng yuqori tezligidan katta bo'ladi. Ammo avtomobilni me'yordan ortiq yuklash hamda shinadagi havo bosimi pasayishi havfli tezlik kattaligini kamaytiradi, shuning uchun yengil avtomobilning ko'p vaqt (1 soatdan ortiq) 120 km/soatdan yuqori tezlikda harakatlanishi uchun shinadagi bosimni me'yordan 0,03 MPa ga oshirish tavsiya qilinadi.

*Akvaplanerlanish.* Avtomobillar ho'l yo'lida past va o'rta tezlik bilan harakatlanganda shina protektori SUV plyonkasini siqb chiqarishga ulguradi. SUV ilashish yuzasidan protektor chizgisi kanallari orqali sizib chiqadi. Katta tezliklarda esa vaqt birligida siqb chiqariladigan SUV miqdori oshadi va SUV chizgi kanallaridan siqb ulgurmeydi. Natijada protektor bilan yo'l oralig'ida SUV tiqini hosil bo'lib, shinaning tayanch yuza bilan ilashishi

yomonlashadi va akvaplanerlanish hosil bo'jadi, avtomobil boshqarib bo'lmas holatga keladi. Akvaplanerlanish hosil bo'lishi tezligi avtomobil tezligiga, suv plyonkasining qalnligiga, suvning (tarkibidagi iflosliklar bilan) qo'vushqoqligiga, shina tuzilishiga (N/V nisbatga), shinadagi havo bosimiga va protektor chizgisi balandligiga bog'liq bo'jadi.

Havo bosimining pastligi va protektorning yedirilganligi akvaplanerlanish sodir bo'lishini tezlashtiradi.

*Shina texnik holatining avtomobilning yonilg'i-iqtisodiy va tortish-ilashish xususiyatlariga ta'siri.* Protektorning yedirilishi natijasida shinaning tavsiyi o'zgaradi, natijada u avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlarida namoyon bo'jadi. Yuk avtomobilari protektori chizgilarining balandligi 16-20 mm, yengil avtomobilarniki 8-10 mm ni tashkil etadi. Protektor chizgilarini balandligining kamayishi bilan yo'l-transport hodisalarining sodir bo'lish ehtimoli oshadi, shinalarning katta tayanch yuzalarda tortish-ilashish xususiyati yomonlashadi (asosan nam va qorli yerdarda).

Biroq quruq yo'llarda yedirilgan protektori shinalarning ezilishdan yo'qotishi natijasida g'ildirashdagi qarshilik kamayadi, bu esa yonilg'i sarfini kamaytiradi (98-rasm).


Shuning uchun protektori yedirilgan shinalarni kuz-qish mavsumida almashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa shinalar ishlash muddatini oshirishga imkon beradi. Ekspluatatsiya boshlanish davrida yangi shinalarning yedirilishi tez sodir bo'jadi. Ho'l va sirpanchiq yuzalardagi yedirilish quruq yo'llarga nisbatan bir necha barobar kam (asosan yoz haroratlarda).

*Shinaning ishlash davrini aniqlovchi omillar.* Protektor yedirilishining chegaraviy qiymatga kelishi, shinaning shikastlanishi – kord iplarining uzilishi, karkasning qavatlarga ajrab ketishi, yonbosh yoki protektorning shishib ketishi, bortlarning uzilishi va boshqalar shinaning ishlash davri tugaganligini bildiradi.

Protektor chizgisining chegaraviy qoldiq balandligi yuk avtomobilari uchun 1 mm, avtobuslar uchun 2 mm, yengil avtomobilari uchun 1,6 mm dan kam bo'lmasligi kerak. Avtomobil shinalarini ekspluatatsiya qilish

**98-rasm. Protektor yedirilishining avtomobilning ekspluatatsiya xususiyatlariga ta'siri:**

1-yonilg'i sarfi; 2-tezlanish vaqt; 3-ilgakdagi tortish kuchi.




qonuniga asosan, protektor chizgisi yedirilishining chegaraviy ko'rnishi deb, chizgi balandligi uzunligi protektor yuzasining yarmiga va eni shina aylanasining 1/6 qismiga to'g'ri kelgan yuzada me'yordan kam bo'lgan miqdoriga aytildi (99-rasm).

Shinalar ekspluatatsiyasining birinchi davri deb, protektorning yedirilishigacha yoki ATK sharoitida tiklab bo'lmaydigan jarohatigacha ishlash vaqtiga aytildi. Ikkinchi davr – shinaning yangi yugurish yo'lidagi ishi, ya'ni yedirilgan shinaga yangi protektor qoplangandan keyingi ishlash vaqtiga tushuniladi. Bu shinalar tiklangan deb ataladi.

Yengil avtomobildan shinani yechib olishning asosiy sababi, uning protektori chegaraviy qiymatgacha yedirilishidir. Yuk avtomobillarida ekspluatatsiyadan chiqarilgan shinalarning 60-70%i shikastlanishlar natijasida hisobdan chiqariladi (100-rasm). Jarohatlar ko'pincha avtomobilni tartibsiz haydash, uni ortiqcha yuklash va yomon yo'l sharoitlarida ekspluatatsiya qilishda yuzaga keladi.

Qolgan shinalar (30-40%) qayta tiklashga yaroqli hisoblanadi. Protektorning bir xilda yedirilishi faqat chorak qism shinalarga to'g'ri keladi. Qolganlarida esa har xil turdag'i notejis yedirilishlar (bir tomonloma, markaziy, chekka, dog'simon) mavjud bo'ladi. Shinalarni to'g'ri ekspluatatsiya qilishda uning ishlash davri protektorning yedirilishi bilan aniqlanadi va bir necha omillarga bog'liq bo'ladi (101-rasm). Rasmdagi birinchi ikkita guruh shinaning bir tekis yedirilishiga hamda uchinchi guruhnini qoniqarsiz tatbiq etish notejis yedirilishga olib keladi.



Yo'1 qoplamasining yomonlashishi shinaning ishlash davrini kamaytiradi. Asfaltbeton yo'llarga nisbatan tosh-shag'al yo'llarda shinaning ishlash davri 25% gacha, tosh yo'llarda esa 50% gacha kamayadi.

Tashqi harorat ham shinaning ishlash davriga ta'sir ko'rsatadi. Yuqori harorat shinaning qizib ketishiga olib keladi, natijada tebranishga qarshilik pasayadi va ishlash davri kamayadi. Ishlash jarayonida shina haroratining 70-75°C ga yetishi me'yoriy hisoblanadi. Shinaning 100°C haroratgacha qizishiga yo'1 qo'yish mumkin, 120°C harorat xavfli va undan ortig'i juda havfli hisoblanadi. Shinaning noldan 100°C gacha qizishi rezina mustahkamligini 2-3 barobar, kord va rezina orasidagi bog'lanish mustahkamligini 1,5-2 barobar kamaytiradi. Juda past sovuq haroratda (- 40°C va undan past) oddiy rezinadan tayyorlangan shinalar isib ulgurmaganligi tufayli, avtomobi joyidan birdaniga qo'zg' atilganda va tashqi turtki natijasida yorilib ketishi mumkosh.

Zamonaviy transport oqimining harakat tezligi harakat oqimining intensivligiga bog'liqdir. Bundan tashqari, haydash mahorati ham alohida o'rinn tutadi. Mahoratsiz haydovchi tezlikni aniq tanlay olmaydi, birdaniga tormoz beradi va tezlashadi. Bularning hammasi shinaning ishlash davrini kamaytiradi, tortish va tormozlash kuchining (tortish kuchi 2,2, tormoz kuchi 2,6 martagacha) oshishi hisobiga uning yedirilishini tezlashtiradi. Tezlikni 50 dan 100 km/soat gacha ko'tarish shina ishlash davrini taxminan 40% ga kamaytiradi.

Shinaning yuklanishi va uning ishlash muddati ham bir-biriga bog'liqdir. Yuklanishning 10% ga oshishi ishlash muddatini 20% ga kamaytiradi. Yuqori yuklanish natijasida karkas ishdan chiqadi, protektorning yon tomonlari ko'proq yediriladi. Shinaga berilgan texnik hujjatdagi yuklanish kattaligi

### **101-rasm.**

#### **OMILLAR**

Boshqarib bo'lmaydigan (atrof-muhit)	Qisman boshqariladigan (harakat sharoiti)	To'liq boshqariladigan (avtomobilning texnik sharoiti)
Yo'Ining holati  Tabiiy iqlim sharoiti	Harakat tezligi  Haydash mahorati  Avtomobilni yuklash	Shinadagi bosim  Muvozanatsizlik  Oboda ezilishi  G'ildiraklar yaqinlashuvi  Burilish burchaklari nisbati
		Shkvorennning bo'lama og'ishi  G'ildiraklar og'ishi  Shkvorennning ko'ndalang og'ishi  Ko'priklar qiyshayishi

me'yordan 5-10% kamroq bo'ladi. Bu iqtisodiy yuklanish deyiladi. Yuklanishning kamayishi ishlash davrini oshiradi.



Texnik ekspluatatsiya nuqtai nazaridan *ba'zi omillar alohida* qiziqish uyg'otadi, chunki ATK sharoitida ularga ta'sir qilish mumkin. Har bir shina uchun uning tuzilishi va iqtisodiy yuklanishni hisobga olgan holda havo bosimi me' yori qabul qilinadi. Uning me'yorda bo'lmasligi shinaning ishlash davrini kamaytiradi (102-rasm, a). Asosan kam bosim maqsadga muvofiq emas: protektor yon tomonlarining yedirilishi tezlashadi (radial juda past profilli shinalar kamroq darajada yediriladi). Shinadagi asosiy yuklanishni (60-70%) havo qabul qiladi. Havo bosimining pasayishi karkas yuklanishini ko'paytiradi. Shinaning ezilishi ko'payadi, karkasda charchash kuchlanishi ko'payadi, iplar uziladi (asosan metal kordda), radial shinalarda bortlar uziladi va yonilg'i sarfi ko'payadi (15% gacha).

Havo bosimining me'yordan oshiq bo'lishi protektor o'rtal qismining yedirilishiga sabab bo'ladi. Kord iplari yuqori kuchlanishda bo'ladi. Yomon yo'l sharoitida shinaning jarohatlanish ehtimoli oshadi.

### Shinalarning statik va dinamik nomuvozanatliliklari

*Statik nomuvozanatlilik*, bu — g'ildirak massasining aylanish o'qiga nisbatan bir tekisda taqsimlanmaganligidir. Agar bunday g'ildirak aylantirilsa, har doim og'ir qismi past tomonga kelib to'xtaydi. Harakatlanish davrida statik nomuvozanat g'ildirakni vertikal tekislikda tebratadi, kuzovning tebranishi sodir bo'ladi, payvand va qotirish birikmali bo'shashadi.

*Dinamik nomuvozanatlilik*, bu — shina massasining markaziy bo'ylama g'ildirash tekisligiga nisbatan bir xilda taqsimlanmaganligidir. Harakatlanish vaqtida g'ildirakning tebranishi yotiq tekislik bo'yicha sodir bo'ladi. Bu



102-rasm. Shinaning ishlash davriga undagi havo bosimi (a) va diskning yuzaga nisbatan tebranishi (b) ta'siri:

1-tebranuvchi disk; 2-orqa ko'prikning ikkinchi tomonidagi tebranmaydigan disk.

vaqtida rul boshqarmasi va mexanizmiga, gupchak podshi pniklariga o'zgaruvchan yuqori tebranishli yuklanish ta'sir etadi hamda ular tez yediriladi. Bunday nomuvozanatlik alomati rul chambaragining tebranishiga olib keladi.

90 % ga yaqin hollarda avtomobil g'ildiragi ikki xil nomuvozanatlikda bo'ladi. Buning sababi, shina tayyorlashda tuzilish elementlarining sifatsiz yig'ilishi, noto'g'ri yig'ish hamda ekspluatatsiya davrida bir tekis yedirilmashlik bo'lishi mumkin. Har qanday nomuvozanat protektorning dog'-dog' bo'lib yedirilishiga olib keladi. Avtomobil g'ildiragining diskini yonlama qattiq turki natijasida qiy shayadi. Bunda yuzaga nisbatan tebranish («vosmerka») paydo bo'ladi. Ekspluatatsiya jarayonida 15% yengil avtomobillarning disklari 3-6 mm tebranishda bo'ladi (102-rasm, b). Avtomobilning orqa ko'prigidagi bir g'ildirakning tebranishi ikkinchisiga o'tadi va ishslash davrini kamaytiradi. Zavod ko'rsatmasiga ko'ra, yangi diskning tebranishi 1,2 mm dan oshmasligi kerak.

Disksiz g'ildirakli yuk avtomobillari va avtobuslarda yuzaga nisbatan tebranish birikmalarni bir xilda qotirmaslik natijasida sodir bo'ladi.

Protektorning yedirilishiga boshqariluvchi g'ildiraklarning o'rnatilish burchaklari katta ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiysi, yaqinlashuv burchagi hisoblanadi. Uning me'yoriy kattalikka to'g'ri kelmasligi shina ishslash davrini kamaytiradi (103-rasm).

Yaqinlashuv burchagini me'yordan musbat og'ishidan protektorning tashqi tomonida changsimon yedirilish sodir bo'ladi. Manfiy og'ishda esa, uning ichki tomonida changsimon yedirilish sodir bo'ladi. Natijada, yonilg'i sarfi ham oshadi. Yengil avtomobilda yaqinlashuvning 1° dan ortiq yoki kam bo'lishi yonilg'i sarfini 1,5% ga oshiradi.


Og'ish burchagini me'yordan juda katta farq qilishi protektorning yedirilishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi (103-rasm). Shina protektorida bir tomonlama silliq yedirilish yuzasi hosil bo'ladi.

Avtomobil konstruksiyasiga ko'ra, og'ish burchagi shkvorenning ko'ndalang og'ish burchagi bilan bog'liq. Ular sozlash yoki ekspluatatsiya qilish jarayonida birgalikda o'zgaradi.

Ko'p hollarda bir yon shinasing bir tomonlama keskin yedirilishi shkvorenlarning bo'ylama og'ish burchaklari bir xilda emasligi tufayli sodir bo'ladi. Bunda avtomobil tekis yo'lda harakatlanganda bir tomonga tortib ketadi. Burilish burchaklarining farqi oldingi g'ildiraklar shinasiga yedirilishiga sabab bo'ladi. Bu aksariyat hollarda burilishlar ko'p bo'lgan shahar va tog' sharoitilarida sodir bo'ladi. Burilish burchaklari noto'g'ri o'rnatilganligining alomati ikki shinadan birining tashqi protektori ko'proq yedirilishidir.

Ekspluatatsiya jarayonida ko'priklarning bir-biriga nisbatan parallel joylashishi buziladi va biri ikkinchisiga nisbatan suriladi. Ko'pgina hollarda

surilish orqa ko'priksda sodir bo'ladi. Bunda avtomobil harakat yo'nalishiga nisbatan burchak ostida joylashadi. Orqa ko'priks shinalaridan biri protektorining tashqi, ikkinchisining ichki qismlarida changsimon yedirilish sodir bo'ladi. Har qanday turdag'i notekis yedirilishning o'z vaqtida oldi olinmasa, ma'lum fursatdan so'ng protektor to'liq yuza bo'yicha to'lqinsimon yedirilib ketadi. Shinaning yedirilishiga avtomobil texnik holatining boshqa omillari: yengil avtomobil mayatnigi richagining o'q bo'yicha lyufti (oldingi o'ng tomondagi shinaning yedirilishi ko'proq bo'ladi), shkvorendagi (sharli tayanchlardagi), gupchak podshi pniklardagi lyuftlar, tormoz barabanlari ishchi yuzasining tuxumsimon bo'lib qolishi va h.k.lar ta'sir ko'rsatadi. Bu nosozliklar yuqorida ko'rib chiqilganlarga nisbatan juda kam ta'sirli hamda ularni oson aniqlab olish mumkin.



*103-rasm. Shinaning ishlash davriga yaqinlashuv va og'ish burchaklarining ta'siri*

## SHINALARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Shinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash** xuddi avtomobilarniki kabi rejaviy ogohlantirish tizimiga asosan bajariladi, ammo u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shinalarga xizmat ko'rsatish texnik xizmat ko'rsatishning turlari bo'yicha joriy ta'mirlash — shinomontaj ustaxonasida, kapital ta'mirlash (qayta tiklash) — maxsus korxonalarda bajariladi. Qayta tiklangan shinalar to'g'risida to'liq ma'lumotlar bo'lmaganligi tufayli, ulardan foydalanish davri ehtimoliy hol hisoblanadi. ATK sharoitida shinalar bo'yicha ajratish-yig'ish, havo bosimini nazorat qilish, muvozanatlash, kamera va mayda jarohatlangan shinalarni ta'mirlash, tashqi nazorat qilish hamda ulardan foydalanish davrini hisobga olish ishlari bajariladi. Yuqoridagi ish turlari bilan

g`ildirakni o`rnatish burchaklarini sozlash chambarchas bog`langandir, bu ishlar kitobning avvalgi bo`limlarida ko`rib chiqilgan.

*Ajratish-yig`ish ishlari.* Disk bilan shinani ajratish va yig`ish ishlari shina o`z muddatini o`tab bo`lgandan so`ng yoki kamera teshilganda bajariladi. Ajratishdagi eng qiyin masala shina bortini diskning chetidan siqib chiqarish hisoblanadi. Shu maqsadlar uchun ATK sharoitida yoki zavodlar tomonidan har xil jihozlar ishlab chiqariladi. Yengil avtomobillar shinalarini ajratish va yig`ish uchun SH-501M hamda SH-514 modeldagi jihozlar bor. Ular shina bortlarini bir tekisda bosish uchun 2000-3000 N kuchni hosil qiluvchi havo yuritmalii bosish moslamalariga ega.

Yuk avtomobilari shinalari uchun Sh-509 va Sh-513 jihozlari ishlab chiqariladi. Ular birdaniga aylana bo`yicha shina bortlarini bosish uchun 250 kN kuchni hosil qiluvchi suyuqlik yuritmalii bosish moslamalariga ega.

Yuqoridagi jihozlar yo`q bo`lgan taqdirda ajratish ishlari qo`l kuchi yordamida bajariladi. Buning natijasida shinaning yon tomoni jarohatlanadi va muddatidan oldin ishdan chiqadi. Kamerasiz shinalarda esa, bortlardagi rezina qatlami jarohatlanadi va zichlik buziladi.

*Shinalarni damlash.* Yig`ilgan shina me`yoriy havo bosimigacha damlanadi. Yuk avtomobilari va avtobuslar shinalarini damlash paytida zanjir halqasi chiqib ketib ishlovchini jarohatlashi mumkin. Bunday hodisalarning oldini olish maqsadida, ular maxsus metal qafaslarda damilanadi. Agar damlash yo`l sharoitida bajarilsa, g`ildirakning zanjir halqasi yerga qaratib qo`yiladi. ATK sharoitida shinalarni damlash har xil usullar bilan bajariladi. Eng ko`p tarqalgan usul havo kolonkalari yordamida damlash. Bunda nazoratchi doimiy qatnashib turishi shart bo`lmay, shinadagi bosim me`yoriy holga kelgach, uskuna avtomatik ravishda o`chadi. Uning kamchiligi me`yoriy bosim (yuk avtomobilari uchun  $\pm 0,02$  MPa, yengil avtomobillar uchun  $\pm 0,1$  MPa farqi bilan) ta`minlashning qiyinligidan iborat. ATK larda olib borilgan nazorat ishlari shuni ko`rsatdiki, 40-60% shinalardagi bosim me`yordan farq qiladi. Ekspluatatsiya qilinayotgan shinalardagi bosimning ehtimoliy zichligi shunday tafsiflanadi: matematik kutish me`yordan 5-10% kam, variatsiya koefitsiyenti  $u=0,06+0,15$ , shinalar ishslash davrining kamayishi 4-10% ni tashkil qiladi. Buning sababi qo`shaloq shinalardagi ichki shina bosimini aniqlash qiyinlidir.

Aniq bir korxona uchun shinalar resursini yo`qotishni aniqlash maqsadida nomogramma ishlab chiqilgan (104-rasm).

Shinadagi bosimni tezda aniqlashning zamонавиyo`nalishlaridan biri shina yon qismini yoki protektorini ezish vaqtida qarshilik kuchi bo`yicha hisoblashdir (105-rasm). Bu usulning kamchiligi aniqlangan qiyomatning shina qattiqligiga bog`liqligidadir, bu usul yuqoridagisiga qaraganda ATK

sharoitida shinadagi havo bosimining me'yoriy qiymatdan farqi kamayishini ta'minlaydi, ya'ni farq  $u=0,05$  (104-rasm), shu jumladan yengil avtomobil uchun  $\pm 0,025$ , yuk avtomobili uchun  $\pm 0,050-0,075$  MPa bo'lib, bunda shinalarning o'rtacha ishslash muddatini 1,5% kamayishi mumkin.

Avtomobilarning modeli va turini hisobga olgan holda shinadagi me'yoriy havo bosimining qiymati asosiy hujjat hisoblangan «Avtomobil shinalarini ekspluatatsiya qilish qoidalari»da aks ettirilgan. Ishlab chiqaruvchi zavodlarning qo'llanmalari tavsya harakteriga ega.

Havo bosimini nazorat qilish har bir TXK da bajariladi. Undan tashqari haydovchi har kuni shinani ko'zdan kechirishi va zarurat bo'lsa bosimini aniqlashi zarur.


*Gildiraklarni muvozanatlash.* Shina ishlab chiqarish zavodlarining texnik shartiga ko'ra yuk avtomobili shinasing nomuvozanatligi shina massasining 0,5-0,7 % ining uning radiusiga ko'paytmasi miqdorida, yengil avtomobilni esa 1000-2000 g-sm bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'rnatilgan va damlangan g'ildiraklarni muvozanatlash zarur. Muvozanatlash uchun qo'zg'almas K-121 va AMR-5 (Germaniya) turidagi hamda avtomobildan g'ildiraklarni yechishni talab qilmaydigan harakatlanuvchan K-125 va YEWK-15V (Polsha) turidagi jihozlardan foydalaniлади. Nomuvozanatlik muvozanatlovchi yukchalarni disk qirg'og'iga o'rnatish bilan bartaraf qilinadi.

Qo'zg'almas jihozlarning ishslash tartibi quyidagicha: g'ildirak jihoz valiga qotiriladi (106-rasm) va 650-800 ayl/daq. tezlikda aylantiriladi.

**104-rasm. Jo'mrakni ochmasdan turib shinadagi havo bosimini nazorat qilish moslamasi:**

a-avtomobilni joylashtirish; b-bosimni o'lchash;


1-bosim ko'satkich; 2-tayanch plita; 3-ko'taruvchi plita; 4-harakatlanuvchi tayanchlar; 5-qo'zg'almas tayanch; 6-harakatlanish datchiklari; 7-posongi; 8-havo kamerasi.



Muvozanatlasmagan g'ildirak massasining aylanishi hisobiga buruvchi moment paydo bo'ladi, natijada jihoz vali (jihoz tuzilishiga qarab) gorizontal, vertikal yoki konussimon tebranadi. Tebranishlar amplitudasi nomuvozanatlik qiymatiga bog'liqdir. Bu qiymatni maxsus datchiklar aniqlab o'lchash asbobiga uzatadi.

Zamonaviy qo'zg'almas jihozlar g'ildiraklarni muvozanatlash ishini statik va dinamik turlarga bo'lmasdan bajaradi. Birinchi navbatda, g'ildirakning tashqi bir tomondagi eng yengil joyi, keyin esa ikkinchi tomondagisi aniqlanadi. Ba'zi jihoz modellarida ikkala tomondagi nomuvozanatlik bir vaqtning o'zida aniqlanishi mumkin. Harakatlanuvchi jihozlar muvozanatlashni birin-ketin, avval statik, keyin dinamik tarzda bajaradi. Harakatlanuvchi jihozlarning (107-rasm, a) ishlash yo'rig'i quyidagicha: osilgan avtomobil g'ildiragini (4) jihoz elektrosvigatel (1) yordamida 120-170 km/soat tezlikka to'g'ri keluvchi chastota bilan aylantiriladi. Avtomobilning pastki osmasi richagiga (6) yoki tayanch tormoz shitiga mahkamlangan datchik (7) g'ildirak tebranishini elektr signaliga aylantirib beradi.


Datchikning o'rnatish yuzasiga ta'sir etuvchi



105-rasm. ATK bo'yicha shina ishlash davrining o'rtacha kamayishini aniqlovchi nomogramma:

Dr-ATK bo'yicha shina bosimining me'yordan o'rtacha og'ishi;

DR-ishlash davrini yo'qotish;  $u$ -variasiya koefitsiyenti.



106-rasm. Qo'zg'almas muvozanatlash jihozining ishlash yo'rig'i:

$R_1$ ,  $R_2$ -muvozanatlasmagan shina massalari ( $R_1 \neq R_2$ ),  $R'_1$ ,  $R'_2$ -muvozanatlash yukchalarining massasi

impulslar jihozning o'lchash moslamasiga yuboriladi. Impuls amplitudalari bo'yicha ko'rsatuvchi indikator (3) yordamida kerakli miqdordagi muvozanatlash yukining qiymati aniqlanadi. Shu jumladan impulslar stroboskop lampani (2) ishga tushishga majbur etadi. Uning yonishida g'ildirak aylanmasdan turganday ko'rindi. Yoritilayotgan nuqta eslab qolinadi va g'ildirak aylanishdan to'xtagach, uning eng og'ir yeri aniqlanadi.

*Statik muvozanatlilikni* bartaraf etish uchun yukchalar (8) diskning ikki tomoniga o'rnatiladi. Dinamik muvozanatlilikni bartaraf qilish uchun yukchalar diagonal bo'yicha ikki tomonga o'rnatiladi (107-rasm, b,c). Muvozanatlashni aniq bajarish maqsadida yuqoridagi jarayon 1-2 marta bajariladi.

*Dinamik muvozanatlash* ishlarni bajarish juda qiyin, chunki datchikni tayanch tormoz shiti bilan doimiy kontaktda ushlab turish mumkin emas. Oxirgi vaqtarda xorijiy firmalar faqat statik muvozanatlovchi jihozlar ishlab chiqarmoqda. Harakatlanuvchi jihozlarda ishlash uchun yuqori saviyali ishchilar talab qilinadi.


Statik muvozanatlash jihozsiz ham bajarilishi mumkin, buning uchun yengil aylanuvchi stupitsaga g'ildirak o'rnatiladi. G'ildirakning eng og'ir qismi doimo pastki holatda bo'ladi. Qarama-qarshi tomoniga o'rnatiladigan yukchalar bu holat tugaguncha almashtirib turiladi. Bu usul yuk avtomobilari va avtobuslarning g'ildiraklarini muvozanatlash uchun tavsiya qilinadi.

G'ildiraklarni muvozanatlash yangi shina o'rnatilganda va har 2-TXK da

bajarilishi zarur. Harakatlanuvchi va qo'zg'almas jihozlar ishlashlarining o'ziga xosligini nazarda tutgan holda, katta taksa-motor saroylarining shinomontaj ustaxonalarida va 2-TXK zonasida qo'zg'almas, 1-TXK da statik muvozanatlovchi harakatlanuvchan jihozlarni tavsiya qilish mumkin.

#### Shinalarni tamg'lash.

Har bir shinaning farqlanuvchi belgisi zavod raqami hisoblanadi. Shuning asosida ATK da hisob olib boriladi, lekin ishlash jarayonida raqam



107-rasm. Harakatlanuvchi muvozanatlash jihozining ishlash shakli

anglab bo'lmas darajaga kelib qolishi mumkin. Qayta tiklangan shinalarda esa raqam umuman bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun, ATK larda shinalar tamg' alanadi, ularga garaj raqamlari kuydirib bosiladi. Buning uchun maxsus asboblardan foydalaniлади: kuchlanishni 6 V gacha pasaytiruvchi transformator, 34×20 kattalikdagi nixrom simdan tayyorlangan raqamlar uchun kolodka va ushlagich. Kuchlanishni ulash natijasida raqam qiziydi va u g'ildirakning yon tomoniga bosiladi. Kuydirish chuqurligi 1 mm dan oshmasligi zarur. Buning uchun 6224 va SH-309 modellardagi tamg' alash asboblari ishlab chiqariladi.

Kamera va shinalarni ta'mirlash. Agar kameralar neft mahsulotlari bilan shikastlanmagan, devorlari qotib qolmagan, shikastlangan yerlarining o'lchamlari yamash jihozlarining imkoniyatini qondirsa, ya'ni shikastlanish uzunligi 150 mm gacha bo'lsa, ular ta'mirlanadi. Ta'mirlash joyi charx dar yordamida dag'allashtiriladi va changdan tozalanadi. Kichik shikastlangan (30 mm gacha) joylar xom rezina yordamida yamaladi. Yamash vaqtida xom rezina va shikastlangan joyga 1:8 tarkibdagi yelim (bir qism xom rezina va sak'kiz qism toza benzin) bilan ishlov beriladi. Bu shart butilkauchukdan tayyorlangan kameralarga tegishli, chunki havoda kam diffuziyalanib singish xususiyatiga ega. Ular oddiy yamash materiallariga ishlatilganda yamash qiyinlashadi.

Yelim to'liq qurigandan so'ng (parsimon qatlama hosil bo'lmasligi uchun) shikastlangan joyga, xom rezinadan tayyorlangan yamoq qo'yiladi va yamash apparatiga 15-20 daqiqa o'rnatiladi. Yamash harorati 143°C. Xuddi shu usul bilan shinalarning yon yuzasidagi to'liq teshilmagan joylar ta'mirlanadi.

Yo'l sharoitida kameralarni ta'mirlashda akkumulyator batareyasida ishlovchi elektr yamagichlardan foydalaniлади. Oxirgi vaqtarda isitish talab qilinmaydigan o'zi yamash materiallaridan foydalaniлоqda. Ta'mirlangan kameralarning zichligi suvli sig'inda tekshiriladi. Kameralarni yamash uchun hozirda 6134, 6140, SH-109, SH-112, SH-113 modeldagi elektr yamagichlar ishlab chiqariladi.

Teshilgan kamerasiz shinalarni diskdan yechmasdan (bortlardagi ji pslashtiruvchi qatlama shikast yetkazmaslik maqsadida) turib ta'mirlanadi. Agar teshik 3 mm dan kichik bo'lsa, u maxsus yelim pasta bilan shprits yordamida to'ldiriladi. 3 dan 10 mm gacha bo'lgan teshiklar tijinlar yordamida ta'mirlanadi (108-rasm, b,d). Ularga yelim surtiladi va maxsus sterjenlar yordamida teshikka kiritiladi. Teshikdan chiqib qolgan qism protektor yuzasidan 2-3 mm balandlikda kesib tashilanadi. 10-15 daqiqadan so'ng shinani damlash mumkin.

Kamerasiz shinalarning sisatsiz yamalishiga sabab, ularni ishlab chiqaradigan zavod tomonidan ichki qatlama maxsus upa sepilganligidir. Bunda uchun teshik dumaloq egov bilan tozalanadi yoki bir necha tomchi benzin bilan ho'llanadi. 10 mm dan katta teshik va yoriqlari bo'lgan shinalar


diskdan yechib olib ta'mirlanadi. Maxsus moslama yordamida shinaning ichki qismidan teshikka xom rezinadan tayyorlangan qo'ziqorincha kiritiladi (108-rasm, a,c), keyin esa yamaladi. Xuddi shu usul bilan kamerali shinalar ham ta'mirlanadi.

*Yuk avtomobilari shinalarining 20-25% i yengil mahalliy shikastlanadi (teshiklar, qirqilishlar, yoriqlar va h.k.). Ular o'z vaqtida ta'mirlanmasa, 5-6 ming km dan so'ng kattalashib ketadi, natijada shinani hisobdan chiqarishga to'g'ri keladi. ATK sharoitida mahalliy shikastlangan joylarni o'z vaqtida ta'mirlash shinalarining ekspluatatsiya davrini uzaytiradi.*

Shinani sifatli yamashni ta'minlash uchun uni tozalash va quritish zarur. Karkas namligi 5% dan oshmasligi kerak. Shikastlangan joy ko'pincha nazorat yo'li bilan aniqlanadi, chunki hozirgi vaqtida ultratovushli moslamalar va pnevmodefektoskoplar mavjud bo'lib, ular juda qimmat va murakkab tuzilishga egadir.

Shinalarning shikastlanganlik darajasiga asosan ularga ishlov berish turli ko'rinishda bo'lishi mumkin (109-rasm). Bu ishlar SH-308 modelidagi shina ta'mirovchingin asboblar yig'masi yordamida bajariladi.

Yelim cho'tka yoki sepgich yordamida surliladi. Sepgich yordamida sepiladigan yelim tarkibi 1:10 bo'lishi kerak. Shikastlangan joyni yamashda har xil usullardan foydalaniлади, ular ishlatiladigan material turiga bog'liq bo'ladi. Har bir usul o'zining texnologiyasiga ega. Shinalarni yamash maxsus jihozlar yordamida bajariladi. Ular ichiga shina o'rnataladi va shinaning ichiga esa, uning shakliga mos siqish moslamasi joylashtiriladi. Shikastlangan joyni isitish bir yoki ikki tomonlama bo'lib, yamash vaqt 25-30 % ga qisqarishi mumkin. Hozirda bu ishlarni bajarish uchun SH-116 va SH-117 rusumli elektryamagichlar ishlab chiqariladi.



*108-rasm. Shina teshiklarini ta'mirlash uchun moslama:*

*a-qo'ziqorincha; b-tiqin; c-qo'ziqorinchani nina quloqli bigiz yordamida o'rnatish; d-qo'ziqorinchani o'rnatish moslamasi; e-tiqinni o'rnatish sterjeni.*

Protektori yedirilgan shinalar yangi protektor qoplash yo'li bilan tiklanadi. Bu iqtisodiy foydali. Tiklash uchun ketgan sarf yangi shina narxining taxminan 25% ini tashkil qiladi. Tiklangan shinalarining ishlash davri

yangi shinalarga nisbatan 40-60% ni, agar oliv navli rezinalar ishlataligan bo`lsa 100 % ni tashkil qilishi mumkin.

Diagonal shinalar ikkinchi marta, ba`zi hollarda uchinchi marta qayta tiklanishi mumkin. Radial shinalar esa, faqat bir marta qayta tiklanadi.

Shinalar birinchi yoki ikkinchi sinf bo`yicha tiklanadi. 1-sinfga kord matolari jarohatlanmagan va kam teshilgan (10 mm dan katta bo`limgan beshtagacha teshik) shinalar kiradi. Bu shinalarni shaharlaro avtobuslardan tashqari, har qanday transport vositasiga o`rnatish mumkin. 2-sinfga karkasda va brekerda chegaraviy shikastlari mayjud bo`lgan shinalar kiradi. Bu shinalarni yengil avtomobillar, shahar avtobuslari, troleybuslar va har qanday shaharlaro transport vositalarining oldingi ko`prigiga o`rnatish ta`qilanganadi.

Yengil avtomobilarning diagonal tuzilishga ega bo`lgan 4 qatlamlili va radial tuzilishdagi shinalari qayta tiklashga faqat birinchi sinf bo`yicha qabul qilinadi. Yuqorida shartlarga mos emas va ishlab chiqarilganligiga o`n yil bo`limgan shinalar ikkinchi sinf bo`yicha qayta tiklashga qabul qilinadi.

## ATK DA SHINA XO`JALIGINI TASHKIL ETISH

ATK dagi shina xo`jaligi deb, shinalarga texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash ishlari bajariluvchi ishlab chiqarish ustaxonalarini yoki bo`limlarining majmui tushuniladi. Bu tarkibda yamoqchilik ustaxonasi, shinalarni almashtirish va damlash posti, shina ombori hamda 1-TX va 2-TX zonalaridagi shinalarga xizmat ko`rsatish ish joylari bo`lgan ustaxona mayjud bo`ladi. Shinalarning texnik ekspluatatsiyasiga, ularni hisobga olishga va kerakli hisobot hujjatlarini olib borishga ishlab chiqarish texnik bo`limida ishlovchi shina bo`yicha texnik javobgar hisoblanadi.

**Shinalarni hisobga olish.** Har bir yangi keltirilgan shina uchun «Shina ishini hisobga olish varaqasi» tutiladi. Shina ishlash muddati tugagach, u hisobdan chiqarish sababi hamda ekspluatatsion me`yorga nisbatan haqiqiy yurgan yo`li taqqoslanadi va yozib qo`yiladi. Shinalar me`yoriy ishslash muddati (masofasi)-L<sub>n</sub> zavodlar tomonidan belgilanadi. Me`yoriy ishslash muddatidan tashqari kafolatli



ishlash davri ham mavjud. Masalan, yengil avtomobilarning metall kord brekerli radial shinalari kafolatli ishlash davri 44 ming km ni tashkil qiladi.

Qayta tiklangan shinalarning me'yoriy ishlash davri-L<sub>v</sub> noaniq bo'lib, ATK ning o'zi belgilashi mumkin. Amaliyotda qayta tiklangan shinalarning me'yoriy ishlash davri yangisining 40% ini tashkil qiladi deb qabul qilinadi.

Shinalarning me'yoriy ishlash davri o'tgan yoki o'tmaganligiga qarab, haydovchi rag'batlantiriladi yoki unga chora ko'rildi. Bu harakatlar me'yoriy hujjatlar asosida aniqlangan.

Shinalarni ekspluatatsiya qilish ko'satkichlarining asosiysi, ularning ATK bo'yicha yil davomida yurgan o'rtacha yo'li hamda ularning birlamchi-P<sub>n.v</sub> va ikkilamchi-P<sub>v.v</sub> qayta tiklashga topshirilgan ulushlari hisoblanadi.

Shinalarni qayta tiklashga topshirish va qabul qilish jarayonida ularning aralashib ketishi, yangi va qayta tiklangan shinalarning ekspluatatsiya davrini to'liq baholashga imkoniyat yo'q. Shuning uchun shinalarning ishlash davridan foydalanish koefisiyenti - K<sub>i.r</sub> ishlab chiqilgan, u avtovtransport korxonasi bo'yicha yangi va qayta tiklangan shinalarning o'rtacha yurgan yo'lini - L<sub>um</sub> me'yoriy yurish kerak bo'ladigan yo'liga - L<sub>m</sub> nisbati bilan aniqlanadi:

$$K_{i.r} = \frac{L_{um}}{L_m} = K_{p.n} + K_{p.v} K_v \frac{n_{v.v} L'_v}{n_{H.B} L'_m}$$

Bu yerda: K<sub>p.n</sub> va K<sub>p.v</sub> - yangi va qayta tiklangan avtomobilarni me'yoriy ishlash davrini o'taganligini ko'satuvgchi koefisiyent; K<sub>v</sub> - shinani qayta tiklash koefisiyenti; n<sub>v.v</sub> - qayta tiklanganlar ichidan safdan chiqarilgan shinalar soni; n<sub>H.B</sub> - yangilar ichidan qayta tiklashga yuborilgan shinalar soni.

K<sub>v</sub> koefisiyenti ATK da har bir shina necha marotaba tiklanishini aniqlaydi.

$$K_v = \frac{n_{n.v}}{100 - n_{n.v}}$$

n<sub>n.v</sub>/n<sub>v.v</sub> - nisbat korxonalar qayta tiklangan shinalarni o'z vaqtida olishini va ularni to'liq ekspluatatsiyaga tushirishini bildiradi.

Shunday qilib, K<sub>i.r</sub> koefisiyenti shinaning ishlash davridan foydalanish etaplarini protektorning yedirilishiga, qayta tiklash uchun saqlanganligiga, qayta tiklangan shinalardan to'liq foydalanishga nisbatan baholashga imkon beradi. L<sub>um</sub> qiymat bo'yicha shinalarga ketgan xarajatni (so'm/m/1000 km) hisoblash va rejalashtirish mumkin.

**Texnologik jarayonni tashkil qilish.** Operatsiyalarни to'liq bajarish, ustaxonalar, ishchilar va ishchi postlarining bir maromda ishlashi shinaning ishlash davriga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Yuk va avtobus ATK larida MAYI tomonidan o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, KX va 1-TX da shina bo'yicha ishlarning sifatsiz bajarilishi natijasida uning ishlash davri 4% ga, 2-TX da (g'ildiraklarni o'rnatish burchaklarini va muvozanatlashni to'liq bajarilmaganligi) 11% ga, shinani ajratish va yig'ish

ustaxonasida (shinalarni tartibli ajratmaslik, disklarning holatini nazorat qilmaslik) 7% ga kamayadi. Bu yo'qotishlar muhandis-texnik xizmatining o'z ishiga mas'uliyatsizlik bilan qarashi hamda ishlab chiqarish texnologiyasi va usullarini tashkil qilish takomillashtirilmaganligi oqibatida sodir bo'ladi.

Ko'p hollarda hammabop postlardan tashkil topgan 2-TX zonasida shinalarga xizmat ko'rsatish va o'rnatish burchaklarini sozlash ishlari to'liq hajmda bajarilishi juda qiyin. Buning uchun maxsus tdiagnozlash posti zarur.

Shinalarni ajratish va yig'ish ustaxonasida ish kunining birinchi yarmida kunlik ish hajmining 65-80% i bajariladi. Avtomobillar navbatda turib qoladi. Ishchilar ishlarni tez bajarishga harakat qiladilar hamda to'liq mehnat hajmini bajarmaydilar, natijada bu sifatga ta'sir ko'rsatadi. Ish kunining ikkinchi yarmida esa, ishchilar to'liq mehnat hajmi bilan ta'minlanmaydilar. Yedirilgan shinalarni shina ajratish va yig'ish ustaxonasida almashadirish jarayoni bir necha bosqichdan tarkib topadi (110-rasm). 2- va 3-bosqichlarning 1- va 4-bosqichlardan farqi, bu bosqichlarda avtomobil ishtirok etmaydi. Bu ishlar avtomobil xizmat ko'rsatishga kelgunga qadar bajarilishi mumkin.

Ishning bunday usulda tashkil qilinishi «shinalarni oldindan agregatlarga ajratish usuli» degan nomni olgan. Buning mazmuni shundan iboratki, shinalar oldindan zahiradagi disklarga o'rnatilib qo'yiladi. Haydovchining vazifasi yedirilgan g'ildirakni topshirish va kerakli hujjalarni to'ldirishdan iborat. Avtomobilning turishi ikki, uch barobar qisqaradi.

### **110-rasm. Shinalarni almashtirish jarayonining bosqichlari va davri:**

*A-ishlarni belgilangan ketma-ketlikda bajarishdagи avtomobilning turish vaqt; B+C-shinani oldindan agregatlarga ajratib ishlarni bajarishga ketgan vaqt*

1-BOSQICH	2-BOSQICH	3-BOSQICH	4-BOSQICH
Avtomobildan g'ildirakni yechish, tekshirish: - g'ildirakni yechish; - ustaxonaga eltish; - shinani ajratish, saralash; - hujjalarni rasmiylashtirish.	Yangi shinalarni olish: - yechilgan shinalarni omborga eltish; - juhhatlarni rasmiylashtirish; - yangi shinalarni olish; - ustaxonaga eltish.	Shinani o'rnatish: - diskka shinani o'rnatish; - damlash; - muhrlash.	G'ildirakni avtomobiliga o'rnatish: - g'ildirakni eltish; - avtomobiliga o'rnatish.
1,0-1,5 soat	1,0-2,0 soat	1,0-1,5 soat	0,5 soat

A

B

C

**II. BO`LIM.**  
**MODDIY TEXNIKA TA`MINOTI VA**  
**RESURSLARNI TEJASH**

**MODDIY TEXNIKA TA`MINOTINING  
AVTOMOBIL TRANSPORTIDAGI  
ASOSIY VAZIFALARI**

Avtotransport vositalari doimo ko`payishi va ulardan ko`proq foydalanimish natijasida ekspluatatsiya xarajatlari oshib bormoqda. Bu harajatlarning bor-yo`g`i 12-15% i texnik xizmat va ta`mirlash uchun sarflanadi. Shu bilan birga, yuk tashish tannarxi boshqa mahsulotlar (yonilg`i va moy mahsulotlari, shinalar, ish haqi va h. k.) uchun ketadigan xarajatlarning qiymatiga, TXK va T sifatiga hamda muhandis-teknik xizmati (MTX) ning samarali ishlashiga uzviy bog`liqdir.

Avtotransport sohasida yaqin yillarda bajariladigan eng asosiy vazifalar quydagilardan iborat:

- avtotransport korxonalarini qaytadan tildash va zamонави uskunalar bilan jihozlash;
- yonilg`i va boshqa ekspluatatsiya materiallarini tejab sarflash;
- korxonalarda yangicha boshqarish usullarini tatbiq qilish;
- atrof-muhit muhofazasini ta`minlovchi usullarni qo`llash.

Yuqorida ko`rsatilgan vazifalarning asosiyalaridan biri yonilg`i va boshqa ekspluatatsiya materiallarini tejab sarflash hisoblanadi. Avtotransport korxonalaridagi moddiy-teknika ta`minoti (MTT) xizmati avtotransport vositalarini ekspluatatsiya materialari (yonilg`i, moy, rezina), ehtiyyot qismlar, agregatlar bilan ta`minlab, ularning beto`xtov ishlashi uchun zamin yaratadi.

ATK larda MTT ning asosiy vazifalari quydagilardan iboratdir:

- 1) Korxonani harakatdagi tarkib bilan ta`minlash;
- 2) Korxonalardagi avtomobilarning beto`xtov ishlashi uchun ularni kerak bo`lgan barcha materiallar bilan o`z vaqtida ta`minlash;
- 3) Ehtiyyot qismlar va materiallar saqlashni tashkil qilish;
- 4) Omborlardagi ehtiyyot qismlar va materiallarning aylanishini ko`paytirish;

5) Avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatishda va ta'minlash ishlari bajarishda ehtiyoq qismlarni va materiallarni tejab-tergab ishlatalishni ta'minlash.

ATK larda MTT samaradorligini oshirish resurslarni sarflashning zamonaviy me'yorlaridan foydalanishga uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, ehtiyoq qismlar va materiallarni o'z vaqtida olib kelish, ularni yaxshi saqlash va to'g'ri taqsimalash katta ahamiyatga ega. Ta'minot rejalarini kelgusi yildagi yuk va yo'lovchilar tashish rejalarini, ekspluatatsiya qilish sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgandagina tejamkorlikni ta'minlay oladi.

## AVTOMOBIL TRANSPORTIDA ISHLATILADIGAN MAHSULOT VA MATERIALLAR

**Harakatdagi tarkib.** Hozirgi vaqtida MDH davlatlarida 250 dan ortiq turdag'i avtomobil transporti vositalari («ZIL», «GAZ», «MAZ», «KrAZ», «Ural», «BelAZ», «LAZ», «PAZ», «UAZ», «RAF», «VAZ», «Moskvich», «ZAZ» va x.k.), shu jumladan, O'zbekistonda «UzDaewooAvto» («Neksiya», «Tiko», «Damas», «Matiz», «Lasetti» yengil avtomobilari) va Samarcand shahrida O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasi «Samkochavto» zavodidan kichik turkumdag'i avtobuslar (M.23, M.24, M.29,M.50) va ixtisoslashgan yuk avtomobilari (35.9, 65.9, 85.12 va boshqalar) ishlab chiqarilmogda va ulardan foydalaniilmogda. Bularidan tashqari, turli xorijiy o'lkalardan ketirilgan (o'ta og'ir yuk ko'taruvchi (75-200 t) «Katerppiller 754», «Yuklid 200» va og'ir yuk ko'taruvchi (8-39 t) «Daewoo» avtomobilari hamda o'rta va katta sig'imli «Mersedes-Benz 0405» va «Daewoo VS-106» avtobuslari) avtomobilarni ekspluatatsiyasi keng yo'lga qo'yilgan.

**Ehtiyoq qismlar.** Avtomobil transporti tomonidan ishlataladigan buyum va mahsulotlarning 70 % i ehtiyoq qismlarni tashkil qiladi. Xalq xo'jaligida ishlataladigan yuk-va yengil avtomobilarda ishlataladigan ehtiyoq qismlar nomenklaturasi 15 mingdan ortiqni, shaxsiy yengil avtomobilarda esa 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Ehtiyoq qismlar mexanik detal va birikmalar, yonilg'i apparati detallari va birikmalari, elektr asboblari va birikmalari, podshipniklar, oyna, rezina, asbest mahsulotlari, tigqinlar, plastmassalar, kartonlar va qog'ozlarni tashkil qiladi.

**Avtomobil shinalari va akkumulyatorlar.** Bu turdag'i texnik mahsulotlar avtomobil ehtiyoq qismlar nomenklaturasiga kirmaydi, shuning uchun ularni taqsimalash va hisobga olish alohida bajariladi. MDH va horijda yuzdan ortiq turdag'i shinalar hamda ular uchun kameralar ishlab chiqariladi. Avtomobilarda ishlataladigan akkumulyatorlarning behisob turlari mavjud.

**Yonilg'i-moy mahsulotlari.** Zamonaviy avtomobilarda ishlataladigan yonilg'i-moy mahsulotlarning 60 dan ortiq turi mavjud, shu jumladan bir necha turdag'i benzin (A-66, A-72, A-76, AI-93, AI-95 va AI-98), uch turdag'i dizel yonilg'isi (L, Z, A), ikki turdag'i gazsimon yonilg'i (SNG, SPG), o'ndan ortiq turdag'i

motor moylari (M-8B, M-8V<sub>1</sub>, M-12G<sub>1</sub>, M-6<sub>2</sub>/10G<sub>1</sub> va h.k.), o'ndan ortiq turdag'i transmissiyamoylari (TAD-17I, Tap-15V, TSp-14gi p, vah.k.), o'ndan ortiq turdag'i surkov moylari (S-solidol, J-solidol, I-13 surkov moyi, Konstalini-1, Litol-24, Fiol-1 va h.k.) bor.

**Texnik suyuqliklar.** Ular turlarining soni 20 ga yaqin bo'lib, qo'llanilishi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: sovutish suyuqliklari (40 va 65 markali antifriz, A-40 va A-65 markali tosollar); tormoz suyuqliklari (BSK, GTJ-22M, Neva, TOM, DOT-3, DOT-4 va h.k.); suyuqlik yuritmali ko'targichlar tizimi uchun (I-22A, I-30A, I-12A, AU, AMG-10, MVP); amortizatorlar uchun (AJ-16, AJ-12T, MGP-10); ishga tushiruvchi (Xolod-D40, NIAT TJ-25, Arktika).

**Lak-bo'yoq materiallari.** Avtomobillar tashqi ko'rinish sifatini ushlab turish va yuzalarini zanglashdan himoya qilish uchun ishlataladigan lak-bo'yoq materiallari (lak, bo'yoq, gruntovka, shpatlevka, eritgichlar)ning 100 dan ortiq turi mayjud.

**Texnologik jihozlar.** Harakatdagi tartibga TXK va T da qo'llaniladigan tozalash-yuvish, ko'tarish-tashish, moylash-to'ldirish, diagnozlash, ta'mirlash va boshqa jihozlar hamda maxsus asboblarning turlari 200 dan ortiqdir.

**Turli materiallар.** ATK xo'jalik ehtiyojlarini qondirish uchun ishlataladigan materiallarning turlari juda ko'p. Ular quyidagilardan iborat: metallar (oltiqirrali va dumaloq metallar, tunuka, shveller, dvutavr va po'lat burchaklar); kesuvchi va o'lchovchi asbolar (teshgich, plashka, metchik, egov, temir arra, qaychi, freza, shtangensirkul, mikrometr, chizg'ich, indikator va h.k.); elektrotexnik materiallalar (elektr simlari, elektr dvigatellari, transformatorlar, taqsimlash shitlari, turli xildagi yoritgichlar va h.k.); kimyoiy mahsulotlar (umummaqsal dar uchun ishlataladigan eritgichlar va bo'yoqlar, sulfat va xlorid kislotasi, yelim, olifa, texnik shampun, yaltiratish pastasi va h.k.); ta'mirlash-qurilish materiallari (taxta, faner, sement, alebastr, g'isht va h.k.); ishchilar uchun mahsus kiyimlar.

Shunday qilib, avtomobil transportining beto'xtov ishlashini ta'minlash uchun bir necha ming nomdag'i mahsulotlar va materiallalar zarur. ATK ni ta'minlovchi MTT hodimlari ularga kerakli miqdorda va oldindan buyurtma berishlari, kerakli vaqtida olishlari, to'g'ri taqsimlashlari va sifatlari asrashlari zarur.

## EHTIYOT QISM VA MATERIALLAR SARFIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ehtiyyot qismiga bo'lgan talabni aniqlovchi omillar yig'indisi to'rt guruhga bo'linadi: konstruktiv, ekspluatatsion, texnologik va tashkiliy (111-rasm).


Konstruktiv omillarga tuzilishning ishonchlilik darajasi, murakkabligi va unifikatsiyasi kiradi. Avtomobil ishonchliligining pasayishi ehtiyyot qismlarga bo'lgan talabni oshradi. Undan tashqari, ehtiyyot qismlarning sarfiga avtomobilning ishga tushgandan beri yurgan yo'li ham salmoqli ta'sir ko'rsatadi. 10-jadvaldan ko'rini turibdiki, avtomobil 250-300 ming km yurgandan so'nggi ehtiyyot qismaga ketgan

surf undan foydalanishning boshlanish davriga nisbatan bir necha o`n barobar ortiq. Avtomobilning ishlayibilish qobiliyatini saqlab turish uchun uning yurgan yo`li ko`payishi bilan ehtiyyot qism nomenklaturasi ham ko`payib boradi. Uchinchi yil ekspluatatsiya qilinishda uning soni birinchi yildagiga qaraganda 2-3 barobar ortiq bo`ladi, chunki avtomobilning eskirishi bilan ishdan chiquvchi detallarning soni oshadi (10, 11-jadvallar). Avtokorxonadagi avtomobillardan foydalanish har xil davrda boshlanganligi (har xil «yoshda» ekanligi, eksplutasiya boshlangandan beri turli miqdorda yo`l bosib o`tgani) va ularning turli rusumda ekanligi ATK larda MTT ni qiyinlashtiradi. Avtomobil sanoatining rivojlanishi avtomobillar texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarining yaxshilanayotganligini ko`rsatadi. Bunga tuzilishning murakkablashishi, konstruktiv elementlarning ko`payishi hisobiga erishiladi, bu ham o`z navbatida MTT ni qiyinlashtiradi.

Konstruktiv elementlar nomeklaturasini qisqartirishning eng asosiy yo`nalishlaridan biri, ularni unifikatsiyalashdir. Bu omil hozirda to`liq ishlatalmaydi va zavodlararo unifikatsiyalash darajasi 20% dan ortiq emas.

Ehtiyyot qismilar sarfiga foydalanish intensivligi, haydovchining mahorati, transport va yo`l (12-jadval) hamda tabiiy iqlim sharoitlari kabi ekspluatatsiya qilish omillari ta`sir ko`rsatadi (13-jadval). Ehtiyyot qismning sarfiga salmoqli ta`sir ko`rsatuvchi texnologik omillar - avtomobilarga TXK va JT sifati, ehtiyyot qism va ishlataladigan ekspluatatsion materiallarning sifati hamda tashkiliy omillar - harakatdagi tarkibning ko`payishi va safdan chiqarish, uning tuzilishi va ATK da mujassamlashganligi shular jumlasidandir.

### *111-rasm. Avtomobil ehtiyyot qismlari sarfiga ta`sir etuvchi omillar*



Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rinib turibdiki, ATK da harakatdagi tarkibning yurgan yo'llari, ekspluatatsiya sharoiti, iqlim sharoiti, haydovchilarning mahorati turlichadir. Shuning uchun, MTT ni tashkil qilishda ehtiyyot qismlarga bo'lgan talab va uning sarfini aniqlash yuqorida ko'rsatilgan omillar hisobga olinishi zarur. Ammo ATK sharoitida bu ishni amalga oshirish juda murakkab.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, amaliyotda ehtiyyot qismiga bo'lgan talab me'yorlarini aniqlash detallar ishonchliliginin o'ttacha qiymati bo'yicha bajariladi. Hisoblash ishlari aniqligini oshirish maqsadida «Avtomobil transporti harakatdagi tarkibiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash to'g'risidagi nizom»da ehtiyyot qismilar sarfi uchun ishlash sharoiti ( $K_1$ ), harakatdagi tarkib turi va uning ishini tashkil qilish ( $K_2$ ), tabiiy iqlim sharoitini hisobga oluvchi to'g'rilash koefitsiyentlari nazarda tutilgan.

*10-jadval. Ehtiyyot qismlarga sarflangan xarajatlarning bosib o'tilgan yo'lga bog'liqligi, %*

Avtomobil	Ishga tushgandan beri yurgan yo'lli, ming km					
	50	100	150	200	250	300
ZIL - 130	1	4	12,5	33	60	100
GAZ - 53A	0,7	3	9	28	53	90
KamAZ - 5320	2	7	26	65	115	190
LiAZ - 677M	3,5	15	38	92	172	290

*11-jadval. Ta'mirlash uchun sarflangan ehtiyyot qismlar nomenklaturasining bosib o'tilgan yo'lga bog'liqligi, dona*

Avtomobil	Ishga tushgandan beri yurgan yo'lli, ming km					
	50	100	150	200	250	300
GAZ - 24	45	70	92	120	148	176
Ikarus - 260	60	125	175	200	230	265

*12-jadval. Har xil yo'l sharoitida «ZIL-130» avtomobilari uchun ehtiyyot qismlarga ketgan harajatlar, %*

Yo'l sharoiti toifasi	Ishga tushgandan beri yurgan yo'lli, ming km					
	50	100	150	200	250	300
I	1	4	12,5	33	60	100
IY	1,5	5	15	38	70	125
Y	5	12	31	73	135	225

*13-jadval. Har xil tabiiy iqlim sharoitida «ZIL-130» avtomobilari uchun ehtiyyot qismlarga ketgan harajatlar, %*

Yo'l sharoiti toifasi	Ishga tushgandan beri yurgan yo'lli, ming km					
	50	100	150	200	250	300
Me'yoriy	1	4	12,5	33	60	100
Sovuq	4,5	9,5	25	59	102	160

# EHTIYOT QISMLARNI SAQLASH VA ZAHIRALARNI BOSHQARISH

## AGREGAT, BIRIKMA VA DETALLARNI HAR XIL DARAJADAGI OMBORLARDA SAQLASHDA ULARNING NOMENKLATURASI VA HAJMINI ANIQLASH

Bizga ma'lumki, ehtiyot qismlar sifatida ishlab chiqarilayotgan hamma detallarni ATK sharoitida saqlash maqsadga muvofiq emas. Bu zahiralarning haddan tashqari oshib ketishiga, omborlar maydonini o'sishiga va eng asosiyi ulardan samarasiz foydalanishga olib keladi, chunki ularning ko'pchiligi «o'lik» yuk sifatida yotadi. Boshqa tomondan qaraganda detallarning ishdan chiqishi ehtimoliy bo'lib, ATK da ehtiyot qism tarzida ishlab chiqarilayotgan har qanday detal kerak bo'lib qolishi mumkin. O'zimizda va chet elda MTT ni tashkil qilish jarayonlarini o'rganishlar bu masala ishlab chiqarish texnik yo'nalishdagи mahsulotlar uchun harakatlanuvchi omborlar usulini qo'llash yo'li bilan yechilishi mumkinligini ko'rsatdi, ya'ni zahiralar nomenklaturasi va hajmi turli darajada va pog'onaда markazlashgan holda saqlanadi. ATK dagi omborlarda faqat «tez-tez kerak bo'luchchi» detallari zahirasi kam miqdorda saqlanadi. Keyingi bosqichdagi omborlarda ko'proq nomenklaturadagi va hajmdagi detallar saqlanadi va h.k. Nihoyat, oxirida hamma nomeklatura va har bir detal bo'yicha zahiraning asosiy qismi markaziy omborda, masalan, shu avtomobilni ishlab chiqaruvchi zavodda saqlanadi.

Har bir omborda saqlanadigan ehtiyot qismlari nomenklaturasi va hajmini aniqlash usuli va ularning zahirasini ushlab turish «zahiralarni boshqarish» deyiladi. Har xil darajadagi omborlarda ehtiyot qismlarni boshqarish jarayoni turli usullar bilan amalga oshiriladi. Har bir avtomobil uchun ehtiyot qismlari nomenklaturasini, ularga bo'lgan talab darajasiga qarab guruhlarga bo'lish (A, B va C) usuli keng tarqalgan.

Birinchi guruh (eng ko'p talab qilinuvchi) ehtiyot qismlari (100-150 nomdagi) umumiy nomenklaturaning 10% ini o'z ichiga oladi. Ular bilan iste'molchi buyurtmasining 85% i qanoatlantiriladi hamda ular nomeklaturaning 70% qiymatini tashkil etadi. Bu detallar ko'p ishdan chiqadi va ATK da katta hajmdagi nosozliklar ularni almashtirish bilan bartaraf etiladi.

Ikkinci guruh (o'rtacha talab qilinuvchi) ehtiyot qismlari umumiy

nomenklaturaning 10% ini o'z ichiga oladi. Ular bilan iste'molchi buyurtmasining 5% i qanoatlantiriladi hamda ular nomeklaturaning 20 % qiymatini tashkil etadi.

Uchinchi guruh (kam talab qilinuvchi) ehtiyyot qismi (600-700 nomdag'i) umumiy nomenklaturaning 75% ini o'z ichiga oladi. Ular bilan iste'molchi buyurtmasining 5% i qanoatlantiriladi hamda ular nomeklaturaning 10% qiymatini tashkil etadi. Nomenklatura bo'yicha kam ahamiyatga ega bo'lgan, ammo sarflash va qiymati bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'lgan detallar va materiallar (A guruh)ni hamda B va C guruhga mansub detallarni aniqlash grafik yordamida amalga oshriladi (112-rasm). Ko'satilganidek, detallarning guruhlar bo'yicha taqsimoti ehtiyyot qismalar bilan ta'minlash tizimini tashkil etadi.

ATK da asosan A guruhdagi detallar saqlanib, ular ishdan chiqishlarning katta qismini tezda bartaraf qilishga yordam beradi. B guruhga mansub, kam talab qilinuvchi detallar yuqori pog'onadagi omborlarda saqlanadi. C guruhga mansub detallarni esa, ATKda saqlashning hojati yo'q, ularni faqat yuqori pog'onadagi omborlarda saqlash maqsadga muvofiqdir.


Zahiralarning hajmini va buyurtma berish vaqtlarini aniqlashda har xil usullar qo'llaniladi – oddiy talab jadvallaridan tortib, EHM yordamida murakkab iqtisodiy-matematik hisoblargacha.

Iqtisodiy-matematik usullar bir detalni keltirish va saqlash uchun eng kam xarajat talab qiladigan, uning hajmi va buyurtma davrini aniqlashga asoslangan.

Buyurtma hajmi va davrini aniqlashda asosiy ko'satkichlar sifatida qiymat ko'rinishidagi detallarga bo'lgan talab - V, buyurtmani xatlash va olishga sarflangan vaqt - S, zahirani ushlab turish uchun sarflangan vaqt - C qabul qilinadi. Zahiraning andozaviy hajmi - Q quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Q = \sqrt{2VS/C}$$

MTT ni tashkil qilish saboqlari shuni ko'satdiki, ATKlarni ehtiyyot qismalar bilan ta'minlash asosida ularni taqsimlash emas, balki boshqarish yotadi.



**112-rasm. Detal va materiallarning nomeklatura va qiymati bo'yicha bir-biriga bog'liqlik grafigi.**

## ATK DA OMBOR XO'JALIGINI TASHKIL QILISH VA ZAHIRALARНИ BOSHQARISH


ATK lardagi ishlab chiqarish zahiralarining hajmi narxi jihatidan quyidagi asosiy qismlarga bo`linadi. Ehtiyyot qismlar va materiallar ishlash qobiliyati va chidamligiga qarab ham quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1. Ishlash qobiliyati avtomobilnikiga teng qismlar.
2. Harakat havfsizligini ta`minlovchi qismlar.
3. Ishlay bilish qobiliyati kam va ish jarayonida almashtirish hisobga olingan qismlar.
4. Oldingi 3 guruh qismlarni almashtirish jarayonida yangilanishi zarur bo`lgan yordamchi qismlar.

Ko`rinib turibdiki, biz rejalashtirishda asosiy diqqatimizni keyingi 3 guruh qismlarga qaratishimiz kerak.

ATK omborlarida saqlanadigan ehtiyyot qismlar va materiallar turlari 4000ga yetadi. Bu qismlar va materiallar omborlarga biron-bir qonuniyat bilan joylashtirilmasa, ularni topib olish juda ko`p vaqt ni oladi. Shuning uchun saqlanadigan ehtiyyot qismlar va materiallar ma`lum qonuniyatga asosan bo`linadi va peshtaxtalarga joylashtiriladi. Ehtiyyot qismlar 10 ta asosiy guruhga (metallar, asboblar va moslamalar, elektrotexnik materiallar, bo`yoqlak materiallar, ximikatlar, ta`mirlash-qurilish materiallar, yordamchi materiallar, maxsus kiyimlar, stanoklar va ularning qismlari, turli materiallar), asosiy guruhlar esa yana 10 ta guruhchalarga va h.k bo`linib, nomenklatura qatori hosil bo`ladi, ular o`zlarining nomenklatura raqamlarini oladilar. Shunday qilib, har bir material 3 yoki 4 raqamdan iborat yorliqqa ega bo`ladi, bu raqamlar uni to`liq tavsiflaydi hamda omborxonada aniq bir ketma-ketlikda joylashtirishga imkon beradi. Materiallarni bunday taqsimlash «pog`onali narvon» nomini olgan bo`lib, ATK larda keng qo`llaniladi. Mahsulot va materiallarni shu yorliqlarga asosan maxsus peshtaxtalarga joylashtirish ishlab chiqarishga keraklilarini bir zumda topishga imkon beradi. Dumaloq shakldagi metallarni gorizontal shaklda ko`p qavatli peshtaxtalarда, yassi metallar vertikal shaklda peshtaxta kataklarida saqlanadi. Yengil o`t oluvchi materiallar va kislotalar (laklar, bo`yoqlar, sulfat kislotosi, sulfat va

**113-rasm.**



- |  |  |
|--|--|
|  | 1 - agregatlar va ehtiyyot qismlari (40-60%) |
|  | 2 - shinalar (8-15%)                         |
|  | 3 - yonilgi (4-8%)                           |
|  | 4 - asbob-uskunalar va vositalar (15-28%)    |
|  | 5 - har xil materiallar (10-12%)             |

xlorid kislotasi) ajratilgan holda boshqa, yong`inga chidamli xonalarda saqlanadi. Kislotalar yumshoq tagliklarga o`rnatilgan butillarda alohida ajratilgan xonalarda saqlanadi. ATK dagi katta ustaxonalarda kerakli materiallarni va detallarni o`z vaqtida olish uchun oraliq omborlari tashkil qilinadi.

O`matuvchi, kesuvchi, nazorat-o`lchash asboblari va moslamalari asbob-tarqatish omborchasida saqlanadi. Shu yerning o`zida mayda ta`mirlash ishlari bajariladi. Asboblar ko`p qavatli va katakli peshtaxtalarda saqlanadi, chunki ularning har biri o`zining nomeklatura raqamidagi katagiga ega bo`lishi kerak.

Haydovchi asboblari saqlanadigan omborcha avtomobilga biriktirilgan asboblarni saqlash va tarqatish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yerda ularning tarkibi va texnik holati tekshiriladi hamda zarur bo`lsa, ta`mirlashga topshiriladi. Asboblar andozaviy qutilarda yoki brizent sumkalarga solinib, avtomobillar soniga to`g`ri keluvchi katakli tokchalarda saqlanadi. Har bir avtomobil uchun asbob kitobchasi tutiladi, unda avtomobilga berilgan asboblarning nomi qayd etiladi.

Takelaj omborchasida yuklovchi materiallarni (brezentlar, arqonlar, zanjirlar, lomlar, lopatalar) saqlanadi va tarqatiladi hamda ular omborning o`zida quritiladi va ta`mirlanadi, hisobga olinadi va to`ldiriladi. Bu materiallarni ko`p qavatli peshtaxtalarda saqlanadi, ularni quritish uchun ilgakli maxsus xonalardan ajratiladi.

Chiqindilar uchun omborlarda yaroqsiz ishlab chiqarish ashyolari va materiallarni saqlanadi hamda ular qayta ishlash uchun kerakli tashkilotlarga topshiriladi. Shina va boshqa rezinatexnik mahsulotlar hamda materiallarni maxsus omborlarda saqlanadi. Bu omborlarning tuzilishi yerto`la yoki yarim yerto`la shaklida bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Shinalar ham 2 qavatli peshtaxtalarda tik turgan holda saqlanadi. Kamerlarga ozroq dam berilgan holatda ilgaklarda saqlanadi. Ular vaqtiga qarab bilan biroz aylantirilib turiladi. Shinalar ombori qorong`i bo`lib, u yerda havo harorati  $10^{\circ}\text{C} < t < +20^{\circ}\text{C}$  va namligi 50-60% oraliq`ida bo`lishi kerak. Shina saqlash xonalari yorug`lik nuridan himoyalash uchun maxsus oynali derazalar o`rnatiladi. Rezina materiallarni saqlash omborlarida ularga salbiy ta`sir etuvchi materiallarni (kerosin, benzin, skipidar, moy) bilan birgalikda saqlash taqiqlanadi.

Ta`mirlash uchun ishlatiladigan xom rezinalar yog`och tijinga ega bo`lgan o`ramlarda peshtaxta ustida saqlanadi. Ta`mirlash uchun ishlatiladigan yelim yopiq oynali idishda saqlanadi.

ATK omborida saqlanuvchi agregat, birikma va detallar hamda ular zahirasining miqdori harakatdagi tarkibning turiga, avtokorxonaning ishlab sharoitiga, zahiralarни boshqarish tizimiga hamda umuman avtomobil transporti harakatdagi tarkibiga texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash nizomi ko`rsatmalariga asosan aniqlanadi. Yangi va ta`mirlangan yoki safdan chiqarilgan avtomobillarning agregat va birikmalaridan aylanma fond tashkil qilinadi.

# AVTOMOBIL TRANSPORTINI YONILG`I MOY MAHSULOTLARI BILAN TA`MINLASH VA ULARNI TEJASH YO`LLARI

## AVTOMOBILLARNING YONILG`I SARFIGA TA`SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

Yonilg`i sarfiga ta`sir etuvchi omillar dvigateldagi va transmissiyadagi mexanik yo`qotishlar hamda avtomobil harakatida sodir bo`ladigan qarshiliklarni yengish bilan bog`liqdir.


Yonilg`i sarfi harakatlanishdagi qarshiliklarni yengish, g`ildirash, aerodinamik va inersiya kuchlarini yengishga yo`naltirilgan. Avtomobilning yonilg`i muvozanati quyidagi ifoda bo`yicha tavsiflanadi:

$$QS = Q_{dv} + Q_f + Q_{tr} + Qw + Qg + Qa$$

Bu yerda:  $QS$ —avtomobilning harakatlanishi uchun umumiy yonilg`i sarfi;  $Q_{dv}$ —dvigateldagi issiqlik va mexanik yo`qotishlarni yengish;  $Q_f$ —g`ildirash qarshiligin yengish;  $Q_{tr}$ —transmissiyadagi mexanik yo`qotishlarni yengish;  $Qw$ —aerodinamik qarshilikni yengish;  $Qg$ —avtomobil inersiya kuchini yengish;  $Qa$ —ko`tarilish va pastga tushishlarni yengish uchun yonilg`i sarfi.

Yengil avtomobilning yonilg`i muvozanati (114-rasm) shaklidan ko`rinib turibdiki, dvigatel quvvatining 60% i qarshiliklarni yengish uchun sarflanadi. Avtomobil transmissiyasiga yetkazib beriluvchi samarali quvvat (40 km/soat tezlikda) 21% ni tashkil qiladi. Transmissiyadagi mexanik yo`qotishlar 10-15% dan iborat.

Avtomobilning og`irligi va tuzilishiga bog`liq bo`lgan harakatlanishdagi



114 - r a s m .  
Yengil avtomobil-  
ning yonilg`i muvo-  
zanati.

qarshiliklari yonilg'i sarfiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Yuk avtomobilini tekis yo'lda 60 km/soat tezlik bilan harakatlanishidagi yonilg'i muvozanatini quyidagi raqamlar tavsiflaydi:  $Q_{dv} = 38\%$ ,  $Q_f = 28\%$ ,  $Q_{tr} = 10\%$ ,  $Q_w = 24\%$ , yengil avtomobilning harakatlanishida esa  $Q_{dv} = 61\%$ ,  $Q_f = 17\%$ ,  $Q_{tr} = 10\%$ ,  $Q_w = 12\%$ .

Avtomobilning shahar sharoitidagi harakatlanishida quvvatning 55% i avtomobilning tezlanishi uchun, 32% i g'ildirash qarshiligidini yengish uchun, 13% i aerodinamik qarshiliklarni yengish uchun sarflanadi.

Avtomobilarning yonilg'i-iqtisodiy ko'rsatichini oshirish, odatda avtomobilning og'irligini kamaytirish, dvigatel va transmissiyaning foydali ish koeffitsiyentini oshirish, g'ildirash va aerodinamik qarshilikni kamaytirish yo'li bilan amalga oshiriladi.


## TXK SIFATINING YONILG'I SARFIGA TA'SIRI

Ekspluatatsiya jarayonidagi yonilg'i sarfi avtomobilning texnik tavsifida keltirilgan yonilg'inинг nazorat sarfidan ortiq bo'ladi. Buning sababi, yonilg'i sarfiga ekspluatatsiya sharoitida boshqariladigan va boshqarilib bo'lmaydigan qo'shimcha omillarning ta'siridir (115-rasm).

Boshqariluvchi omillarga ularga ta'sir etish natijasida yonilg'i sarfmi kamaytirish mumkun bo'lgan omillar kiradi. O'z navbatida, ular tashkiliy texnologik va texnik turlarga bo'linadi. Boshqarilib bo'lmaydigan omillarga yonilg'inинг ekspluatatsion sarfiga salmoqli ta'sir etuvchi, ekspluatatsiya qilish va tabiiy iqlim sharoitlari kiradi.


Masalan,sovutq iqlim sharoitida avtomobilni ekspluatatsiya qilishda yonilg'i sarfi oshib ketadi (116-rasm). Bunga dvigatel ishi issiqlik rejimi yomonlashishi,

**115-rasm. Yonilg'inинг ekspluatatsion sarfini aniqlovchi asosiy omillar**



saqlash joyida dvigateli isitish, og'ir yo'l sharoiti, moylar qovushqoqligining oshishi munosabati bilan transmissiya foydali ish koeffitsiyentining pasayishi va boshqalar ta'sir qiladi.

Avtomobilarni issiq iqlim sharoitida ekspluatatsiya qilish silindrلarning to'lishiga va yonilg'i aralashmasining boyishiga, dvigatel va tizimlarining qizib ketishiga olib keladi. Buning natijasida texnik iqtisodiy ko'rsatkich yomonlashadi. Masalan, tashqi haroratning 20°C dan 40°C ga oshishi dizel dvigatellarida yonilg'i sarfini 30% ga oshiradi.



**116-rasm. 50 km/soat tezlikda harakatlanuvchi avtomobilning yonilg'i iqtisodiy ko'rsatkichiga tashqi haroratning ta'siri**

O'zgarishi yonilg'i sarfini 3-15% ga oshiradi. Amaliyotda uchrab turadigan boshqa nosozliklar (bir yondirish shami yoki forsunkaning ishdan chiqishi, boshqaruvchi g'ildiraklarni o'rnatish burchaklarining noto'g'riligi, tormoz mehanizmidagi tirkishlarning kamayishi) yonilg'i sarfini 15-20% ga ko'payiradi. Shuning uchun ATK dagi muhandis-texniklarning faoliyati harakatdagi tarkibga sifatlari TXK va T hamda ularni texnik soz holatda ushlab turishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Shuningdek, avtomobillar tog' sharoitlarida ekspluatatsiya qilinganda ham yonilg'i iqtisodiy ko'rsatgichi yomonlashadi. Har 100 m ko'tarilish evaziga dvigatelning quvvati 12-13% ga kamayadi, yonilg'ining iqtisodiy ko'rsatgichi esa 14-15% ga yomonlashadi. Amaliyotda uchrab turuvchi birikma va agregatlarning nosozliklari ham yonilg'i sarfiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, karbyurator bosh jiklyori o'tkazuvchanlik qobiliyatining ko'payishi, ekonomayzer klapani zichligining buzilishi, o't oldirishning me'yordan oldinroq yoki kechroq bo'lishi, gaz taqsimlash mexanizmidagi tirkishlarning buzilishi, uzgich kontaktlari orasidagi tirkishning

## YONILG'I SARFINI ME'YORLASH

Avtomobillar yonilg'i sarfining me'yoriy ko'rsatkichilari. Ma'lum ishni bajarish uchun yoki ma'lum masofani yurish uchun belgilangan yonilg'ining sarfi avtomobil transportida yonilg'ining me'yoriy sarfi deyiladi. Ular transport jarayonini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan yonilg'i sarfi me'yorni o'z ichiga oladi. Avtomobilarni ta'mirlash va har xil xo'jalik ishlari uchun ketgan yonilg'i

sarfi bu me'yorlarga kirmaydi va alohida hisobga olinadi. Avtomobillar uchun yonilg'i sarfi benzin, dizel yonilg'isi, suyultirilgan va siqilgan gazlar uchun alohida me'yordanadi hamda ular ATK da bu mahsulotlarni me'yorlashda qo'llaniladi. Me'yorlar yakka va guruhiy turlarga bo'linadi.

Yonilg'ining yakka sarf me'yori alohida avtomobil rusumlari uchun, guruhiysi esa to'liq avtokorxona uchun rejalashtiriladi.

Yakka me'yor - bu ma'lum bir rusumdag'i avtomobilning 100 km masofaga mo'ljallangan yo'l-ekspluatatsiya, iqlim va yuklanish sharoitlari hisobga olingan yonilg'ining me'yoriy sarfi hisoblanadi. Bu me'yorlar ATK sharoitida haydovchilar bilan hisoblash ishlarni bajarish va yonilg'i sarfni hisobga olish uchun ishlatalib, ular o'z navbatida chiziqli sarf deb nomlanadi.

Guruhiy me'yor - bu ko'zda tutilgan iqtisodiy ob'ektlar bo'yicha transport ishlarni bajarish uchun yonilg'i sarfining me'yori hisoblanadi. Bajariladigan ishlar tonna-kilometr, yo'lovchi-kilometr va to'lov-kilometrda rejalashtirilgan avtomobillar uchun quyidagi guruhiy me'yorlarning o'lchamlari qabul qilingan: g/(t km), g/(yo'lov. km), g/to'l. km.

Yugorida keltirilgan me'yorlarning barchasi yonilg'ining chiziqli sarfiga asosan aniqlanadi va ular vazirlik, birlashma, korxonalarining rejaviy ehtiyojini qondirish va yonilg'idan samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.

**ATK da yonilg'i sarfni me'yorlash.** ATK da benzin, dizel yonilg'isi, suyultirilgan va siqilgan gazlarning me'yoriy sarfni aniqlash chiziqli sarf bo'yicha olib boriladi va me'yorty koefitsiyentlar bilan to'g'rilanadi. Chiziqli sarfni bir necha omillarni hisobga olgan holda to'g'rilash zarur:

- Avtomobillar qish vaqtida ishlashida, janubda - 5 % gacha, shimolda - 15 % gacha, uzoq shimolda - 20 % gacha, boshqa joylarda - 10 % gacha yonilg'i sarfi oshadi.

- Avtomobil shahardan tashqarida yaxshi yo'l qoplamasida ish bajarganda yonilg'i sarfi 15 % gacha kamayadi.

- Yuk avtomobilлари, maxsus avtomobilлар, yarim tirkama bilan ishllovchi avtomobilлар, avtopoyezdlarning bajargan ishi tonna-kilometrda hisoblanganida har 100 tkmga benzin 2l, dizel yonilg'isi 1.3l, suyultirilgan gaz 2,5l, siqilgan gaz 2m<sup>3</sup> qo'shimcha belgilanadi. O'zito'kgich avtomobil va avtopoyezdlar uchun qo'shimcha har bir yuk bilan borib kelishi uchun benzin - 0.25l, dizel yonilg'isi - 0.25l, suyultirilgan gaz 0.3l, siqilgan gaz - 0.25m<sup>3</sup> belgilanadi.

Me'yoriy sarf ( $Q_n$ ) benzin, dizel yonilg'isi, gaz uchun ATK da quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_n = H_s \frac{S}{100} (1 + D) + B \frac{W}{100} + Q n_e,$$

$H_s$  - har bir avtomobil uchun chiziqli sarf, l/100km;  $S$  - avtomobil yurgan yo'li, km;  $D$  - tuzatish koefitsiyenti;  $B$  - ish bajarishdagi yonilg'ining rejaviy sarfi;  $W$  - ish hajmi;  $Q$  - har bir yuk bilan borib kelish uchun qo'shimcha sarf;  $n_e$  - yuk-bilan borib kelishlar soni.

Tonna-kilometrda ishni bajaruvchi yuk avtomobilari va yarim tirkamali shataklagichlar uchun me'yoriy yonilg'i sarfi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$Q_h = H_s \frac{S}{100} (1 + D) + B \frac{W}{100}, \quad (6.1)$$

Tonna-kilometrda ish bajaruvchi tirkamali yuk avtomobilari uchun me'yoriy yonilg'i sarfi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$Q_h = H_s \frac{S}{100} (1 + D) + B \frac{W}{100} + B \frac{G_{pr} S}{100}, \quad (6.2)$$

*bu yerda:  $G_{pr}$ -tirkamaning yuksiz og'irligi, t.*

Mahsus va mahsuslashtirilgan avtomobillar uchun me'yoriy yonilg'i sarfi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$Q_h = H_s \frac{S}{100} (1 + D) + B \frac{W}{100} + B \frac{\Delta GS}{100}, \quad (6.3)$$

*bu yerda:  $N_s$ -andozaviy avtomobilning me'yoriy yonig'i sarfi, l/100km;  $\Delta G$ -jihoz ornatish hisobiga avtomobilning o'z og'irligini ko'payishi yoki kamayishi, t.*

O'zito'kgich avtomobillar uchun me'yoriy yonilg'i sarfi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$Q_h = H_s \frac{S}{100} (1 + D) + Qn_e, \quad (6.4)$$

*Bu yerda:  $N_s$ -o'zito'kgich avtomobilarning me'yoriy yonilg'i sarfi, l/100km.*

Soatbay ishlovchi avtobus, yengil va yuk avtomobillar uchun me'yoriy yonilg'i sarfi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$Q_h = H_s \frac{S}{100} (1 + D), \quad (6.5)$$

Yuqorida ko'rsatilgan hisob-kitoblar orqali aniqlangan me'yoriy sarf yo'l varaqasining «Yonilg'inining me'yoriy sarfi» katakchasiiga yozib qo'yiladi.

Avtomobil transportida yonilg'i sarfini rejalashtirish. Yonilg'inining guruhiy sarf me'yori quyidagi ish turlari bo'yicha ishlab chiqiladi:

- bortli avtomobilarda, yarim tirkamali shataklagichlarda, maxsuslashtirilgan avtomobilarda, o'zito'kgich avtomobil va avtopoyezdlarda yuk tashishda, g/(tkm)
- avtobuslarda yo'lovchi tashishda, g/yo'lov.km;
- taksida yuk va yo'lovchi tashishda, g/to'km.

Yonilg'inining turiga qarab, avtomobil transportining ish bajarishdagi guruhiy sarf me'yori quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$N = N^w (1 + D).$$

*Bu yerda:  $N^w$ -qoshimchalar hisobga olinmagan guruhiy sarf me'yori, g/(t·km),*

*g/(yo'lov.km), g/pl. km; D – rejalahash davri uchun butun park bo'yicha qo'shimchani hisobga olish ulushi.*

O'z navbatida:

$$H_{\omega} = 10 \rho \frac{H_z}{g z}$$

*Bu yerda: r-benzin uchun-0,74 kg/m<sup>3</sup> ga, dizel yonilg'isi uchun-0,825 kg/m<sup>3</sup> ga, suyultirilgan gaz uchun-0,53 kg/m<sup>3</sup> ga, siqilgan gaz uchun-0,72 kg/m<sup>3</sup> ga teng bolgan yonilg'ining zichligi; N<sub>s</sub> – ma'lum foydali ish koeffitsiyentida avtomobil yoki avtopoyezdning yurgan yo'li uchun yonilg'ining o'rtacha keltirilgan sarfi, l/100 km; q' – avtomobilning o'rtacha keltirilgan yuk ko'tarish qobiliyati, t; z – foydali ish koeffitsiyenti.*

O'rtacha keltirilgan yonilg'i sarfi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$N_s = N_s + V g'(2 z - 1)$$

Avtomobillar modeliga to'g'ri keluvchi yonilg'ining chiziqli me'yoriy sarfiga - N<sub>s</sub> mos keluvchi, yuk avtomobillari uchun keltirilgan o'rtacha yonilg'i sarfi me'yori - N<sub>s</sub> quyidagicha aniqlanadi:

$$H_s = \frac{\sum_{i=1}^{i=n} H_{si} A_{ci}}{\sum_{i=1}^{i=n} A_{ci}} \quad (6.6)$$

Avtomobillarning keltirilgan o'rtacha yuk ko'tarish qobiliyati har bir rusumdagи avtomobillarning me'yoriy yuk ko'tarish qobiliyati va rejalahshtirilayotgan davrdagi ro'yxati soniga asosan quyidagicha aniqlanadi:

$$q' = \frac{\sum_{i=1}^{i=n} q_i A_{ci}}{\sum_{i=1}^{i=n} A_{ci}} \quad (6.7)$$

Avtomobil transportining foydali ish koeffitsiyenti - bu rejalahshtirilayotgan transport ishi hajmining to'liq yurgan yo'ldan va yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanib bajara oladigan ishi hajmiga nisbati hisoblanadi. U quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Z = \frac{W}{g S},$$

*bu yerda: W-rejalahshtirilayotgan transport ishi hajmi, ming km; S-rejalahshtirilayotgan umumiyy masofa, ming km.*

Avtobuslarda yo'lovchi tashishdagi qo'shimchalarsiz yonilg'ining guruhiy sarf me'yori quyidagicha aniqlanadi:

$$H_{\omega}^* = 10 \rho \frac{H_{sz}}{g_n z},$$

Bu yerda:  $N'$  – avtobusning yurgan yo'li uchun keltirilgan o'rtacha yonilg'i sarfi, 1/100km;  $g'$ -avtobusning o'rtacha sig'imi, yo'lovchi;  $N'$ , va  $g'$  larning qiymati 6.6 va 6.7 ifodalardagi kabi aniqlanadi.

Yengil va yuk avtomobil taksilar uchun qo'shimchalarsiz yonilg' ining guruhiy sarf me'yori quyidagicha aniqlanadi:

$$H_{\omega}^* = 10 \rho \frac{H_i}{\beta_r} \text{ bu yerda: } b_i - \text{to'lov masofasi koefitsiyenti.}$$

Me'yori yonilg'i sarfiga qo'shimcha - D avtomobil transportining ishlash sharoitini va texnik-tashkiliy masalalarini inobatga oluvchi qiymatlarni o'z ichiga oladi. Hisobot davridagi umumiy qo'shimcha quyidagicha aniqlanadi:

$$\Pi = \frac{10\rho Q_f}{H_{\omega}^* W} - 1,$$

Bu yerda:  $Q_f$  – qo'shimchalarni hisobga olgan hisobot davridagi yonilg' ining umumiy haqiqiy sarf;  $H_{\omega}^*$  – qo'shimchalar hisobga olinmagan hisobot davridagi yonilg' ining me'yoriy sarf;  $W$  – hisobot davridagi transport ishi hajmi.

Rejalashtirayotgan davr uchun guruhiy umumiy me'yoriy sarf -  $Q_n$  guruhiy me'yoriy yonilg'i sarfi -  $H_w$  va rejalashtirayotgan transport ishi hajmi bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_n = H_w W.$$

Yonilg' idan samarali foydalanishni aniqlash uchun yonilg' ining haqiqiy guruhiy sarfi rejadagisi bilan taqqoslanadi. Bu vaqtida haqiqiy guruhiy me'yoriy  $H_w$  quyidagicha aniqlanadi:

$$H_w = Q_f / W_f.$$

Bu yerda:  $Q_f$  – hisobot davridagi yonilg' ining haqiqiy umumiy sarfi, ming t.;  $W_f$  – haqiqiy bajarilgan ishi hajmi, ming tkm.

## SUYUQ YONILG'INI TASHIB KELISH, SAQLASH VA TARQATISH

Yonilg'ini tashib kelish. ATK va YOQSH ga yonilg'i neft bazalaridan avtosisternalar yordamida tashib kelinadi. «GAZ», «ZIL», «MAZ» va «KamAZ» avtomobillarining shassisiga o'rnatilgan sisternalarning sig'imi 4-6, yarim tirkamalardan foydalanilganda esa 25 ming litrgacha yetadi. Dala sharoitida yonilg'ini

tashishda hamda quyishda nasos va tarqatuvchi moslama bilan jihozlangan avtomobil-yonilg'i iquygichlardan foydalilanadi.

Yonilg'i ini neft bazasidan chiqarishda sifat pasporti beriladi. Avtomobil sisternalariga quyilgan yonilg'i miqdorini aniqlash avtomobil tarozilar yordamida yoki sisternaga quyilgan hajmi va zichligi yordamida aniqlanadi. Zichlik sisternadan olingen namuna orqali belgilanadi.

Har bir avtosisterna sig'imi ( $m^3$ da) va yuk ko'tarish qobiliyati (tonnada) to'g'risidagi pasportga ega bo'lishi kerak.


Yonilg'i ini neft bazasida yoki ATK da qabul qilishda hujjatlarning mavjudligi va to'g'riliqi, sisternaning zichligi, miqdori va sifati tekshiriladi. Buning uchun sisternadagi yonilg'ining balandligi va zichligi hamda 10 daqiqa tinigach suvning mavjudligi tekshiriladi. Yonilg'i sisternadan sig'implarga nasos yordamida yoki oqizish yo'li bilan to'kiladi.

Suyuq yonilg'ini saqlash. Yonilg'i bug'i bilan havo (2,4...5%) aralashmasi,  $0^{\circ}\text{C}$  haroratida portlash havfini tug'diradi. Shuning uchun yonilg'i ni saqlashda yonilg'iga qarshi tadbirlar ko'rilishi kerak.

Hozirgi vaqtida atrof-muhitni muhofaza etish nuqtai nazaridan, yonilg'i ni faqat yer ustida saqlash turi qo'llanilmoqda. Yong'inning oldini olish uchun yonilg'i oqadigan hamma quvurlarga va nafas olish klapanlariga yong'inga qarshi saqlagichlar o'rnatiladi. Shu sababli, benzin saqlashda yong'inga qarshi saqlagichlar bilan ta'minlangan tizim qo'llaniladi. Bu tizimda saqlagichlardan Devi to'ri asosida ishlaydiganlari ko'proq tarqalgan. Bu saqlagichlarda  $1 \text{ sm}^2$  da 144...220 gacha teshiklari bo'lgan to'rlar bir-biriga yaqin qilib 2 qavatda o'rnatilgan bo'ladi.

Yonilg'i uchun sig'implardan, quvurlardan, tarqatish jihozlaridan, inshoatlardan tashkil topgan tizim avtomobilarga yonilg'i tarqatish tarmog'i yoki avtomobilarga yonilg'i quyish shaxobchasi deyiladi.

*117-rasm. Yong'inga qarshi saqlagichlar bilan ta'minlangan yonilg'i saqlash omobi:*



1-teskari klapan; 2-sig'ım; 3-yerga tok o'tkazgich; 4-yong'inga qarshi saqlagich; 5-havo quvuri; 6-filtr; 7-to'kvuchи quvuro'tkazgich; 8, 10-burchakli yong'inga qarshi saqlagich; 9-yonilg'i sathini o'lchash naychasi; 11-so'ruvchi quvur; 12-yonilg'i tarqatish kolonkasi; 13-ulashuvchi shlang; 14-qotirgichlar; 15-beton yostiqlar.

Dizel yonilg'isini saqlash va tarqatish tizimi benzinni saqish va tarqatish tizimidan unchalik farq qilmaydi, faqatgina ular yonilg'ini 10 kun tindirish uchun qo'shimcha sig'imlar, yonilg'ini yuza qismidan so'rib olish uchun qalqovuchli so'rgichdan hamda tarqatish kolonkasi va sig'im orasiga o'rnatilgan filtr bilan farq qiladi (118-rasm).

Dizel yonilg'isini tashib kelib saqlash va tarqatishda yaxshilab tozalash va avtomobil baklарни vaqtiga qo'shib turish kerak.

Avtomobilarni suyuq yonilg'i bilan to'ldirish. Avtomobilarga suyuq yonilg'i quyishda maxsus nasos va quyilayotgan yonilg'i miqdorini hisoblab turuvchi hisoblagichlar bilan ta'minlangan yonilg'i quyish kolonkasidan foydalaniladi.


Kolonkalarning ishlab chiqarish qobiliyati daqiqasiga 25-250 l ga teng bo'ladi. Ko'rsatish xatoligi esa  $\pm 0,5\%$  ni tashkil qiladi. Kolonkalarning me'yoriy ishlashi uchun harorat - 40°C dan + 46° C gacha, namlik darajasi esa 80 % dan ko'p bo'lmasiligi kerak.

#### Kolonkalar:

- o'rnatilishiqa qarab harakatlanuvchan yoki qo'zg'almas;
- nasosni ishga tushirish bo'yicha — qo'l bilan, elektromekanik va aralash;
- quyilayotgan yonilg'ini o'lchash bo'yicha — hajmiy va uzluksiz harakatlanuvchi hisoblagichli;
- boshqarilishi bo'yicha — qo'l bilan, masofadan boshqariluvchi, aralash va avtomatik ravishda ishlovchi turlarga bo'linadi.

Pistoletning quyish barmog'ini qo'yib yuborish bilan kolonkalarni o'chirish klapanları yonilg'ini bir zumda to'xtatish imkoniyatiga ega. Bu o'z navbatida gidravlik tizimni to'la holda ushlab turishga imkoniyat beradi.

Hisoblagich ishchi organlari porshen va gorizontall silindrlardan iborat bo'lgan gidravlik dvigatelning namoyondasidir. Porshenlarning harakati hisoblash mexzanizmiga uzatiladi, u quyilayotgan va umumiyligi quyilgan yonilg'i miqdorini ko'rsatib turadi. Yonilg'i saqlash joylarida ochiq alangadan foydalinish ta'qilqanadi.



**118-rasm. Diyezel yonilg'isini tashib kelish, saqlash va tarqatishda tozalash shakli:**

a-neft bazasi; b-tashib kelish; c-AYOQSH. 1-neft bazasidagi sig'im; 2,10-suzib yuruvchi yonilg'i so'rish quvurlari; 3,7,11-5Mkm-gacha tozalovchi filtrlar; 4,13-nasoslar; 5,6,9,14-mayin filtrlar; 8-avtosisterna; 12-AYOQSH sig'imi; 15-yonilg'i tarqatuvchi kolonka; 16-ulashish jo'mragi.

Avtomobilgarga yonilg'i dvigateli ishlamay turgan holatda quyiladi. Tashqi yoritish chiroqlari tayanchlariga yashinqaytargichlar o'rnatilgan bo'lishi kerak. Hamma elektr jihozlarining metaldan tayyorlangan va tok o'tkazuvchi qismlari hamda yonilg'i qo'yish kolonkasi yer bilan tutashtiriladi. Etillangan benzin alohiда sig' imlarda saqlanishi va maxsus kolonkalar orqali tarqatilishi zarur. Uni ochiq holda tashish taqiqlanadi. Bu benzin odam terisiga tushsa uni kerosin bilan so'ngra sovun bilan yuvib tashlash zarur. Etilli benzin sachragan ko'z ikki prosentli choy sodasi eritmasi bilan yuvib tashlanadi.

## SUYULTIRILGAN VA SIQILGAN GAZLARNI TASHIB KELISH, SAQLASH VA TARQATISH

Suyultirilgan neft gazlarining (SNG) o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular oddiy va juda past bosimda gaz holatdan suyuq holatga o'tadi. Shuning uchun ularni 1,6-2,0 MPa bosimga hisoblangan sig'im va balloonlarda tashish, saqlash va tarqatish yoki avtomobil balloonlarini ular bilan suyuq holda to'ldirish mumkin. Avtomobil dvigatellari uchun mo'ljallangan suyultirilgan gaz sifatida yengil uglevodorodlar – propan, butan va ularning aralashmasi ishlataladi. Juda past haroratda 10 % gacha etan va etilen qo'shilgan propan ishlataladi. Avtomobilarni suyultirilgan gaz bilan ta'minlashda uning balloonlari gaz to'ldirish stansiyalaridagi yonilg'i saqlash sig'imidagi suyuq gazsimon yonilg'i bilan to'ldiriladi. Bu vaqtida suyuq gazni saqlash sig'imining sathi avtomobil balloni sathidan yuqorida turishi zarur. Bu quyish usulining kamchiligi kichik zichlikdagi gazning juda sekin oqishidir. Bundan tashqari avtomobil balloonlarini ineit gazlari bosimi ostida kompressor bilan, shu jumladan, gazni ko'p pog'onali markazdan qochma nasos yordamida haydash yo'li bilan to'ldirish mumkin (119-rasm).

Suyultirilgan gaz uchun avtomobilga o'rnatilgan balloonlar 1,6 MPa bosimga hisoblangan. Har ikki yilda ular nazoratdan o'tkazib turiladi. Avtomobil balloonlarini suyultirilgan gaz bilan to'ldirishda quyidagilar taqiqlanadi:

- gaz to'ldirish shlangasi yonida turish;
- metall asboblar yordamida birikmalar gaykasini mahkamlash;
- chekish;
- dvigateli sozlash va ta'mirlash.

Agar to'ldirishdan so'ng dvigatel yaxshi o't olmasa, uni gaz to'ldirish moslamasidan 15 m masofaga dvigateli o't oldirmasidan turib siljitimiz zarur. Avtomobil kuzovida portlash havfi bo'lgan yuk bo'lsa, uni to'ldirish taqiqlanadi. Suyultirilgan gaz bilan to'ldirishda, uning tezda bug'lanib ketish va tashqi muhitdan issiqqlikni o'ziga yutish xususiyatlarini hisobga olish zarur. Qaynash harorati propanda -41,5°C, butanda 0,5°C va propan-butan aralashmasida -20,5°C ni tashkil qiladi. Xuddi shu haroratlarda bu gazlar tezda bug'lanish xususiyatiga ega. Shuning uchun balloonlarni to'ldirish vaqtida qo'l sovuq urishini inobatga olib, qo'lqoplar kiyish

zarur. Gaz to'ldirish stansiyalarida uglekislotali o't o'chirgichlar, qumli yashiklar va suv uchun gidrantlar bo'lishi kerak. Avtomobillar ham uglekislotali o't o'chirgichlar bilan ta'minlanadi.


Siqilgan tabiiy gaz (metan) bosim oshishi bilan gaz holatidan suyuq holatga o'tmaydi. Shuning uchun, ular 20MPa bosim ostida avtomobilning kuzovi tagiga joylashgan maxsus qalim devorli ballonlarga damlanadi.

Siqilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz ballonli avtomobilarni to'ldirish gaz to'ldirish kompressor stansiyalarida (GTKS) amalga oshiriladi. GTKS ga gaz past bosimda (0,4-1,2 MPa) keladi, bu yerda mexanik zarrachalardan tozalanadi va kompressor yordamida 26-35MPa bosim bilan siqiladi. U nammoyajratgich va quritish blokidan o'tib, yuqori bosimli akkumulyatorga keladi, u yerdan quvurli o'tkazgichlar yordamida quyish kolonkalariga yo'naltiriladi. Avtomobil gaz to'lg'izish uchun maxsus bokslarda joylashgan kolonkalar yoniga haydab kelinadi. Bu kolonkalar avtomobilning gaz to'ldirish jo'mragiga ulanadigan yuqori bosimli shlangalar bilan ta'minlangan bo'lib, bu shlangalarga ballonlardagi gazning boshlang'ich va oxirgi bosimini aniqlash uchun monometr o'rnatilgan. To'ldirilgan gaz hajmi boshlang'ich va oxirgi bosimlarning farqi bo'yicha maxsus nomogramma yordamida aniqlanadi.

Avtomobil ballonlariga haydalagan gaz miqdorini - V ( $m^3$ ) taxminan aniqlash va sarflangan gazni hisobga olish uchun quyidagi ifoda bo'yicha aniqlangan qiymatdan foydalaniladi:

$$V = \frac{V_b n}{1000} \left( \frac{P_2}{z_2} - \frac{P_1}{z_1} \right),$$

Bu yerda:  $V_b$  - ballon sig'imi, l; n - avtomobilning ballonlar soni;  $P_1$  va  $P_2$  -



**119-rasm. Suyultirilgan gaz uchun ombor va gaz to'ldirish kolonkasi shakdi:**

1-elektromagnitli jo'mrak; 2-suyuqlik hisoblagich; 3-ulashish shlangi; 4-filtr; 5-elektr dvigatel; 6-suyuqlik nasosi; 7-to'kuvchi sig'im quvur o'tkazgichi; 8, 10-to'kish quvur o'tkazgichi; 11, 13-so'rish jo'mragi; 12-suyuqlik sathi ko'satgichi; 14-suyuqlik sathi ko'satgichi; 15-sath ko'satgichi naychalari; 16-saqlovchi klapan; 17-monometr; 18-monometr jo'mragi; 19-eng ko'p sathni ko'satuvchi jo'mrak; 20-yuvish quvuri jo'mragi; 21-yer osti sig'imi.

*ballondagi gazning boshlang'ich va oxirgi bosimi, kgs/sm<sup>2</sup>; z<sub>1</sub>, z<sub>2</sub> - gazning haroratli kengayishini hisobga oluvchi koefitsiyent.*

Bosim ostida ishlovchi sig imlarning xavfsiz ishlashini ta'minlash haqidagi qoidaga asosan siqilgan gazda ishlovchi avtomobil ballonlari davriy ravishda maxsus punktlarda nazoratdan o'tkazilib turilishi zarur. Ligerlangan po'latdan tayyorlangan ballonlar besh yilda, uglerodli po'latdan tayyorlangan ballonlar uch yilda bir marta nazoratdan o'tkaziladi.

Oxirgi vaqtarda suyultirilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz ballonli avtomobillar sinovdan o'tkazilib, ekspluatatsiya qilina boshlandi. Gazli avtomobilning maxsus ballonida -161°C haroratda suyuq holda bo'ladi. Tably gaz suyuq holda bo`lganligi uchun uni avtomobil ballonlariga, avtomobil yoki temiryo'l sisternalariga quyish mumkin. Suyultirilgan tabiiy gaz bilan to'ldirish suyultirilgan neft gazi bilan to'ldirishdan unchalik farq qilmaydi.

## **MOYLASH MAHSULOTLARINI TASHIB KELISH, SAQLASH VA TARQATISH**

Moylash mahsulotlarini saqlash va tarqatishni to`g`ri tashkil qilish, ularning sifatini saqlash, omborda bajariladigan operatsiyalar jarayonida moy sarfini kamaytirishni ta'minlaydi. Moylash mahsulotlarini markazlashgan holda tashib kelish, saqlash va tarqatish ko'satilgan talablarni qoniqtiradi. Bunda moylar avtosisterna, bochka yoki maxsus sig'imlarda tashib kelinadi, sisterna yoki boshqa sig'imlarda maxsus omborxonalarda saqlanadi va quvurlar yordamida moylash postlariga yetkazib beriladi. Suyuq moylar avtomobil sisternalari yoki metall bochkalarda, surkov moylari esa — yog'och yoki metall bochkalarda keltiriladi.

Ko'pgina hollarda moy omborlari yerto'лага joylashtiriladi, bu o'z navbatida keltirilgan toza moylarning hamda moylash postidagi ishlatilgan moylarning oqib tushishini ta'minlaydi. Quvurlarning uzunligini kamaytirish maqsadida omborlar imkoniyatga qarab moylash postlariga yaqinroq joylashtiriladi. Har bir turdag'i moylash mahsuloti uchun alohida idish ajratiladi.

Suyuq moylar omborxonadagi idishlardan moylash postlariga siqilgan havo yoki nasos yordamida yetkazib beriladi.

Moylash mahsulotlari omborida kerosin, dvigatel moylash tizimini yuvish suyuqligi, tormoz suyuqligi va antisifir uchun joy ajratiladi.

Moy omborida toza va ishlatilgan moylarni saqlash uchun sig'imlar joylashtiriladi. Agar korxonada moylarni qayta ishlash ko'zda tutilmagan bo'lsa, ishlatilgan moyni qayta ishlashga yuborish uchun avtosisternalarga quyish imkoniyati yaratiladi. Qayta ishlangan moy alohida idishlarda saqlanadi. Moy shesternyali nasoslar yordamida uzatiladi. Hamma moy saqlash idishlari bug' yordamida isitiladi. Moyni

markazlashgan usulda tarqatish bilan birga, harakatlanuvchi idishlar yordamida tarqatish ham ko'zda tutiladi.

Avtomobilning moylanadigan joylariga surkov moylari 5 MPa bosim ostida shestrnyali nasos hamda moytarqatkichlar orqali yuboriladi. Past haroratda moy qovushqoqligining kamayishini va haydashga qarshiligining oshishini inobatga olib, omborxonani isitish nazarda tutilgan. Ishlatilgan moylar moylash postidagi to'kkichlar yordamida yig'iladi va yerto'la-ombordagi idishga o'z harakati bilan oqib tushadi. U yerdan quvur orqali qayta ishslash uchun haydalib avtosisternaga quyiladi.

Yong'inga qarshi himoya talablariga muvofiq, moy saqlash omborining poli betonlangan yoki metlax plitalari bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Ko'rib chiqilgan moy xo'jaligi katta ATK larda qo'llash uchun mo'ljallangan. Kichik ATK larda harakatlanuvchi moy taqsimlovchi moylash-to'ldirish jihozlari ishlatiladi. Bular o'z navbatida moy xo'jaligini zamonaviy darajada tashkil qilishga imkon beradi.

## YOQILG'I-MOY MATERIALLARINI TEJASH YO'LLARI

Respublikamizda qayta ishlanayotgan neft mahsulotlarining yarmidan ko'prog'i, shu jumladan benzinning 65% i, dizel yonilg'isini 35% i avtomobil transporti ehtiyoji uchun ishlatiladi. Yuk tashish tannarxining 15-20% i yonilg'i-moy mahsulotlari uchun sarflanadi. Shu sababli, yonilg'i va moy mahsulotlarini tejash yuk tashish tannarxini kamaytiribgina qolmay, balki mamlakatimiz energetik zahiralarini asrashga ham imkon beradi. Bundan yonilg'i-moy mahsulotlarini omborlardan tashib kelishda, saqlashda va avtomobilarga tarqatishda ularni tejashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish kerakligi namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda avtomobillar sonining ko'payish sur'ati, asosiy yonilg'i xomashyosi bo'lgan neft qazib olish sur'atidan ancha yuqori. Shu sababli, yonilg'ini tejab sarflaydigan tadbirlar qo'llanilishi kerak. Hozirgi paytda bu muammo quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Yonilg'ini sarfini kamaytirish. Bunga:
  - dvigatel konstruksiyalarini takomillashtirish;
  - avtomobil konstruksiyasidagi metall qismlar hajmini kamaytirish;
  - dizel yonilg'isi bilan ishlaydigan dvigatellarga o'tish;
  - avtomobilarni ekspluatatsiya qilishda yonilg'i sarfini kamaytirish bilan erishiladi.

Avtomobilarni ekspluatatsiya qilishda yonilg'i sarfiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- transport protsessini tashkil qilish;

- ishlataladigan yonilg'i navlarining texnik hujjat va ishlash sharoitlariga to'g'ri kelishi;
- avtomobilarni boshqarish mahorati;
- yonilg'i yetkazib berish jihozlarining holati;
- yondirish tizimining to'g'ri qo'yilishi;
- dvigatelning texnik holati;
- avtomobillar yurish tizimining holati;
- yonilg'ini tashib kelish, saqlash va tarqatish qoidalariga rioya qilish kabi omillarga bog'liqdir.

2. Yonilg'ining boshqa turlaridan foydalanish. Keyingi yillarda dunyo mamlakatlarda yonilg'ining boshqa turlarida ishlaydigan avtomobilarning soni kun sayin ko'payib bormoqda.

Bu yonilg'ilarga quyidagilar kiradi:

- Siqilgan gaz, tarkibi metan 82-98%, etan, propan 1,5% gacha, butan 1%;
- Suyultirilgan gaz (tarkibi: propan, butan, propilin);
- Yog' och spirti;
- Gazokondensatorlar aralashmasi;
- Benzin va suv aralashmalari;
- Benzin va vodorod aralashmalari.

Avtomobilarni ekspluatatsiya qilish jarayonida sarflashni tejash uchun yonilg'i sarfi nimalarga bog'liqligini bilishimiz kerak. U shu avtomobilning texnik holatiga juda bog'liqidir. Yonilg'i sarfining oshib ketishiga sabab bo'lувchi omillarning ta'sir darajalari 14-jadvalda keltirilgan.

Yonilg'ini saqlashdagi yo'qotish zichsizlashgan birikmalar orqali sizib chiqish, sig' imlarni to'ldirish, paytidagi to'kilish va shamollatish natijasida hamda qo'yosh nuri ta'sirida nafas olish klapamlari orqali bug'lanish oqibatlarida sodir bo'ladi. Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, yo'qotish miqdoriy yoki sifat bo'yicha bo'lishi mumkin. Yonilg'ining miqdoriy yo'qolishini kamaytirish uchun zichligi ta'minlangan soz idishlarda tashish va to'kilishning oldini olish kerak. Sifat bo'yicha yo'qotishni kamaytirish uchun yonilg'i saqlanadigan idishlar quyosh nurini qaytaruvchi yorqin rangga bo'yaliши kerak. Sig' imdagi zang qoldiqlari, chang va suv yonilg'ini ifloslantirishi oqibatida sifat yo'qotishi ko'payadi. Idishlar qopqoqlari to'liq yopilmasligi yonilg'ining 3-5% i bug'lanib ketishiga olib keladi. Nafas olish klapani orqali 1% yonilg'i yo'qotiladi.

Quyish vaqtidagi yo'qotish yonilg'ining yerga to'kilishi va quyilayotgan yonilg'ini noto'g'ri hisoblash evaziga sodir bo'ladi.

Yonilg'i sarfini kamaytirishning me'yoriy shartlaridan biri ratsional me'yorlash va hisobga olish tizimini qo'llash hamda ishchilarni yonilg'i-moy materiallarini tejashga qiziqtirish hisoblanadi.

14-jadvalda harakatdagi tarkib texnik holatining yonilg'i sarfiga ta'siri ko'rsatilgan. Bunda dvigatelga TXK va T ishlari sifatlari bajarilishi birinchi darajali ahamiyatga ega. Yonilg'i sarfining ko'payishi, agregat va tizimlarda nosozliklar

*14-jadval. Yonilg'i sarfining oshib ketishiga sabab bo'luychi omillarning ta'sir darajalari*

Nº	SABABLAR	Sarfning ko'payishi, me'yorga nisbatan % hisobida
1.	Asosiy jikdyorning o'tkazish qobiliyati oshishi	5...7
2.	Ekonomayzer klapanining nosozligi	10...15
3.	6 svechadan birining ishlamasligi	20...25
4.	Uzish kontaktlari orasidagi oraliqning o'zgarishi	7...10
5.	Yonish silsilasining noto'gri o'rnatilishi: shaharda, shahar tashqarisida	3...5 4...6
6.	Kompressiyaning yo'qolishi	4...6
7.	Klapan bilan koromislo (tolkate) orasidagi oraliqning noto'g'riligi	8...10
8.	Forsunkalardan birining nosozligi	25...30
9.	Issiqqlik rejimining o'zgarishi	8...10
10.	Qurum borligi	7...8
11.	Shossedagи buzuqliklar	15...20
12.	Boshqariladigan g'ildiraklardagi o'rmatish burchaklarining noto'g'ri qo'yilishi	10...15
13.	Shinadagi havo bosimining kamayib ketishi	5...15
14.	Avtomobillar tomiga yuk tashuvchi peshtaxta o'rmatish	20...30

mavjudligidan dalolat beradi. Bu nosozliklarni bartaraf etmasdan turib avtomobilni ishga chiqarish mumkin emas. Yonilg'ini tejash uchun kurashda faqat texnik soz avtomobildan foydalanish mumkin.

**III.BO`LIM**  
**TURLI TABIIY-IQLIM SHAROITIDA**  
**AVTOMOBILLARNING TEXNIK**  
**EKSPLUATATSIYASI**

**TURLI IQLIM SHAROITLARIDA  
AVTOMOBILLARDAN  
FOYDALANISHNI TA`MINLASH**

**EKSTREMAL IQLIM SHAROITLARIDA  
AVTOMOBILLARNING ISHLASH QOBILIYATIGA TA`SIR  
ETUVCHI OMILLAR**

Texnik talablar, sinash ishlari tartibi, avtomobil transportining harakatdagi tarkibidan foydalanish qoidalari, ularni saqlash va tashishda iqlim sharoitini aniqlovchi omillarning statistik ko`rsatkichlarini belgilash uchun transport vositalarini ekspluatatsiya qilish hududlari GOST bo`yicha har xil iqlim sharoitlariga bo`linadi.

MDH davlatlarini hududlari texnik maqsadlar uchun harorat va havoning nisbiy namligi asosida qo`yidagicha taqsimlanadi:

- me`yoriy;
- me`yoriy issiq, me`yoriy issiq nam, issiq nam;
- issiq quruq, juda issiq quruq;
- me`yoriy sovuq;
- sovuq;
- juda sovuq iqlim sharoitlari.

Me`yoriydan boshqa hamma iqlimiylar hududlar avtomobil transporti harakatdagi tarkibini saqlashda, ularga TXK va ta`mirlashni rejalashda, me`yorlashda va foydalanishni tashkil qilishda alohida (o`ziga xos) sharoitlarni hosil qiladi.

O'ziga xos sharoitlar bir necha omillar yig'indisini hisobga olishni taqazo etadi. Shimoliy va sharqiy hududlar iqlim sharoiti faqat sovuqligi bilangina tavsiflanib qolmay, balki sovuq shamollari va juda og'ir yo'l sharoitlarini (qishda qor uyunlari, eng past yo'l kategoriyalarida ishlash, yo'l qopamlari yo'q) ham o'z ichiga oladi.

Issiq quruq va juda issiq quruq tabiiy hududlar issiq iqlim bilan bir qatorda quyosh radiaktivligi va havoning yuqori changliligi bilan farq qiladi.

O'ziga xos sharoitdag'i hududlarda transport jarayonini tashkil qilish va avtomobilardan texnik foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- shu sharoitlarga moslab ishlab chiqarilgan avtomobilardan foydalanish;
- texnik foydalanish ko'satgichlarining me'yorlariga shu sharoitga qarab tuzatish kiritish;
- avtomobilarni o't oldirish, saqlash turlari va vositalarini ushbu sharoitlarga moslab ishlatish.

Shimol sharoitiga moslab ishlab chiqarilgan avtomobillar quyidagi talablarga javob berishi kerak:


- -60°C gacha sovuqlikda buzilmasdan ishlashi;
- kabinalari isitiladigan va issiqlikni saqlovchi materiallar bilan qoplanganligi;
- oldingi oynakning ichki isitish moslamasi bo'lishi;
- sovuq sharoitda dvigeteli qiyalmasdan o't oldirish mumkinligi;
- sovuqqa chidamli shinalar, rezina-texnik mahsulotlar va detallar bilan ta'mirlanganligi;
- sovuq iqlim sharoitida maxsus yoqilg'i, moylash mahsulotlari va boshqa suyuqliklar ishlatilishi.

Issiq iqlim sharoitiga moslab ishlab chiqilgan avtomobillar uzlusiz yopiq sovutish tizimiga ega bo'lishi kerak. Bu tizim o'z navbatida sovutish suyuqligini bug'lanib ketishdan saqlaydi, shuningdek moy radiatori bo'lishi kerak. Qumlik va sahroda ishlaydigan avtomobilarning havo tozalagichi maxsus tayyorlangan bo'lishi lozim. Bu avtomobilarda qo'llaniladigan shinalar, rezina-texnik materiallar, polimerlardan tayyorlangan detallar issiq iqlim sharoitida buzilmasdan ishlashini ta'minlash kerak.


Akkumulyator batareyalari eng kam qiziydigan yerga joylashtirilishi, haydovchi va yo'lovchilar xonalari issiqlikdan himoya qiluvchi materiallar bilan qoplangan bo'lishi kerak. Yo'lovchilar kuzovi va haydovchi kabinasi havo almashtirigich yoki kondetsionerlar bilan jihozlanishi zarur. Tashqi bo'yoqlar yorqin ranglarga (oq, sut rang va h. k.) bo'yاليshi kerak.

Yuqori tog' sharoitlarda ishlatiladigan avtomobillar maxsus loyihalashtirilgan bo'lib, bu sharoitlarda dvigatel quvvatining kamayib ketmasligi, ta'minot va o't oldirish tizimi takkomillashtirilgan, maxsus uzatmalar qutisi o'matilgan, tormoz tizimida esa sekinlashtirigichlar qo'llanilgan bo'lishi kerak.


Izlanishlar shuni ko'satadiki, sovuq iqlim sharoitida ishlovchi avtomobilarning agregatlari, dvigaellari va mexanizmlarining yemirilishi issiq iqlim sharoitiga qaraganda ko'proq bo'ladi.



120-rasm. Ishdan chiqishlarning  
yil oylari bo'yicha taqsimlanishi:  
1-dvigatel; 2-osma; 3-rul boshqarmasi.



121-rasm.



122-rasm.

Sovuq iqlim sharoiti avtomobil larning buzilmasdan ishlash ko'rsatgichiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dvigatelning ishga tushishi yomonlashadi, yonilg'i-moy mahsulotlari quyilib qoladi va moylarning moylash xususiyati pasayadi, sovutish suyuqligi muzlaydi. metallar, polimer materiallar qotib qoladi va mo'rtlashadi, mexanizm va agregatlar muzlab qoladi. Bular o'z navbatida ichki o'zgarishlar va shikastlanishlarga, elementlarni ko'tarish qobiliyati va sifat ko'rsatgichlarining pasayishiga, qo'shimcha yuklanishning oshishiga va elektr simlarining qisqa tutashishiga olib keladi, bu esa dvigateli o't oldirishda buzilish va ishga yaroqsizlik hollarining yuzaga kelishiga hamda elementlarning ishlash muddati kamayishi va ta'mirlashga moyillikning yomonlashishiga sabab bo'ladi.

Buzilmasdan ishlash ko'rsatkichiga ishqalanib ishlovchi detallarni moy bilan ta'minlash yomonlashuvni va kechikishi hamda moylar qovushqoqligining oshishi ta'sir ko'rsatadi. Avtomobilning yurish qismi va transmissiya agregatlari eng yomon sharoitda ishlaydi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, moy harorati 50-80°C bo'lganda agregatlar normal ishlaydi, harorat 50°C dan pasayishi detallar yedirilishini 9-10 barobar tezlashtiradi. Eng ko'p ishdan chiqishlar yilning eng sovuq oylariga to'g'ri keladi (120-rasm).

Sovuq iqlim sharoitida avtomobillardan foydalanishda yonilg'i sarfi oshadi, bunga asosiy sabab, yonilg'inining yomon bug'lanishi va purkaliшining yomonlashishidan uning to'liq yonmasligidir.

Undan tashqari, dvigateli isitish va

transmissiya agregatlarining qarshiligini yengish uchun ham yonilg'i ko'proq sarf bo'ladi (121- va 122-rasmlar). Yonilg'i asosan dvigatelni qizdirish uchun sarflanadi, bu tashqi harorat hamda qizdirish vaqtiga bog'liqidir. Shinalarni qizdirish uchun ham qo'shimcha yonilg'i sarflanadi (122-rasm).

123-, 124-rasmlarda dvigatel va agregatlarni qizdirish uchun sarflangan yonilg'i xarajatlarining boshlang'ich haroratga bog'liqligi ko'rsatilgan.

Demak, avtomobillardan sovuq iqlim sharoitlarida (iqlimiylar huddilarga bog'liq holda) foydalanilganda yonilg'i sarfi 5-20 % ga oshadi.

Har xil tabiiy iqlim sharoitida avtomobillar uchun TXK va JT ishlarning qiyinlashishi va ish hajmining oshishi ular konstruksiyalarining barcha ekspluatatsiya sharoitlariga to'liq moslash mumkin emasligidan. Bu TXK va T ishlarning me'yoriy mehnat hajmlariga tuzatish kiritishni talab qiladi.


Respublikamiz avtokorxonalarida avtomobillar asosan ochiq maydonlarda saqlanadi. Shu sababli, qish vaqtidagi havoning past harorati ancha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bunda issiqlik yordamida avtomobilarni tayyorlash ularning faqat ishga chiqishini ta'minlabgina qolmay, balki ishchilar mehnati uchun yetarli darajada sharoit yaratadi.

Iqlimning issiqlik sharoitlarida yuqori harorat, havoning changligi, nisbiy namlikning kamligi, quyosh radiatsiyasi va boshqalar avtomobilarning ishonchlilik ko'rsatichlariga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi.


Harorat ortishi bilan havoning bosimi pasayadi, bu esa karbyuratorli dvigatellarda yonilg'i aralashmasining boyishi hisobiga yonilg'i sarsining oshishiga olib keladi. Gaz ballonli avtomobilarda esa, silindrlerlarga gazli aralashmaning to'lishini

*123-rasm. Agregatlarni qizdirish vaqtining, ularning boshlang'ich harorati va yonilg'i sarfiga ta'siri:*

*1-yonilg'i sarfi; 2- orqaga ko'priklar harorati*



*124-rasm. Dvigateli qizdirish uchun sarflanadigan issiqlik sarsining boshlang'ich haroratga bog'liqligi.*



kamaytiradi, natijada dvigatel to'yinmagan yonuvchi aralashmada ishlaydi va quvvati pasayib ketadi.

## SOVUQ IQLIM SHAROITLARIDA AVTOMOBILLARNING EKSPLUATATSIYASI

Sovuq iqlim sharoitida avtomobillardan samarali foydalanishga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri — ularni yo'lga chiqishga shaylash uchun juda ko'p vaqt ketishi. Buning oldini olish asosan avtomobilarni saqlash turini va saqlash anjomlarini to'g'ri tanlash bilan amalga oshiriladi (15-jadval).

Avtomobilarni ochiq maydonlarda ishga shay holda saqlab turishga garajsiz saqlash yoki ochiq holda saqlash deyiladi. Hozirgi vaqtida yuk avtomobilarning 30-50% i ochiq maydonlarda saqlanadi.

Garajsiz saqlashda avtomobilarni ishga chiqarish uchun har xil usullar va anjomlar qo'llaniladi. Garajsiz saqlash usulida dvigateli yengil o't oldirish va avtomobilni (agregat, kabina va salonni isitish) ishga chiqishga tayyorlash uchun yo'naltirilgan tashkiliy-teknik tadbirlar amalga oshiriladi. Garajdan tashqari saqlash anjomlariga biron usulni qabul qilish uchun qo'llaniladigan jihozlar, moslamalar va materiallar kiradi.

Saqlash turlari va anjomlari avtomobilarni yakka holda va guruhiy holda saqlash uchun moslashgan bo'lishi mumkin. Saqlash turlarini qo'llash avtomobilni issiqlik yordamida tayyorlashga bog'liqdir.

*15-jadval. Avtomobilarni saqlash usullari*


Iqlimiylar hudular	Yuk avtomobilari		Avtobus va yengil avtomobillar
	Qurilish va sanoat yuklari	Savdo yuklari	
Juda sovuq, sovug	Yopiq holda	Yopiq holda	Yopiq holda
Me'yoriy sovuq	Qisman yopiq (50 – 60%) va isitilib turuvchi ochiq	Yopiq holda	Yopiq holda
Me'yoriy, me'yotiy nam, me'yoriy issiq, me'yoriy issiq nam	Ochiq holda, isitilib	Qisman yopiq (30 – 40%) va isitilib turuvchi ochiq	Yopir holda
Yumshoq qishli me'yotiy issiq, issiq nam, issiq quruq, juda issiq quruq	Ochiq holda, isitilmasdan		20% yopiq, qolganlari ochiq holda, isitilmasdan yoki ayvon tagida

Issiqlik yordamida tayyorlash tashqaridan beriladigan issiqlik manbaini ko'rsatadi. Bu uzlusiz va bir damda isitish orqali amalga oshiriladi.


Uzlusiz isitish avtomobil dvigatelini ishdan bo'sh vaqtida uzlusiz issiq holda saqlab turish demakdir.

Ishdan oldin isitish esa, avtomobil ishga chiqishidan oldin uning dvigatelini tezda isitish demakdir.

Avtomobil dvigateli qiyin o't olishining asosiy sababi, tirsakli valning o't olishi uchun kerak bo'lgan eng past aylanma tezlikni olmasligidir. Buning sababi havoning sovuqligi, moyning quyuqligi, yonilg'i aralashmasi tayyorlashning qiyinligi, o't olishning sekinlashishidir. Avtomobil dvigatelineing o't olish ishonchlilikini ta'minlash uchun tirsakli val aylanishlar soni -  $n_{dv}$ , kabyuratororda ishchi aralashmani tayyorlash yoki dizel dvigatelida siqish takti oxirida yetarli haroratni ta'minlash uchun eng kichik aylanishlar soni -  $n_{min}$  dan katta bo'lishi va  $n_{dv} \geq n_{min}$  shart bajarilishi



*125-rasm. Karbyuratorli dvigateli ishga tushirishdagi tirsakli valning eng past aylanishlar sonining tashqi muhit haroratiga bog'liqlig'i.*



*126-rasm. Dvigateli ishga tushirishdagi akkumulyator quvvatini taqsimlanishi.*

kerak. Dvigatelni ishga tushirishdagi tirsakli valning eng past aylanishlar soni tashqi muhitning haroratiga (125-rasm) hamda u bilan bog'liq bo'lgan quvvatning musbat va manfiy oqimi taqsimlanishiga (126-rasm) bog'liq.

Dvigatel quvvatini muvozanatlash musbat tashkil etuvchisini akkumulyator batareyasi va yonilg'ining kimyoiy quvvati tashkil etadi. Akkumulyator batareyasi(AKB)ning quvvati starterni aylantirishga sarflanadi. O'z navbatida, yonuvchi aralashma siqish, ishqalanish va inersiya kuchlarini yengish uchun sarflanadi. AKB va starterning manfiy quvvat oqimi atrof-muhitga chiqib ketuvchi issiqlikdani iborat.

Starter dvigatelni o't oldirish uchun zarur bo'lgan eng past aylantirish momentini ta'minlash zarur:

$$M_s = M_k + M_t + M_i$$

bu yerda:  $M_s$  - starterning aylantirish momenti;  $M_k$  - ishchi yonilg'ini siqish uchun kerak bo'lgan moment;  $M_t$  - ishqalanish kuchlarini yengish uchun kerak bo'lgan moment;  $M_i$  - inersiya kuchlarini yengish uchun kerak bo'lgan moment.

«YAMZ-236» dvigatelini ishga tushirishdagi starterning eng past aylantirish momenti  $M_s$  ni hisoblash quyidagi natijalarni beradi:

0°C haroratda:  $M_s = 10,5 \text{ N}\cdot\text{m}$  (3%);  $M_k = 117,7 \text{ N}\cdot\text{m}$  (38%);


$M_t = 176,6 \text{ N}\cdot\text{m}$  (59%);

-20°C haroratda:  $M_s = 10,5 \text{ N}\cdot\text{m}$  (3,5%);  $M_k = 117,7 \text{ N}\cdot\text{m}$  (16,5%);

$M_t = 598,4 \text{ N}\cdot\text{m}$  (80%);

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan oraliqda starter burovchi momentining asosiy tashkil etuvchilari ishqalanish kuchlarini yengish uchun  $M_s = 30-80\%$ , ishchi yonuvchi aralashmani siqish uchun  $M_k = 15-40\%$  momentlar, inersiya kuchlarini yengish uchun esa faqatgina  $M_i = 3-5\%$  moment sarflanadi. Moy qovishqoqligi pasayishi hisobiga biz ko'rib chiqqan haroratning kichik oralig'ida ishqalanish kuchlarini yengish uchun sarflanadigan moment -  $M_s = 3,5$  barobargacha oshishi mumkin.

**127-rasm. Starterning ishlash holatida to'liq zaryadlangan AKBning klemmalaridagi kuchlanishning havo haroratiga bog'liqligi**



Dvigatel tirsakli valining aylanishlar sonini kerakli (dvigatelni o't oldirish uchun) qiyamatga erishishiga AKB klemmalaridagi kuchlanish yetarli bo'lishi kerak, lekin haroratning pasayishi AKBdag'i ichki qarshilikning ko'payishiga olib keladi va natijada quvvat pasayadi.

AKB ning klemmalaridagi kuchlanish:

$$U = E - IR$$

bu yerda:  $E$  - batareyaning elektr yurituvchi kuchi, volt;  $I$  - AKB beruvchi tok kuchi, amper;  $R$  - batareyaning ichki qarshiligi (tutashtirgich, plastina, separator va elektrolit qarshiligi), om.

Harorat pasayishi hisobiga  $E$  kam qiyamatga

o'zgaradi. Shu vaqtning o'zida starter toklari hisobiga batareyaning zaryadsizlanishi, ya'ni IR ko'paytma sezilarli darajada kattalashadi. Bu o'zgarish faqat zaryadsizlanish tok kuchining o'sishi hisobiga emas, balki AKBning sovuq harorat ta'sirida ichki qarshiligining o'sishi hisobiga ham sodir bo'ladi. Haroratning tushishi plastina va tutashtirgichlarining qarshiligiga ta'sir ko'rsatmaydi, lekin elektrolitning qarshiliqi hamda o'tkazgichlarning qisilishi hisobiga separatorlarning ichki qarshiligini oshiradi. Starterning ishlash holatida to'liq zaryadlangan AKB ning klemmalaridagi kuchlanishning haroratga bog'liqligi 127-rasmida keltirilgan.


Past haroratda U - kuchlanishning tushishi bilan birgalikda AKB ning sig'imi ham pasayadi. O'rta hisobda harorat 1°Cga tushganida AKBning sig'imi 1,0-1,5%ga pasayadi. Elektrolit harorati -30°C dan past bo'lsa, batareya zaryad qabul qilmaydi va zaryadsizlanish sig'iming 50-60% ini tashkil qiladi. Past haroratlarda ishchi aralashmasini tayyorlash yomonlashadi, tirsakli valning aylanish tezligini eng katta o't oldirish soniga chiqarish imkoniyati pasayadi, natijada dvigatelning o't olishi qiyinlashadi.

Dizel dvigatellari silindriddagi aralashmaning o't olishiga so'rileyotgan havoning, sovutish suyuqligining, moyning, elektrolitning va yonilg'ining harorati ta'sir ko'rsatadi (128-rasm).

So'rileyotgan havo haroratining pasayishi silindr devorlarini sovutadi va siqish taktining oxirida yonuvchi aralashma haroratini pasaytiradi.

Dvigatelning o't olishini ta'minlash uchun siqish takti oxirida dizel dvigateli silindriddagi ishchi aralashmasining harorati - T<sub>1</sub> yonilg'ining o'z-o'zidan yonish harorati (200-300°C)dan oshiqroq bo'lishi kerak.

**128-rasm. Dizel dvigatellarini o't oldirish vaqtida silindriddagi yonilg'ini alanganishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**



O'z navbatida:

$$T_s = T_a \cdot e^{n-t}$$

Bu yerda:  $T_s$  - so'rileyotgan havoning harorati, K;  $e$  - siqish darajasi;  $n$  - siqish politrop ko'satkichi.

Qish vaqtida so'rileyotgan havo harorati  $T_s$  pasayadi. Bundan tashqari, dvigatel sovuq devorlarining issiqlik o'tkazish qobiliyati ko'payishi hisobiga siqish politropi n ning qiymati kamayadi. Shunday qilib, tashqi havo haroratining pasayishi, siqish takti oxiridagi haroratning pasayishiga, bu esa o'z navbatida aralashmaning yonish sharoiti va dvigatel o't olishining yomonlashishiga olib keladi. Dizel yonilg'isi haroratining +20°C dan -20°C gacha pasayishi uning qovushqoqligini 8-10 barobarga oshiradi. Buning natijasida, yonilg'i yomon purkaladi va dvigatel silindriga katta tomchilar sisatida tushadi, bu o't olishni qiyinlashtiradi. Yonilg'inинг sovuqligi va qovushqoqligining oshishi dvigatelnинг bir tekis ishlamasligiga olib keladi.

Avtomobillar sovuq iqlim sharoitida ochiq holda saqlanganda dvigateli o't oldirish qiyinchiliklarini yengish va agregatlar issiqlik holatini ta'minlash quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

- avtomobildag'i ishdan keyin bor issiqlikn'i saqlab turish;
- tashqi manba issiqligidan foydalanish;
- dvigateli sovuq holda o't oldirish usullaridan foydalanish.

Avtomobildag'i ishdan keyin bor issiqlikn'i saqlab turish uslubini qo'llash paxtali g'iloflardan foydalanish, akkumulyator batareyasini 30 mm shishali mato (steklotkan) bilan o'rash, dvigatel karteri, yonilg'i baki va moy tozalagichlarni g'iloflashdan iborat. Bu 0°C da dvigateli 8 soatgacha, -30°Cda 0.5 soatgacha sovib qolmasligini ta'minlaydi. Bu usul avtomobilarni qisqa vaqt ishlamay turishida qo'llaniladi. Agregatlarga issiqlikn'i tashqi manbalardan olib kelishda g'iloflardan foydalanish issiqlik sarsfini 40-50% ga kamaytiradi.

Avtomobilarni smenalararo vaqt mobaynida issiqlik holda saqlab turish uchun tashqi manba issiqligidan foydalanish usuli qo'llaniladi. Bu avtomobilarni (dvigatelinii) uzluksiz isitish yoki ishdan oldin isitish usullariga bo'linadi.

Dvigateli uzluksiz (yoki ishdan oldin) isitish silindrler blokining sovutish ko'ylagidagi sovutish suyuqligining harorati bilan baholanadi. Uzoq muddatli isitish jarayonida sovutish ko'ylagidagi harorat bilan dvigatelnining eng sovuq qismi (tirsakli val podshirkniklari) dagi haroratning farqi ishdan oldin isitish usuliga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, silindrler kallagidagi harorat uzluksiz isitishda 40-60°C, ishdan oldin isitishda 80-90°C ni tashkil qilishi kerak.

Tashqi isitish manbalarini tanlashda kerakli miqdordagi issiqlikn'i hisoblash, yo'qotishlarni hisobga olgan holda manbadan olinadigan issiqlik miqdori quyidagi ifoda bo'yicha bajariladi.

$$qdt = C_{dv} \alpha t + \alpha F \cdot (t - t_{okr}) \cdot \delta \tau,$$

Bu yerda:  $q$  - vaqt oraliqida manbadan dvigatela yetkazib berilgan issiqlik miqdori, Dj/soat;  $\tau$  - issiqlik yetkazib berish vaqt, soat;  $C_{dv}$  - dvigatelnining umumiy issiqlik hajmi,

$Dj/K$ ;  $t$  – dvigatelning harorati,  $K$ ;  $\alpha$  – dvigatelning issiqlik berish koeffitsiyenti,  $Vt/(m^2 \cdot K)$ ;  $F$  – issiqlik berish yuzasi,  $m^2$ ;  $t_{okr}$  – tashqi havo harorati,  $K$ .

Teng ishorasidan keyingi ifodaning qiymati issiqlik uzatish vaqtiga bog'liq emas. Ikkinchisi ifoda  $aF(t - t_{okr})dt$  dvigatel haroratinin oshishi hisobiga ko'payadi, chunki  $t$  – dvigatelning harorati va  $t - t_{okr}$  farq ortadi. Agar issiqlik smenalararo isitish usulida yetkazilsa,  $t$  – dvigatelning harorati o'zgarmaydi, ya'ni  $dt=0$  va  $C_{av} = 0$  bo'ladi.

Ko'pgina hollarda  $\alpha$  ning qiymati  $5-30 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$  teng bo'ladi. Kichik qiyamat yaxshi o'ralsan va shamol yo'qligidagi, katta qiyamat me'yoriy shamol bo'lgan paytda o'ralmagan dvigatellar uchun xosdir.

Ochiq saqlash vositalari jihozlariga kapital mablag' larning sarflanishi, kerakli issiqliknini ishlab chiqarish miqdori bilan tavsiflanadi. Har safar ekspluatatsion xarajatlar bir avtomobilni istish uchun ketadigan umumiy xarajatlar bilan aniqlanadi  $Q = q \cdot t$ .

Issiqlikdan foydalanish tartibini qabul qilish harakatdagi qismidan foydalanish xususiyatlari, doim tayyor turish zarurligi, fanning quvvatining borligi va boshqalar bilan aniqlanadi.

**Ochiq saqlash vositalari.** Avtotransport korxonalarida avtomobillar ochiq maydonchalarda saqlanganda, isitishning guruhiy va yakka holda saqlash usullari qo'llaniladi. Bu vositalar qo'zg'almas yoki harakatlanuvchan bo'lishi mumkin.

Yakka vositalar o'z korxonalaridan ajralgan holda ishlovchi alohida avtomobillar uchun mo'ljallangan. Ular o'z ichiga avtomobillarning ajralmas qismi hisoblangan isitgichlarni, sovuq o't oldirish vositalarini hamda avtomobilning dvigatel va agregatlarini ishdan qaytgandan so'nggi issiqligini ta'minlovchi, o'rovchi g'ilof va moslamalarni oladi.

Guruhiy vositalarga issiqlik va elektr energiyasi, gaz tarmog'i va issiqlik generatorlari kiradi. Issiqlik eltuvchilar sifatida suv, bug', moy, havo, gaz va havo aralashmasidan foydalaniladi. Isitishda avtomobilning sovutish tizimi to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan tarzda bo'lishi mumkin. ATK larning ish jarayonida havo, suv, bug' va elektr isitish guruhiy usullaridan foydalanish ko'p tarqagan.

Avtomobil dvigatelinini ishdan (o't oldirishdan) oldin issiqlik suv yordamida isitishning prinsipial shakli 129-rasmida keltirilgan.

Suvli isitish tizimidagi harorat  $80-90^\circ\text{C}$ . Isitishga ketadigan suv sarfini quyidagicha aniqlanadi:

$$V = Q \times (1 - 0.1 \times t_{okr}), \text{ m}^3$$

bu yerda:  $Q$  – dvigatela bir to'ldirilgan suv hajmi,  $\text{m}^3$ ;  $t_{okr}$  – atrof-muhit harorati,  $^\circ\text{C}$ ;  $Q$  sh. vaqtida,  $-40^\circ\text{C}$  havo haroratida sinalgan o't oldirishdan avvalgi avtomobillar dvigatelinini ishdan oldin isitish vositasi quyidagi tarfibda ishlaydi.

Ishdan oldin isitish vositasi dvigatel bilan rezinamatoli shlang yordamida ulanadi. Ta'minlovchi shlang (7) kran (5) orqali radiotor bo'yini (7) bilan ulanadi. To'kuvchi shlang (8) issiqlik almashuvchi (10) ga o'matilgan to'kish jo'mragi (11) bilan ulanadi.

Nasos (2) ilitilganda (1) qozondagi issiq suv eltuvchi shlang va kran (3) orqali dvigatelga yetkaziladi. To'kuvchi shlangda (8) suv paydo bo'lgandan so'ng u kranga (6) ulanadi. So'ngra kran ochiladi va suv to'kuvchi shlang orqali qozonga qaytadi.

Mazkur tuzilishdagi jihoz issiq suvning muntazam aylanishi va dvigatelning to'liq isishini ta'minlaydi. Tashqi harorat  $-40^{\circ}\text{C}$  va aylanayotgan suv harorati  $+85^{\circ}\text{C}$  bo'lganda dvigatelni isitish vaqtiga 15-20 daqiqani tashkil etadi. Dvigatel isigach, kranlar (5, 6) o'chiriladi, dvigatel ishga tushiriladi hamda shlanglar (7, 8) yechib olinadi.

Issiqlik almashtirgichning yuzasi va hajmi shunday tanlab olinganki, u 15-20 daqiqada moyning kerakli haroratgacha isishini ta'minlaydi.

Korxonada isitish tizimi mavjud bo'lмаган hollarda avtomobillar ishdan qaytgach, ularning sovutish tizimidagi suv maxsus termoslarga to'kiladi va qayta ishlataladi. Shu yo'l bilan suv tejaladi va dvigatellarga sovumagan suv quyiladi.


Bug' bilan isitish jarayoni kondensat (suvga aylangan bug') ni qaytarish yoki qaytarmaslik sharti bilan tashkil qilinishi mumkin. 130-rasmida dvigatelni bug' yordamida kondensatni qaytarish sharti bilan isitish shakli keltirilgan. Bunda tizim bug' o'tkazgichlari bevosita avtomobilning sovutish tizimiga ulanadi. Bug' qozonidan (1) bug' o'tkazuvchi (2) yordamida taqsimlagichga (3) yuborilgan bug', saqlash joyida turgan avtomobilarning dvigateliga (8), bug' yetkazuvchi shlangalar (4,9,13) va naychalar (15) orqali yetkaziladi. Dvigatelni isitish jarayonida bug' suvga aylanadi va u qaytarish magistrali orqali qayta ishlatalish uchun bug' qozoniga qaytariladi.

Bug' bilan isitishning kondensatni qaytarmasdan tashkil qilish usuli juda sodda, ammo uning kamchiligi haddan tashqari isish evaziga blokda mahalliy darz paydo bo'lishi, qozonni doimiy suv bilan to'ldirib turish kerakligi, buning natijasida qozonda quyqa (nakip) hosil bo'lishining tezlashishi, suv sarfining ko'payishi hisoblanadi. Shu bilan birga, suvga aylangan bug' saqlash maydonchasiga oqib, yaxmalak hosil qilishi qo'shimcha noqulayliklar tug'diradi.

Suvga aylangan bug' ni qaytarib bug' bilan isitish jarayonini tashkil qilish qaytarish

**129-rasm. Avtomobil dvigateli ni issiq suv yordamida o't oldirishdan avvalgi bir zumda isitishning principial shakli:**

1-issiqlik isitish qozoni; 2-issiqlik almashtirgich; 3-issiq suv eltuvchi o'tkazgich; 4sovugan suv qaytuvchi o'tkazgich; 5-dvigatelga issiq suvni yetkazuvchi kran; 6-suv qaytuvchi kran; 7,8-rezina matoli shlanglar; 9-radiator bo'yini; 10-moyni isitish uchun trubkasimon issiqlik almashtirgich; 11-to'kish jo'mragi.



magistrallı hisobiga jihoz tuzilishini murakkablashtiradi. Dvigatelni isitish maromi past, chunki sovutish tizimidagi hamma bug' suvgaga aylanmaydi.


Bug' qozonlariga xizmat ko'sratuvchi ishchilar maxsus tayyorgariikdan o'tgan va buni tasdiqlovchi hujatga ega bo'lishlari zarur. Qozonlardan foydalanishda belgilangan vaqlar oraliq ida ularni nazorat qilish tashkiloti tomonidan tekshiruv o'tkazilishi va tekshiruv natijalari bo'yicha tegishli hujatlar tuzilishi zarur.

Havo bilan isitishda caloriferda isitilan issiq havo taqsimlovchi va havo yetkazuvchi moslamalar yordamida isitilayotgan dvigatelga yetkazib beriladi (131-rasm). Bu usulda nafaqat dvigatel, akkumulyator batareyasi va transmissiya agregatlari ham issiq holda saqlanadi.

Garajsziz saqlashni unumliroq tashkil qilish uchun elektrisitgichlar yordamidagi isitish usulidan foydalaniлади (132-rasm).

Bunda akkumulyator batareyasini isitish uchun Sirokko-208 moslamasi ishlataladi. Suyuqlikni aylantirib turish uchun tizimdagи maxsus nasos hizmat qiladi. Issiqlik avtomobil kabinasi va salonini isitish uchun ham xizmat qiladi. Moslamaning issiqlik holati avtomatik ravishda maxsus datchiklar yordamida rostlab turiladi. Dvigateling turiga qarab, issiqlik eltvuchilarining quvvati 2-4 kVt ni, moy isitgichning quvvati esa 0,4-2 kVt ni tashkil qiladi.

Infragizil gazli isitish infraqizil nurlardan foydalanishga asoslangan bo'lib, ular toza havo yuta olmaydi, ammo qattiq jismlar bilan uchrashganda nur quvvati issiqlikka aylanadi va jismni isitadi. Infragizil nurlarni hosil qilish uchun qo'zg' almas va qo'zg' aluvchan yondirgichlardan foydalaniлади. Ular tabiiy yoki neft gazi(propanbutan)da ishlashi mumkin. Yondirgichga kelayotgan gaz yetarli miqdordagi havo bilan aralashib (133-rasm), uning sopol yoki metall to'ridagi kichik diametrli kanalchalarni to'ldiradi. Aralashma maxsus moslama yordamida alanga oladi. Buning natijasida to'mning yuzasidagi harorat 700-950°C ga yetadi va o'zidan nur chiqaradi. Qo'zg' almas sharoitda yondirgichlardan foydalanishda, ular isitiladigan agregatda,




130-rasm. Dvigatelni bug' yoramida isitish:

a-saqlash joyi shakli; b-bug'ni dvigatelga yetkazish; 1-bug' qozoni; 2-asosiy bug' o'tkazgich; 3-bug' taqsimlagich; 4,9,13-shlanglar; 5-suvga aylanigan bug'ni qaytarish magistralli; 6-sig'im; 7-nasos; 8-dvigatel; 10,12,16-ulagichlar; 11-dvigatel karterini isitgich; 14-kran; 15-bug' yetkazib beruvchi shlang


300-500 mm oraliqda o'rnatiladi. Avtomobilni yondirgich ustiga to'g' ri joylashtirish va yondirgichga shikast yetkazmaslik maqsadida maydonchada maxsus tayanch va yo'naltiruvchilar bilan jihozlanadi.

Yondirgichlarning eng katta kamchiligi, shamolning tezligi 5,0-5,5 m/s ga yetganda alanganing o'chib qolishidan iborat. «Yulduzcha» yondirgichli «Malyutka» isitgichlari bundan mustasno bo'lib, ularning tagi g'ilof bilan o'rallan bo'ladi.

Avtobusbillarni qo'zg'almas issiqlik manbai bo'limgan joylarda saqlashda suyuqlikli yoki havoli ularning o'ziga o'matilgan yakka isitgichlardan foydalaniladi.



**131-rasm. Havo bilan isitishda issiqlikni yetkazib berish va avtomobilni havo bilan isitishshagi saqlash joyi:**  
**a-kalorifel kamerasi:** 1-havosozlagich; 2-kalorifel;  
**b-avtomobilni havo bilan isitishdagi saqlash joyi:** 1-havotaqsimlagich; 2-bog'lagich, 3-havo tarqatuvchi rama.



**132-rasm. Elektrisitish shakli:**

1-uzviy aylantiruvchi nasos; 2-qizdirish moslamasi; 3-haydovchi kabinasini isitish radiatori; 4-halokat datchigi; 5-me'yoriy holat datchigi; 6-uch yo'nalishli kran; 7-dvigatelni sovutish radiatori; 8-termostat; 9-dizel dvigateli; 10-dvigatelning suv nasosi; 11-suv nasosidan moy radiotoriga o'tish shlangi; 12-moyli issiqlik targatgich; 13- issiqlik targatgich; 14-dvigatelning silindrlar blokidan sovutish suyuqligini to'kish tiqini (sovut suyuqlikni elektrqizdirgichga yetkazish); 15-elektrqizdirgich; 16-avtobus salonini isitish radiotorlari.

Ular asosan avtomobil dvigateli yonilg' isida ishilaydi. «ZIL-130» avtomobili suyuqlikli isitgichining shakli 134-rasmدا keltirilgan.

Yakka isitgichlarning afzallik tomoni, ular har qanday sharoitda dvigatelni isitish imkonini beradi. Kamchiligi esa, tirsakli valning tayanch va shatun podshi pniklarini yetardi darajada isita olmaydi.

**Dvigateli sovuq holda o't oldirish.** Bu usulda suyultirilgan moylar va o't oldirish suyuqliklardan foydalaniлади. O't oldirish suyuqligi rolini etilli efir bajaradi. U juda past haroratda (-139 — -140°C) ham tezda o't oladi, uchuvchanlik qobiliyatiga ega va qaynash harorati 34,5°C ga teng. Bu suyuqlik silindrga sochiladi va 190-200°C da siqish hisobiga o't oladi. Dizellarni o't oldirish uchun Xolod D-40 (tarkibi etilli efir 60±2%, izopropil nitrat 15±2%, petroleyniy efir 15±2% va gaz trubinalarining moyi -10±2% bo'lgan) tez yonar aralashmasi ishlataliladi.

Karbyuratorli dvigatellar uchun «Arktika» o't oldirish suyuqligi ishlatalib, uning tarkibida etil efiri, gazsimon efir, izopropil nitrat va yedirilishga qarshi qo'shimchalar mavjud bo'ladi.

Avtomobillardan qish vaqtida turli sharoitlarda foydalanish va ularni saqlash usullarining xilma-xilligi saqlash usullari va anjomlari tanlashni talab qiladi (135-rasm).


Qish vaqtida avtomobillarning ishga tayyorgarligi agregat va birikmalarning issiqlik holatiga bog'liq bo'ladi. Bu holat ishga tushirishdan avvalgi isitish natijasida eng ko'p isigan va eng sovuq nuqtalarining o'rtacha harorati bilan baholanadi.

Havoning sovuqligi sharoitida avtomobilning ishga tayyorgarligi agregatlarning harorat ahvoli bo'yicha aniqlanadi. Agregatlarni ishga tayyorlashdagi harorat ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lishi kerak:

- dvigatelda  $t_{p,d} = +20^\circ\text{C}$ ;
- moy filtrida (tozalangan moyni yetkazish ishonchligi bo'yicha),  $t_{p,m,f} = +15^\circ\text{C}$ ;

**133-rasm. Infragizil nur tarqatuvchi yondirgich (a) va moslama (b) shakli:**

1-quduq; 2-gazo'tkazgich; 3-kran; 4-shlanglar; 5-gaz yondirgich; 6-yo'naltiruvchi jism; 7-tayanch; 8-gaz uzatuvchi kallak; 9-yondirgich korpusi; 10-nurlatgich korpusi; 11-nurlantirgich; 12-arashtirish kamerasi.



- akkumulyator batareyasida (dvigatelni starter bilan ishga tushirish imkoniyati bo'yicha),  $t_{p_4} = -5^{\circ}\text{C}$ ;

- uzatmalar qutisida (aylantirishga qarshilik ko'rsatishi bo'yicha),  $t_{p_4} = -10^{\circ}\text{C}$ ;

- kabina salonida (haydovchining ishlash sharoiti bo'yicha),  $t_{p_5} = +5^{\circ}\text{C}$ .

Ushbu ko'rsatkichlarni qabul qilgan holda, eng yuqori muqobil shartlarni qoniqtiruvchi, garajsiz saqlashning maqsadga muvofiq usuli aniqlanadi.


## TOG` VA ISSIQ IQLIM SHAROITIDA AVTOMOBILLARNING TEXNIK EKSPUATATSIYASI

Markaziy Osiyoning iqlim sharoiti kontinental saviyaga ega bo'lib, kunlik, oylik, yillik havo haroratining katta amplitudalarda o'zgarishi bilan ajralib turadi.

**134-rasm. P-100 turdag'i o't oldirishdan avvalgi isitgich:**

a-isitgich qozoni; b-ZIL-130 dvigateliga isitgichini ornatish;

1-boshqarish moslamasi; 2-yonilg'i baki; 3-shamollatgich; 4-yonilg'ini uzatish sozlagichi; 5-yondirish shami; 6-karterdag'i moyni isitish nasosi; 7-qozon.



**135-rasm. Garajsiz saqlash usulini tanlash shakll**

### HUDUD IQLIMI TAVSIFI

Harakatdag'i tarkib turi

ATK vazifasi

Hududning energetik imkoniyati

Avtomobillar ekspluatatsiyasi rejimi

ATK quvvati

Garajsiz saqlash usulining sharoitgamonandligini baholash

Garajsiz saqlashni kvalimetrik baholash

Garajsiz saqlashni energetik ko'rsatkichlar bo'yichabaholash

Garajsiz saqlashni iqtisodiy baholash

Garajsiz saqlash usulini tanlash

Iqlimi qishda me`yordagi sharoitlarga to`g`ri kelsa, yozda tropik sharoitlarga to`g`ri keladi.

Ko`p yillik tekshirishlar natijasi shuni ko`rsatadiki, o`rtacha yillik quyoshli vaqt 2889 soatga to`g`ri keladi. Buni boshqa joylarnikiga solishtirib, qanchalik kattaligini tasavvur qilishimiz mumkin. Quyoshli soatlar bir yilda: Ashgabadda - 2748, Afinada - 2665, Rimda - 2362, Batumida - 1890, Xarkovda - 1748 soatga tengdir.

Keltirilgan va 2-ilovadagi ko`rsatichlar natijasi o`laroq:

- O`zbekistonda o`rtacha oylik va yillik havoning harorati va yillik quyoshli soatlar janubdagisi qo`shni MDH davlatlariga nisbatan eng kattasidir;

- O`zbekistonda eng issiq kunning harorati qo`shni mamlakatlarnikidan katta bo`lib, dunyodagi eng yuqori haroratdan 5°C gagina kamdir.

O`zbekiston va qo`shni davlatlar yo`l sharoitlarining tahlili shuni ko`rsatadiki, bu joylarda avtomobil transporti uchta maxsus sharoitlarda ishlaydi:

- issiq, tropik iqlimga yaqin sharoitda;
- tog`li hududlarda;
- dengiz sathidan 2800..5000 metrgacha balandlikda joylashgan yo`llardagi baland tog`li dovonlarda.

Shu bilan birga, avtomobillar ekspluatatsiyasini og`irlashtiruvchi omillarning asosiyalaridan biri, yoz kunlari tuproq va yo`l qoplamlari haroratining 70°C dan oshib ketishidir. Ba`zi joylarda yerdagi beton va asfalt yo`llar qoplamasining harorati 85°C va hatto undan ham oshib ketadi. Toshkent shahri atrofidagi yo`l qoplamasining harorati esa 75°C dan 80°C gacha, Xorazm yo`llarining harorati 78°C gacha yetadi.

Havoning namligi respublikamizning ba`zi hududlarida bir oyning 18-28 kunida 28-30% ni tashkil etadi.

Avtomobillarni iqlimi issiq sharoitlarda ekspluatatsiya qilishning o`ziga xos xususiyatlari bo`lib, shulardan asosiyari quyidagilardan iborat:

- havoning yuqori harorati va nisbiy namlikning pastligi;
- havoning tarkibidagi changning ko`pligi;
- sovitish tizimiga solinadigan svuning qattiqligi va iflosligi.

Havoning harorati yuqori bo`lgan sharoitlarda eng katta e`tibor karbyuratorli dvigetellarda, ta`minot tizimining ishiga qaratilishi zarur. Chunki avtomobilarning ta`minlash tizimi o`rtacha iqlim sharoitlariga moslab loyihalanadi. Shu sababli, havoning yuqori harorati va nisbiy namlikning pastligi dvigatellar ta`minot tizimida «bug` tiqini» paydo bo`lishiga va moylarning qovushqoqligi kamayib ketishiga olib keladi. Natijada, avtomobillar issiq sharoitlarda ishlaganda dvigatellarning o`z-o`zidan to`xtab yoki ishdan chiqish hollari uchrab turadi. Buning asosiy sababi, ta`minlash tizimida bug` tiqini hosil bo`lib, karbyuratorga yonilg`i kerakli miqdorda yetib kelmasligidir. Bu hol asosan yozning eng issiq kunlarida, shaharlardagi yo`l harakati tig`iz joylarda, avtomobillar yig`im-terim ishlariga jalb qilingan paytlarda, yo`l sharoiti juda og`ir joylarda yuzaga keladi.

Bug` tiqini suyuqlik bug` langanda uning katta hajmiy kengayishi natijasida paydo bo`ladi. U avtomobilda yonilg`i bakidan karbyuratorgacha bo`lgan oraliqda yonilg`i ining

qizishi va benzin tarkibidagi tez qaynaydigan fraksiyalar bug`lanishi natijasida sodir bo`ladi. Bizga ma`lumki, benzin bug`langanda uning hajmi 150 - 200 marta oshib ketadi va katta hajmdagi bug`ni haydashga yonilg`i nasosining quvvati yetmay qoladi. Natijada, yonilg`i silindrga yetarli miqdorda yetkazib berilmaydi, bu yonuvchi aralashma tarkibidagi yonilg`ining kamayib ketishiga va dvigatelning to`xtab qolishiga sabab bo`ladi. Demak, bug` tiqini paydo bo`lishiga asosan quyidagilar sabab bo`lar ekan:

- benzin harorati;
- benzinning bug`lanish darajasi;
- kapotosti harorati;
- benzin nasosining quvvati.

Tekshirishlar natijasida, B-6, B-9, B-10 yonilg`i nasoslarida bug` tiqini hosil bo`ladigan harorat ( $t_{pp}$ ), harorati  $38^{\circ}\text{C}$  bo`lgandagi benzin bug`ining bosimi (R38), yonilg`i bug`lanishining boshlanish harorati ( $t_{nk}$ ), yonilg`ining 10% qismi bug`lanishi uchun zarur bo`lgan harorat ( $t_{10\%}$ ) aniqlangan (16-jadval).

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, benzin nasosining quvvati, ya`ni ish unumi oshishi bilan dvigatelning o`chib qolishiga olib keladigan benzin harorati ham kattalashib boradi.

Yonilg`ini ta`minlash tizimida bug` tiqini hosil bo`lishi aytganimizdek, kelayotgan yonilg`ining haroratiga bog`liq bo`lib, bunga esa ko`p jihatdan kapotosti harorati ta`sir ko`rsatadi.

Avtomobilarning takomillashishi natijasida kapot osti oralig`idagi bo`sh joylar kamayib bormoqda. Bu birinchidan, oraliqning kichrayishi bo`lsa, ikkinchidan kapotosti oralig`ida yangi-yangi jihozlarning paydo bo`lishidir. Natijada, kapotosti oralig`idagi havoning almashishi qiyinlashib, harorati ko`tarilib ketadi. Bu esa yonilg`i bilan ta`minlash jihozlari ichidagi yonilg`i haroratining oshib ketishiga olib keladi.

Yozning issiq kunlarida, havoning tarkibidagi changning ko`pligi avtomobilarning ekspluatatsiyasiga salmoqli ta`sir ko`rsatadi.

Respublikamizda yildan-yilga yangi, jahon andozalariga javob beruvchi yo'llar

**16-jadval. Dvigatel o`chib qolishiga olib keladigan benzin bug`ining bosimi, bug`lanishining boshlanish harorati, yonilg`ining 10% qismi bug`lanishi uchun zarur bo`lgan haroratlarga bog`liqligi.**

Nasos turi	Nasos quvvati, sm <sup>3</sup> /ayl.	Bug`boslimining ta`siri	Bug`lnishning boshlanish harorati ta`siri	10% bug`lanishni ta`minlovchi haroratning ta`siri
B - 6	60	$T_{pp}=114-0,1\times P_{38}$	$T_{pp}=1,85-0,1\times tnk-13$	$T_{pp}=t_{10\%}$
B - 9	110	$T_{pp}=123-0,1\times P_{38}$	$T_{pp}=1,85-0,1\times tnk-4$	$T_{pp}=t_{10\%}+10$
B - 10	150	$T_{pp}=133-0,1\times P_{38}$	$T_{pp}=1,85-0,1\times tnk+5$	$T_{pp}=t_{10\%}+20$

qurish jadal olib borilmoqda, ammo hozirgi mavjud yo'llarning yarmidan ko'pi hali qattiq qoplamasizdir. Bu esa havo tarkibidagi chang zarrachalarining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Yozning issiq kunlarida havoning tarkibidagi changning miqdori III yo'l sharoiti toifasida - 1,5 va tuproqli yo'llarda  $3,6 \text{ g/m}^3$  ga yetadi. Havo tarkibida chang zarrachalarining qiymati qattiq shamol paytlarida yanada oshadi.

Eng qattiq shamol ko'proq Yangiyer atrofida bo'lib, u yerda shamolning tezligi 45 m/soniyaga yetadi. Shamol 1-2 kundan 3-4 kungacha to'xtovsiz esishi, ba'zi paytlarida esa 6 kungacha davom etishi mungkin.

Buning natijasida chang va qum ishqalanib ishlaydigan qismlar orasiga tushadi. Qattiq shamol paytlarida havo tarkibidagi chang  $17 \text{ g/m}^3$  gacha ko'tariladi. Bu zarrachalarning kattaligi 60 mkm yetadi. Chang zarrachalari yonilg'i baki, moy quyish naychasi va salniklar orqali birikmalar orasiga tushib yejilishni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, kunning issiq paytida agregat va mexanizmlardagi moy qovushqoqligining kamayib ketishi birikmalarning me'yoriy ishlash sharoitlarini og'irlashtiradi, bunda «moyli» ishqalanish o'miga «chegaraviy» ishqalanish yuzaga keladi va birikmalar yoyilishi tezlashadi.

Markaziy Osiyo, Kavkaz va Kavkazorti davlatlarida yo'llar asosan tog'li joylardan o'tadi. Bu joylarda xalq xo'jaligi yuklari boshqa transport turlaridan foydalaniib bo'Imaganligi sababli, asosan avtomobil transporti yordamida tashiladi. Tog' sharoitlarida avtomobillardan foydalananishga juda katta e'tibor berish lozim. Chunki tog' sharoiti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u havo bosimining pastligi, baland tog' yo'llaridagi chiqib-tushishlar, egri ilorizi yo'llar, keskin burilishlar, to'satdan qarshidan kelayotgan transport vositalari paydo bo'lishi kabi xususiyatlarga egadir.

Tog'lar va balandliklar etagida qurilgan avtomobil yo'llari 1500-2000 m va undan yuqori balandliklarga ko'tarilib, keyin esa qiyaliklar va egri-bugriliklar bilan tushadi. Bunday yo'llar quyidagi omillar bilan ajralib turadi:

- katta bo'ylama qiyaliklar (10-12%);
- baland-pastliklar (1 km da 10 tadan ortiq);
- egri-bugriliklar (1 km da 15-18 tadan ortiq);
- kichik radiusdagи burilishlar (8-10 m);
- yetarli bo'Imagan yo'l kengligi;
- yo'lning o'nqir-cho'nqirligi;
- masofaning yomon ko'rinishi.

Qayd qilingan omillar avtomobilning chidamliligiga ta'sir qilib, transportning qiyin harakatlanishiga, tezlikning pasayishiga, transport xarajatlarining oshishiga va yo'l-transport hodisalari tez-tez ro'y berishiga sabab bo'ladi.

Tog' sharoitlarining o'ziga xos xususiyatlari avtomobil ishida bir qator o'zgarishlarga olib keladi. Avtomobil janubiy tog' tizimlarida va dovonlarda ishlaganda, unga asosan issiq o'zgaruvchan havoning harorati va changligi ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun TXK da yonilg'i va moy quyilayotganda uning tozaligini ta'minlash

va moylash tizimidagi filtrlarga katta e'tibor berish kerak. Chunki buzilishlarning 70-80% shu tizimlarga to'g'ri keladi.

Issiq tog' sharoitlarida transmissiya va ko'tarish tizimlarida ishlatiladigan moylar tez eskiradi, chunki havoning namligi va yuqori issiqlikning ta'siri hamda chang oksidlanish jarayonida katalizator rolini o'ynaydi. Bunday vaqtarda oksidlanish va zanglashga qarshi qo'shimchalar qo'shilgan hamda quyuqroq moylar ishlatilishi tavsiya etiladi. Tez-tez tormozlanish va kichik radiusda burilishlar natijasida shinalar juda tez yemiriladi.

Yo'l sharoitining murakkabligi tufayli ilashish muftasi, uzatmalar qutisi, tormoz tizimi juda ko'p ishlatiladi, rul mexanizmiga ta'sir etuvchi kuch tez oshib boradi, buning natijasida ular detallarining yedirilishi oshadi hamda qotirilgan joylar bo'shab boradi.

Baland dovonlardagi havoning namligi ta'sirida avtomobil detallari, mexanizmlari, agregatlari, kabina, kuzov qismlari zanglay boshlaydi. Dengiz sathidan 2500 m balandroq (Tog'li Badaxshonga o'tadigan yo'l dengiz sathidan 3000 m balandlikda joylashgan bo'lib, shu yo'l kesib o'tadigan dovonlar balandligi 5000 m ga yetadi) joylardagi havo bosimining pastligi (havoning siyrakligi) dvigatel quvvatini keskin kamaytirib yuboradi. Bu avtomobilning ish unumini pasaytiradi va yuk tashish tannarxini oshiradi. Havo zichligi kam sharoitlarda avtomobilda to'xtash, ta'minlash, yondirish tizimlarining ishlashida ham o'zgarishlar yuzaga keladi.

Yuqorida qayd qilinganlarning hammasi bu sharoitlarda avtomobillardan foydalananilda boshqarish mexanizmlari, yoritish anjomlari va ogohlantirish asboblari katta e'tiborda bo'lishini hamda qotirish ishlarini tez-tez bajarib turish kerakligini taqazo etadi.

Buning uchun TXK dan avval diagnozlash o'tkazish shart hamda TXK va JT me'yorlariga sharoitga qarab tuzatish kiritish zarur.

Agarda sovutish tizimida suv qo'llanilsa tezda quyqa (nakip) hosil bo'ladi, bu o'z navbatida issiqlik almashishini yomonlashtiradi, dvigatel qizib ketadi, uning quvvati, iqtisodiy ko'rsatkichlari va buzilmaslik xususiyatlari kamayadi. Bu sharoitlarda buzilishlarning 6% gachasi sovutish tizimiga to'g'ri keladi.

Dvigatelning me'yoriy ishlashini ta'minlash uchun sovutish tizimida 50 markali antifriz va Tosol-40 hamda sovutish suyuqligi uzlusiz harakatlanib turuvchi «yopiq sovutish tizimi»ga ega bo'lgan avtomobillardan foydalananish tavsiya qilinadi. Illojsiz hollarda sovutish tizimiga qaynatilgan (ya'ni yumshatilgan) suv qo'yish tavsiya qilinadi.

Avtomobillar issiq iqlim va tog' sharoitlarda ishlaganda ularning texnik holati bilan bir qatorda, haydovchilarining ish sharoitlariga ham alohida e'tibor berish lozim.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yoz kunlarida avtomobillar kabinetalaridagi harorat yuk avtomobillarida 50...60°C gacha, avtobuslarda esa 70°C gacha ko'tarilib ketadi. Bu hol haydovchilarining ishlashida qiyinchiliklar tug'diradi. Buning ustiga, ko'p va keskin burilishlar, yuqoriga chiqish va keskin pastga tushishlar, uzatma

dastasining holatini tez-tez o'zgartirishlar, haydovchining charchashi ishslash qobillyati kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Undan tashqari, yoritish chiroqlarining tog' sharoitlariga moslashmaganligi avtomobil boshqarishni og'irlashtiradi va ko'p holatlarda yo'l-transport hodisalari yuz berishiga olib keladi.

Tog' yo'llaridagi nishabliklar («128-55» nomerli me'yorty hujjatga asosan V sinfdagi yo'llarda) 10 % dan oshmasligi kerak.

17-jadvaldagagi keltirilgan raqamlar Markaziy Osiyo respublikalaridagi yo'llarda bundan ham katta nishabliklar borligini ko'rsatadi.

Avtomobillar bunday nishabliklarda ishlaganda albatta haydovchiga juda ko'p marta uzatmalar dastagi holatini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda tepaga chiqish paytlarida dvigatel zo'r qilib ishlasa, pastga tushishida transmissiya agregatlariga og'irlik tushadi. Avtomobillar «to'g'ri uzatma» holatida esa odatdagidan ancha kam harakat qiladi.

«ZII-130» avtomobilining Osh-Xorog yo'lidagi ekspluatatsiya sharoitida uzatmalar qutisi dastagi holatining o'zgarishi 18-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 345 km yo'lda uzatma dastagining holati 536 marta o'zgartirilgan, shu yo'ldan faqatgina 15% ini avtomobil uzatmasi to'g'ri uzatish holatida yurgan. Bunday holatda albatta dvigatel va boshqa agregatlar karterlaridagi

*17-jadval. Tog' sharoitidagi yo'llarning nishabliklari*

Nº	Yo'lning nomi	Dovonning nomi	Eng katta nishablik
1	Dushanbe – Leninobod	Anzab	18%
2	Dushanbe – Gulob	Shar – shar	12%
3	O'sh – Xorog	Chig'ir – ciq	25%
		Qizil – art	14%
		Oq – baytol	13%
4	Angren – Qo'qon	Qamchiq	17%

*18-jadval. Uzatmalar qutisi dastagi holatini o'zgarishi*

Uzatmalar dastagining holati	Dastak holati o'zgartirishlari soni	Shu holatda yurilgan yol, km	Umumiy yo'ldan % hisobida
I	36	15	5
II	96	25	8
III	169	73	22
IV	171	179	50
V	64	53	15
Jami	536	345	100

moylar qizib ketadi. Bu esa zichlamalarning ishdan chiqishiga, moy mahsulotlari qovushqoqligining kamayib ketishiga olib keladi (19-jadval).

Tog` yo'llarida avtomobilarning tormoz tizimlari juda og`ir sharoitda ishlaydi. Dovondan tushish paytlarida tormoz tizimi doimo ishlatilib turilishi sababli qizib ketadi, natijada g`ildirak disklarining harorati «GAZ-53A» avtomobilida 400...450°C gacha, «ZIL-130» avtomobilida esa 250...350°C gacha ko'tarilib ketadi. Bu esa o'z navbatida, g`ildiraklarda zichlamalar va ishchi tormoz mexanizmi rezina manjetlarini ishdan chiqaradi.

Bundan tashqari, g`ildiraklarning sovushi uchun avtomobil dovondan tushgach, kamida 20 km yo`li yurishi kerak, demak bu oraliqda haydovchi tormoz mexanizmidan to`la foydalana olmaydi, chunki g`ildirak diskining harorati 350...400°C bo`lganda avtomobilni to`xtatish yo`li me'yordagidan 3 barobar ortiq bo`ladi.

Tojikiston Politexnika institutining olimi A.G.Brailechikning tahlillari shuni ko`satadiki, baland tog` sharoitida dvigatel faqat 25% yo`ldagina me'yordagi haroratda ishlaydi, 1.5...5 % yo'llarda qizib ketgan holatda, 70 % dan ko`proq yo'llarda esa sovib ketgan holatda ishlaydi.

Professor R.V.Malov aniqashicha havoning oshiqlik koeffitsiyenti tog`li joylarda quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A = A_0 - N \times 1.25 \times 10^{-4}$$

*Bu yerda:  $A_0$  - dengiz sathiga teng va baland tog`li joylardagi havoning oshiqlik darajasi;  $N$  - joyning dengiz sathidan balandligi, m;*

Har 1000 m dengiz sathidan balandlikda karbyuratorli dvigatellarning quvvati o`rtacha 12% ga kamayadi, chunki havoning zichligi kamayadi va yonuvchi aralashma tarkibidagi benzin oshib ketadi.

Havoning kamayib ketishi yonilg`i sarfi oshib ketishiga va atrof-muhitning ko`proq zaharlanishiga olib keladi. Masalan, «ZIL-130» avtomobili me'yordagi sharoitda har 100 km ga 30...35 l yonilg`i sarflasa, baland tog`li hududlarda esa 55...60 l sarflaydi. Bu holatlar o'z navbatida avtomobil ishi unumini kamaytirib yuboradi va atrof-muhitning zaharlanishiga oshib keladi.

**19-jadval. Tog` sharoitida ishlovchi avtomobil agregatlarining harorati**

Avtomobil turi	Agregat nomi	Harorat, daraja
"GAZ - 53"	Uzatmalar qutisi	120
	Bosh uzatma	108
"ZIL - 130"	Uzatmalar qutisi	115
	Bosh uzatma	100

# **O'Z KORXONALARIDAN AJRALGAN HOLDA ISHLAGAN AVTOMOBILLARNING TEXNIK EKSPLOATATSIIYASI**

## **O'Z KORXONALARIDAN AJRALGAN HOLDA ISHLAGAN AVTOMOBILLARNING TEXNIK EKSPLOATATSIIYASI SHAROITLARI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI**

Avtomobilarning o'z korxonalaridan ajragan holda (alohida) ishlashi deb, ularning qisqa vaqt davomida ATK dan ajralgan holda yuk tashish ishlariga jalg qilishga, boshqacha qilib aytganda:

- katta guruhdagi avtomobilarni davlat jamoa xo'jaliklariga, yig'im-terim ishlariga jalg qilishga;

- bir guruh yoki alohida-alohida avtomobilarning yuk tashish joylari o'zgarib turuvchi ishlarga jalg etishga (geologorazvedka, suv inshootlari qurilishi);

- bir guruh avtomobilarni temiryo'l, tonnel, kanal va boshqa inshootlar qurilishida ishlatishga;

- avtomobilarni shaharlararo va davlatlararo yuk tashish ishlariga jalg qilishga aytildi.

Avtomobilarni birinchi ikki yo'nalishga jalg qilish ko'rsatilgan ishlar aholi yashash joylaridan, ya'ni mavjud avtokorxonalardan ancha uzoqda tashkil qilinganda amalga oshiriladi.

Avtomobillar uchinchi yo'nalish bo'yicha asosan qishloq xo'jaligi yig'im-terim mavsumida yig'ilgan hosilni saqlash joylariga tashish uchun jalg qilinadi. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan avtomobillardan texnik foydalanishni tashkil qilish samaradorligiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ko'p avtomobilarning bir joyga jamlanishi va sutkada 16-20 soatgacha ishlashi hamda 150-250 km yo'l yurishi;

- og'ir yo'l va iqlim sharoiti, o'zgaruvchan meterologik sharoit, havoning yuqori changliligi;

- TXK va JT ga ta'sir qiluvchi, avtomobillar ish o'mining tez-tez o'zgarib turishi;
- avtomobilarning 30-70 tadan, ular o'z navbatida 5-10 tadan bo'linib-bo'linib ishlashi;
- ATK dan juda uzoqda TXK va JT ning tashkil qilinishi;
- yuk tashishni tashkil qilish va boshqarishning qiyinlashuvi, jalb qilingan avtomobilarning bir tashkilotga bo'ysunmasligi.

Qurilish materiallari, quvurlar, kabel mahsulotlari tashuvchi, geologorazvedka ishlarida ishtirok etuvchi, elektr tarmog'i va aloqa liniyalari quruvchi, suv xo'jaligi va boshqa ishlarni bajaruvchi tashkilotlarga qarashli avtomobillar, 15-20 tadan avtomobili bo'lgan avtootryadlarga yoki 50-70 tadan avtomobili bo'lgan avtokolonnalarga biriktiriladi. Bu avtomillardan foydalanish ATK dan 25 va bir necha yuz km uzoqlikda, og'ir iqlim sharoitlarida tashkil qilinadi.

## **YIG'IM-TERIMGA JALB QILINGAN AVTOMOBILLARNING TEXNIK EKSPLUATATSIYASI**

Turli qishloq xo'jaligi yuklarini tashish uchun har yili ATK lar tomonidan avtojamlanmalar hosil qilingan, ularga TXK va T ishlari me'yoriy-texnik hujjatlar asosida tashkil etiladi. Bu hujjatlarda avtomobillar o'z korxonalaridan ajralgan holda ishlaganda TXK va T ni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.

Bunda asos sifatida avtomobilarga o'z korxonalaridan ajralgan holda ishlaganda ularga TXK va T ning rejaviy-ogohlantirish tizimi qabul qilingan. TXK va T me'yorlari dala sharoitini ifodalovchi IV va V yo'l sharoiti toifasi bo'yicha qabul qilinadi.

Avtojamlanmani ishga tayyorlash ishlari maxsus tashkil qilingan hay'at tomonidan avtomobil va avtosaflarni tanlab olish bilan boshlanadi. Ishga jo'natilayotgan avtomobillar va avtosaflar agregat, uzel va detallarining ishonchli ishlashi kamida 10-12 ming km ni tashkil qilishi kerak.


Avtokolonna hamma sharoitlarni (avtomobil soni, ish joyining ATK dan uzoqligini va h.k.) hisobga olgan holda harakatlanuvchi ta'mirlash ustaxonalari, JT uchun agregat va ehtiyoj qismlar, texnik yordam avtomobillari, yetarli darajada xizmat ko'rsatuvchi ishchilar, bu ishchilar uchun oziq-ovqat tashuvchi avtomobillar, avtoyonilg'i quygich avtomobillar bilan ta'minlanadi.

Ishga yuborilishi uchun ajratilgan harakatdagi tarkibga quyidagi ishlar bajariladi:

- texnik holatni tekshirish;
- navbatdagi 2-TX (oldingi 2-TX dan so'ng bosib o'tilgan yo'ldan qat'i nazar);
- talab darajasida JT;
- qo'shimcha ishlar (sovutish tizimini yuvish, moylash tizimini tozalash va yuvish, ressor va so'ndirgichlarni tozalash va moylash, akkumulyator batareyalari hamda kuzov bortlarini balandlashtirish, har bir avtomobilni brezentlar bilan ta'minlash).

Ishlab chiqarish uchun ishchi kuchi 2 smenalik ishga mo'ljallagan holda, avtomobillar soni va kunlik yuriladigan yo'lg'a qarab tanlanadi (20-jadval).

### *136-rasm. Avtojamlanmanning aloqa shakli*



### *20-jadval O'z korxonalaridan ajralgan holda ishlagan avtojamlanmalar ishlab chiqarishi uchun ajratiladigan ishchilar soni*

TXK turi va JT	Harakatdagi tarkibning o'rtacha soni va o'rtacha kunlik yuriladigan yo'l, km									
	30 avt. va 15 tirkama		50 avt. va 25 tirkama		70 avt. va 35 tirkama		100 avt. va 50 tirkama		150 avt. va 75 tirkama	
	150	200	250	150	200	250	150	200	250	150
KX	1	1	1	1	1	1	1	2	2	3
1 - TX	1	2	3	2	3	4	4	5	8	11
2TX	1	2	2	2	3	3	4	5	6	8
Postdag'i JT	3	4	5	5	7	8	6	8	11	20
Ustaxonadagi JT	2	2	2	2	3	4	2	4	5	6
Jami	8	11	13	12	17	20	17	23	31	42

### *21-jadval. Avtoshaharcha maydonining turlari*


Ko'rsatkichlar	Avtomobillar soni, dona				
	30	50	70	100	150
Maydon o'lchamlari, m	140×60	100×140	200×100	200×140	200×175
Maydon yuzasi, m <sup>2</sup>	8400	14000	20000	28000	35000

Ishga yuqori malakali haydovchilar hamda hamma ishga ihtisoslashgan yuqori malakali ishchilar jalb qilinadi. Ishni kolonna rahbari boshqaradi, uning vordamchisi katta mexanik hisoblanadi.

Avtokolonna uchun ajratilgan TX va T jihozlari ixcham, yengil va hamma ishga moslashgan bo'lishi kerak. Ishlovchilarga qulaylik yaratish uchun vagon-oshxona, vagon-yotoqxona, vagon-hammom va vagon-omborlar ajratilishi kerak.

**Haydovchi** va ishchilarni me'yoriy sharoitlar bilan ta'minlash maqsadida harakatlanuvchi maxsus vagonlardan foydalaniildi. Ular avtoshaharchaning maishiy-ma'naviy mintaqasini tashkil qiladigan vagon-oshxona, vagon-votog'xona, vagon-hammom, vagon-omborlardan iborat bo'ladi.

O'z korxonalaridan ajralgan holda ishlaydigan avtojamnalarga hamda TXK va JT ishlariga rahbarlik qilish uchun ular radio yoki telefon aloqa vositalari bilan ta'minlanishi zarur (136-rasm).



137-rasm. 30 avtomobil va 15 tirkamaga mo'ljallangan avtoshaharchaning bosh tarxi(Genplan):

*I - Saqlash joyi; II - TX va JT mintaqasi; III - Dam olish, ovqatlanish va yotqoxona mintaqasi;*

1-TNJ mexanigi va dispatcher vagoni; 2-avtomobilarni saqlash joyi; 3-avtosaflarini saqlash joyi; 4-elektr stansiyasi; 5-avtomobilarni JT maydoni; 6-payvandlash agregati; 7-harakatlanuvchi hammabop ustaxona; 8-tayanchli ko'targich; 9-langarli ko'targich; 10-agregat va ehtiyyot qismlar ombori; 11-TX-2 posti; 12-TX-1 posti; 13-harakatlanuvchi moy quyish posti; 14-ta'mirlashni kutib turgan, texnik yordam va xo'jalik avtomobilalarini saqlash joyi; 15-KX posti; 16-vagon-yotoqxona; 17-vagon-emakxona; 18-iste'mol suvi uchun sig'im; 19-vagon-oshxona; 20-oziq-ovqat ombori; 21-sport maydoni; 22-vagon-hammom; 23-axlat yig'ish va hojatxona uchun maydon.

Avtojamlanma safarga chiqishdan oldin harakatdagи omborda saqlanadigan aylanma agregatlar, ehtiyyot qismlar va materiallar bilan yetarli miqdorda ta'minlanishi kerak.

Masalan, ilmiy izlanishlarga qaraganda 30 ta avtomobil bo'lsa, avtokolonnaga bir oyga mo'ljallab almashtirish uchun 3-5 va zahiraga 1 ta dvigatel ajratilishi kerak. Moylash mahsulotlari kamida 10 kunga yetarli bo'lishi, yaqin atrofda AYOQT bo'lmasa 5 kunga yetarli yonilg'i bilan ta'minlanishi zarur.

Avtojamlanma manzilga yetib kelgach, u birinchi navbatda avtomobillarni saqlash va TX va T ishlarini o'tkazish uchun avtoshaharcha tashkil qilish bilan shug'ullanishi kerak. Avtoshaharcha to'g'ri to'rtburchak shaklida hamda o'lchamlari avtomobillarning soniga qarab hozirlanadi (21-jadval).

Avtoshaharcha qurish uchun ajratilgan maydon qiyaligi (3%), kirish va chiqish joylari, shamolning yo'nalishi va aholi yashash joylaridan uzoqligi talablarga javob berishi kerak.

Agar avtoshaharcha ochiq maydonga quriladigan bo'lsa, u qurigan o't va xashaklardan tozalanishi, suv sepib tekislanishi va 1-2 m kenglikda chegara shudgordab chiqilishi kerak.

Misol tariqasida 30 avtomobilga mo'ljallangan avtoshaharchaning shakli 137-rasmida keltirilgan.

Avtoshaharchalar ATK dan 12-15 km dan ortiq uzoqlikda ishlovchi, tarkibida 25-30 dan ortiq avtomobili bo'lgan avtosafar uchun qurilishi kerak. Tarkibida 25-30 dan kam avtomobili bor avtojamlannalar uchun avtoshaharcha qurish iqtisodiy o'zini oqlamaydi, bunda TXK va JT ishlari harakatlanuvchi avtoustaxonalar yoki shartnoma asosida mahalliy ATK va TXKS larda bajariladi.

*22-jadval. Har xil quvvatlari avtojamlanmalar uchun harakatdagи tarkibga TXK va JT postlarining soni.*

TXK turi va JT	Harakatdagи tarkibning o'rtacha soni va o'rtacha kunlik yuriladigan yo'l, km														
	30 avt. va 15 tirkama	50 avt. va 25 tirkama	70 avt. va 35 tirkama	100 avt. va 50 tirkama	150 avt. va 75 tirkama										
	150	200	250	150	200	250	150	200	250	150	200	250			
KX	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2			
1-TX	1	1	1	1	1	1	1	2	1	2	2	2			
2-TX	1	1	1	1	1	1	1	2	1	1	2	2			
JT	1	1	2	2	3	4	3	4	5	4	5	7	8		
Jami	4	4	5	5	6	7	6	7	10	7	9	12	11	13	14

Avtojamlanmaning kattaligiga qarab ishlab chiqarish kompleks brigadalar, maxsus brigadalar va brigada pudrati usullarida tashkil qilinishi mumkin.

Avtojamlanmalarning kattaligiga va kunlik ishlab chiqarish dasturiga asosan ishchi postlarining umumiy soni va har bir TX turining soni 22-jadval bo'yicha qabul qilinadi.


Dala sharoitida har qanday holda 2-TX ni, avtomobillar soni 100 dan kam bo'lsa 1-TX ni ochiq, hammabop yoki maxsus postlarda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Avtomobilarning soni 100 dan ortiq bo'lgan avtojamlanmalarda 1-TX maxsuslashtirilgan harakatlanuvchi 2 postli oqimli qatorda o'tkaziladi. Bunda 1-TX ishlari ikki guruh operatsiyalariga, ya'ni 1-postda bajariluvchi nazorat, qotirish va sozlash hamda 2-postda bajariluvchi moylash va tozalash ishlariiga bo'linadi.

Avtojamlanma quvvatiga qaramasdan 2-TX ishlari 2 ta avtojoyni tashkil qiluvchi teplasi berk postlarda bajariladi. Ularning biri estakada, ikkinchisi langarli ko'targich bilan jihozlanadi.

Estakadada g'ildiraklar va uning gupchagini ta'mirlashdan tashqari, 2-TX ko'rsatish texnologiyasi bo'yicha ko'nda tutilgan barcha ishlar bajariladi. 2-TX ishlari haydovchining ishtirokida, ta'mirlovchi va xizmat ko'rsatuvchi ishchilar yordamida bajariladi

Avtomobillardan hosilni yig'ish uchun qo'llanishda ish vaqtidan unumli

138-rasm. Harakatlanuvchi ta'mirlash ustaxonasi kuzovida jihozlarning joylashishi:



1-uch qo'nimli targatuvchi; 2-elektr taqsimlovchi shit; 3-qo'nimdagi elektr teshgich; 4-siggich; 5-forsunkalarni tekshiruvchi va sozlovchi asbob; 6-o'tirg'ich; 7-ko'tarish moslamasi; 8-ko'tarish moslamasi ko'targichi; 9-benzinda ishlovchi dvigatel; 10-generator; 11-charxlovchi asbob; 12-maxsus dastgoh; 13-suv nasosi; 14-elektr dvigateli; 15-siqilgan havo uchun ballon; 16-havo kompressori; 17-chilangar dastgohi; 18-o'n tonnali suyuqlik yuritmali press.

foydalanish katta ahamiyatga ega bo`lib, 2-TX ishlari bordaniga 2 almashinuvda yoki avtomobilarning ishchi postiga bir necha marta kirishi bajariladi. Buning uchun 2-TX operatsiyalarining ish hajmi avtomobilarning bir marta ishchi postiga kirishi bajara olish mumkin bo`lgan bir necha qismlarga bo`lib yuboriladi.

Avtomobil va avtosafarining JT talabga binoan amalga oshiriladi. Ta`mirlash to`liq avtomobil yoki uning agregatlari va birikmalari bo`yicha bajariladi.

Avtoshaharchada temirchilik va payvandlash ishlari bajarish uchun maxsus postlar tashkil qilinadi. Qolgan barcha ishlari hammabop JT postlarida amalga oshiriladi.

Avtomobilarning dala sharoitida ishlashi jarayonida agregat va birikmalarni JT harakatlanuvchi ustaxonalarda bajariladi. Bu ustaxonalar bajaradigan ish turi bo`yicha hammabop yoki agregatlarni ta`mirlovchi, shina ta`mirlovchi yoki misgarlik, elektrokarbyurator va akkumulyator ishlari bajaruvchi maxsus ishlarga mo`ljallangan bo`lishi mumkin.

Harakatlanuvchi ustaxonalar maxsus ishlab chiqarilgan (138-rasm) yoki safdan chiqarilgan avtobus va yarim tirkamalarda ATK kuchi bilan tayyorlangan bo`lishi mumkin.

Sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan avtoustaxonalar avtomobilarga ishlash jarayonida texnik yordam ko`rsatuvchi, avtomobilarda 1-TX va 2-TX o`tkazuvchi, dvigatellarni ta`mirlovchi va sozlovchi, akkumulyator batareyalariga TX ko`rsatuvchi va ularni zaryadlovchi ishlarga mo`ljallangan bo`lishi mumkin.

TXK va JT ishlari bajaruvchi harakatdagi vositalarda elektr manbai sifatida 5 va 12 kWt li generatorlar avtomobil shossisiga o`rnataladi. Avtomobilarda paydo bo`lgan nosozliklarni bartaraf qilish yoki ularni shatakka olib avtoshaharchaga keltirish maqsadida texnik yordam avtomobilardan foydalilanildi.

## **SHAHALARARO, XALQARO, OG`IR VA KATTA HAJMDAGI YUKLARNI TASHISHDA AVTOMOBILLAR TEXNIK EKSPLOATATSIIYASI**

Xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish xalqaro miqyosda avtomobil transporti yuklari tashishni tashkil qilishni taqozo qiladi. Ayniqsa, yuklarni katta hajmdagi konteynerlarda (20-30 t) tashish ko`paymoqda. Xalqaro yuklar tashishning rivojlanishi avtomobil yo`llari tarmoqlarini kengaytirish va ularni beto`xtov takomillashtirishni vazifa qilib qo`ymoqda. 100-150 km masofaga yuk tashishda temiryo`l transporti o`rniga avtomobilidan

foydalanish iqtisodiy jihatdan samarador bo`lmoqda. Shaharlararo yuk tashishga shahardan 50 km dan ortiq masofaga avtomobil transporti yordamida yuk tashish kiradi. Avtomobil transporti harakatdagi tarkibining xalqaro va shaharlararo ishining tahlili shuni ko`rsatadiki, uning texnik ekspluatatsiyasi o`ziga xos xususiyatga egadir.

Uzoq masofali (5 ming km gacha) xalqaro va shaharlararo yuk tashish doimiy texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash bazasidan ajralgan holda uzoq muddat ishlash, yuqori harakat tezligi, turli davlatlarning chiqindi gazlar tarkibidagi zaharli moddalar miqdoriga qo`yan talablari hamda uzoq muddat buzilmasdan ishlash sharoitlariga amal qilishni taqozo etadi. Bu ishlarda ishlovchi avtosafllarning ishlash muddati 2-3 yildan oshmasligi kerak.

Xalqaro va shaharlararo yuk tashishda ishtirok etuvchi haydovchilar tarkibi yuqori malakali, xalqaro yuk tashishga jo`natiladigan avtomobillar agregatlarining ish resursi kamida 20 ming km ni, shaharlararo esa 3,5-5 ming km ni tashkil etishi kerak. TXK va JT ishlari asosiy e'tiborni harakat havfiszligini ta`minlovchi rul va tormoz tizimi ishonchtlilikiga, tirkamalarning holatiga, avtomobilning tortish qobiliyatiga va yonilg`i sarfiga qaratish zarur.

Sharoitga qarab, avtomobilarga TXK va JT ishlari yo`l bo`ylarida qurilgan maxsus postlarda yoki TXK shaxobchalarida bajariladi. Og`ir va katta o`lchamli yuklar tashish ishlari avtomobilarga TXK ishlari sharoitini hisobga olgan holda bajariladi. Ishga chiqishdan avval avtomobillar va uning agregatlari uchun TXK hamda mayda ta`mirlash ishlari o`tkaziladi.

Asosiy ishlab chiqarish bazasidan ajralgan avtotransport vositalarining katta o`lchamli og`ir yuklar tashishdagi texnik ekspluatatsiyasini tashkil qilish mazkur ishlarning har birini bajarish uchun tayyorgarlik jarayonini loyihalashda ko`rib chiqiladi. Yuk tashish tarkibida avtomobil-shatakchi, og`ir yuk tashuvchi tirkama va yarim tirkama, ortish-tushirish moslamalari, texnik yordam va nazorat qilib boruvchi avtomobilarning mujassamligida bajariladi.

Ko`rsatilgan yuklarni tashish ishlarini tashkil qilish loyihasi:

- harakatdagi tarkibni texnik tayyorlash (TX, JT va ogohlantiruvchi ta`mir);
  - harakatlanish tartibi, tarkibi hamda aloqa turi;
  - harakatlanish davridagi TX va JT ishlarini bajarish hamda transport vositalarini saqlash uchun ajratilgan, qo`riqlanadigan maxsus joylarning mavjudligi;
  - ehtiyoj qismi, agregat, ishlarni mexanizatsiyalash vositalarini ajratish;
  - tez tibbiy yordam, o`t o`chirish, yoqilg`i quyish avtomobillari, avtobuslar va boshqa harakatdagi xizmat ko`rsatuvchi tarkibning mavjudligi;
  - malakali haydovchilar ajratish va ularga kerakli maslahatlar berishni tashkil qilishni o`z ichiga oladi.

# **IXTISOSLASHTIRILGAN HARAKATDAGI TARKIBNING TEXNIK EKSPLUATATSIYASI**

Maxsus tuzilishga ega bo'lgan, bir va bir necha turdag'i yuklarni tashishga mo'ljallangan, qayta jihozlangan avtomobil, tirkama yoki yarim tirkama AT ining ixtisoslashtirilgan qismi hisoblanadi.

Nizomga ko'ra, ixtisoslashtirilgan harakatdagi qismiga ham KX, TX-1, TX-2, MX, JT va KT ishlari bajariladi. Faqatgina ularga o'matilgan maxsus jihozlar uchun qo'shimcha ravishda TXK va JT ishlari bajariladi.

Hozir mamlakatimizda avtomobillar o'zito'kgichlar, yarim tirkama sisternalar esa maxsus jihozlar bilan ishlovchi shatakchi avtomobillar safi oshib bormoqda. Bu transport vositalaridan unumli foydalaniш ularga TXK va JT ishlarini o'z vaqtida va sifatlari bajarishga bog'liqdir.

Ixtisoslashtirilgan harakatdagi tarkibning o'ziga xos texnik ekspluatatsiyasi bilan tanishishdan oldin ixtisoslashtirilgan avtomobillarning tasnifi bilan tanishamiz, zero bu tasnif juda kam adabiyotlarda keltirilgan, ular ham to'liq shaklda berilmagan.


Ixtisoslashtirilgan harakatdagi tarkibga (139-rasm) maxsus sharoitlarda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan yakka tarkibdagi avtomobillar va avtopoyezdlar, o'ziq'dargich avtomobillar, uzun bazali avtopoyezdlar, avtovurgonlar, avtosisternalar va boshqa turdag'i maxsuslashgan avtomobillar kiradi.

## **ODDIY VA UZUN BAZALI AVTOPOYEZDLARGA TXK**

Xalq xo'jaligi yuklarini tashishda mehnat unumdorligini oshirish maqsadida avtomobilgara tirkamalar ulab, avtopoyezdlar shaklida ekspluatatsiya qilinadi. Bunda oddiy avtopoyezdlarga avtomobil tyagach va bitta yoki ikkita tirkama ulangan hamda egarli avtomobil tyagach bilan yarim tirkamali poyezdlar kiradi. Uzun baza avtopoyezdlarga esa egarli avtomobil tyagach bilan o'zun o'lchamidagi yog'och materiallarni va quvurlarni tashuvchi yig'iladigan tirkama (rospusk) lardan iborat poyezdlar kiradi.

Oddiy va o'zun bazali avtopoyezdlarga TXK asosan shatakchi avtomobilga tirkamalarni ularsh moslamalari holatini tekshirish va sozlashdan iboratdir.

Qurilish konstruksiyalarini tashuvchi va barcha yarim tirkamali avtopoyezdlarga



**TXK.** Qurilish konstruksiyalarini tashuvchi ixtisoslashtirilgan harakatdagi qismning yarim tirkama o'tirish qurilmasiga, yarim tirkama va qo'shimcha jihozlarga TXK ishlari bajariladi.

KX da avtomobilning tayanch bog'lovchi qurilmasining ishonchli qotirligligi tekshiriladi, yarim tirkamada esa tayanch bog'lovchi qurilmaning holati, maxsus konstruksiya elementlarining sozligi (ferma, maydoncha, tross, tortuvchi lebedka, tayanch va h.k.) nazorat qilinadi. Undan tashqari, tormoz tizimi zichligi va ballonlardan kondensat to'kilganligi tekshiriladi.

1-TX vaqtida yarim tirkamalarda burilish mexanizmlari o'qining vtulkasi, egari, muvozanat o'qi, barmoqlar moylanadi. Shinadagi havo bosimi, tormoz tizimining zichligi, qo'l tormozining sozligi, tross va lebedkalarning mustahkamligi tekshiriladi.

2-TX da 1-TX da ishlarning hammasi bajarilib, qo'shimcha ravishda barcha mexanizmlar ifosdan tozalanib, yangi surkov moyi surtiladi.

## O'ZIAG'DARGICH AVTOMOBILLARGA TXK

Oddiy o'ziag'dargich avtomobilarga TXK asosan ularning ko'tarish mexanizmlariga xizmat ko'rsatishdan iboratdir.

Avtomobil kuzovini 60° burchak ostida ko'tarish, sochma yuklarni ortish va tushirish uchun juda qulay holatni hosil qiladi. Hamma avtomobil kuzovlarini ko'tarish dvigatel quvvati hisobiga bajariladi. Unga qo'shimcha ravishda quvvat oluvchi uzatmalar qutisi, shesternyali nasos NSH-32L (1400...1650 ayl./daqiqadagi ishlab chiqarish qobiliyati 40...55 l/daq.), saqlovchi klapan va gidrosilindr o'rnatiladi. Bu agregatlarni buzilmasdan ishlashi kuzovni ko'tarish va tushirish ishlarini yengillashtiradi. Shuning uchun ularga o'z vaqtida TXK ishlarini o'tkazib turish zarur. Avtomobil o'ziag'dargichlarga KXK da kuzov turgagining texnik holati, orqa bort yopgichining sozligi va gidrotizimning zichligi tekshiriladi. Har 200...500 km dan so'ng yoki 3-4 kunda gidroko'targich sapsasini tozalab va moylab turish zarur.

TX-1 va TX-2 da gidrotizimdagи suyuqlik sathi tekshiriladi, kerak bo'lsa me'yoriga keltiriladi, ko'tarish mexanizmining yuksiz ko'tarilishi va mexanizmlarining soz ishlashi tekshiriladi. Kuzov bir tekis ko'tarilishi va tushishi zarur. Undan tashqari, gidroko'targich, sharmirlar va shlangalar holati tekshirilib, tizimdagи moy har 100 ko'tarishdan so'ng almashtiriladi. Qolgan ishlar esa avtomobilning turiga qarab, nizom bo'yicha bajariladi.

**O'ziag'dargich karyer avtomobillariga TXK.** Tog'-metallurgiya sanoatida, karyerlarda, ko'mir va ruda korollarida asosan «BelAZ-540A» (27 tonnali), «BelAZ-548A» (40 tonnali), «BelAZ-549A» (75 tonnali), «BelAZ-7519» (110 tonnali) avtomobillari hamda o'ta og'ir yuk ko'taruvchi (75-200 t) «Katerpiller 754», «Yuklid 200» avtomobillari ishlataladi. Bu avtomobillar 4x4 formula bilan ishllovchi hamda kichik bazali avtomobillardir.

Avtomobillarning yumshoq yurishi uchun ularda prevmogidravlik osmalar,

GMP, tormoz sekinlatgich, takomillashgan ag'darish tizimlari ishlataladi. Ishlash sharoitlarining avtomobillar ekspluatatsiyasiga ta'siri 3 guruhga bo'lib o'rganiladi:

- transport sharoiti,
- yo'l sharoiti,
- iqlim sharoiti.

Transport sharoitlariga ish hajmi, yuklarning turi, yuklash va tushirish sharoitlari, avtomobilni ishlatalish tartibi va boshqalar kiradi.

Yo'l sharoitlari esa o'z ichiga yo'l qoplamingning turi va tasnifi, yo'l, ko'pri va qurilmalarning chidamliligi, yo'l loyihasi va profili, yurish qismining holati va boshqalarini oladi.

Iqlim sharoitiga havoning issiqligi, quyosh nurining ta'siri, havoning namligi, bosim, suvning qattiqligi va havoning ifosligi (changliligi) kiradi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatgichlar o'ziag'dargich karyer avtomobillariga TXK va ta'mirlash tartibiga ta'sir ko'rsatadi. Nizomda keltirilishicha, TX-1 va TX-2 ning davriligiga to'rtta ko'rsatgich ta'sir qiladi: yuk tashish masofasi (km), qiyalikka ko'tarilish uzunligi va burchagi, yo'l qoplamasining turi, shu jumladan TX-1 va TX-2 ning ish hajmiga ATK dagi avtomobillar soni ham ta'sir etadi.

JT ning ish hajmiga esa, iqlim zonasi, ATK dagi avtomobillar soni, avtomobilarning yoshi va yuqoridagi 4 ko'rsatgich ta'sir ko'rsatadi. Avtosamosvallarning g'ildiraklarini JT ish hajmiga esa, yuk tashish masofasi, qiyalik uzunligi va burchagi, tog' jinsining qattiqligi va ishlov berilgan yo'l qoplamasining turi ta'sir qiladi.

Karyer o'ziag'dargich avtomobillariga TXK va JT ni tashkil qilishning quyidagi uslullaridan foydalilaniladi:

a) kompleks usul - bunda ishchilar o'zlariga biriktirilgan o'ziag'dargich avtomobillar bo'yicha hamma ishlarni bajaradilar.

b) texnologik usul - bunda ishchilar birlamchi guruhlarga birlashib, har bir guruh faqat ayrim ishlarni bajaradilar (misol: TX, JT, g'ildiraklar bo'yicha ishlar, payvandlash va boshqalar).

v) texnologik-detallar usuli - bunda birlamchi guruhlar ayrim agregat va birikmalar bo'yicha hamma ishlarni bajaradi (misol: boshqaruvi qismi (rul), yonilg'i ta'mirlash qismi va h.k.).

Kompleks usulda ishni tashkil qilish o'ziag'dargichlar soni 50 gacha bo'lganda yaxshi natija beradi, texnologik usul esa 50 dan ko'p bo'lganda qo'llaniladi. Texnologik-detallar usuli shaxsiy javobgarlik yuqori va tayyorgarlik ishlari hajmini kamaytirish imkonii bo'lgani uchun, maxsus joy va bo'lim talab qilinishiga qaramay, avtosamosvallar 100 tadan ortiq bo'lganda qo'llash katta samara berishi mumkin.

27 va 40 t li o'ziag'dargichlar uchun kompleks usulda 1-TX va 2-TX ishlari, nosoz detallarni almashtirish universal ish joylarida tashkil qilinadi. Texnologik usulda 1-TX oqimli qatorda, 2-TX ishlari nosoz detal va agregatlarni almashtirish berk universal ishchi postda bajariladi. Texnologik-detallar usulini tashkil qilishda esa 2-TX ish hajmi nosoz detal, agregatlarni almashtirish ish hajmi bilan asosiy agregat va

birikmalar guruhlariga bo'linadi (dvigatel, GMP va h.k.) va ixtisoslashtirilgan ish bo'limlarida bajariladi. TXK va JT ning hamma usullarida ham yuvish-tozalash, shina va payvandlash ish joylari alohida tashkil qilinadi.

## AVTOFURGONLAR VA REFREJERATORLARGA TXK

Sanoat mollarini va qadoqlangan buzilmaydigan oziq-ovqat mollarini tashiydigan oddiy autofurgonlarga TXK, asosan kuzovlarni tozalash va dezinfiksiyalash ishlarini bajarishdan iboratdir.

Refrejerator furgonlar oziq-ovqat va boshqa tez buziladigan mahsulotlarni tashish uchun xizmat qiladi.

Kuzovlarning izotermik holatini tekshirib turish, tashiladigan yuklar buzilmasligini ta'minlaydi. Shuning uchun, ularga KXK da sanitar ishlov beriladi va zichligi tekshiriladi. Bunda 30-35 °C issiqlikda kalsiyli sodaning 1% li suvdagi eritmasi bilan kuzov ichiga ishlov beriladi. Belgilangan vaqt oraliq ida dezinfiksiyalani (10% li xlor eritmasining 0,5 litri 1 m<sup>2</sup> yuzaga ishlataladi).

## AVTOSISTERNALARGA TXK

Sut va suv tashuvchi avtosesternalarga TXK asocan sisternalarning ichini yuvish (KX) va nasos mexanizmlariga (1-TX) texnik xizmat ko'rsatishdan iborat. Xuddi shunday sement tashuvchi avtosisternalarga TXK da ham nasos mexanizmlariga (1-TX) texnik xizmat ko'rsatiladi.

Avtosistema-yonilg'i quyuvchilarga TXK da quyidagi ishlar bajariladi:

- mashinani tozalash va yuvish,
- maxsus jihozlar mexanizmlari, priborlari va agregatlari holatini aniqlash, nosozliklarni bartaraf etish,

- yong'indan muhofaza etuvchi aggregatlarni tekshirish va sozlash.

KXK da majburiy ravishda va to'liq hajmda tozalash, yuvish, moylash, aggregatlarning texnik holatini tekshirish, sozlash hamda ekspluatatsion suyuqliklarni me'yoriga keltirish ishlari bajariladi.

TX-1 avtomobillardagi kabi bajarilib, maxsus jihozlar bo'yicha quyidagi tekshirish ishlari bajariladi:

- quvurlarning germetikligi,
- quvvat oluvchi uzatmalar qutisi va yonilg'i haydovchi nasosning salnigi holati,
- yonilg'i quyish lyuki rezina ji pslashtiruvchisining holati,
- nasos kardon uzatmasining holati,
- nafas oluvchi klapanlarning sozligi,
- nasos uzatmasining tortgichi va richaglarning moylanishi.

Yuqoridagi ishlar bajarilgan mexanizm, binkma va detallarning holati ishslash jarayonida yana bir bor tekshiriladi.

1-TX da 2-TXda bajarilgan ishlar bilan bingalikda, quyidagilar bajariladi:

- quvvat oluvchi uzatmalar qutisi yechib olinadi, ajratish-yig'ish, almashtirish, sozlash va sinash ishlari bajariladi,
- nasos yechib olinadi, ajratish-yig'ish, almashtirish, sozlash va sinash ishlari olib boriladi, aniqlangan nosozliklar bartaraf etiladi.

Avtosistema-quyuvchilar uchun nazorat ishlari ishga chiqishdan avval, KX da ishdan qaytgach, 1-TX ishlari 1500 km dan so`ng, 2-TX ishlari 4500 km dan so`ng, MX ishlari bir yilda 2 marta o'tkaziladi.

## **AVTOKRAN VA BOSHQA MAXSUS AVTOMOBILLARGA TXK**

Avtokranlar va yuk ortuvchi bortli avtomobillariga TXK. Avtomobil transportida yuk tashish tanmarxini kamaytirish va ortish-tushirish jarayonida avtomobilning to'xtab turish vaqtini kamaytirish maqsadida avtomobillar turli yuk ko'taruvchi mexanizmlar bilan jihozlanadi.

Bular tarkibiga:

- kuzovlanga o'matilgan yuk ko'taruvchi strelalar;
- yuk ortuvchi bortlar;
- egiladigan kuzovlar kiradi.

Bundan tashqari, katta hajmdagi yuklarni ortish-tushirish ishlarini bajarish uchun avtomobil kranlardan foydalaniadi. Bu avtomobillar ko'tarish va tushirish uchun maxsus mexanizmlar bilan jihozlangan. Bu mexanizmlarga TXK da gidravlik tizimning ji psligi, tizimdagagi suyuqlikning satbi, ishlatiladigan trosslar holati tekshiriladi. Bundan tashqari, 1-TX davrida lebedkalarning va strelalarning barcha sharmirlari moylaniadi.

Texnik, «Tez yordam», dezinfeksiyalovchi va hammom avtomobillariga TXK. Texnik yordam avtomobillari furgon shaklida (138-rasm) bo'lib, ekspluatatsiya jarayonida ishdan chiqib, o'z korxonalariga yetib borolmag'an avtomobilarga texnik yordam ko'rsatish, ta'mirlash, shuningdek o'z korxonalaridan ajratib ishlatiladigan avtomobilarga TX ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Texnik yordam dezinfeksiyalovchi va hammom avtomobilarga TXK jarayonida avtomobil kuzoviga o'matilgan jihozlarning sozligi tekshiriladi va ularga texnik xizmat ko'rsatiladi.


**IV.BO`LIM.**  
**AVTOMOBIL TRANSPORTINING**  
**ATROF-MUHITGA TA`SIRI**

**ATROF-MUHIT, AHOI VA  
ISHLOVCHILARNI AVTOMOBIL  
TRANSPORTINING ZARARLI  
TA`SIRIDAN HIMOYA QILISH**

**ATROF-MUHITNI HIMOYALASH MUAMMOSI VA  
AVTOMOBIL TRANSPORTINING ATROF-MUHITGA  
ZARARLI TA`SIRI**

19-asr oxirlari va 20-asr boshlarida yer yuzida sanoat va avtomobil transportining rivojlanishi natijasida yangi ATROF-MUHITNI HIMOYALASH muammosi paydo bo`ldi. Agarda zavod va fabrikalar bir aniq joyda, ma`lum hududlarnigina ifoslantirsra, avtomobillar inson oyog`i yetgan joyning barchasiga ta`sir ko`rsatadi.

Avtomobil transportining atrof-muhitga zararli ta`sirini quyidagi sxemadan ko`rish mumkin.



Har qanday yonilg'ini yoqqanda turli yonish chiqindilarajralib chiqadi. Bu chiqindilar inson salomatligiga va atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Shahardagi zavodlar, fabrikalar va avtotransport korxonalari atrof-muhitni ifoslantiruvchi asosiy manbalardir. Avtomobil transporti hozirgi vaqtida zavod va fabrikalarga qaraganda, atrof-muhitni ko'proq ifoslantiruvchi manbaa hisoblanmoqda.

Avtomobil transportidan foydalanishda atrof-muhitni zararlantiruvchi 3 xil manbani ko'rish mumkin: chiqindi gazlar, karter gazlari va yonilg'i bug'lanishi natijasida hosil bo'ladiyan zararli moddalar (yonilg'i bakidan, karbyuratordan va hokazo. 140-rasm).

Chiqindi gazlar atrof-muhitga avtomobilning ishlashi natijasida chiqargan zaharli moddalarning 65-70 % ini, karter gazlari esa 20 % ini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtagi hal qilinishi kerak bo'lgan eng katta muammo avtomobilni ishlatishdan chiqadigan zaharli chiqindilarni kamaytirishdan iboratdir.


Avtomobil dvigatelida yonilg'i yonishidan hosil bo'ladiyan gazda 200 dan ortiq zaharli chiqindilar borligi aniqlangan. Bulardan eng zaharilariiga uglerod oksidi - CO, yonmay qolgan uglevodorodlar - CH, azot oksidlari - NOx kiradi.

Bu chiqindilarga ko'pgina mamlakatlar tomonidan ruxsat etish me'yordari joriy qilingan. MDH mamlakatlarida yonilg'ining yonishidan chiqadigan chiqindilarni me'yorlash BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EEKOON) tomonidan chiqarilgan ko'rsatmaga asosan 1970 yili joriy qilingan.

Chiqindi gazlar ichida zararsiz kislorod, karbonat angidrid, azot, oltingugurt kabi mahsulotlar ham mavjud. Ammo azotyuqori haroratda va bosim ostida juda katta zaharli kuchga ega bo'lgan azot oksidlarini hosil qiladi. Chiqindi gazlarning tarkibidagi zaharli mahsulotlar ko'pgina sabablarga ko'ra hamma vaqt ham bir xil hajmda bo'lmaydi. Bu dvigatellar turiga, ishlash rejimiga, sozlanganlik darajasiga, dvigatelga ko'rsatilgan texnik xizmatning va yonilg'ining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Dizel dvigateli karbyuratorli dvigatelga qaraganda kamroq zararli bo'ladi.

#### *140-rasm. Avtomobillar ekspluatatsiyasi natijasida hosil bo'ladiyan zaharli chiqindilar*



Har qanday yonilg'ini yoqqanda turli yonish chiqindilar ajralib chiqadi. Bu chiqindilar inson salomatligiga va atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Shahardagi zavodlar, fabrikalar va avtotransport korxonalari atrof-muhitni ifoslantiruvchi asosiy manbalardir. Avtomobil transporti hozirgi vaqtida zavod va fabrikalarga qaraganda, atrof-muhitni ko'proq ifoslantiruvchi manbaa hisoblanmoqda.

Avtomobil transportidan foydalanishda atrof-muhitni zararlantiruvchi 3 xil manbani ko'rish mumkin: chiqindi gazlar, karter gazlari va yonilg'i bug'lanishi natijasida hosil bo'ladiyan zararli moddalar (yonilg'i bakidan, karbyuratordan va hokazo. 140-rasm).

Chiqindi gazlar atrof-muhitga avtomobilning ishlashi natijasida chiqargan zaharli moddalarning 65-70 % ini, karter gazlari esa 20 % ini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtagi hal qilinishi kerak bo'lgan eng katta muammo avtomobilni ishlatalishdan chiqadigan zaharli chiqindilarni kamaytirishdan iboratdir.


Avtomobil dvigatelida yonilg'i yonishidan hosil bo'ladiyan gazda 200 dan ortiq zaharli chiqindilar borligi aniqlangan. Bulardan eng zaharilariiga uglerod oksidi - CO, yonmay qolgan uglevodorodlar - CH, azot oksidlari - NOx kiradi.

Bu chiqindilarga ko'pgina mamlakatlar tomonidan ruxsat etish me'yordari joriy qilingan. MDH mamlakatlarida yonilg'ining yonishidan chiqadigan chiqindilarni me'yorlash BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (EEKOON) tomonidan chiqarilgan ko'rsatmaga asosan 1970 yili joriy qilingan.

Chiqindi gazlar ichida zararsiz kislород, karbonat angidrid, azot, oltingugurt kabi mahsulotlar ham mavjud. Ammo azot yuqori haroratda va bosim ostida juda katta zaharli kuchga ega bo'lgan azot oksidlarini hosil qiladi. Chiqindi gazlarning tarkibidagi zaharli mahsulotlar ko'pgina sabablarga ko'ra hamma vaqt ham bir xil hajmda bo'lmaydi. Bu dvigatellar turiga, ishlash rejimiga, sozlanganlik darajasiga, dvigateunga ko'rsatilgan texnik xizmatning va yonilg'ining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Dizel dvigateli karbyuratorli dvigatela qaraganda kamroq zararli bo'ladi.

#### ***140-rasm. Avtomobillar ekspluatatsiyasi natijasida hosil bo'ladiyan zaharli chiqindilar***



Dizel dvigatellarining ishlash jarayonida CO, NOx va CH kabi zararli gazlar kamroq ajralib chiqadi, ammo tarkibida zararli benzopiren bo`lgan qurumning hajmi ko`proq bo`ladi. Karbyuratorli dvigatellar ishlaganda qo`rgoshin birikmasi va dizel dvigatellar ishlaganda bariy birikmasi ajralib chiqadi.

Bu birikmalar quyidagicha hosil bo`ladi:

- benzinlarning antideetonatsion xossasini oshirish uchun etil spirti qo'shish natijasida (etyl spirti tarkibida qo'rgoshin mayjud);
- dizel yonilg'i sinining tutashini kamaytirish uchun tutunga qarshi maxsus bariy ishtirotkida tayyorlangan modda qo'shish natijasida.

Dvigatelning ish sharoiti chiqindi gazlarning zararli yoki zararsiz bo`lishida katta rol o`ynaydi. CO ning eng ko`p ajralishi dvigatelning salt ishlash rejimida hosil bo`ladi, bunda dvigatel boyitilgan yonilg'i aralashmasida ishlaydi. Shu bilan birga karbyuratorli dvigatellarda yonish tizimining noto`g'ri o'rnatilganligi natijasida kuchlanish (uchqun) shamga me'yordan oldinroq yoki keyinroq uzatiladi, bu esa yonuvchi aralashmasining to`liq yonmasligiga olib keladi. Uzgich kontaktlari oralig'inining me'yordan o'zgarishi ham shamlardagi kuchlanishning kamayishini va uchqunning kuchsizlanishini yuzaga keltiradi, bu ham yonuvchi aralashmaning to`liq yonmasligiga, natijada yonish mahsulotlari tarkibidagi CO miqdori oshib ketishiga olib keladi.

Dizel dvigatellari forsunkalarining yonuvchi aralashmasini oldindan sepish burchagini o'zgarishi hamda sachratish burchagini me'yorda emasligi (burchak kam bo`lsa, yonilg'i sachratish tezligi oshadi va yonilg'i qisman porshen ustiga o'tirib qoladi, burchak katta bo`lsa yonilg'i yonish kamerasining hamma joyiga yetib bormaydi) yonuvchi aralashmaning yomonlashuviga va

*23-jadval. Karbyuratorli va dizel dvigatellardan chiquvchi chiqindi gazlar zararlilikini tagqoslovchi ko'rsatgichlar (hajm bo'yicha).*

Chiqindi gazlar tarkibidagi moddalar	Chiqindi gazlar tarkibi, %	
	Benzinli dvigatellar	Dizel dvigatellari
Azot	74 – 77	76 – 78
Kislorod	0,3 – 8,0	2 – 18
Suv	3,0 – 5,5	0,5 – 4,0
Uglerod 2 oksidi	5 – 12	1 – 10
Uglerod oksidi	1 – 10	0,02 – 0,50
Azot oksidi	0 – 0,8	0,001 – 0,400
Üglevodorodlar	0,20 – 0,30	0,1 – 0,10
Oltingugurt gazi	0 – ,002	0 – ,03
Qurum, g/m <sup>3</sup>	0 – ,04	0,1 – 1,5
Benzopirin, g/m <sup>3</sup>	0,0002	0,00001

yonilg`ining to`liq yonmasligiga olib keladi. Bu hollarda ham chiqindi gazlar tarkibidagi zararli moddalar miqdori ko`payadi.

Karbyuratorli va dizel dvigatellari ishlashi natijasida yonish mahsulotlari tarkibidagi chiqindi gazlar miqdori ko`rsatgichlari 23-jadvalda keltirilgan.

## **ATROF-MUHITNI AVTOMOBIL TRANSPORTINING ZARARLI TA'SIRIDAN HIMOYA QILISH**

Atrof-muhitni avtomobil transportining zararli ta`siridan himoya qilish asosan 2 xil yo`nalishda olib boriladi:

- I - avtomobillar va uning dvigateli konstruksiyalarini takomilashtirish;
- II - ekspluatatsiyadagi avtomobillarning zararli ishlashiga qarshi kurash.

Avtomobillar va uning dvigateli konstruksiyalarini takomilashtirish, dvigatel ish rejimini takomilashtirish, har xil yordamchi jihozlardan va yuqori sifatli yonilg`idan foydalanish, texnik xizmat va ta`mirlash ishlarini o`z vaqtida va sifatli bajarish, shuningdek kam zararli, gazoturbinali, tashqi yonuvchi - Stirling dvigateli, elektromobillar, injektorli dvigatellar ishlab chiqarish bilan amalga oshiriladi.

Ekspluatatsiyadagi avtomobillarning zararli ishlashiga qarshi kurash, asosan avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalarning miqdorini tegishli qonun hujjatlari bilan chegaralash va bu me`yorlarga amal qilishni nazorat etishdan iboratdir.

Butunjahon sog`liqni saqlash tashkilotining ma`lumotlariga asosan, AQSHda har yili 142 mln. t zararli modda atmosferaga chiqarilib, buning 86 mln. t si avtomobillarning ishlashi natijasida hosil bo`ladi.

1971 yil 1 yanvardan joriy etilgan GOST 16533-70, benzinli dvigatellar ishlashi natijasida ajralib chiqadigan chiqindi gazlarning tarkibidagi CO hajmini chegaralaydi.

GOST 21393-75 esa dizel dvigatellaridan chiqadigan gazlar tutashini cheklaydi, 1980 yil GOST 16533-70 o`rniga yangi davlat standarti 17.2.2.03-77 joriy qilindi, bu ham benzinli dvigatellarning chiqindi gazlaridagi CO hajmini cheklaydi. Bu standart benzinda ishlaydigan yuk avtomobillariga, yengil avtomobilarga va avtobuslarga taalluqlidir.

Yangi GOST ga asosan CO ning hajmi hamma avtomobillar uchun 1,5% dan oshmasligi kerak va chiqindi gazlarning tarkibidagi CO ni tekshirish, aholisi 300 mingdan ko`p hamda poytaxt shaharlarda, kurortlarda 2-TX o`tkazilganda ta`mirlashdan keyin texnik qarov o`tkazilayotganda avtotransport korxonalarining mutaxassislari va YPX hodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Chiqindi gazlar zararliligini tekshirilayotganda dvigatelni nizomga muvosiq

qizdirish kerak. Keyin esa namuna oluvchi trubkami dvigatelning salt yurishida avtomobil so'ndirgichi ichiga 300 mm ga kirgazib mahkamlash lozim.

O'lchovchi asbob ko'rsatishi 0 dan 5 % gacha yoki 0 dan 10 % gacha bo'lishi, xatolik esa  $\pm 5$  % dan oshmasligi kerak. O'lchovchi asboblar ma'lum vaqtidan keyin davlat nazoratidan o'tishi va shu haqidagi belgiga ega bo'lishi kerak.

Hisob-kitoblarga ko'ra, agar GOST 17.2.2.03-77 ga amal qilinsa chiqindi gazlar tarkibidagi CO 20 % ga kamayishi mumkin, bu o'z navbatida benzin sarfini kamaytiradi.

Hamma ATK larda chiqindi gazlar tarkibini aniqlovchi postlar bo'lishi kerak. TXKS larda esa shaxsiy avtomobil egalariiga tekshirish natijalariga ko'ra maxsus talon berilishi lozim. Bu talonda chiqindi gazlar me'yordan yuqori emasligi qayd qilinishi zarur.

## SHOVQIN VA UNING INSON ORGANIZIMIGA TA'SIRI

Avtomobil ishlashi jarayonida chiqadigan zaharli gazlar bilan bir qatorda, undan chiqadigan shovqin ham kishi organizmiga ta'sir ko'rsatadi. 24-jadvalda ko'pincha uchraydigan shovqin darajalari ko'rsatilgan.

Shovqin darajasi ko'tarilishi bilan unda ishchilarining ishlash muddati keskin kamayadi. Agar shovqin 90 DB darajasida bo'lsa, unda ishchi 8 soat ishlashi mumkin. Shovqin darajasini har 5 DB ga ortishi bilan ishchilarining ishlashi 2 barobarga kamaya boradi. 115 DB shovqinda ishchi 15 daqiqa bo'lishi mumkin. Agarda shovqin darajasi 140 DBga yetsa, bu inson uchun havfli hisoblanadi va odam qulog'ida og'riq paydo bo'ladi hamda jarohatlanishi mumkin, bunday sharoitda ishlash taqiqlanadi.

Avtomobillardan chiqayotgan shovqin ta'sirida haydovchining ish qobiliyati susayadi, reaksiya vaqtি ko'payadi hamda yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishi ehtimoli ortadi.

**24-jadval. Shovqin hosil qiluvchi manbalar**

Tovush manbai	Balandligi, (db)
Samolyot dvigateli, 5 m masofada	116
Avtomobil kabinasida	90 gacha
Zavod shovqinlari	200 – 100
Orkestr, metroda	80
Mashinkada yozuvchi tashkilot (mashbyuro)	60 – 80
Shovqinli ko'chalar	60 – 90 va yuqori
Soat ishlashi, 50 sm masofada	30
Barglar shovqini	10

Qattiq shovqin odam organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, boshi og'riydi va aylanadi, ko'z qorachig'i kengayadi, yurak urishi tezlashadi, asab tizimi ishdan chiqadi va h.k.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, 88DB shovqinda («LiAZ-677» avtobusi kabinasida) haydovchining fikrlash qobiliyati 10 % ga, agar 95DB bolsa 20 % ga kamayadi.

Avtomobilarning asosiy shovqin chiqarish manbai dvigatel va so'ndirgich hisoblanadi, keyingi manba shinalarning ishlashi hisoblanadi. Shinaga tushadigan yuk oshgan sari shovqin ham balandlashib boradi.

**Shovqinga qarshi kurash.** Avtomobillardan chiqadigan shovqinni kamaytirish asosan ularning dvigatellarini takomillashtirishdan iboratdir. BMTning Yevropa komissiyasi shovqini 82-92 DB dan kam bo'lgan avtomobillar ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilishni taklif qiladi.

Masalan, Angliyada shovqini 85-92 DB bo'lgan yuk avtomobillaridan foydalanishga ruxsat berilmagan. Bu yuk ko'tarish qobiliyati 12 t bo'lgan avtomobillarga tegishlidir. Yaponiyada esa 1971 yildan boshlab yuk tashuvchi avtomobillarga 80 DB, yengil avtomobillarga 70 DB me'yor joriy qilingan. AQSH da yuk tashuvchi avtomobillar uchun 86 DB me'yor qo'yilgan.

Avtomobil ishlab chiqarish zavodlari keyingi vaqtida dvigatellardagi yonish jarayonini takomillashtirish, chiqarish tizimida 2 - 3 bosqichli so'ndirgichlar qo'yish bilan shovqin muammosini hal qilmoqdalar.

Hozirgi vaqtida haydovchilar ish qobiliyatiga zarar yetkemaslik uchun ko'pgina avtobuslarning dvigateli orqa tomonga o'matila boshlandi. Bu sharoitda haydovchiga ta'sir ko'rsatdigan shovqin 8-10 DB ga kamayadi.

Ba'zi firmalar dvigatellar shovqinini kamaytirish uchun uning atrofini shovqin yutuvchi materiallar bilan qoplay boshladilar. Shovqinga qarshi kurashning yana bir yo'lli — so'ndirgichlar uchun shovqin yutuvchi po'latlar ishlatishdan iboratdir. Bunda ikki po'lat qatlami orasiga g'ovak elastik qatlam qo'yiladi, bu qatlam yonish mahsulotlarining 130°C dagi issiqlig'iga bardosh bera oladi.

Shovqin yutuvchi po'latdan hozirgi vaqtida yengil avtomobil kuzovlari, shamollatgich, dvigatel va uzatmalar qutisi kojuxlari uchun ishlatish ko'zda tutilmogda.

Hamma ga ma'lumki, shaharda avtomobillar harakati asosiy shovqin manbaidir. Shuning uchun, hozirgi vaqtida binolar qurish, yo'lni bo'laklarga bo'lish ishlari ham davlat standartlariga muvofiq bajarilmog'i kerak. Shunday qilib, dvigatelning avtomobilda joylashishini ratsional hal qilish, kapotosti bo'shilg'ini shovqin yutgich materiallar bilan qoplash hamda avtomobil agregatlari va tizimlarini takomillashtirish yo'lli bilan shovqinni kamaytirish mumkin.

**«KASTROL» FIRMASINING YENGIL AVTOMOBILLAR  
DVIGATELLARI UCHUN MOYLARI**

Rusumi	SAE bo'yicha klassi	Qoyusligiglik		Harorat, °C		Istiqor soni, mg KON/g	Foydalananish bo'yicha tavsiyalar
		Kinematiq, mm <sup>2</sup> /s,	Dinamik, mPa.s	Alanga-lanish	Qotish		
		40°C	100°C				
Castrol FORMULA SLX	OW-30	64,4	11,6	30°C da 3100	184	228	-66
Castrol FORMULA RS RAGING SYNTEC	10W-60	165, 5	24,3	20°C da 3300	179	240	-57
Castrol TXT SOFTEC PLUS	5W-40	81,3	13,3	25°C da 3200	169	230	-42
Castrol GTX 5 LIGHTEC	10-W-40	101	14,9	20°C da 3400	154	224	-39
Castrol GTX 3 PROTEC	15W-40	107	14,2	15°C da 3300	134	224	-30
Castrol GTX	15W-40	-	15,6	15°C da 3200	140	230	-33

**«SHELL» FIRMASINING AVTOMOBIL DVIGATELLARI  
UCHUN MOYLARI**

Rusumi	SAE bo'yicha klassi	Qovushqoqlik		Qovush-qoqlik indeksi	Harorat, °C	15°C dagi sig'imi g/sm <sup>3</sup>		Ishqor soni, mg KON/g	Foydalinish bo'yicha tavsiyalar
		40°C da	100°C da			Alanga-lanish	Qotish		
HELEX ULTRA	5W-40	80	145	187	0,856	210	-42	10,5	Dizellar va benzinli (shu jumladan, turbo nadduvli) zamonaviy yengil avtomobillar uchun
HELEX Ditsel ULTRA	5W-30 5W-40	75 80	12 14,5	160 185	0,880 0,854	230 225	-54 -42	12 12	Yengil avtomobillar turbo nadduvli hamda bevosita purkaluvchi, forkamerali dizellar uchun
HELEX PLUS	10W-40	105	15	152	0,870	210	-36	10,2	Dizellar va benzinli zamonaviy yengil avtomobillar uchun (shu jumladan, turbo nadduvli)
HELEX Ditsel PLUS	10W-40	100	14	150	0,874	210	-36	11,5	Zamonaviy yengil avtomobillar va kichik tonnajli yuk avtomobillari dizellari (turbo nadduvli va turbo nadduvsiz)
HELEX Super	10-W-40	105	14,4	152	0,870	206	-36	9,7	Yengil avtomobillar dizellari va benzinli dvigatellar uchun (turbo nadduvli va turbo nadduvsiz)
HELEX	10W-40	107,8	14,9	144	0,873	218	-36	5,1	Yengil avtomobillar benzinli dvigatellari uchun (turbo nadduvli va turbo nadduvsiz)

**MARKAZIY OSIYO VA BA'ZI XORIJIV MAMLAKATLARDAGI IQLIM SHAROITLARINING KO'RSATKICHLARI**

Ko'rsatkichlar	BAR	Afghaniston, Kobul	Eron, Tehron	O'zbekiston					Turkmaniston		Tojikiston
				Sherobod	Termez	Mirzacho'l Xovos	Muborak	Toshkent	Ash-gabat	Qizil Atrek	Kulob
O'rtacha yillik harorat	27,0	13,4	16,5	18,0	17,4	15,0	15,4	13,5	16,9	17,1	16,4
Eng issiq oyning o'rtacha harorati, °C	34,0	24,9	29,4	32,1	31,4	29,9	28,8	27,4	30,4	28,6	30,3
Eng baland harorat, °C	52,0	41,0	43,0	50,0	48,0	46,0	49,0	44,0	47,0	48,0	43,0
Eng issiq oyning soat 3 dagi ortacha harorati, °C	-	-	-	37,9	38,3	36,0	37,2	33,3	33,0	-	30,4
Yillik yog'in miqdori, mm	-	327	327	154	133	212	152	221	208	168	544
O'rtacha yillik nisbiy namlik, %	-	-	37	38	40,5	37	50,3	-	-	-	-

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", T.: 1999 y.
2. Karimov I.A "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", T.: 1992 y.
3. O'zbekiston Respublikasida avtomobil sanoatini rivojlantirish va ularning ekspluatasiyasini tashkil etish yuzasidan hukumat qarorlari, yetuk olim va mutaxassislarining fikrlari, chiqishlari va ilmiy maqlolari (1991 yildan shu kungacha).
4. Инструкции по эксплуатации и ТО автомобилей «Эсперо», «Нексия», «Тико» и «Дамас», Сеул, Южная Корея «DAEWOO MOTORS CoLtd».
5. Kramerinko G.V, Barashkov I.V. Avtobomillarga texnik xizmat ko'rsatish. T.: 1998 y.
6. Крамаренко Г.В, Николаев В.А, Шаталов А.И., Безгаражное хранение автомобилей при низких температурах. М.: Транспорт, 1984 г.
7. Кленников Е.В., Мартиров О.А., Крылов Ф.М. Газобаллонные автомобили. Техническая эксплуатация. М.: Транспорт, 1986 г.
8. Краткий автомобильный справочник. М.: Транспорт, 1990 г.
9. Лабезников М.Е, Букревич Ю.Л. Эксплуатация автомобилей в условиях жаркого климата и пустынно-песчанной местности. М.: Транспорт, 1989г.
10. Milushkin A.A., Chernyaykin V.A. Avtomobil haydovchisi uchun spravochnik. Toshkent. O'qituvchi 1995, 256 b.
11. Положение о техническом обслуживании и ремонта подвижного состава автомобильного транспорта Республики Узбекистан, Ташкент, корпорация «Узавтотранс», 1996 г.
12. Руководство по ремонту и обслуживанию + инструкция по эксплуатации автомобилей «NEXIA», Т.: "Туркестан" КФМЦ "ТКИСО" 2000, 3586.
13. Руководство по ремонту и обслуживанию + инструкция по эксплуатации автомобилей «TICO», Т.: "Туркестан" КФМЦ "ТКИСО" 2000, 3586.
14. Руководство по ремонту и обслуживанию + инструкция по эксплуатации автомобилей «DAMAS», Т.: "Туркестан" КФМЦ "ТКИСО" 2000, 3586.
15. Salimov O.U., Qodirov S.M., Hamidov A., Qodirkhonov M.A., Asatov I.A. Avtotraktor atamalar lo'g'ati, Toshkent "O'zbekiston" 1998, 176 b.
16. Техническая эксплуатация автомобилей, под редакцией проф. Е.С.Кузнецова М.: Транспорт, 1991 г.
17. «O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti harakatdagi tarkibining texnik xizmat ta ta'miri haqidagi Nizom» - Toshkent, «O'zavtotrans» korporatsiyasi. 1999 y.
18. Богданова Т.И., Шехтер Ю.Н. Ингибионные нефтяные составы для защиты от коррозии. М.: Химия, 1984. с.248
19. Наумов Ю.И., Овчаренко А.Д. Справочник по техническому обслуживанию и диагностированию машин для хлопководства. М.: Высшая школа, 1984. с.184.

# MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

## I.BOLIM.

Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologiyasi.....	5
Avtomobilarning ishlash qobiliyatini ta'minlovchi texnologik jarayonlar.....	8
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda bajariladigan ishlarning tavsifi.....	8
Texnologik jarayon to'g'risida tushuncha.....	9
Texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlarining umumiy tavsifi.....	12
Texnologik jihozlar.....	25
Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy texnologiyasi.....	55
Dvigatel va uning tizimlari .....	55
Transmissiyaning agregat va mexanizmlari.....	96
Rul va tormoz boshqarmasi.....	102
Yurish qismi.....	109
Kabina, kuzov va tayanchlar.....	113
Avtomobilarni korroziyadan himoyalash.....	117
Elektr jihozlari.....	120
Avtomobilga umumiy diagnoz qo'yish.....	128
Avtomobil shinalari texnik ekspluatatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	135
Shinalarning tuzilishi, belgilanishi va turlanishi.....	135
Shinaning ishlash davriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar .....	138
Shinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	144
ATK da shina xo'jaligini tashkil etish.....	151

## II.BOLIM.

Moddiy texnika ta'minotining avtomobil transportidagi asosiy vazifalari.....	154
Avtomobil transportida ishlataladigan mahsulot va materiallar.....	155
Ehtiyyot qism va materiallar sarfiga ta'sir etuvchi omillar .....	156
Ehtiyyot qismlarini saqlash va zahiralarni boshqarish.....	159
Agregat, birikma va detallarni har xil darajadagi omborlarda saqlashda ularning nomenklaturasi va hajmini aniqlash.....	159
ATKda ombor xo'jaligini tashkil qilish va zahiralarni boshqarish.....	161
Avtomobil transportini yonilg'i-moy mahsulotlari bilan ta'minlash va ularni tejash yo'llari.....	163
Avtomobilarning yonilg'i sarfiga ta'sir etuvchi asosiy omillar .....	163
TXK sifatining yonilg'i sarfiga ta'siri.....	164
Yonilg'i sarfini me'yorlash.....	165
Suyuq yonilg'ini tashib kelish, saqlash va tarqatish.....	169
Suyultirilgan va siqilgan gazlarni tashib kelish, saqlash va tarqatish.....	170
Moylash mahsulotlarini tashib kelish, saqlash va tarqatish .....	174
Yoqilg'i-moy materiallарini tejash yo'llari.....	175

## III.BOLIM.

Turli iqlim sharoitlarida avtomobillardan foydalanishni ta'minlash.....	178
Ekstremal iqlim sharoitlafida avtomobilarning ishlash qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar.....	178
Sovuq iqlim sharoitlarida avtomobilarning ekspluatatsiyasi.....	182
Tog' va issiq iqlim sharoitlida avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi.....	192
O'z korxonalaridan ajralgan holda ishlagan avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi.....	199

O'z koxxonalaridan ajralgan holda ishlagan avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi sharoitlari va uning o'ziga xosligi.....	199
Yig'im-terimga jaib qilingan avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi.....	200
Shaharlara, xalqaro, og'ir va katta hajmdagi yuklarni tashishda avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi.....	205
<b>Ixtisoslashirigan harakatdagi tarkibining texnik ekspluatatsiyasi.....</b>	<b>207</b>
Oddiy va uzun bazali avtopoyezdlarga TXK.....	207
O'ziag'dargich avtomobilarga TXK.....	209
Avtofurgonlar va refrejeratorlarga TXK.....	211
Avtosisternalarga TXK.....	211
Avtokran va boshqa maxsus avtomobilarga TXK.....	212

#### IV.BOLIM.

Atrof-muhit, aholi va ishlovchilarni avtomobil transportining zararli ta'siridan himoya qilish.....	213
Atrof-muhitni himoyalash muammosi va avtomobil transportining atrof-muhitiga zararli ta'siri.....	213
Atrof-muhitni avtomobil transportining zararli ta'siridan himoya qilish.....	216
Shovqin va uning inson organizimiga ta'siri.....	217
Ilovalar.....	218
Adabiyotlar.....	222

eks  
mu

«Ti

199

авт

Tex

жар

Tosl

авто

«Уз

авто

авто

1

авто

M.:

1

xizma

заши

обслу

школ

**Omonboy HAMRAQULOV,  
Shavkat MAGDIYEV**

## **AVTOMOBILLARNING TEXNIK EKSPLOUATATSİYASI**

Muharrir Sherzod SAYDALIYEV

Musahih Husen TANGRIYEV

Texnik muharrir Alisher SA'DULLAYEV

Dizayner Bobur XIDIROV

Terishga berildi — 01.12.2005. Boshishga ruxsat etildi 24.12.2005. Times garniturasi.

Bichimi 84/108 1/32. Bosma tabog'i — 14. Adadi — 2000 dona. Buyurtma —

«Agrosanoat axboroti» AJ bosmaxonasida bosildi.

Korxona manzili: Toshkent sh., Xalqlar Do'stligi kc' chasi 28-A.

